

Q'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUSTAQILLIGIMING  
16 YILLIGIGA BAG'ISHLARADI



Q.R. ABDURASULOVA

# KRIMINOLOGIYA

*Darslik*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

**Q.R. ABDURASULOVA**

# **KRIMINOLOGIYA**

**Toshkent  
«Adolat»  
2007**

**Criminologiya. Mas'ul muharrir: M.H. Rustambaev /**  
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat»,  
2007. 216 bet.

BEK 67. 51a73

**Mas'ul muharrir:** yuridik fanlari doktori,  
professor **M.H.Rustamboev**

**Taqrizchilar:** yuridik fanlari doktori,  
dosent **I.Ismalov**  
yuridik fanlari doktori,  
**R.A.Zufarov**

Darslikda kriminologiya predmeti, vazifasi va tizimi, jinoyatchilik tushunchasi, xususiyatlari va turlari, jinoyatchilik sabablari va uni tasniflash muammosi, jinoyatchi shaxsi, uning kriminologik tavsifi va jinoyatchilikning oldini olish, shaxs g'ayriijtimoiy moyilligining shakllanishi hamda muayyan jinoyat sodir etish mexanizmi, kriminologik viktimologiya asoslari, tasnifi va uning oldini olish vazifalari, jinoyatlarni profilaktika qilish, retsdiv jinoyatchilikning, uyushgan jinoyatchilik, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining, oiladagi, tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir yetiladigan iqtisodiy, ekologiya va soliq jinoyatlarning, kriminologik tavsifi hamda uning oldini olish kabi kriminologiyaning muhim institutlari batafsil tahlil qilingan.

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlarida huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha bakalavr va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan talabalarga, mazkur masala yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarga, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga, shuningdek keng kitobxonlar doirasiga mo'ljallangan.

A  $\frac{1203120000 - 020}{(04) - 2007}$  – 2007

ISBN 978-9943-332-22-5



© Q.R. Abdurasulova.

© Toshkent davlat yuridik instituti 2007 yil.

## MUNDARIJA

1-mavzu.	Kriminologiya predmeti, vazifalari va tizimi . . . . .	4
2-mavzu.	Jinoyatchilik tushunchasi, uning asosiy xususiyatlari va turlari . . . . .	17
3-mavzu.	Jinoyatchilikning sabablari. . . . .	26
4-mavzu.	Jinoyatchining shaxsi tushunchasi va kriminologik tavsifi. . . . .	50
5-mavzu.	Shaxs g'ayriijtimoiy moyilligining shakllanishi hamda muayyan jinoyat sodir etish mexanizmi. . . . .	60
6-mavzu.	Kriminologik viktimologiya asoslari. . . . .	76
7-mavzu.	Jinoyatchilikning oldini olish. . . . .	84
8-mavzu.	Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik . . . . .	99
9-mavzu.	Residiv jinoyatchilikning kriminologik tavsifi hamda uning oldini olish. . . . .	104
10-mavzu.	Uyushgan jinoyatchilik va uning oldini olish. . . . .	123
11-mavzu.	Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi. . . . .	130
12-mavzu.	Ayollar jinoyatchiligi va uning oldini olish. . . . .	143
13-mavzu.	Oiladagi jinoyatlarning kriminologik tavsifi. . . . .	147
14-mavzu.	Tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tavsifi hamda ularning oldini olish. . . . .	162
15-mavzu.	Iqtisodiy jinoyatlarning kriminologik tavsifi hamda ularning oldini olish. . . . .	173
16-mavzu.	Korrupsiya jinoyatchiligining kriminologik tavsifi. . . . .	182
17-mavzu.	Giyohvandlik vositalarining g'ayriqonuniy muomilasi bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik tavsifi. . . . .	186
18-mavzu.	Ekologiya sohasidagi jinoyatchilik va uning oldini olish. . . . .	191
19-mavzu.	Soliq jinoyatchiligi tushunchasi va uning kriminologik tavsifi. . . . .	202

# 1-mavzu. KRIMINOLOGIYA PREDMETI, VAZIFALARI VA TIZIMI

1. Kriminologiya tushunchasi va uning predmeti.
2. Turdosh fanlar tizimida kriminologiyaning o'rnini.
3. Kriminologiyaning vazifalari.
4. Kriminologiya tizimi haqida.

## 1.1. Kriminologiya tushunchasi va uning predmeti

«Kriminologiya» so'zi ikki o'zakkidan iborat: *srimen* (lotincha) – jinoyat, jinoiy xulq-atvor, *logos* (yunoncha) – fan, ta'limot, bilim. Binobarin, «kriminologiya» – bu jinoyat yoki jinoiy xulq-atvor haqidagi fan.

Kriminologiyaning paydo bo'lish tarixi diqqatga sazovor. Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, kriminologiyaning vujudga kelishi 1764 yilda italiyalik huquqshunos olim Chezare Bekkariyaning «Jinoyatlar va jazolar haqida» degan kichkina, biroq sermazmun kitobi nashr etilishi bilan bog'liq.

Oradan 120 yil o'tgach, 1884 yilda Turin shahri (Shimoliy Italiya)da italiyalik sudya R.Garofalo «Kriminologiya» yoki «Jinoyatchilik tabiati hamda jazo nazariyasi» nomli «Jinoyatchilik», «Jinoyatchi» va «Jazo» qismlaridan iborat bo'lgan risolasini chop etdi. Shunday qilib, kriminologiya fanining paydo bo'lishida italiyaliklar o'z peshqadamligi bilan faxrlanishlari mumkin.

Fikrimizcha, kriminologiyaning mazkur dastlabki talqini amaliyotga mosdir, chunki «Jinoyat huquqi» fani amalda asosan jinoyat hamda jinoiy jazo tushunchalari, ularning belgilari va ro'yobga chiqarish omillarini ta'riflash bilan shug'ullanishi lozim.

Inson xulq-atvori yaxlit hodisa bo'lib, uni aynan xulq-atvor sifatida ayrim qismlarga, chunki: ijtimoiy, biologik, psixologik, ma'naviy, fiziologik va hokazo qismlarga ajratish mumkin emas. Odamlar (bilish sub'ekti) xulq-atvorning u yoki bu jihatlari mufassalroq o'rganish uchun-gina bunday qismlarni shartli ravishda ajratadilar. Shu bois inson xulq-atvorini anchagina fanlar (falsafa, din, sosiologiya, tibbiyot, pedagogika, psixologiya, yurisprudensiya va h.k.) tomonidan o'rganiladi.

Amerikalik kriminolog professor Veron Foks dunyoni to'liq bilib bo'lmasligini qayd etib, istehzo bilan shunday deb yozadi: «Inson xulq-

atvorini biron-bir fan nuqtai nazaridan tushunib etishga harakat qilish besh nafar ko'ring filni tavsiflashga urinishini eslatadi»<sup>1</sup>.

Har bir muayyan jinoyat – jinoyatchilikning «elementar zarrasi»<sup>2</sup>. Har qanday jinoyat inson xulq-atvorining muayyan ko'rinishidir. Psixologiyaga oid adabiyotlarda xulq-atvor deganda shaxsning erkin faolligi, ya'ni ko'zlangan maqsad anglab etilgan va yuz berayotgan jarayonlarni nazorat qilish imkoniyati mavjud bo'lgan faollik tushuniladi. Lo'ndaroq qilib aytganda, sub'ekt uchun muayyan mazmun kasb etuvchi xulq-atvorni inson xulq-atvori deb tavsiflash mumkin<sup>3</sup>. Boshqacha aytganda, bu erda shaxsning ongli, shu jumladan yanglish, salbiy va g'ayrihuquqiy xulq-atvori to'g'risida so'z yuritilmoqda.

Inson xulq-atvori makon va zamonda yuz beradi, u vaziyat o'zgaruvchan omillarining nisbatan barqaror shaxsiy xususiyatlar bilan o'zaro ta'sirlanish jarayonini tashkil etadi. Bu jarayonning tashqi (ob'ektiv) va ichki (sub'ektiv) tomonlari bor. Tashqi tomon biron-bir ob'ektga qaratilgan harakat (yoki harakatsizlik) tarzida ifodalansa, ichki, sub'ektiv tomon nafaqat bu harakat (harakatsizlik)da bevosita namoyon bo'ladi, uni psixologik jihatdan tartibga soladi va ongdagi in'ikosi bo'lib xizmat qiladi, balki undan oldin shakllanadi. Zotan, inson harakat sodir etishdan oldin ko'pincha uni rejalashtiradi, ba'zan vaqt poylaydi va so'ngra amalga oshiradi. Boshqacha aytganda, qilmish xayolda oldindan modellashiriladi. Sub'ektning erkin faolligini tavsiflovchi bu va boshqa ruhiy jarayonlar o'zining yakunlovchi bosqichidagina ob'ektga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatuvchi tashqi harakat (qilmish)da ifodalanadigan shaxs xulq-atvorining elementlari sifatida qaralishi mumkin.

Yuqorida aytilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchi – «xulq-atvor» tushunchasi «harakat», «harakatsizlik» yoki «qilmish» tushunchalariga qaraganda kengroq, chunki faollikning ulardan oldingi bosqichlarini ham qamrab oladi. Ikkinchi – xulq-atvor muayyan tuzilishga ega bo'lib, u ichki (ruhiy) jarayonlar hamda makon va vaqtdagi tashqi (ob'ektiv) shart-sharoitlar mantiqiga muvofiq izchil rivojlanib boradi. Bu jarayonlar va shart-sharoitlarning o'zaro ta'sirini shaxs xulq-atvori mexanizmi deb nomlash mumkin<sup>4</sup>.

Mantiq va falsafa fanlari ma'lumotlariga ko'ra, «predmet» kategoriyasi ob'ektning bir qismi, uning parchasi, «bilishning muayyanroq

<sup>1</sup> Фокс В. Введение в криминологию. – М.: Прогресс. 1985. – С. 17.

<sup>2</sup> Кудрявцев В.Н. Генезис преступления. Опыт криминологического моделирования. – М., 1998. – С. 16.

<sup>3</sup> Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. Том 1. – М., 1986. – С. 14.

<sup>4</sup> Кудрявцев В.Н. Генезис преступления. Опыт криминологического моделирования. – М., 1998. – С. 17.

ob'ekti»dir. Boshqacha aytganda, bu bilish sub'ekti idrok etishi, aniqlashi va aytishi mumkin bo'lgan barcha narsalardir.

Falsafa fani ma'lumotlariga ko'ra, bilish predmeti bu mazkur shart-sharoitlarda muayyan nuqtai nazardan va ma'lum maqsadda o'rganilayotgan ob'ektlarning tajribada qayd etilgan va insonning amaliy faoliyatida mujassamlashgan jihatleri, xossalari va munosabatlaridir.

Har qanday fanning shakllanishiga qarab uning predmeti ham farqlanadi. Kriminologiya predmeti – har qanday va oddiy xulq-atvor emas, balki alohida xulq-atvor. Bu xulq-atvor jinoiy xususiyatga ega, shu bois u jinoiy xulq-atvor deb ataladi, ya'ni xulq-atvor avvalo jinoyat qonunini, uning normalarini buzish bilan bog'lanadi. Kriminologiya inson xulq-atvorini o'rganuvchi boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlardan asosan shu jihati bilan farq qiladi. Ayni shu sababli jinoiy xulq-atvor jinoyat bilan bevosita bog'liq, chunki muayyan jinoiy qilmish sodir etilganligi tufayligina xulq-atvor jinoiy deb e'tirof etiladi.

Biroq hozirgi talqindagi kriminologiya ayrim jinoyatni emas, balki ularning yig'indisi – «jinoyatchilik»ni o'rganadi. Kriminologiya uchun jinoyat – bu jinoyatchilikning individuallashtirilgan ko'rinishi bo'lib hisoblanadi. Shu bois jinoyatchilik jinoyatlarning oddiy yig'indisi emas, balki ayrim jinoyatlardan farq qiladigan, yangi, yaxlit va uzviy hodisadir.

Shunday qilib, jinoyatchilik nisbatan ommaviy xususiyatga ega bo'lgan va ayni vaqtda odamlar va jamiyat manfaatlariga oshiqcha ijtimoiy xavf tug'diradigan, shu bois amaldagi jinoyat qonunchiligida jinoyat deb e'tirof etilgan ijtimoiy belgilangan qilmishlar (harakatlar yoki harakatsizlik)ning muayyan majmuidir.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, jinoyatchilik muayyan jinoyatdan nafaqat hajmi va shakliga ko'ra, balki ayrim miqdor va sifat belgilari (avvalo, holati, dinamikasi va tarkibi)ga ko'ra ham farq qiladi. Jinoyatchilikning bu jihatlarini o'rganish uning yuzaga kelish sabablari va omillarini o'rganish uchun muhimdir.

Binobarin, kriminologiya predmetining ikkinchi mustaqil elementi jinoyatlarni yuzaga keltiruvchi yoki ular sodir etilishini belgilovchi jinoyatchilik sabablari hisoblanadi.

Jinoyatchilik tizimida ham, sababiyat nazariyasida ham jinoiy jazoga loyiq qilmish sodir etgan shaxs muhim rol o'ynaydi. Biroq, shaxsni muayyan jinoyat sub'ekti, deb topish uchun qonunda belgilangan mezonlarni (aqli raso jismoniy shaxs muayyan jinoyat-huquqiy yoshga to'lganligini) aniqlashning o'zi kifoya bo'lgan jinoyat huquqi fanidan farqli o'laroq, kriminologiyada jinoyatchilik sabablarini o'rganish uchun

jinoyat sub'ekt haqida boshqa ma'lumotlar, ya'ni nafaqat demografik, balki ijtimoiy-axloqiy, psixologik, jinoyat-huquqiy va boshqa belgilar(xossalar)ni o'rganish ham zarur.

Binobarin, kriminologiya predmetining uchinchi muhim elementi bu jinoyatchi, ya'ni jinoyatni sodir etgan odamning shaxsidir.

Biroq, kriminologiyaning bosh maqsadi va mo'ljalini hisobga olmasak, uning predmeti to'liq bo'lmaydi. Jinoyatchilik sabablari va jinoyatchining shaxsi mazkur tahlil asosida jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish (profilaktika) chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun o'rganiladi. Shuning uchun ham jinoyatchilikning oldini olish kriminologiya predmetining to'rtinchi elementi hisoblanadi. Garchi ketma-ketlik bo'yicha u «oxirgi» o'rinda bo'lsa-da, biroq o'z amaliy ahamiyatiga ko'ra jinoyatchilikning oldini olish kriminologiya predmetining eng muhim elementi hisoblanadi. Hajmiga ko'ra ham u kriminologiya fani tizimida eng katta o'rinni egallashi lozim. Shu bois ayrim olimlar uni fanning alohida sohasi (jinoyatlar profilaktikasi) sifatida ajratishni taklif qiladilar.

Amalda jinoyatchilikning oldini olish vazifasiga ko'ra o'rganilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, axloqiy va boshqa jarayonlar va hodisalar kriminologiya predmetini tashkil etuvchi masalalar doirasidan ancha keng.

Shuningdek, XVIII asrning buyuk ma'rifatchilari asarlarida jinoyatchilikning oldini olishga butun yurisprudensiyaning eng asosiy vazifasi sifatida qaralgan. Masalan, Sh.Monteske o'zining «Qonunlar ruhi haqida» deb nomlangan mashhur falsafiy-huquqiy risolasida «yaxshi qonunchi jinoyat uchun jazo berishdan ko'ra jinoyatlarning oldini olish haqida ko'proq qayg'uradi; u jazolashga emas, balki odamlar axloqini o'zgartirishga harakat qiladi»<sup>1</sup>, deb ta'kidlagan.

Chezare Bekkariyaning «Jinoyatlar va jazolar haqida» deb nomlangan mashhur asari to'g'risida so'z yuritib, Volter jinoyatlarning oldini olish haqiqiy yurisprudensiyadir, deb aytgani bejiz emas.

Kriminologiya predmeti nazariyasi doirasida uning alohida yo'nalishi bo'lgan *viktimologiya* (jinoyat jabrlanuvchisi haqidagi fan) ham, jamiyatdagi barcha kriminal hodisalar tarixi (dinamikasi va tarkibi) ham uning ajralmas tarkibiy qismlari sifatida tan olinishi lozim.

Adabiyotlarda ba'zan kriminologiya metodlari kriminologiya predmetining mustaqil elementi sifatida qayd etiladi. Biroq u yoki bu fan metodlari har bir fan bilan mushtarak, ta'bir joiz bo'lsa, uning «ichki

<sup>1</sup> Монтескье Ш. Избранные произведения. - М., 1955. - Б.231.



ishi»dir, shu bois ularni mazkur fan predmetining elementi sifatida ajratish o'rinli bo'lmaydi, deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, kriminologiyani jinoyatchilik, uning sabablari va jabrlanuvchilar, jinoyatchi shaxsi hamda jinoyatchilikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi fan, deb ta'riflash mumkin.

## 1.2. O'xshash fanlar tizimida kriminologiyaning o'rni .

Kriminologiyaga oid nazariy va huquqiy adabiyotlarda bu masalaga nisbatan uch xil yondashuv shakllangan. *Birinchi yondashuvga ko'ra*, kriminologiya umumijtimoiy fan hisoblanadi, chunki u ijtimoiy hodisa sifatidagi jinoyatchilikning sosiologik, iqtisodiy, psixologik va pedagogik jihatlarini o'rganadi (M.I.Kovalev, A.B.Saxarov, B.S.Utevskiy va b.). Mazkur yondashuv kriminologiya sosiologiyaning bo'limi sifatida tan olingan AQSh olimlariga ham xos. Germaniya, Italiya va Fransiya kabi davlatlarda esa, kriminologiya ijtimoiy-tabiiy fan sifatida o'rganiladi.

*Ikkinchi yondashuvga binoan*, kriminologiyani yuridik fanlar, xususan jinoyat huquqi doirasidan chetga chiqarib bo'lmaydi. Mazkur yondashuv tarafdorlari (A.A.Gersenzon, V.D.Menshagin, A.A.Piontkovskiy, P.S.Romashkin, M.S.Strogovich va b.) fikricha, kriminologiya – jinoyat huquqi fanining tarkibiy, muayyan-sosiologik qismi. Ushbu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, yagona jinoyat-huquqiy fanini sun'iy tarzda ikki qismga ajratish qo'pol uslubiy xatodir. Mazkur yo'nalish tarafdorlari jinoyat huquqi va kriminologiya o'zaro bog'liq bo'lgan ikki mustaqil fan ekanligini inkor etadilar, biroq ular kriminologiya o'z mustaqil ob'ekti, predmeti va o'rganadigan masalalari bilan jinoyat huquqidan farq qilishiga e'tibor qaratmaganlar.

Ba'zan maxsus adabiyotlarda mazkur yondashuvning o'ziga xos bir ko'rinishiga duch kelishimiz mumkin. Unga ko'ra, kriminologiya jinoyat-huquqiy fanlarining mustaqil kompleks qismi hisoblanadi (A.D.Berenzon, V.A.Sergievskiy, V.E.Eminov va b.).

Umumiy e'tirof etilgan hamda hozirgi kunda keng tarqalgan, hamda aksariyat olimlar tomonidan tan olingan asosiy – *uchinchi yondashuvga binoan*, kriminologiya ijtimoiy-huquqiy fan hisoblanadi. Uning tarafdorlari kriminologiya predmetining asosiy tarkibiy elementlari (ayniqsa jinoyatchilik sabablari, jinoyatchi shaxsi, jinoyatchilikning oldini olish) huquqiy hodisalar va munosabatlar doirasida chetga chiqishi, biroq asosiy tayanch nuqtalari (xususan, jinoyat va jinoyatchi, shu jumladan jinoyat va

ma'muriy jazo) huquqning tegishli tarmoqlari, avvalo jinoyat huquqi hamda jinoyat-prosessual huquqi bilan belgilanishidan kelib chiqadilar. Binobarin, kriminologiya ikki ijtimoiy fan – sosiologiya va huquq tutashgan joyda turadi, shu bois u ijtimoiy-huquqiy fan hisoblanadi.

Quyida predmeti jinoyatchilik bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan fanlar bilan kriminologiyaning o'zaro munosabatini ko'rib chiqamiz.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, kriminologiya jinoyat huquqi bilan uzviy aloqador. Kriminologiyaning asosiy ob'ektlari – jinoyat va jinoyatchi shaxsi jinoyat huquqida ham tadqiq etiladi, biroq kriminologiya ularning jinoyat-huquqiy belgilarini aniqlash bilan kifoyalanmay, jinoyat majmuining qonuniyatlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, kelib chiqish sabablari, jabrlanuvchi hamda jinoyatchining o'zaro munosabatlarini ham aniqlaydi.

Kriminologiya jinoyat huquqining jinoyat qonuni ijtimoiy ahamiyati, jinoyat huquqi normalari hamda ularni amalga tadbqiq etishning samaradorligini o'rganuvchi qismi bilan ayniqsa uzviy bog'liq. O'z navbatida, jinoyat huquqi sosiologiyasi ma'lumotlaridan kriminologiyada jinoyatchilikning oldini olish tizimida jinoyat-huquqiy choralarning roli va o'rmini aniqlashda keng foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan jinoyat jazo kriminologiya ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan jinoyatchilikning oldini olish ijtimoiy chora-tadbirlaridan biri sifatida amal qiladi.

Jinoyat huquqi bilan qiyoslanganimizda, kriminologiyaning maqsadi kengroq ekanligiga amin bo'lamiz. Zero, kriminologiyaning maqsadi jinoyatchilikka qarshi kurashning mavjud barcha (shu jumladan, jinoyat-huquqiy) usul va vositalarining samaradorligini o'rganish hamda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan (shu jumladan, jinoyat-huquqiy) chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish bo'lib hisoblanadi.

Jinoyat prosessi fani ham kriminologiyaga vazifalari bilan o'xshash va bog'liq. Jinoyat prosessi jinoyat sudlov ishlarini yuritish jarayonida muayyan jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va omillarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish choralari ko'radi. Bu vazifa O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-prosessual kodeksi moddalarida ham o'z ifodasini topgan.

Kriminologiya kriminalistika bilan ham shu kabi jihatlari bilan uzviy bog'liq. Kriminalistika avvalo jinoyatlarni jinoyat-prosessual faoliyat shakli tarzida tergov qilish texnikasi, metodikasi va taktikasini ishlab chiqadi. Biroq jinoyatlarni tergov qilish, ochish va ularning oldini olish uning pirovard maqsadidir.

Kriminologiya jinoyatchilikni umumiy, ijtimoiy darajada o'rganadi, uning umumiy ijtimoiy sabablari va omillarini aniqlaydi, jinoyatchilikning oldini olish chora-tadbirlarini umumlashtiradi va tizimga soladi.

Kriminalistika fanida jinoyatchilik sabablarini o'rganish hamda jinoyatchilikning oldini olishning biroz o'zgacha shakli amal qiladi. Kriminalistika muayyan jinoyatlarni sodir etish mexanizmlarini, jinoyatlarni tayyorlash, sodir etish hamda jinoyat izlarini yashirish usullarini o'rganadi. Binobarin, jinoyatlarning oldini olish kriminalistika va kriminologiya fanlarining mushtarak vazifasidir. Kriminologiyadan farqli o'laroq, kriminalistikada jinoyat sodir etish hollari, ularning oldini olish va ularga barham berish uchun shoshilinch choralar ko'rish haqidagi eng yangi ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, Avstriya kriminalistika va kriminologiya fanining asoschisi G. Gross o'zining «Sud tergovchilari uchun qo'llanma» asarida (1893 yil) polisiya va tergov organlarining jinoyatchilik va jinoyatchilik haqidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarini tahlil qilib, kriminologiya va kriminalistika fanlarining uzviy bog'liqligini qayd etgan.

Kriminologiya va jinoyat-ijroiya huquqi fanlari ham bir-biri bilan bevosita bog'liq. Zero, takroriy jinoyatchilikning oldini olish, residiv jinoyatchi shaxsini hamda uni jamiyatga qaytarish masalalari har ikkala fanda ham o'rganiladigan muhim masalalardandir. Ushbu fanlarning o'zaro aloqadorligini ko'rsatuvchi yana bir jihati shunda namoyon bo'ladiki, har ikkala fanda ham jinoyat jazoning hamda uni ijro etish shart-sharoitlarining samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ayrim mamlakatlarda kriminologiya penitensiar fanlar (ular ba'zan «turmashunoslik» deb ham ataladi) doirasida o'rganilishi ham so'zimizning yaqqol isbotidir.

Garchi jinoyat-ijroiya huquqining predmeti (jazoni ijro etish jarayonida hamda bu borada yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlar) kriminologiya predmetidan torroq bo'lsa-da, ular pirovardida bir maqsadga – jinoyatchilikning oldini olishga erishish uchun mo'ljallangan. Bu maqsadga erishish vositalari har xil bo'lsada, ular bir-birini to'ldiradi hamda rivojlantiradi. Kriminologiyada qo'llaniladigan jinoyatchilikni eng salbiy hodisa sifatida o'rganish jinoyat-ijroiya huquqi uchun ham foydalidir, chunki jinoyatlar ozodlikdan mahrum qilish joylarida ham, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslar tomonidan ham, kam ahamiyatli qilmishlar uchun ijtimoiy ta'sir choralari qo'llanilgan shaxslar tomonidan ham sodir etiladi.

Jinoyat sodir etgan shaxslarning barcha toifalariga profilaktik ta'sir ko'rsatiladi, biroq uning shakllari va usullari har xil: axloq tuzatish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar uchun – jinoyat-ijroiya huquqi fanining shakllari va usullari, boshqalar uchun – kriminologiya fanining shakllari va usullari. Jinoyat sodir etgan shaxslar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish hamda ogohlantirish ishlari usullarini ishlab chiqish ham kriminologiya, ham jinoyat-huquqiy fanlar zimmasiga yuklangan ma'suliyatli vazifalardan bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda kriminologiyaning huquqiy statistika bilan aloqasini ham qayd etib o'tish lozim. Zotan, jinoyatchilikni o'rganish zamirida jinoyatchilikning holati haqidagi statistik material, jinoyatchilar shaxsiga doir (ayniqsa demografik) ma'lumotlar yotadi, statistikaning ilmiy metodlaridan esa, kriminologiyada keng foydalaniladi (ayniqsa kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish va guruhlashda).

Boz ustiga, XIV asrda kriminologiyaning asosiy muammolari aynan statistika nazariyasi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar (Fransiyada Gerri, Belgiyada Kettle, Rossiyada Tkachev) tomonidan keng o'rganildi. Statistik tahlil vositasida jinoyatchilikning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqalarining har xil jihatlari aniqlandi. Masalan, Kettle jinoyatchilarni jinsi va yoshi, jinoyat sodir etilgan joy, vaqt hamda foydalanilgan jinoyat qurollariga ko'ra tasniflashning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berdi. U jinoyatchilikning ba'zi bir hodisalar bilan aloqasiga e'tiborni qaratib, jinoyatchilikning oldini olish chora-tadbirlari haqida ayrim muhim xulosalar chiqardi.

Kriminologiya fani uchun boshqa yuridik fanlar (ayniqsa, konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq) ma'lumotlari ham muhim ahamiyatga ega. Ular jinoyat sodir etish sabab va omillarini o'rganish hamda jinoyatchi shaxsini tavsiflashda ham, ijtimoiy profilaktika sub'ektlari bo'lgan davlat organlari va jamoat birlashmalarining vazifalari va vakolatlarini belgilash, huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlarini aniqlashda ham zarur. Bunda kriminologiyaga umuman jinoiy xulq-atvorni o'rganish va oldini olish bilan shug'ullanuvchi ma'muriy huquq yaqinroq turadi.

Ayni vaqtda huquqbuzarliklarning eng xavfli shakli bo'lgan jinoyatchilik sabablari va omillarining yaxlit manzarasini berish va jinoyatchilikning oldini olish tizimining umumiy konsepsiyasini ishlab chiqishga kriminologiyaning o'ziga qodir ekanligini nazarda tutish lozim. Boshqa yuridik fanlar ham o'z vazifalarini echish uchun kriminologik tadqiqotlarning umumiy natijalaridan foydalanadi.

Kriminologiya ijtimoiy-huquqiy fan bo'lgani sababli, boshqa bir qancha noyuridik fanlar bilan ham bog'liq. Bunday fanlar orasida ijtimoiy psixologiya va pedagogika alohida o'rin tutadi. Bu psixologiya va pedagogika shaxsning individual jinoiy xulq-atvori (qarashlari, an'analari, qiziqishlari va ehtiyojlari) mexanizmini hamda g'ayriijtimoiy hodisalar, ayniqsa jinoyatlarning oldini olish uchun umumiy va individual ta'sir o'tkazish chora-tadbirlari tizimini o'rganishda katta yordam berishi mumkinligi bilan belgilanadi.

### 1.3. Kriminologiyaning vazifalari

Jinoyatchilikning mazmuni hamda namoyon bo'lish shakllari, uning qonuniyatlari, asosiy va ikkinchi darajali harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini, shuningdek jinoyatchi shaxsi, uning tarkibiy va funksional xususiyatlarini bilish birdan-bir maqsad emas. U pirovard natijada hozirgi bosqichda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solish borasidagi muhim amaliy vazifalarni echishga qaratilgan.

Kriminologiya fani oldida nafaqat jinoyatchilikning ayrim muammolari, uning hozirgi bosqichdagi ba'zi bir sabablari, profilaktika sub'ektlari tizimi, ularning vazifalari hamda ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlariga doir nuqtai nazarlarni yangilash va asoslash kabi metodologik xususiyatga ega bo'lgan muhim vazifalar yuzaga kelmoqda, balki o'tish davri iqtisodiyoti sohasidagi g'ayriijtimoiy hodisalarning turli omillarini aniqlash va atroflicha tahlil qilish zarurati ham tug'ilmoqda. Jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyat, investisiyalar, xo'jalik yuritishning davlat va xususiy sektorlari, aksiyadorlik birlashmalari, tijorat tuzilmalari, kichik, qo'shma korxonalar, moliya, kredit, soliq solish va boshqa sohalarda jinoyatchilikning oldini olish muammolari ayniqsa muhim ahamiyat kasb etayotir.

Havo, suv, o'rmon va er resurslari; o'simlik va hayvonot dunyosi; aholining sog'lig'i va yashash qobiliyatini saqlash sohasida ekologik jinoyatchilik sabablari hamda uning oldini olishning kriminologik tahlili ham muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Sobiq Ittifoqning parchalanishi va uning hududida yangi mustaqil suveren davlatlarning tashkil topishi endilikda yaqin, o'rta va uzoq xorij davlatlari doirasida xalqaro jinoyatchilik, ayniqsa, narkobiznes, fohishalik, g'ayriqonuniy valyuta operatsiyalari, madaniy va ma'naviy boyliklarni o'g'irlash, xalqaro terrorizm, diniy aqidaparastlik va hokazolarga qarshi

kurashda hamkorlik qilishga nisbatan boshqacha yondashuvni taqozo etmoqda. Ayni vaqtda, korrupsiya, uyushgan, shu jumladan professional jinoyatchilikka qarshi kurash masalalari ham tobora muhimroq ahamiyat kasb etib bormoqda.

Komp'yuter texnikasi, reklama sohasidagi jinoyatlar, yoshlar va voyaga etmaganlar jinoyatchiligi hamda ichkilikbozlik negizidagi jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalari ham mustaqil rol o'ynayotir.

Milliy kriminologiyamizda yana bir g'ayriijtimoiy hodisa – narkojinoyatchilik uzil-kesil qaror topdi. Bu hodisaga qarshi kurashning muhimligini tasavvur qilish uchun ikki omilni ko'rsatib o'tish kifoya deb o'ylaymiz. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmishlar umumiy tarkibida narkojinoyatchilik taxminan 15 foizni tashkil etadi. Holbuki, giyohvandlik hamda giyohvandlik moddalari bilan g'ayriqonuniy muomalada bo'lish o'ta yashirin jinoyatlar qatoriga kiradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda narkojinoyatchilikning tarqalish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, ilmiy tahlil giyohvandlik moddalari iste'mol qiluvchilarning uchdan ikki qismidan ko'prog'ini 30 ga to'lmagan yoshlar tashkil etishini ko'rsatadi. Vaholanki, aholining bu toifasi ijtimoiy taraqqiyotni belgilovchi ishlab chiqarish kuchlarining o'zagini hisoblanadi.

Bu erda yana bir muhim yangi holatni hisobga olish lozim. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning tubdan o'zgarishi, yangi xalqaro munosabatlar va umumiy aloqalar rivojlanishi munosabati bilan mamlakatimiz Sharqdan G'arbga, Janubdan Shimolga giyohvandlik vositalari yo'llari o'tadigan o'ziga xos «tranzit yo'lagi»ga aylanish xavfi mavjud.

Bu kabi omillar giyohvandlik vositalarining tarqalishi va iste'mol qilinishiga qarshi kurash borasidagi oldingi yondashuvlarni jiddiy isloh etish zarurligidan dalolat beradi.

Tibbiyot – ijtimoiy munosabatlarning alohida sohasi. Uning o'ziga xosligi shundan kelib chiqadiki, jamiyat insonsiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Inson – jamiyatning o'zagi.

Biroq inson omili serqirradir, shu bois uni turli fanlar o'rganadi. Inson (hozirgi vaqtgacha) eng aqlli jonzot sifatida uning yashash, mehnat qilish, ko'payish va boshqa qobiliyatlari nuqtai nazaridan qiziqish uyg'otadi. Jamiyat insonning bu qobiliyatlarini saqlash va rivojlantirish, buning uchun zarur shart-sharoit yaratish haqida g'amxo'rlik qilishi lozim. Inson hayot faoliyatini huquqiy, shu jumladan jinoyat-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari shuni taqozo etadi.

Afsuski, bu jihat huquq fanida eng kam o'rganilgan jihatlardan biri bo'lib qolayotir. Bugungi kunda «birinchi qaldirg'ochlar» tug'ilib, o'z normativ-huquqiy shakl-shamoyillarini kasb etishga harakat qilmoqda. Biz bu erda yaqindagina paydo bo'lgan yangi fan tarmog'i – tibbiyot huquqini nazarda tutyapmiz.

Tibbiyotni jinoyat-huquqiy himoya qilish masalasiga kelsak, sobiq Ittifoq hamda yangi suveren va mustaqil davlatlar jinoyat qonunchiligi tarixi ayrim maxsus normalar bilangina cheklangan. Holbuki, bu sohada muammolar anchagina. Ayrim muammolar echilmagan hamda umuman o'rganilmagan. Bunda ayrim yo'nalishlarda tibbiyot ma'lumotlari hozirgi sharoitda sezilarli darajada o'zgargani va boyiganligini ham hisobga olish lozim. Xususan, inson a'zo va to'qimalarini transplantasiya qilish muammolari alohida diqqatga sazovor.

Jinoyatchilikka qarshi kurashning har qanday shakllari zamirida huquqbuzarliklarning oldini olish yotishi lozim. Bu o'z navbatida, ilmiy asoslangan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida va samarali amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda tajribani o'rganish, undan er kurrasining turli mintaqalarida va umuman jahon mamlakatlarida jinoyatchilikka ta'sir o'tkazish chora-tadbirlari sohasida foydalanish mezonlarini belgilash mumkin va lozim. Barcha ijtimoiy sub'ektlar (davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, madaniyat, ta'lim, fan, tarbiya muassasalari, shu jumladan oila, mikromuhit va h.k.)ning imkoniyatlaridan hamda jinoyatchilikning oldini olish va unga barham berish vositalari (usullari, chora-tadbirlari)dan foydalanish holati hamda uning istiqbollari teran tahlil qilish lozim. Jamiyat bu borada o'z «zahiralari»ga ega. Masalan, biz ommaviy madaniyat va axborot vositalarining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi ahamiyatiga hozirgacha kam e'tibor beramiz.

Kriminologiyada viktimlikni o'rganish va uning oldini olish vazifasi ham alohida diqqatga sazovor. Bu erda jinoyatlarning barcha turlari bo'yicha teran tahlil hamda viktimlikning oldini olish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar zarur. Bunda jinoyatlardan jabrlanganlarning passiv xulq-atvori sabablarini o'rganish va aniqlash, ularni tizimga solish va tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Ayni vaqtda, jinoyatlarni provokasiya qilish (huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan, masalan, tovlamachilik yo'li bilan pora undirishda; jinoyatlardan jabrlanganlar tomonidan, masalan, nomusga tegishda)ni o'rganish va oldini olish muammolarini har tomonlama tadqiq qilish fursati etdi.

Bundan tashqari, hozirgi sharoitda ijtimoiy adolatni tiklash, ayniqsa, jinoiy qilmishlardan ko'rilgan ma'naviy, moddiy va jismoniy zararni qoplash muammolarini o'rganish zarurati ham tug'ildi.

Nihoyat, qiyosiy kriminologiya asoslarini ishlab chiqish lozim, chunki jahonning ko'pgina mamlakatlarida jinoyatchilikka qarshi kurash muammolariga duch kelinmoqda. Bu erda umumiy vazifalar bisyor.

Jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish to'g'risidagi qonunchilik asoslarini yaratish, nafaqat huquqshunoslarga, balki boshqa mutaxassislariga hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbarlariga kriminologiya hamda jinoyatlarning oldini olish asoslarini o'rgatish bugungi kunda davr talabiga aylanib bormoqda. Bozor munosabatlari va aloqalarini tartibga solishda huquqiy normalar rolining kuchayishi shuni taqozo etmoqda. Huquqbuzarliklarning oldini olish to'g'risidagi qonun hujjatlari bu muhim davlat faoliyatini dasturlashtirish va rejalashtirish shartlari va tartibini, mablag'lar va kadrlar bilan ta'minlash manbalarini, huquqbuzarliklarning oldini olish organlarining jamoat birlashmalari, ayrim fuqarolar yoki ularning vakillari bilan o'zaro aloqa qilish tartibini belgilashi lozim.

Shu munosabat bilan umuman huquqbuzarliklarga, ayniqsa jinoyatlarga qarshi kurash sohasida jamoatchilik ishtirokining huquqiy va prosesual asoslari avvalo shaxsiy xavfsizlikni amalda ta'minlash, fuqarolarni jamiyat va davlat nomidan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish nuqtai nazaridan tubdan qayta ko'rilishi lozim.

Huquqni muhofaza qilish organlari tizimida, avvalo Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, prokuratura va sud organlarida, soliq, bojxona va chegara xizmatlarida jinoyatlarning oldini olish bo'yicha maxsus bo'limlar va xizmatlar barqaror va izchil xususiyatga ega bo'lishi lozim.

Jinoyatchilikning oldini olish, unga barham berish pirovard natijada professional kadrlarga bog'liq. Davlat normal faoliyat ko'rsatish uchun bunday mutaxassislarni, butun kadrlar apparatini saqlash va barcha zarur narsalar bilan ta'minlashga kuch va vositalarni ayamaligi kerak.

Bugungi kunda nafaqat marketing, audit, menejment sohasida, balki harbiy prokuratura, soliq, bojxona, chegara va boshqa xizmatlarda ham kadrlar taqchilligi sezilmoqda. Demak, davlatning qonun ustuvorligini, jamoat tartibi hamda huquqiy tartibning barqarorligini ta'minlashi lozim bo'lgan davlat organlari uchun huquqshunoslar tayyorlash siyosatini ham isloh etish lozim. Zero, huquqiy davlat faqat va faqat qonunga bo'ysunadigan davlat organlarining puxta tashkil etilgan tizimi va mexanizmiga ega bo'lgan holdagina mavjud bo'la oladi. Buning uchun yuridik oliy o'quv



yurtlarining reja va dasturlariga ham bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

Qonuniylik va huquqiy tartibot uchun kurashda fuqarolik jamiyati davlatga yaqindan yordam berishi darkor. Bu muhim sohada davlat dasturini amalga oshirish uchun jinoyatchilikning oldini olishning barcha sub'ektlari mas'ul.

Ko'rsatilgan va boshqa muammolarning echimlarini nazariy va metodologik jihatdan asoslash kriminologiya fani uchun og'ir, biroq sharaflii vazifa.

#### 1.4. Kriminologiya tizimi haqida

MDH doirasida mavjud adabiyotlarda kriminologiyani ikki muhim bo'lim (umumiy va maxsus qismlar)ga ajratish qabul qilingan. Bunda Umumiy qism quyidagi muammolarni qamrab oladi: kriminologiya tushunchasi, uning predmeti va tizimi; holati hamda uning vazifalari; kriminologiya metodlari; jinoyatchilik, jinoyatchilik sabablari, jinoyatchi shaxsi; muayyan jinoyatning shakllanishi hamda uni sodir etish mexanizmi; jabrlanuvchi shaxsi; jinoyatchilikning oldini olish; jinoyatchilikka qarshi kurashni prognoz qilish va rejalashtirish.

Kriminologiyaning maxsus qismi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- takroriy jinoyatchilikning kriminologik tavsifi hamda uning oldini olish;
- voyaga etmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik;
- kasbiy va uyushgan jinoyatchilik;
- ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etishning kriminologik tavsifi hamda uning oldini olish;
- ayollar jinoyatchiligi;
- zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar;
- tamagirlik jinoyatlari;
- ichkilikbozlik va alkogolizm bilan bog'liq jinoyatlar;
- giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar;
- aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq jinoyatchilik;
- mansab mavqeini suiiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatchilik;
- komp'yuter texnikasi bilan bog'liq jinoyatchilik va h.k.

Shuni e'tiborga olish lozimki, u yoki bu muammolar muhim ahamiyat kasb etgan, ilmiy tadqiqot materiallari to'plangan hollarda krimi-

nologiyaning maxsus qismi yangilanishi va yangi mustaqil mavzular bilan boyitilishi kerak. Masalan, ekologik hamda xalqaro jinoyatchilikni, ma'naviyatga qarshi jinoyatchilik, xususan seksual jinoyatchilikni; iqtisodiy jinoyatchilik, mansabdorlik jinoyatlari, komp'yuter hamda giyohvandlik jinoyatchiligini kriminologik jihatdan tavsiflash hamda ularning oldini olish zarurati tug'ildi.

Ayni vaqtda, kriminologiya tizimida uning uchinchi muhim qismi – ayrim turdagi jinoyatlar (o'g'irlik, odam o'ldirish, Vatanga xiyonat, dezertirlik va h.k.) tavsifi hamda ularning oldini olish ham ajratilishi lozim. Umumiy, xususiy va ayrim falsafiy kategoriyalar qonuniyatining namoyon bo'lish mantig'i ham aynan shundadir.

## **2-mavzu. JINOYATCHILIK TUSHUNCHASI, UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA TURLARI**

- 1. Jinoyatchilik tushunchasi va uning belgilari.**
- 2. Jinoyatchilik ko'rsatkichlari.**
- 3. Jinoyatchilik tarkibi.**
- 4. Jinoyatchilik dinamikasi.**

### **2.1. Jinoyatchilik tushunchasi va uning belgilari**

«Jinoyatchilik» tushunchasi – kriminologiyaning eng muhim va ayni vaqtda keng qamrovli tushunchasidir. Unga kamida ikki nuqtai nazardan: formal miqdoriy (statistik) va sifat (sosiologik) tomonlardan yondashish mumkin.

Miqdoriy (statistik) nuqtai nazardan jinoyatchilik bir emas, ko'plab jinoyatlar, ularning muayyan yig'indisi, ya'ni g'ayriijtimoiy va xavfli qilmishlarning qandaydir majmui mavjudligini anglatadi.

Gap shundaki, hodisalar harakatining har qanday ichki qonuni muayyan hodisalar keng miqyosda ro'y bergan holdagina muayyan tarzda namoyon bo'ladi.

Ayrim g'ayriijtimoiy qilmishlar jinoyatchilik hodisasini vujudga keltirishi mumkin emas.

Jinoyatchilikning miqdor jihati muhim ahamiyatga ega. Lekin unga ortiqcha ahamiyat yuklash ham to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, professor V.M.Kogan jinoyatchilikning ijtimoiy xossalarini o'rganib chiqib, unga:

«Muayyan joyda muayyan vaqtda sodir etilgan barcha jinoyatlar majmui hamda ushbu jinoyatlarni sodir etishda aybdor barcha jinoyatchilar majmui»<sup>1</sup>, deb ta'rif berdi.

Shu bilan birga, «jinoyatchilik» tushunchasini uning sifati va mazmuni nuqtai nazaridan o'rganish muhimroqdir. Bu kriminologiya predmeti bilan uzviy bog'liq. Jinoyat huquqi, jinoyat prosessi va kriminalistika jinoyat shakllarini o'rganish bilan cheklanadi va shu boisdan muayyan qilmishni davlat tomonidan tartibga solish va uni jinoyat-huquqiy, jinoyat-prosessual va kriminalistika mezonlariga ko'ra baholash muammolarini ishlab chiqadi.

Kriminologiya esa, asosan jinoyatchilik mazmunini (mohiyatini) o'rganadi. Shu nuqtai nazardan «jinoyatchilik» tushunchasi uning jamiyat taraqqiyoti, eng avvalo uning ishlab chiqarish va taqsimlash munosabatlari holati bilan bog'liq ob'ektivligini aks ettiradi.

Jinoyatchilik tushunchasi jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida, nafaqat ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlar, balki ularning muayyan majmui mavjudligi va u boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bog'liqligi tushunib etilganidan so'ng paydo bo'ldi.

Binobarin, jinoyatchilik tushunchasining mazmuni u nafaqat ob'ektiv, balki ijtimoiy hodisa, ya'ni kishilik jamiyati va uning qonunlari bilan bog'liq ekanligini anglatadi. Shuning uchun ham jinoyatchilik tushunchasiga ta'rif bergan ko'pgina mualliflar unga eng avvalo ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi.

Jinoyatchilik nafaqat nisbatan ommaviy, ob'ektiv va ijtimoiy, balki tarixan o'zgaruvchan hodisa hamdir. Turli tarixiy sharoitda va turli jamiyatlarda kishilarning ayni bir g'ayriijtimoiy qilmishlari har xil baholangan. Jinoyatchilik o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra ham, namoyon bo'lgan joyiga ko'ra ham o'zgaruvchandir. Masalan, jinoyatlar doirasi nafaqat turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda, balki hatto ayni bir tuzumga mansub davlatlarda ham bir xil emas. Boz ustiga, jinoyatlar doirasi ayni bir tuzumga mansub bir davlat tarixida ham o'zgarib turadi.

Sinfylik ham jinoyatchilikning muhim belgilaridan biridir. Jinoyatchilik xususiy mulk paydo bo'lishi va jamiyat antagonistik sinflarga bo'linishi natijasida vujudga kelgan. Siftsiz jamiyatda jinoyatchilik tushunchasi ham, jinoyatchilikning o'zi ham yo'q edi.

Shunday qilib, jinoyatchilik – ijtimoiy qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-sinfy hodisa. Tarix buning yorqin dalilidir. Siftsiz jamiyatda ishlab chiqarish vositalariga nisbatan jamiyat a'zolari teng

<sup>1</sup> Коган В.М. Социальные свойства преступности. – М., 1977. – С.37.

bo'lib, odamlar o'zaro yollanma mehnatdan foydalanmas edi. Mehnat unumdorligi shu qadar past ediki, mahsulot tirikchilik uchun zarur miqdordagina ishlab chiqarilardi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi pastligi tufayli jamiyat a'zolari etishtirgan yoki ishlab chiqargan mahsulot eng zarur ehtiyojlarni qondirishga ham zo'rg'a etar edi. Bu mahsulotlar teng taqsimlanishiga sabab bo'lardi. Sinfsiz jamiyat shart-sharoiti odamlarda jamoatchilik psixologiyasini vujudga keltirgan edi. Ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, juda katta hududda kam aholi yashashi ibtidoiy odamni o'z xulq-atvorini urug' va qabila manfaatlariga moslashtirishga majbur etardi. Urug'doshlik jamiyati sharoitida yashagan odamlarning ko'p sonli avlodlari jamoatchilik, o'zaro yordam, tenglik, erkinlik, halollik, qariya va bemorlarga g'amxo'rlik tuyg'ulariga asoslangan urf-odatlarini shakllantirdilar.

Ammo vaqt o'tishi bilan yangi ishlab chiqarish shakllarining vujudga kelishi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi odamni eksploatasiya qilish, qul mehnatidan foydalanish va qo'shimcha mahsulot olishga imkoniyat tug'dirdi. Ko'rsatib o'tilgan iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy hodisalarning o'zaro ta'siri shunga olib keldiki, ayrim g'ayriijtimoiy qilmishlar nisbatan ommaviy hodisaga aylanib qoldi.

Jinoyatchilik – shubhasiz, g'ayriijtimoiy salbiy hodisa. Holbuki, kriminologiya tarixida uni ijtimoiy ijobiy hodisa sifatida baholashga urinishlar ham bo'lgan. Masalan, XIX asrda yashagan taniqli sosiolog Emil Dyurkgeym jinoatchilik taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch, u jamiyatda muhim foydali funktsiyani bajaradi<sup>1</sup>, degan fikrni ilgari surgan.

Amerikalik sosiolog R.Merton fikriga ko'ra, jinoatchilik – ijtimoiy hayot sur'atlari jadallashuvi hisobiga jamiyat to'lashi lozim bo'lgan haqdir.

Boshqa bir amerikalik kriminolog Tannenbaum 1944 yilda Barnz va Titerzning «Kriminologiyaning yangi ufqlari» nomli kitobiga yozgan so'zboshisida: «Jinoatchilik – jamiyat kabi abadiydir. Jinoatchilikka barham berish mumkin emas. Jinoatchilik – kasallik, o'lim kabi abadiy hodisadir»<sup>2</sup>, deb ta'kidlagan edi.

Nemis kriminologi Armand Morgen 1961 yildayoq «jinoyat – qadim zamonlardan beri mavjud bo'lgan va toki jamiyat mavjud ekan, hech qachon barham topmaydigan hodisadir», deb yozgan edi.

Ayrim kriminologlar jinoatchilik nafaqat normal, balki foydali hodisadir, chunki u jamiyat a'zolarida hamjihatlik tuyg'ulari mustahkam-

<sup>1</sup> Дюркгейм Е. Норма и патология // Социология преступности. – М., 1966. – С.39.

<sup>2</sup> Преступление как социально патологическое явление. – СПб., 1900. – С.7.

lanishiga ko'maklashadi, degan fikrni ilgari suradi. Tabiiyki, bu fikrga qo'shilish qiyin, chunki jinoyatchi eng avvalo o'zini boshqa shaxslarga qarama-qarshi qo'yadi, muayyan jinoyiy qilmish sodir etish orqali boshqalarning manfaatlarini buzadi.

Nihoyat, jinoyatchilik – jinoyat-huquqiy hodisadir, chunki uning tarkibidan o'rin olgan jinoyatlar doirasi amaldagi jinoyat qonunchiligida belgilab qo'yiladi. Biz jinoyatchilik to'g'risida so'z yuritganimizda, davlat tomonidan tan olingan ijtimoiy-xavfli va g'ayrihuquqiy qilmishlar (harakatlar yoki harakatsizlik) majmuidan kelib chiqamiz.

Jinoyatchilik o'zining huquqiy belgisi bilan boshqa ijtimoiy hodisalar (axloqiy normalar)dan, jinoyat-huquqiy belgisi bilan esa – boshqa, nojinoiy (intizomiy, ma'muriy, fuqarolik-huquqiy va b.) huquqbuzarliklardan farq qiladi.

Shunday qilib, jinoyatchilik bir qancha o'ziga xos belgilarga ega, bular: nisbatan ommaviylik, tarixiy o'zgaruvchanlik, ob'ektivlik, ijtimoiylik, sinfiylik, jinoyat-huquqiylik, u yoki bu davlatda muayyan davrda sodir etilgan barcha jinoyatlarning umumiy miqdori va h.k. Boshqacha aytganda, jinoyatchilik – sinfiy jamiyatning muayyan makon, mintaqada ma'lum davr ichida sodir etilgan barcha jinoyatlar majmui ko'rinishidagi tarixan o'zgaruvchan, salbiy, ob'ektiv va ijtimoiy hodisasidir.

## 2.2. Jinoyatchilik ko'satkichlari

**Jinoyatchilikning holati.** Jinoyatchilik uch asosiy ko'rsatkich – holati (darajasi), tarkibi va dinamikasi bilan o'lchanadi. Bundan tashqari, jinoyatchilikning etkazilgan zarar hajmi yoki miqdori va xususiyati kabi qo'shimcha ko'rsatkichlar ham farqlanadi. Ba'zan butun jinoyatchilikka qarshi kurash xarajatlari ham jinoyatchilik ko'rsatkichlari qatoriga kiritiladi.

Jinoyatchilikning holati tushunchasiga ikki: tor va keng nuqtai nazardan yondashish mumkin.

Keng ma'nodagi jinoyatchilikning holati tushunchasi nafaqat uning darajasini, balki tarkibi va dinamikasini ham qamrab oladi.

Tor ma'nodagi jinoyatchilikning holati tushunchasi muayyan davrda, tarixiy bosqichda jinoyatchilik darajasini aks ettiradi. Xo'sh, jinoyatchilikning holatiga nima kiradi? Jinoyatlar majmuimi yoki barcha jinoyatchilar majmuimi?

I.I. Karpes: «Jinoyatchilikning holati – sodir etilgan jinoyatlar va

ularni sodir etgan shaxslar miqdoridir»<sup>1</sup>, deb yozgan edi. Jinoyatchilikning holati tushunchasiga umumiy ta'rif bergan holda ushbu yondashuvga qo'shilish mumkin. Lekin adabiyotlarda jinoyatchilikning holati tushunchasini muayyanlashtirishga urinishlar (shu jumladan jinoyatchilik darajasini aniqlash yo'li bilan) kuzatiladi.

G.A. Avanesov shunday deb yozadi: «Jinoyatchilik darajasi muayyan hududda sodir etilgan jinoyatlar miqdoridan kelib chiqib, shu hududda yashaydigan aholi soniga nisbatan hisoblanadi». Daraja ko'rsatkichlari faqat nisbiy raqamlarda ifodalanadi. Jinoyatchilik darajasini yanada aniqroq aniqlash uchun butun aholini emas, balki vakillari amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq jinoyat uchun javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan yosh guruhlarinigina hisobga olish zarur<sup>2</sup>.

Ayrim mualliflar jinoyatchilikning holati va darajasini aniqlashda muayyan hududda ma'lum vaqt davomida sodir etilgan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslar to'g'risida so'z yuritadilar.

Jinoyatchilikning holatini aniqlashda muayyan davr ichida (falon yilning falon oyidan falon yilning falon oyigacha) sodir etilgan jinoyatlar emas, balki muayyan sanaga (davrga) qadar sodir etilgan jinoyatlar ko'rsatkichi olinsa, o'rinliroq bo'ladi deb o'ylaymiz. Bu nafaqat jinoyatchilikning muayyan sanaga qadar bo'lgan holati to'g'risidagi masalani echish, balki jinoyatchilikning muayyan sanaga qadar bo'lgan holatini jinoyatchilikning muayyan davrdagi dinamikasidan farqlash uchun ham zarurdir.

Jinoyatchilikning holati sodir etilgan barcha jinoyatlar va ularni sodir etishda aybdor shaxslar miqdori bilan belgilanadi. Jinoyatchilikning holatini mutlaq miqdorda ham, koeffisient miqdorida ham aniqlash mumkin.

Jinoyatlar miqdorini aniqlashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- a) sud hukmi bilan tugallangan jinoyat ishlari;
- b) aybdor shaxslar jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan (amnestiya bo'yicha yoki jinoiy jazo tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari yoki tarbiyaviy yo'sindagi choralari yoxud ma'muriy ta'sir choralari bilan almashtirilishi munosabati bilan) jinoyat ishlari;

v) ochilmagan, lekin mavjud ma'lumotlarga ko'ra sodir etilgan jinoyatlar.

Jinoyatchilarning umumiy miqdorini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi:

- a) mahkumlar haqidagi ma'lumotlar;

<sup>1</sup> Карпец И.И. Проблемы преступности. – М., 1969. – С.109.

<sup>2</sup> Криминология и социальная профилактика. – С.60.

b) jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan shaxslar haqidagi ma'lumotlar.

Jinoyatchilik holati nafaqat miqdoriy belgilar, balki sifat belgilari, chunonchi: tarkibiy xususiyatlari, jinoyatlardan ko'rilgan zarar, iqtisodiy, uyushgan, takroriy yoki boshqa jinoyatchilik darajasi bilan ham tavsiflanishi mumkinki, bu jinoyatchilik tarkibini tahlil qilishda mufassalroq o'rganiladi.

Jinoyatchilikning darajasi bir qancha koeffisientlar bilan aniqlanadi. Koeffisientlar har xil bo'lishi mumkin, lekin ular orasida jinoyatchilik, aniqrog'i – jinoyatlar koeffisienti va aholining kriminogen zararlanganlik (kriminogenlik) koeffisienti muhim o'rin egallaydi.

Jinoyatchilik koeffisienti hisobga olingan barcha jinoyatlar umumiy miqdori va tanlangan mintaqa aholisining muayyan miqyosga bo'lingan umumiy miqdori nisbati sifatida aniqlanadi.

Miqyos – koeffisient hisoblanayotgan aholining asosiy miqdori. Odatda jahon kriminologiya amaliyotida u 100 ming kishiga teng deb olinadi. Ammo miqyos harakatchan kategoriya bo'lib, muayyan ma'muriy yoki boshqa hudud (muayyan kontingent, mintaqa, respublika, o'lka, viloyat, tuman, shahar)da yashovchi aholining umumiy miqdoriga qarab o'zgarishi mumkin.

Masalan, T. shahrida 1999 yilda mingta jinoyat ro'yxatga olingan. Shahar aholisi 3000 ming kishidan iborat. Jinoyatchilik koeffisienti (har 100 ming aholiga) taxminan 333 ni tashkil etadi.

Jinoyatchilik koeffisientini hisoblash formulasi:

$$K_j q = \frac{\text{Jinoyatlar miqdori} \times 100 \text{ ming (massa)}}{\text{Butun aholi miqdori}}$$

Aholining kriminogen jihatdan zararlanganlik (kriminogenlik) koeffisienti jinoyatchilar (muayyan davrda jinoyat sodir etgan shaxslar) umumiy miqdori va tanlangan miqyosga bo'lingan ushbu hududda yashovchi jinoiy javobgarlik yoshiga (O'zbekiston Respublikasi JK bo'yicha – 16 yoshga) to'lgan barcha shaxslarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Masalan, o'sha T. shahrida 1999 yilda 900 jinoyatchi – shu yil jinoyat sodir etgan shaxslar ro'yxatga olingan. Shahar aholisi, 16 yoshga to'lmagan shaxslardan tashqari, 200 kishidan iborat. Bunda aholining kriminogenlik koeffisienti har 100 ming kishiga nisbatan 450 ga teng bo'ladi.

Aholining kriminogen jihatdan zararlanganlik koeffisientini hisoblash formulasi:

$$K_{kr} q = \frac{\text{Jinoyatlar miqdori} \times 100 \text{ ming (massa)}}{\text{Balog'at yoshiga to'lgan aholi miqdori}}$$

V.V.Luneev «XX asr jinoyatchiligi» kitobida 1994 yil jahonning turli mamlakatlarida ro'yxatga olingan jinoyatchilik koeffisientlari (har 100 ming aholiga nisbatan) haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:

Finlyandiya	-	14798	Bolgariya	-	2522
Shvesiya	-	2620	Polsha	-	2351
Daniya	-	10524	Rossiya	-	1778
Kanada	-	10351	Yaponiya	-	1490
Germaniya	-	8037	Portugaliya	-	988
Fransiya	-	6782	Xitoy	-	127
Vengriya	-	3789			

AQShda eng og'ir 8 jinoyat bo'yicha jinoyatchilik koeffisienti 53714 ni tashkil etadi.

Iroqlik olim M. Raishahriy keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, bir yilda (1989) Er yuzida ro'yxatga olingan jinoyatlarning umumiy miqdori 500 millionga etgan. Agar shu sur'at saqlanib qolsa, XXI asrning birinchi yarmida bu raqam milliarddan oshib ketishi mumkin.<sup>1</sup> V. Luneev ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi 25 yil ichida jahonda jinoyatchilik har 100 ming aholiga nisbatan 4 baravar ko'paygan.

Nihoyat, «latent», ya'ni «yashirin» jinoyatchiliksiz jinoyatchilikning holati umumiy tushunchasining tavsifi to'liq bo'lmaydi deb o'ylaymiz. Latent jinoyatchilik umuman olganda ikki qismdan iborat.

Birinchi qism hisobga olinmagan yoxud davlat idoralari, avvalo huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ro'yxatga olinmagan jinoyatlarni qamrab oladi. Bu asosan jinoyatlar hisobini yuritish va ularni ro'yxatga olish qoniqarsiz tashkil etilganligi natijasidir. Ammo jinoyatlar haqidagi har xil axborotlarni hisobga olishdan har xil sabablarga ko'ra (avvalo muayyan qonunbuzarliklardan xolilik muhitini soxta ravishda vujudga keltirish uchun) ongli tarzda yashirish holatlari ham uchrab turadi.

<sup>1</sup> Иншаков С.М. Криминология. – М., 2000. – С.20.



Davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinadigan jinoyatlar «muztog'» («aysberg»)ning suv yuzasidagi qismi ekanligi, uning to'rtidan uch qismi yashirinligi umum e'tirof etilgan. Masalan, o'g'riliklar soni juda ko'pligi shubhasiz. Lekin amalda har uch o'g'rilikdan biri ro'yxatga olinadi.

Latent jinoyatchilikning *ikkinchi qismi* amalda mavjud bo'lgan va ko'pchilik jinoyat sifatida qabul qiladigan, lekin hozirgacha davlat tomondan jinoyat sifatida rasman tan olinmagan ijtimoiy xavfli qilmishlardan iborat. Ilgari amal qilgan analogiya instituti, garchi bu qonuniylikka zid bo'lsa-da, qonunchilikdagi muayyan kamchiliklar o'rnini to'ldirish imkonini berardi. Ma'lumki, 1959 yil O'zSSR Jinoyat kodeksi qabul qilinganidan so'ng, analogiya, ya'ni muayyan muddada mufassal yoki to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan qilmishni jinoiy deb topish bekor qilindi.

Masalan, ekologiya sohasidagi jinoiy qilmishlar, «xalqaro» jinoyatlar, «oq yoqalilar»ning jinoiy qilmishlari (mansabdorlik jinoyatlarining har xil turlari), aksariyat iqtisodiy jinoyatlar (noqonuniy kreditlash, daromadni hisob va soliqdan yashirish, korxonaga uchun foydasizligi ayon bitim tuzish, soxta korxonaga tashkil etish, narx-navoni sun'iy tarzda oshirish, qalbaki tovarlar chiqarish va b.) va komp'yuter jinoyatchiligi asosan latent (yashirin) bo'lib qolayotir. Ularni kriminologik jihatdan har tomonlama o'rganish va ularning jinoyat-huquqiy ko'rsatkichlarini aniqlash hozirgi davrning mushkul va dolzarb vazifalaridan biridir. Zotan, latentlik hodisasi juda ko'p salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi. U jinoyatchilikning haqiqiy miqyosi, shakllari va tarkibi, jamiyat, davlat va fuqarolarga etkazilgan ma'naviy va moddiy zararining miqdori va xususiyati haqida noto'g'ri tasavvur beradi. Latentlik natijasida jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi barcha holatlarni aniqlash, jinoyat uchun jazoning muqarrarligi prinsipini ro'yobga chiqarish qiyinlashadi, jinoyatchilarda va aholining boshqa qatlamlarida jazosizlik tuyg'usi shakllanadi, davlat va jamiyatning turli mintaqalarda va butun davlat miqyosida jinoyatchilikni prognoz qilish imkoniyati cheklanadi, bu esa jinoyatchilikning oldini olish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### 2.3. Jinoyatchilik tarkibi

Har qanday hodisa, muayyan kompleks, tizimning tarkibi, ichki elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo etuvchi nisbatdir.

Jinoyatchilik tarkibi – bu muayyan mamlakatda, mintaqada ma'lum davrda yoxud tarixiy bosqichda sodir etilgan barcha jinoyatlarning turlarga

taqsimlangan majmuidir. Jinoyatlarning turlari bir qancha guruhlash belgilariga ko'ra aniqlanadi. Ularning eng muhimlari ijtimoiy-demografik, jinoyat-huquqiy va kriminologik belgilardir.

Jinoyatchilik tarkibi, umuman olganda, uni sifat jihatidan tavsiflaydi, ya'ni jinoyatchilikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflaydi. Jinoyatchilik tarkibi umumiy ko'rinishda jinoyatchilikni tashkil etuvchi qilmishlarning (ayrim qilmishlarning hamda ularning guruhlarning) ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini aks ettiradi. Shuning uchun ham jinoyatlarning og'irlik darajasiga ko'ra o'zaro nisbati (o'ta og'ir, og'ir, uncha og'ir bo'lmagan va ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar) jinoyatchilik tarkibining eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi JKning 15-moddasi).

Jinoyatchilik tarkibi jinoyat-huquqiy belgilarga ko'ra boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha taqsimlanishi ham mumkin:

a) JK Maxsus qismi boblari (moddalari) bo'yicha;

b) ayb shakllari bo'yicha;

v) jazoning xususiyati bo'yicha;

g) ishtirokchilik shakli bo'yicha;

d) takroriylik belgisiga ko'ra;

e) sub'ektning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra (voyaga etmaganlik, maxsus sub'ektlar, «professionallar» va h.k.).

Jinoyatchilik tarkibi kriminologik belgilarga ko'ra quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

a) hududiy belgiga ko'ra (viloyatlar, tumanlar, mintaqalar yoki alohida ob'ektlar bo'yicha);

b) xo'jalik yuritish, boshqarish yoki jamiyat hayoti tarmoqlari bo'yicha;

v) xususiyati va motivlariga ko'ra (davlatga qarshi jinoyatlar, g'arazgo'ylik jinoyatlari, zo'ravonlik jinoyatlari, ekologiya sohasidagi jinoyatlar, xalqaro jinoyatlar va h.k.);

g) jinoyat sodir etilgan vaqt va joyga ko'ra;

d) jinoyat sodir etish qurollari (vositalari)ga ko'ra;

e) tarqalganligiga ko'ra.

Jinoyatchilik tarkibi, ayniqsa, jinoyatchining shaxsiga nisbatan, ijtimoiy-demografik belgilar (jinsi, yoshi, kasbi, oilaviy ahvoli va h.k.)ga ko'ra ham taqsimlanadi.

Kriminologiya fanida jinoyatchilikning to'liq tarkibi va noto'liq tarkibi farqlanadi. Jinoyatchilikning to'liq tarkibida uning majmui (massasi) mumkin bo'lgan barcha guruhlash belgilari bo'yicha taqsimlanadi.

Jinoyatchilikning noto'liq tarkibi esa ayrim zarur guruhlash belgilari nuqtai nazaridan tahlil qilishni nazarda tutadi (masalan, butun massada qasddan va ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarning o'zaro nisbatini aniqlash uchun yoxud muayyan davrda jinoyat sodir etgan shaxslarning jinsi, yoshini aniqlash uchun).

## **2.4. Jinoyatchilik dinamikasi**

Jinoyatchilik dinamikasi – muayyan davr (oy, chorak, yarim yillik, yil, besh yillik, o'n yillik, yigirma yillik va h.k.) oralig'ida umuman jinoyatchilikning hamda uning tarkibiy ko'rsatkichlarining o'sish yoki kamayish tomonga harakati. Jinoyatchilik dinamikasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning eng muhimlarini ikki guruhga: ijtimoiy omillar va yuridik omillar guruhlariga birlashtirish mumkin. Ijtimoiy omillar – jinoyatchilik sabablari va unga olib kelgan sharoit, aholining demografik tarkibi, migrasiya va h.k.

Ikkinchi guruh – jinoiy va ma'muriy jazo tizimiga, qonunlarga kiritilgan, jinoiy yoki boshqa jazoga loyiq qilmishlar doirasini toraytiruvchi yoki kengaytiruvchi, muayyan jinoyatlar tasnifini o'zgartiruvchi o'zgartirish va qo'shimchalar. Jinoyatchilik dinamikasi jinoyatlar hisobini yuritish va ularni ro'yxatga olishning holati, huquqni muhofaza qilish organlari (surishtiruvchi, tergov va sud)ning shu jumladan jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va aybdorlarni fosh etish, jazoning muqarrarligi prinsipini ta'minlash borasidagi samarali faoliyati bilan ham bog'liqdir.

## **3-mavzu. JINOYATCHILIKNING SABABLARI**

1. Sababiyatni bilishning asosiy prinsiplari.
2. Jinoyatchilik sabablarining asosiy nazariyalari.
3. Jinoyatchilik sabablarini tasniflash muammosi.

### **3.1. Sababiyatni bilishning asosiy prinsiplari**

Kriminologiyada sababiyat – eng murakkab muammolardan biridir. Shu sababli unga izchil va mufassal yondashish zarur. Xo'sh, sababiyatni bilishning asosiy metodologik qoidalari qaysi?

**Har qanday hodisalarning kelib chiqishini tavsiflovchi umumiy kategoriya «determinasiya» (lotincha determinare – aniqlash) deb ataladi.**

**Determinasiya – hodisalar, jarayonlar va holatlarning ob'ektiv tarzda mavjud bo'lgan bog'lanishidir. Atrofimizda mavjud har bir hodisa ulkan dunyoga minglab rishtalar bilan bog'lanadi va pirovardida umumiy universal aloqa va o'zaro bog'lanishlarning yagona jarayonini vujudga keltiradi.**

**Dialektika qonuni mavjud barcha narsalar va hodisalar muttasil harakatda bo'ladi deb o'rgatadi. Har bir hodisaning harakati shu hodisa munosabatlarining ro'yobga chiqish jarayonidir. Borliqning umumiy bog'lanishi ob'ektiv dunyo faoliyati va rivojlanishining eng universal qonuniyatlaridan biridir. Har bir hodisa, ob'ektiv borliqning istalgan predmeti va jarayoni voqealarning umumiy zanjiridagi muayyan bir bo'g'indir.**

**Materiya harakatining asosiy shakllariga muvofiq odatda borliqning nisbatan mustaqil jabhalari farqlanadi. Bu jabhalarning har birida borliq hodisalarining umumiy bog'lanishi o'ziga xos tarzda, chunonchi: elementar zarralar shaklida, mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va nihoyat, ijtimoiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Hodisalarning umumiy bog'lanishi o'z cho'qqisiga faqat o'zining ijtimoiy ko'rinishidagina etadi. Shu boisdan bu ko'rinish uning eng oliy shakli hisoblanadi.**

**Determinasiyaning bir qancha turlari mavjud: holatlar bog'lanishi, funksiyalar bog'lanishi, korrelyasiya, sababiyat va hokazo.**

**Sababiy bog'lanish determinasiyaning asosiy turi yoki determinasiya haqidagi ta'limotning o'zagidir. Sababiyat determinasiyaning ichki mazmunini, uning mohiyatini tashkil etadi.**

**Sababiy bog'lanish ham umumiylik, muqarrarlik, zamon va makonda uzluksizlik kabi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. O'z tabiatiga ko'ra sababiyat – irsiy bog'lanishdir, chunki sabab muayyan oqibatga olib keladi.**

**Hodisalarning sababiy bog'lanishi shundan iboratki, bir hodisa muqarrar tarzda boshqa hodisani keltirib chiqaradi. Har qanday hodisa o'z sababiga ega bo'ladi, ya'ni sababsiz hodisalar bo'lmaydi. Har qanday hodisa biron-bir sabab bilan belgilanadi. Xuddi shuningdek, biron-bir oqibatni keltirib chiqarmaydigan sabab ham mavjud emas. Sababiyat nafaqat bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan hodisalarni tavsiflaydi, balki hodisaning o'zgarishiga sabab bo'ladigan muayyan mexanizmni ham ifodalaydi.**

**Sababiyat kategoriyasi nafaqat sababni, balki uning natijasi, oqibati hamda ular o'rtasidagi bog'lanishni hamda sabab va oqibat o'rtasidagi teskari aloqani ham qamrab oladi. Har qanday sabab har xil shart-sharoitlar**

bilan ta'sirga kirishadi. Sabab va shart-sharoit o'rtasidagi farq shartli xarakter kasb etadi. Biroq, oqibatni keltirib chiqaradigan sabab oqibat kelib chiqishi uchun zarur bo'lgan hodisaning muayyan tarzda rivojlanishini ta'minlaydi.

Falsafada bog'liq, zarur va etarli shartlar farqlanadi. Sabab paydo bo'lish joyi va vaqtining tafsilotlari bog'liq shartlar hisoblanadi.

Oqibat ro'y berishi uchun zarur bo'lgan shartlar zarur shartlar deb topiladi. «Barcha zarur shartlar majmui etarli shartlarni tashkil etadi, – deb yozadi V.N.Kudryavsev. – Etarli shartlar va sabab mavjud bo'lsa, oqibat muqarrar tarzda ro'y beradi».

Atroflicha tahlil qilganda sabab va shart o'rtasidagi farq nisbiy ekanligi anglashiladi. Sababning irsiy xususiyatigina sabab oqibatni keltirib chiqarishini, shart esa bunga imkoniyat yaratishi, ya'ni ko'maklashishini ko'rsatadi. Buni faqat muayyan holat bo'yicha aniqlash zarur.

Sabab va oqibat muayyan qonuniyatlar bilan bog'liq. Qonuniyatlar dinamik va statistik bo'ladi.

Dinamik qonun – bir xilda, biron-bir istisnosiz amalga oshuvchi hodisalar turkumi qonunidir (masalan, butun olam tortishish qonuni).

Ijtimoiy hodisalar sohasida ko'proq statistik qonuniyatlar namoyon bo'ladi. Bu erda bir emas, juda ko'p sababiy bog'lanishlar mavjud bo'lib, ular jamuljam holda ommaviy hodisalarni (masalan, jinoyatchilikni) vujudga keltiradi.

Jamiyat – o'z-o'zidan rivojlanuvchi hodisa, har qanday rivojlanish esa – qarama-qarshiliklar kurashidir. Bu umuman tizimning va uning muayyan elementlarining xossalari o'rtasida qarama-qarshilikni nazarda tutadi.

Ijtimoiy sabablarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular narsalar yoki moddiy jismlar sifatida amal qilmaydi, balki holat, jarayon, munosabatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Metodologiyada «munosabat» kategoriyasi barcha hodisalarning o'zaro bog'lanish vaqti deb ta'riflanadi. Bu bog'lanishning muayyan shakli ijtimoiy munosabat sifatida amal qiladi.

Ijtimoiy mavjudot sifatidagi odam bosh bo'g'inni tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar alohida xususiyatga egadir. Odam o'zi yaratgan narsalar bilan muayyan munosabatlarga kirishadi. Bilish sub'ekti o'zini o'zi kuzatadi va o'ziga shaxs sifatida qaray boshlaydi, boshqalarga ham o'ziga o'xshash mavjudot sifatida munosabatda bo'ladi. Inson ongining ijtimoiy tabiati va bilish jarayonida ijtimoiy ongni o'rganish zarurligi shu bilan izohlanadi.

Ijtimoiy munosabatlar odamlar o'rtasida ham amaliy (shu jumladan bilish), ham ma'naviy hayot faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ijtimoiy munosabatlar tizimida eng avvalo ishlab chiqarish munosabatlari farqlanadi. Ushbu munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlar (siyosiy, huquqiy, diniy, axloqiy va h.k.) mazmunini belgilaydi.

Ijtimoiy munosabat mazmuniga ko'ra ham, tarkibi jihatidan ham murakkab hodisadir. Ijtimoiy munosabatning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: jamiyat va davlat, ularning qonun-qoidalari, tuzilmalari, vakillari; turli xil jamoat birlashmalari va jamoalar, alohida shaxslar; moddiy borliq predmetlari hamda har xil shakllarda, shu jumladan huquqiy shaklda namoyon bo'luvchi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi bog'lanish.

Har qanday shaxs muayyan jinoyatni sodir etar ekan, ijtimoiy munosabatning u yoki bu elementlariga tajovuz qiladi, ularning o'zaro bog'lanishini buzadi va shu tariqa munosabat ishtirokchilarining manfaatlariga bevosita yoki bilvosita zarar etkazadi.

Ko'rib turganimizdek, sababiy bog'lanish inson, ayniqsa, uning ongi bilan uzviy aloqadordir. U inson xulq-atvorining motivi yoki maqsadi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy hayot sohasidagi sababiy bog'lanishning muhim xususiyati ham aynan shunda ifodalanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagicha xulosaga keldik:

*Birinchidan*, g'ayriijtimoiy hodisalar, shu jumladan jinoyatchilik faqat ijtimoiy munosabatlar doirasida o'z sabablariga ega bo'ladi, shu sababli asosan ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Umuman olganda, bu hayotning iqtisodiy sharoitlarini, inson psixologiyasini, uning ehtiyojlari, manfaatlari, xulq-atvor motivlari va maqsadlarini, kichik va katta ijtimoiy guruhdagi odamlarning o'zaro munosabatlarini (oila, ishlab chiqarish munosabatlari, yaqin muhitini), qarashlari, e'tiqodlari, qadriyatlari va mo'ljallarini qamrab oladi. Binobarin, jinoyatchilik sabablari muammolari ijtimoiy institutlar nuqtai nazaridan o'rganilishi lozim.

*Ikkinchidan*, jinoyat va jinoyatchilikning biron-bir yagona sababini ko'rsatish metodologik jihatdan noto'g'ri bo'lar edi. Sabab – kompleks hodisa. Shunday bo'lsada, hal qiluvchi, asosiy, tub hamda ikkinchi darajali, yuzaki, tashqi va ichki, ob'ektiv va sub'ektiv sabablar farqlanishi mumkin.

*Uchinchidan*, binobarin, jinoyatchilik sabablari muammosiga bir tomonlama emas, balki har tomonlama yondashish lozimki, uni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar ham buni tasdiqlaydi.

### 3.2. Jinoyatchilik sabablarining asosiy nazariyalari

Jinoyatchilik sabablari muammosi eng qadimgi muammolardan biridir. Bu muammoning juda ko'p konsepsiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular jinoyatchilik hodisasi va uning kelib chiqishini har xil nuqtai nazardan, chunonchi: teologiya va astrologiya, antropologiya va biologiya, biotika va kibernetika, genetika va psixologiya nuqtai nazaridan tushuntiradi. Tadqiqotlar bir ta'limotni ikkinchisidan farqlash juda murakkabligini ko'rsatadi. Shu bois bu ta'limotlar tasnifi hanuz ancha shartli bo'lib qolayotir. Shundan kelib chiqib, biz jinoyatchilik sabablarini tushuntirishning turli oqimlariga oid materialni bayon etishga harakat qilamiz.

Jinoyatchilik sabablarini tushuntirishga oid ijtimoiy adabiyotlarda asosan ikki yo'nalish: biologik va sosiologik yo'nalishlar farqlanadi. Ammo masalaga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, ulardan tashqari, boshqa bir qancha ta'limotlar ham mavjudligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Muammoga xronologik nuqtai nazardan o'rganadigan bo'lsak, ilohiyotni eng qadimgi ta'limot, deb hisoblash mumkin. Shu o'rinda, uning jinoyatchilik sabablarini tushuntirish bilan bog'liq asosiy qoidalari qanday, degan tabiiy savol tug'iladi,

Birinchidan, shuni ta'kidlash lozimki, ilohiyotda jinoyat (jinoyatchilik) tushunchasi o'miga undan mazmun jihatidan keng qamrovli bo'lgan gunoh atamasi qo'llaniladi. Ammo «gunoh» tushunchasi odamlar va jamiyat uchun o'ta xavfli bo'lgan inson xulq-atvori sifatidagi jinoyatni ham o'z ichiga oladi. Masalan, odam o'ldirish, birovning molini o'g'irlash, birovga zo'rlik ishlatish, odamning sha'ni va qadr-qimmatini erga urish va hokazolar og'ir gunoh hisoblanadi. Asosiy dinlarda «odam o'ldirma», «o'g'rilik qilma» kabi aqidalar amal qiladi.

Ikkinchidan, ko'rib chiqilayotgan muammoga oid ilohiy qarashlarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, inson (umuman, butun insoniyat) gunoh qilishga moyildir. Bunga Odam Ato va Momo Havo haqidagi mashhur rivoyat misol qilib keltiriladi va insonning gunoh qilishi o'shandan boshlangan, deb ta'kidlanadi. Muxtasarda yozilishicha, jinoyat so'zi lug'atda gunoh ma'nosini anglatadi va shariat istilohida u odamning joniga yoki a'zolariga zarar keltirish deganidir<sup>1</sup>. Shariatda odam o'ldirishning besh turi ko'zda tutilgan: 1) qasddan odam o'ldirish; 2) qasdga o'xshash o'ldirish; 3) beqasd (bilmay) o'ldirish; 4) beqasdga o'xshash (xatoyanglish) o'ldirish; 5) biron sabab bilan o'ldirish<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Мухтасар. – Т.: Чўшон, 1994. – Б.304.

<sup>2</sup> Ражабова М. Шариятда жиноят ва жазо. Монография. – Т.: Адолат, 1996. – Б.54.

**Bundan xulosa shuki, insonning jinoiy (gunohkor) xulq-atvori uning «tabiiy», uzviy xossalariidan biridir. Binobarin, toki insoniyat bu yorug' dunyoda mavjud ekan, uning bu xossasi yo'qolmaydi.**

Astrologiya, ayniqsa, tibbiy astrologiya ta'limoti ruhan ilohiyotga yaqin turadi. Tibbiy astrologiya Quyosh, Oy va boshqa sayyoralar, burjlar, yulduzlar va kosmik nurlanishlarning inson ruhiyatiga ta'sirini o'rganadi. Bir burj belgisi ostida Oy harakatining bir bosqichida tug'ilgan odamlar odatda bir xil kasalliklarga chalinishga moyilligi qadimdayoq kuzatilgan. Masalan, Qo'y burji ostida «kuchli Oy» bosqichida, ya'ni oy to'lishiga yaqin davrda tug'ilgan odamlarning ko'pchiligi migren', buyrak kasalliklari bilan og'riydi, Oy to'lgan paytda Sigir burji ostida tug'ilgan odamlarning ko'pchiligi esa tomoq, siydik-tanosil tizimi kasalliklariga moyildirlar.

Astrologiya ta'limotiga ko'ra, odam bolasi dunyoga kelgan ilk lahzalardan kosmos energiyasini o'zlashtira boshlaydi, muayyan kosmik ma'romga moslashadi. Insonning hayot faoliyati, shuningdek nojo'ya qilmishlari u qancha qulay yoki noqulay paytda dunyoga kelganligiga bog'liq bo'ladi. Astrologiya inson sodir etgan muayyan qilmishning kosmos bilan sababiy bog'lanishi to'g'risidagi savolga aniq javob bermaydi, lekin inson taqdiri Quyoshga umumiy tarzda bog'liq ekanligini qayd etadi.

XVIII asr o'rtalarida ishlab chiqilgan «sababiyat nazariyasi» jinoyatchilik sabablari va unga qarshi kurash chora-tadbirlari to'g'risidagi har xil ta'limotlar uchun eng rivojlangan, hatto klassik metodologik negiz bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy taraqqiyot sababiyat nazariyasining asoschisi sifatida Sharl Montesk'e tan olingan. O'zining «Qonunlar ruhi» (1748) asarida u inson xulq-atvoriga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan omillar qatorida quyidagilarni qayd etadi: davlat boshqaruv shakli, qonunchilik, mamlakatning geografik xossalari, iqlimi, tuprog'ining sifati, o'rni va katta-kichikligi, xalqning turmush tarzi (dehqonlar, ovchilar, cho'ponlar), erkinlik darajasi, dini, aholining moyilliklari va soni, boyligi, savdo-sotiq, urf-odatlar va udumlari. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Montesk'ening ushbu nazariyasi keyinchalik kriminologiyada jinoyatchilikni tushuntirishda ikki yo'nalish: geografik va iqlimiy sabablarning roli vujudga kelishini belgilab berdi.

Ushbu ta'limotning yirik namoyandalaridan biri bo'lgan ingliz huquqshunosi va axloqchisi Ieremiya Bentam (1748-1832) o'zining «Ma'naviyat va qonunchilik asoslariga kirish» nomli asarida inson xulq-atvoriga va umuman jinoyatchilikka ta'sir etuvchi 32 omilni sanab o'tdi. Ular orasida inson sog'lig'i, kuchi, quvvati, jisman nomukammallik, bilim darajasi va sifati, aqliy qobiliyati, o'jarlik, moyilliklar, qiziqishlar, antipatiyaga



moyillik, qiziqqonlik, ta'sirchanlik, simpatiyalar, pul bilan bog'liq holatlar, simpatiya orqali aloqalar, antipatiya orqali aloqalar, tana tuzilishi, ruhiyat, jins, yosh, ijtimoiy holat, tarbiya, iqlim, kelib chiqish, boshqaruv shakli, din va hokazo holatlar ajratib ko'rsatilgan<sup>1</sup>.

O'zining eng muhim asari «Deontologiya yoki axloq haqidagi fan» (1834)da Bentam insonning xulq-atvor motivlarini lazzat olishga ishqibozlik yoki jafokashlik bilan bog'laydi. Uning fikricha, axloqiylikni muayyan shaxsning biron-bir qilmishi (qilmishlari) natijasida olingan lazzat yoki chekilgan azob-uqubatlar nisbati tarzida matematik yo'l bilan hisoblab chiqarish mumkin.

XIX asming birinchi yarmida belgiyalik olim Adolf Kettle statistik ma'lumotlarga asoslangan holda o'zining jinoyatchilik sabablari nazariyasini ishlab chiqdi. Uning asosiy asari – «Statistik fizika» (Bryussel, 1869) yuqorida qayd etilgan yondashuvni asoslashga bag'ishlangan. «O'rta odamning jinoyatga moyilligi»ni aniqlash uchun Kettle axloqqa iqlim, jins va yosh omillarining ta'sirini tadqiq qilish va ularning ta'siri ehtimollik darajasini aniqlash imkonini berish yo bermasligini aniqlash vazifasini qo'ydi. O'z xulosalarini Kettle quyidagicha ta'riflab berdi: «Yosh jinoyatga moyillikning rivojlanishiga yoki kamayishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi sabab ekanligi shubhasizdir. Ushbu salbiy moyillik odamning jismoniy kuchi va ehtirolari bilan teng darajada o'sib boradi... O'z ehtirolari ta'siriga berilgan odam dastlab zo'rlik ishlatish va nomusga tegishga beriladi; deyarli shu vaqtda u o'g'rilik yo'liga kiradi va bu instinkt uni so'nggi nafasi chiqquncha tark etmaydi; kuchining rivojlanishi uni zo'ravonlik, odam o'ldirish, isyonkorlik va yo'llarda talonchilik qilishga da'vat etadi. Nihoyat, odam jinoyat yo'liga kirib, kuch bilan birga hiylanayrang ishlata boshlaydi va o'z hayotining boshqa davrlaridagiga qaraganda ko'proq darajada yolg'onchi bo'lib qoladi».

Jinoyatchilikka yosh omilining ta'sirini aniqlab olgach, Kettle jins omilining ta'sirini aniqlashga o'tadi: «Jinoyatchilikka moyillikka jinslar o'rtasidagi farq ham katta ta'sir ko'rsatadi». Bu ta'sirni Kettle jinslarning odatlari, xususan, ayol mahdud (boshqalar uchun yopiq) muhitda hayot kechirishi, u erkakka qaraganda kuchsizroq ekanligi bilan tushuntiradi.

Jinoyatchilikka fasllar o'zgarishining ta'sirini aniqlar ekan, Kettle «yil fasllari jinoyatchilikka moyillikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi; yozda shaxsga qarshi jinoyatlar ko'proq va o'zgarar mulkiga qarshi jinoyatlar kamroq sodir etiladi, qishda esa – buning teskarisi kuzatiladi», deb ta'kidlaydi.

<sup>1</sup> Избранные произведения Йеремия Бентама. Т. 1. – СПб., 1867. – С.39.

Shundan so'ng u jinoyatchilikka iqlimning ta'sirini aniqlashga harakat qiladi: «Iqlim shaxsga qarshi jinoyatlarga moyillikka ko'proq ta'sir ko'rsatsa kerak».

Ketle jinoyatchilik omillari sifatida yosh, jins va iqlimga asosiy e'tiborni qaratib, boshqa omillar haqida ham unutmaydi. Ular qatoriga Ketle sanoat va savdo-sotiqning rivojlanganligi, kishilar o'rtasidagi tengsizlik, kasb-hunarlar roli, ma'rifat va kambag'allikni kiritadi.

Sabablar ko'pligi nazariyasini ishlab chiqqan ko'pgina huquqshunolar quyidagi asosiy qoidalarni qabul qildilar:

1) jinoyatchilikning tub sabablarini tushuntirishda jinoyatchilikka ta'sir ko'rsatuvchi muayyan omillarni ajratishning zarurligi;

2) jinoyatchilikning rivojlanish qonuniyatlarini inson xulq-atvori alohida omillarining mexanik yig'indisi tarzida tadqiq qilish zarurligi;

3) jinoyatga fizik-biologik va ijtimoiy omillar mahsuli sifatida qarash. Jinoyatchilikning doimiyliigi, uning asosiy ko'rsatkichlari o'zgar-masligi shu qonuniyatlar bilan belgilanadi.

**Biologik nazariyalar.** Jinoyatchilik sabablari haqidagi har xil biologik ta'limotlar jinoyatchilik sabablarini tushuntiruvchi nazariyalar orasida eng rivojlanganidir. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, jinoyatchilikni biologiyaga bog'lab tushuntirish hozirga qadar eng barqaror tendensiyalardan biri bo'lib qolayotir. Quyida shu haqda mufassalroq to'xtalib o'tamiz.

Italyan vrachi va kriminalisti, Turin universitetining anatomiya fanlari professori Chezare Lombrozo (1830-1909) jinoyatchilikning biologik omillari va ularni tasniflash muammosi bilan maxsus shug'ullangan «antropologik maktab»ga asos solgan va unga rahnamolik qilgan birinchi olimdir.

Lombrozo ishlab chiqqan jinoyatchilik sabablari nazariyasi pozitivizm falsafasi (Kont, Spenser), psixiatriya va statistikaga asoslanar edi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Lombrozoning jinoyatchilik sabablariga nisbatan yondashuvi tadrijiy tarzda rivojlanib bordi. Ammo dastlabki «tug'ma jinoyatchi» talqinida jinoyatchilik omillarini tasniflashga zarurat yo'q edi. Bu erda mohiyat e'tibori bilan bir asosiy omil – tug'ma jinoyatchining biologik tabiati to'g'risida so'z yuritilardi. O'z ishiga izchil yondashishga o'rgangan Lombrozo avval jinoyatchilik omillari sxemasini emas, balki tug'ma jinoyatchining belgilari, alomatlari sxemasini ishlab chiqdi. Buni Lombrozoning ikki asosiy asari – «Jinoiy odam» (1876) va «Jinoyatchilik, uning sabablari va davolash vositalari» (1899)ni qiyosiy o'rganish ham tasdiqlaydi.

«Jinoiy odam»da Lombrozo tug'ma jinoyatchini tavsiflovchi belgilar (ko'rsatkichlar)ni diqqat markazida tutadi. So'ngra u har xil antropologik,

biologik belgilarni va, bundan tashqari, tug'ma jinoyatchini, axloqan buzilgan, epileptik, isterik shaxsni tavsiflovchi biopsixologik belgilarni izchil tadqiq qiladi. Mana, uning taxminiy sxemasi: A. Bosh miya anomaliyalari, uning tuzilishi. Jinoyatchi, aqli noraso shaxs va normal odam bosh miyasining o'ziga xos xususiyatlari; B. Miya anomaliyalari; morfologik gistologik anomaliyalar; V. Ichki organlar: yurak, oshqozon va hokazolarning anomaliyalari; G. Antropometrik ko'rsatkichlar: bo'y, og'irlik, bosh, yuz, quloq, burun, og'iz, soch, terining o'ziga xos xususiyatlari. D. Tana: ko'krak, tomirlar va hokazolarning anomaliyalari; E. Biopsixologik xususiyatlar: tana temperaturasi, ta'sirchanlik, shafqatsizlik, mayga va qimor o'yiniga ishqibozlik, dindorlik, axloqiy sezgilar, vijdon qiynalishi, o'z qilmishidan pushaymon bo'lish, adolat tuyg'usi, dangasalik, engiltaklik, sinizm, yolg'onchilik, ma'lumot, jargon, imo-ishoralar, dastxat, tatuirovka.

Bu shaxslarning barchasini tug'ma jinoyatchilar deb hisoblaganligi uchun, Lombrozo ularning biologik belgilarini tavsiflash bilan kifoyalandi. Biroq, tug'ma jinoyatchi tipi bilan bir qatorda, tasodifiy jinoyatchi tipi mavjudligini ham tan olgan Lombrozo kosmik, irsiy, etnik, shaxsiy va boshqa omillarning sxemalarini ishlab chiqishga ham ma'lum darajada e'tibor berdi.

Lombrozo taklif qilgan jinoyatchilik omillari to'g'risidagi masalaning dastlabki echimi ana shunday edi.

Oradan yigirma yildan ko'proq vaqt o'tgach, Lombrozo o'zining yangi tadqiqoti – «Jinoyat, uning sababli va davolash vositalari» asarini e'lon qildi. Unda olim jinoyatchilik omillarining katta bir tizimini rivojlantirdi. Ushbu tadqiqotga yozgan qisqa so'z boshida u shunday deydi: «Har qanday jinoyatga juda ko'p omillar sabab bo'ladi».

Lombrozo ushbu tadqiqotida jinoyatchilikning har xil omillarini aniqlaydi va ko'p sababli jinoyatchilik yo'nalishiga qadam qo'yadi.

U jinoyatchilik sabablarini 15 guruhga ajratdi. Pirovardida ularni bir necha asosiy guruhlarga, chunonchi: fizik, biologik, psixologik va ijtimoiy omillar guruhlariga birlashtirish mumkin.

Lombrozo ishlab chiqqan jinoyatchilik sabablari ro'yxati quyidagicha:

1) Meteorologik va iqlim sabablari: haddan tashqari yuqori yoki past temperatura, mo'tadil temperatura, yil fasllari, issiq yillar, jinoyatchilik kalendari, issiq mamlakatlar, boshqa ta'sirlar.

2) Geografik sabablar: geologiya, geografiya, malyariya (bezugak), odamlar o'limi darajasi.

3) Irqiy sabablar: irqqlar ta'siri, jinoyatchilar markazlari, delixosefallar, braxisefallar, sochning sarg'ish yoki qoraligi, yahudiyalar, bogemaliklar.

4) Ma'rifiylik va vahshiylik sabablari: vahshiylik, odamlar ko'pligi yoki kamligi, emigrasiya, immigrasiya, tug'ilish, ma'rifiylik, shahar, qishloq.

5) Ovqatlanish.

6) Alkogolizm va narkotizm: alkogolning zararli ta'siri, pauperizm, nikotin, morfiy, buzilgan mais.

7) Ma'lumot: savodlilik, savodsizlik, ma'lumotlilik alomatlari.

8) Iqtisodiy sabablar: narx-navo va soliqlar, ishsizlik, maosh beriladigan kunlar, omonat kassalari, qishloq xo'jalik va sanoat hududlari, boyluk, kambag'allar jinoyatchiligi keng tarqalganligi.

9) Din.

10) Tarbiya: noqonuniy tug'ilganlar, etimlik, ota-onaning axloqsizligi, tarbiya.

11) Irsiy sabablar: atavistik irsiyat, ota-onaning ruhiy kasalliklari, ota-ona epilepsiyasi, alkogolizm ko'rinishidagi irsiyat, ota-onaning yoshi.

12) Yosh omili: barvaqt rivojlanish, yosh.

13) Jins omili: jins va yoshning o'zaro nisbati, jinoyatchilikning jins bilan bog'liq xususiyatlari, prostitutsiya.

14) Fuqarolik holati: fuqarolik holati, kasb-hunar, harbiy xizmat, ishyoqmaslik.

15) Boshqa sabablar: turma, sensasiya, taqlid.

Ko'rib turganimizdek, Lombrozo jinoyatchilik omillari nazariyasini ishlab chiqishda mazkur sabablarni izchil tizimga solish maqsadini ko'zlamagan. Bu sabablar uning asarida o'ta tartibsiz ko'rinishda berilgan. Ammo shu erning o'zidayoq muhim va ikkinchi darajali, ta'sirchan va to'qima omillarning aralashuvi, ijtimoiy hodisalar va ularning qonuniyatlari bilan individual xulq-atvor o'rtasidagi farqlarni olim yaxshi tushunmaganligi, ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bilan tushuntirishga intilish, ya'ni har xil hodisalar va jarayonlarni qo'pol ravishda biologiya bilan bog'lashga urinish ko'zga tashlanadi.

Lombrozo nafaqat tug'ma jinoyatchi nazariyasini, balki shaxsning tashqi belgilariga asoslangan holda jinoyatchilarning tiplari nazariyasini ham ishlab chiqdi.

Uning fikricha, jinoyatchi, masalan, qotil ona qornidan jinoyatchi bo'lib tug'iladi. Bunday shaxs ibtidoiy odamlarga xos alohida jismoniy va ruhiy xususiyatlarga (atavizmga) ega bo'ladi.

Lombrozoning qarashlari uning zamondoshlari tomonidan qattiq tanqid qilindi. Chunonchi, ingliz vrachi Gorant jinoyatchilar va oddiy odamlarni qiyosiy o'rganishga asoslangan antropologik nazariya xulosalarini tahlil qilib, jinoyatchilarning anatomik tipi mavjud emasligini aniqladi.

Boshqa bir mashhur kriminolog olim – Ferri jinoyatchi yashaydigan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq jinoyatlarning ijtimoiy omillari qatoriga quyidagilarni kiritadi: aholi zichligi, jamoatchilik fikri, axloq, din, oiladagi hayot tarzi, maktabdagi tartib, sanoatning rivojlanish darajasi, alkogolizm, iqtisodiy va siyosiy tuzum, ma‘muriy idoralar, adliya, milisiya hamda qonunchilik.

Xullas, lombrozichilar uchun jinoyatchilik sabablari tizimida odamning tug‘ma belgilari birinchi o‘rinda turadi. Shu sababli mazkur nazariya kriminologiyaga oid adabiyotlarda «tug‘ma jinoyatchi» nazariyasi deb nomlanadi.

Bu nazariyani izsiz yo‘qolgan deb bo‘lmaydi. Hozirda lombrozichilikning yangi yo‘nalishi – neolombrozichilik ham mavjud. Masalan, jinoiy-biologik nazariyaga asosan, residivist jinoyatchilar, tasodifiy jinoyatchilardan farqli o‘laroq, tegishli fizik va psixologik xususiyatlarga ega bo‘ladilar, bu xususiyatlar ularga normal, jamiyat tomonidan ma‘qullanadigan turmush kechirishga xalaqit beradi. Masalan, Krechmer fizik o‘ziga xoslik tiplarini farqlaydi va jinoiy xulq-atvorni shularga bog‘lab o‘rganadi.

Sheldon va Glyuk jinoyatchining «morfologik» tipi to‘g‘risidagi ta‘limotga asos soldilar. Bu ta‘limotda ular odamning fizik, tashqi o‘ziga xosliklari bilan uning delinkvent salohiyati darajasi o‘rtasida bog‘lanish mavjudligini isbotlashga harakat qilganlar.

**Genetik nazariya.** Irsiyat organizmlarning o‘zgaruvchanligi qonunlari to‘g‘risidagi fan bo‘lib, u biologiyada nisbatan yangi yo‘nalish – genetika vujudga kelishiga turtki bo‘ldi. Inson xulq-atvori, shu jumladan g‘ayriijtimoiy xulq-atvor sabablarining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi biologik ta‘limotlardan biri genetik nazariyadir.

Ushbu nazariya tarafdorlari har qanday odam hayotida genlar muhim rol o‘ynaydi, degan g‘oyaga asoslanadilar.

Genlar – oqsil sintezi uchun javobgar bo‘lgan, pirovardida shaxsning muayyan xossa va alomatlarini belgilaydigan nuklein kislotasi qismlaridir. Ayni vaqtda, ushbu xossa va alomatlar genlarda tayyor holda mavjud bo‘lmashligini e‘tiborga olish lozim. Genlar faqat tashqi muhitning muayyan sharoitida xossalari va belgilarning rivojlanish imkoniyatini belgilaydi, xolos.

Genetiklar genlar har xil tiplar, biologik tarkiblarning rivojlanishiga va biologik jarayonlar faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatishini nazarda tutgan holda, «ular ruhiy xossalari bog‘liq bo‘lgan muayyan tarkib va funksiyalarga ham ta‘sir ko‘rsatadi, genotiplardagi farqlar xulq-atvordagi farqlarga ham sabab bo‘lishi mumkin»<sup>1</sup>, deb taxmin qiladilar.

<sup>1</sup> Штерн К. Основы генетики человека. – М., 1965. – С.529.

Egizaklar o'rtasidagi jinoyatchilik jinoiy xulq-atvorning genetik bog'lanishini tasdiqlovchi inkor etib bo'lmaydigan dalillardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, egizaklar ikki har xil tuxum hujayralari bir vaqtda urug'lanishi natijasida ham («ikki tuxumli» yoki dizigot egizaklar), bir urug'langan tuxum hujayrasi xromosomalar va genlar to'plami bir xil qo'shni tuxum hujayralariga bo'linishi natijasida ham tug'ilishi mumkin. So'nggi zikr etilgan holatda irsiy jihatdan bir xil egizaklar («bir tuxumli» yoki monozigot egizaklar) tug'iladi.

Mazkur holatning ahamiyati shundaki, bir tuxumli egizaklar deyarli bir xil genotipga ega bo'ladi. Ular ikki o'g'il yoki ikki qiz ko'rinishida tug'iladi. Bunday egizaklarni taqqoslab va juft doirasidagi muvofiqlik kattaligini baholab, ularning qaysi xususiyatlari genotip bilan, qaysilari – muhit va sharoit ta'siri bilan bog'liqligini aniqlash mumkin. Bunday egizaklar morfologik, fiziologik va fizik xususiyatlarining ajabtovur tarzda o'xshashligi bilan ajralib turadi. Ularning tug'ilish takroriyligi turli irq vakillari uchun har ming tug'ishga nisbatan 3,2 – 5 atrofida bo'ladi.<sup>1</sup>

Binobarin, bir tuxumli egizaklar o'rtasida biron-bir farq mavjud bo'lsa, ular faqat bu egizaklarning rivojlanish shart-sharoiti bilan belgilanadi, chunki ularning irsiyati bir xildir.

Birinchi egizaklar jinoyatchiligi qayd etilgan hollarda ikkinchi egizaklar jinoyatchiligining takroriylik darajasini aniqlash uchun yuqorida zikr etilgan holatdan foydalanildi. Bunda, tabiiyki, irsiy o'xshashlik to'liq bir xil bo'lgan, ya'ni bir tuxumli egizaklarga oid ma'lumotlar tadqiqotga asos qilib olindi<sup>2</sup>.

Tadqiqotchilar jami 249 juft egizaklar xulq-atvorini o'rganib chiqdilar. Ular bir tuxumli egizaklardan biri jinoyat sodir etgan bo'lsa, tadqiq etilgan holatlarning 62,6 foizida ikkinchi egizak ham jinoyatga qo'l urganligini aniqladilar. Bundan irsiy jinoiy «gen» mavjud degan xulosa kelib chiqadi. Egizaklarni o'rgangan mualliflar aksariyat hollarda insonning intellekt darajasi irsiy omillar bilan belgilanadi, degan xulosaga keldilar. Bunda irsiyat ta'sirining ulushi 75-80%, muhit ta'sirining ulushi esa – 20-25% atrofida bo'ladi. Ammo ma'lumotlar ko'p jihatdan qarama-qarshi va sub'ektiv tarzda talqin qilinadi.

Irsiy-genetik nazariyaning rivojlanishiga xromosomalar bilan bog'liq anomaliyalar haqidagi ma'lumotlar ham hissa qo'shdi. Mendelning sitologik mexanizmlarini kashf etgan irsiyatning xromosoma nazariyasiga amerikalik biolog Morgan Tomas Xant (1866-1945) asos solgan. Ushbu

<sup>1</sup> Дубинин М.П., Карисц И.И., Кудрявцев В.Н. Генетика, поведение, ответственность. – М., 1982. – С.129.

<sup>2</sup> Ефроймсон В. Родословная альтернизма //Новый мир, 1971, №1. – С.210.

nazariya hujayra ichki jarayonlari – hujayralarning bo‘linishi, gametogenez va urug‘lanish bilan genlarning aloqasini ko‘rsatib berdi va organizmlar rivojlanishi irsiyatga bog‘liqligi haqidagi ta‘limotga asos soldi.

Odamning odatdagi hujayra mag‘izi (yadrosi) 23 juft xromosomadan iborat bo‘ladi. Xromosomalarning normal taqsimlanishi maxsus «XY» formula ko‘rinishida ifodalanadi. Bu erda «X» – erkak geterogametlik xususiyatiga ega bo‘lgan turlarda ayol jinsining rivojlanishini yoki gaplofazada jinsni belgilaydigan xromosoma; «Y» – faqat erkak jinsiga mansub turlarda uchraydigan xromosoma.

Ammo hayotda ba‘zan (500 – 1000 tadan 1 ta) 46 ta emas, balki 47 ta xromosomaga, ya‘ni me‘yordan ortiqcha xromosomaga ega bo‘lgan odamlar ham uchraydi.

Ba‘zi bir tadqiqotlar xromosoma anomaliyalariga ega bo‘lgan shaxslar o‘ziga xos fe‘l-atvoriga ham ega bo‘lishini ko‘rsatdi. Xususan, «XXY» anomaliyasiga ega bo‘lgan shaxslar odatda hezalaktabiat, irodasiz, intellektual darajasi past bo‘ladi.

Ortiqcha «Y» xromosomaga ega shaxslar baland bo‘yi, emosional beqarorligi, agressiv xulq-atvori bilan ajralib turadi. Bundan xulosa shuki, xromosoma anomaliyalari jinoyat sodir etmagan shaxslarga qaraganda jinoyatchilarga taxminan 80 baravar ko‘proq xosdir. Demak, «ortiqcha» xromosoma jinoyat sodir etishga turtki beruvchi irsiy (biologik) sabablardan biridir.

Jinoyatchilik omillari biologik nazariyasining rivojlanishini «endokrinologik» oqim ta‘limotida kuzatish mumkin. Ushbu nazariya jinoyat xulq-atvorni odamning ichki sekresiya bezlari anomaliyalari bilan bog‘laydi. Mazkur yondashuv tarafdorlari muayyan jinoyat sodir etishga moyil odamlar tiplarining o‘ziga xos tasnifini ishlab chiqdilar.

**Psixologik nazariyalar.** Jinoyatchilik sabablarining psixologik nazariyasi hozirda eng keng tarqalgan va nisbatan izchil nazariyalardan biridir. Bu erda mazkur nazariyaning ikki muhim yo‘nalishi – psixopatik va psixoanalitik yo‘nalishlarni qayd etish mumkin.

Birinchi yo‘nalish shaxsning jinoyat sodir etishga psixopatik tarzda moyilligidan, ya‘ni ruhiy sog‘liq xususiyatidan kelib chiqadi. Nemis psixiatri Kurt Shneyder o‘zining «Psixopatik shaxslar» asarida psixopatlarning 10 tipini qayd etib o‘tgan. Uning fikricha, shu tiplardan kamida 7 tasi g‘ayriijtimoiy qilmish sodir etishga muayyan darajada moyildir (xususan, melanxoliklar va xoleriklar).

Boshqa bir nemis psixiatri Ernest Krechmer (1899-1964) jinoyatchilarning quyidagi tiplarini farqlaydi: piknik tip (katta gavdali, kalta

oyoqli odamlar); leptosomik yoki astenik tip (uzun bo'lyi, og'irligi uncha katta bo'lmagan odamlar); displastik tip (umumiy rivojlanishda muayyan anomaliyalar mavjud odamlar); atletik tip (tanasi proporsional jihatdan yaxshi rivojlangan odamlar). Biroq, E. Kerchmer o'z tasnifida antropologik nazariya g'oyalariga, xususan, jinoyatchilarni tashqi belgilariga qarab tavsiflash g'oyasiga yaqinlashadi.

Avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd (1856-1940) ishlab chiqqan psixoanalitik nazariya ham o'zining juda ko'p izdoshlarini topdi (va hozir ham topmoqda). Uning «Tushlar ta'biri» deb nomlangan asosiy asari 1900 yilda e'lon qilindi. O'zining shu va keyingi tadqiqotlarida Z.Freyd shaxs ichki dunyosi tuzilishi, uning ehtirosleri va burch tuyg'usi o'rtasidagi to'qnashuvlar, ma'naviy kechinmalarning sabablari, insonning o'zi va o'zini qurshagan muhit haqidagi qarashlari bilan bog'liq muhim masalalarni yoritib berdi.

Muxoliflar «panseksualizm» deb nomlagan Z. Freydning asosiy yondashuvida isteriya kasalligiga chalingan bemorlarni, asosan qo'rquv, ta'sirchanlikni yo'qotish, ishtahasizlik, shaxsning ikkilanishi, gallyusinasiyalar, spazmlar va hokazo simptomlar (fobiya)ga ega bo'lgan ayollarni o'rganish jarayonida inson xulq-atvorini harakatlantiruvchi ikki muhim instinkt – o'zini o'zi asrash instinkti va seksual instinktni qayd etiladi. Bunda u seksual instinkt (libido)ni o'z psixoanaliz nazariyasiga asos qilib oldi. Uning fikriga ko'ra, ongsiz sohasi «libido»ga to'liq bo'lib, lazzatlanish prinsipidan boshqa hech narsani bilmaydi. Ong ijtimoiy ta'qiqlar ta'sirida lazzatlanish erkinligini cheklashga tayyor bo'lganligi tufayli, libido energiyasi tashqariga chiqish uchun «aylanma» yo'llarni izlashga majbur bo'ladi. U aqliy, hatto tana reaksiyalarida – nafaqat beozor, balki patologik reaksiyalarda, chunonchi: psixonevroz, isteriya va hokazolar ko'rinishida va pirovard natijada g'ayrihuquqiy qilmishlarda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, Freydning psixoanaliz nazariyasiga asosan, seksual (jinsiy) ehtiyojni qondirish inson xulq-atvorining asosiy yoki hal qiluvchi omili hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, uning qondirilishi ruhiy sog'lomlik negizini tashkil etadi, uning qoniqmasligi esa, g'ayriijtimoiy qilmishlar ko'rinishini kasb etishi ham mumkin bo'lgan og'ir asabiy va ruhiy kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Freyd ta'limoti Emil Dyurkgeym (1858-1917) asarlarida (xususan, «Odam o'ldirish: normapatologiya» kitobida) muayyanroq ko'rinish kasb etdi. Uning fikriga ko'ra, har qanday odam o'z ehtiyojlari to'la qondirilgan holdagina yashay oladi. Odamning oziq-ovqat, kiyim-kechakka bo'lgan



ehtiyojlarini, uning jinsiy maylini tizginlash mumkin emas, ularni faqat jamiyat cheklashi mumkin. Ammo jamiyat shaxsiy ehtirolarni tiyib turishga qodir emas, chunki uning o'zida beqarorlik omili mavjud. Binobarin, har qanday jamiyatda jinoyatchilik normal hodisadir, shu bois faqat patologik hodisalarga qarshi kurashni tashkil etish lozim. Fransuz sosiologi Emil Dyurkgeym o'zining ushbu nazariyasini «anomiya» deb nomladi.

Freydizm g'oyalari Zigmund Freyd hayotlik paytdayoq uning ilk muxoliflari A. Adler va K. Yunglar tomonidan qattiq tanqidga uchradi. Xususan, A. Adler jinsiy ehtiyojni qondirish usuli muayyan shaxsning turmush tarzi bilan belgilanadi, zotan, inson jinsiy emas, balki ijtimoiy mavjudot, uning asosiy ehtiyoji – o'zini o'zi tartibga solishdir, degan g'oyani ilgari surdi. Ammo Adler Freydning jinsiy onglizligini hokimiyatga ongsiz tarzda intilish bilan almashtirdi. O'z nazariyasini Adler «shaxsiy psixologiya» deb nomladi. Ushbu nazariya zamirida bola o'z hayotining dastlabki yillarida o'zlashtiradigan va umrbod o'zgarishsiz qoladigan «turmush tarzi» yotadi. Adlerning fikricha, bola «barkamollik»ka erishishi uchun unga to'la erkinlik berish lozim. Bu g'oya ayrim mamlakatlarda ro'yobga chiqarilgan. Jumladan, bola 5 yoshga to'lgunga qadar unga hech narsa man etilmaydi, hamma narsaga ruxsat beriladi va faqatgina shu yoshdan keyin unga nima mumkin-u, nima mumkin emasligi uqtiriladi va ayrim amallar ta'qiqlanadi.

K. Yung Freydning yuqorida qayd etilgan g'oyalarini «sublimasiya», «Edip kompleksi» sifatida rad etdi, ongsizlik fizikadagi «tugal shakl»ga kirish yoki muvozanat holatini egallash maqsadida bir turdan boshqa turga o'tuvchi energiyani eslatishini isbotlashga harakat qildi. Yung ko'pchilik uchun umumiy bo'lgan «kollektiv ongsizlik» g'oyasini ilgari surdi. Yungning «analitik psixologiyasi»da shaxslarning tiplarini aniqlashga katta ahamiyat beriladi. Uning tipologiyasi zamirida odamlarning o'zi va boshqalar haqidagi fikrlari yotadi. Ushbu mezonga ko'ra Yung odamlarni ikki tipga: o'ziga («ichga») qarab mo'ljal oluvchi va boshqalarga («sirtga») qarab mo'ljal oluvchi odamlarga ajratadi.

K. Xorni va E. Frommning amerikacha freydizmi ham, hatto ruhiy kasalliklarni inqilobiy salohiyat, hokimiyat funksiyasi (milisiya, sog'liqni saqlash va h.k.)ni esa – taraqqiyotga to'sqinlik vositasi sifatida talqin qiluvchi freydomanizm ham neofreydizm yo'nalishiga mansubdir. Ichki ongsiz kuchlar – mayllar inson xulq-atvorini harakatlantiruvchi kuchdir, degan g'oya neofreydizmning barcha yangi oqimlarida saqlanib qolayotir.

Fransuz olimi Gabriel Tard (1843-1904) ishlab chiqqan nazariyani jinoyatchilik sabablari haqidagi psixologik ta'limotlarning o'ziga xos

tarmog'i deb hisoblash mumkin. U, jinoyat ijtimoiy hodisa, lekin uning zamirida inson ruhiy faoliyatining alohida ko'rinishlari, xususan, bировga taqlid qilish va boshqalarga ta'sir ko'rsatish qobiliyati yotadi, degan g'oyadan kelib chiqadi. Taqlid qilish va ta'sir ko'rsatish odamlarni qattiq o'ziga tortadi va shu tariqa shaxsning xulq-atvoriga ta'sir etadi. Taqlid qilish nazariyasi ayrim tadqiqotlarda «o'rgatish» nazariyasi deb ham nomlanadi. Gabriel Tard bu nazariyaning uch qonunini kashf etdi:

1) o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan odamlar bir-birining xulq-atvorini tez o'zlashtiradi;

2) yoshlar o'zidan kattalarga, kambag'allar – boylarga, dehqonlar – aristokratlarga taqlid qiladi;

3) oldingi xulq-atvor yangi xulq-atvoriga o'rin bo'shatadi.

G.Tard fikricha, taqlidni modaga o'xshatish mumkin. Insoniyat taraqqiy etishi bilan jamiyatda taqlidning ta'sir doirasi kengayadi, binobarin, odamlar sodir etuvchi jinoyatlar soni ham ko'payib boradi.

Jinoyatchilik sabablarining sosiologik nazariyalari. Jinoyatchilik sabablariga nisbatan sosiologik yondashuvlar asosan XVIII-XIX asrlar oralig'ida shakllandi. Ushbu ta'limotlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular avvalo ekzogen omillarga va ularning ko'pligiga e'tibor beradi.

XVI asrdayoq Tomas Mor o'zining «Utopiya» asarida ingliz jamiyatida jinoyat xulq-atvor ayrim shaxslarning qashshoqligi va ayrim shaxslarning g'ayriijtimoiy turmush tarzi bilan birligidan kelib chiqqan, deb yozgan edi.

T. Kampanella (XVII asr) «Quyosh shahri» asarida jinoyatchilik ko'pchilik odamlarning qashshoqligi bilan bog'liqligini, jamiyatni odillik va jamiyat a'zolarining tengligi prinsiplarida qayta qurish zarurligini ta'kidlaydi. A. Morelli «Tabiat kodeksi»da inson tabiatan kamchilik-qusurlardan xoli tug'ilishini qayd etadi.

J.P.Marat (1743-1793), A.N.Radishchev (1749-1802) asarlarida jinoyatchilik bir odamning boshqa odamga zulm o'tkazishi, jamiyatdagi zo'ravonlik va adolatsizlik bilan bog'lanadi.

J.P.Marat o'zining «Jinoyat qonunchiligi rejasi» (1789) asarida asosan jinoyatchilik ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liqligi to'g'risidagi g'oyani rivojlantirdi. U jamiyatda hukm surayotgan kamchilik vakillari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni qayd etib o'tdi.

Rus mutafakkiri va demokrati A.N. Radishchev o'zining «Peterburgdan Moskvaga sayohat» va «Qonun – qoidalar to'g'risida» nomli asarlarida jinoyatchilik jamiyat qurilishi xususiyati, Rossiyadagi krepostnoylik tuzumining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti bilan bog'liq ekanligini

ta'kidladi. Bundan tashqari, u jinoyatchilik sabablarini statistik ma'lumotlar negizida o'rganish dasturini maxsus ishlab chiqdi.

Sosialist-utopistlar jinoyatchilik sabablarini shaxsiy mulkning mavjudligi va adolatsizlik bilan bog'laydilar. A.Sen-Simon (1760-1858) asarlarida jinoyatchilikning odamlar turmush sharoiti zahirida yashirin tub sabablari ko'rsatiladi. Sosialist-utopistlar chayqovchilik, sudxo'rlik bilan bog'liq jinoyatchilikka ishora qilib, zo'rvonlik va ekspluatasiya, tarbiyasizlik va yomon qonunlar sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashish behuda ekanligini ta'kidlaydilar. XIX asr rus demokratlari A.N. Gersen, V.G. Belinskiy, N.A. Dobrolyubov, N.G. Chernishevskiy ham jamiyatdagi jinoyatchilik sabablari to'g'risida shunga o'xshash xulosalarga keldilar.

Belgiyalik olim, sosiolog, statistik Adolf Kettle (1796-1874) o'z asarlarida jinoyatchilikning ijtimoiy munosabatlari bilan aloqasini tadqiq qilib, jamiyatning o'zi jinoyatlar sodir etilishiga turtki berishini ta'kidlaydi. Statistika yordamida u shaxs xulq-atvori, u tarbiyalangan muhit, uning ma'lumoti va hokozolar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga harakat qildi.

Golland kriminologi Van-Gamel (1842-1917) sosiologik maktab doirasida ijtimoiy omillarga, ular orasida esa – iqtisodiy shart-sharoitlarga (ayniqsa, boyish ishtiyoqiga) alohida e'tibor berdi.

Nemis kriminalisti List (1851-1919) jinoyatchilikka nafaqat jamiyatning iqtisodiy sharoitlari, balki urush, alkogolizm, ba'zi bir urfodatlar va udumlar, tarbiyadagi qusurlar va fohishalik ham ta'sir ko'rsatishini ta'kidladi.

Belgiyalik kriminolog Bonger (1876-1940) jinoyatchilikni avvalo ijtimoiy tuzum mahsuli deb tavsiflaydi. Bundan tashqari, u bolalar mehnati, uzun ish kuni, iqtisodiy tangliklar, ro'zg'ordagi kamchiliklar kabi ijtimoiy omillarni ham jinoyatchilik omillari sifatida qayd etdi.

Amerikalik kriminolog Veron Foksning «Kriminologiyaga kirish» asarida jinoiy xulq-atvor ontologiyasining ba'zi bir iqtisodiy nazariyalari, «tabaqalashtirilgan bog'lanish», «submadaniyatlar», «neytrallashtirish», «dreyf», «sigmasiya» nazariyalari, nihoyat, jinoyatchilik sabablarini ekologik asoslantirish nazariyalari ko'rib chiqiladi. Shu o'rinda ularning bir-biridan farqi nimada, degan savol tug'ilishi tabiiy.

E. Dyurkgeymning yuqorida qayd etib o'tilgan «anomiya» nazariyasi R.Merton taklif qilgan amerikacha variantida jinoyatchilikni ijtimoiy axloqning zavol topishi, jamiyat institutlari ijtimoiy-siyosiy jihatdan inqirozga uchrashi, buning natijasida shaxs jamiyatga qarshi isyon ko'tarishi yoki o'z joniga suiqasd qilishi bilan tushuntirishga harakat qiladi.

Amerikalik kriminolog Edvin Saterlend (1883-1950)ning «tabaqa-lashtirilgan bog'lanishlar» nazariyasi jinoyatchilik sababini jinoiy xulq-atvoriga o'rgatish natijasi sifatida talqin qiladi. U ilgari surgan nazariyaga asosan, jinoiy xulq-atvor shaxs muhitida qonunbuzarlikka turtki beruvchi mezonlar qonunga bo'ysunishga majbur qiluvchi mezonlarga qaraganda ustunroq ekanligining oqibatidir.

Kriminologiyaga oid ta'limotlar tarixida jinoyatchilik sabablarining nisbatan yangi konsepsiyasi marksizmning sinflar nazariyasi ta'sirida vujudga keldi.

N.F. Kuznesova fikriga ko'ra, salbiy iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy, tarbiyaviy, tashkiliy, boshqaruv, ijtimoiy-psixologik omillar majmui jinoyatchilikka sabab bo'ladi.

L.I. Spiridonovning fikricha esa, jinoyatchilikning alohida sabablari mavjud emas: ayni bir maxsus hodisalar har xil sharoitda turli ijobiy yoki salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Kriminologiyaning vazifasi jamiyatda mavjud noantagonistik ruhdagi qarama-qarshiliklar odamlarning ijtimoiy xossalarida namoyon bo'lib, ularning u yoki bu darajadagi salbiy xulq-atvoriga qanday turtki berishini aniqlashdan iboratdir.

A.A. Piontkovskiy jinoyatchilik sabablarining asosiy mazmuni jamiyat a'zolarining muttasil o'sib boruvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirish moddiy vositalari o'rtasidagi qarama-qarshilikdan iboratdir, deb ta'kidlaydi. S.A. Domaxin esa, aksincha, ijtimoiy munosabatlar g'ayriijtimoiy qarashlar va jinoyatlarga sabab bo'lishi mumkin emas, degan fikrni ilgari suradi.

V.N.Kudryavsev g'ayrihuquqiy xulq-atvor sub'ekt xulq-atvori va qonun talablari o'rtasida muttasil ravishda keskinlashib boruvchi va ochiq-oydin konfliktga aylanuvchi har xil qarama-qarshiliklar asosida va shaklida vujudga keladi va rivojlanadi, deb yozgan edi. Uning fikricha, bu qarama-qarshiliklar ruhiy, ijtimoiy yoki aralash ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

V.N.Kudryavsev qarama-qarshiliklar mavjud bo'lgan va namoyon bo'luvchi barcha hodisalar va jarayonlarni ob'ektiv va sub'ektivga ajratishni taklif qiladi.

«Jinoyatchilikning ob'ektiv sabablari – bu ijtimoiy borliqdagi, odamlarning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlaridagi muayyan qarama-qarshiliklar, g'ayriijtimoiy moyilliklarga sabab bo'luvchi qiyinchiliklar va kamchiliklardir, – deb ta'kidlaydi u. – Ob'ektiv shart-sharoit – bu huquqbuzarliklarning sub'ektiv va ob'ektiv sabablari ta'sirini qo'llab-quvvatlovchi, ba'zan esa – jonlantiruvchi tashkiliy, huquqiy, texnikaviy yo'sindagi kamchiliklardir».

V.N. Kudryavsev bu borada o'z nuqtai nazarini bayon etar ekan, shunday yozadi: jinoyatchilikning sub'ektiv sabablari – bu ijtimoiy psixologiya elementlari, nuqsonli ehtiyoj, qiziqish, maqsad va motivlar, sub'ektiv shart-sharoit esa – aholining demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (fe'l-atvori, mijozi, jinsi, yoshi va h.k.)dir.

Ammo jinoyatchilik bilan bog'liq hodisalarni guruhlashga nisbatan boshqacha, yanada oqilona yondashish ham mumkin, deb ta'kidlaydi V.N.Kudryavsev. Bu – shaxs, kichik ijtimoiy guruh, jamoa va umuman jamiyat. Mazkur yondashuvda jinoyatchilik sabablari jamiyat, sinf, mehnat jamoasi, kichik ijtimoiy guruh, shaxs kabi tizimlar doirasida elementlarning nomuvofiqlashuvi, shuningdek mazkur tizimlar, kichik tizimlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tarzida amal qiladi. Ko'rib turganimizdek, muallif qarama-qarshiliklarni faqatgina jinoyatchilik manbalaridan biri deb hisoblaydi.

Falsafa fani vakillari ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar o'rtasida quyidagi qarama-qarshiliklarni farqlaydilar:

1) kurash bilan bog'liq qiyinchiliklar ayrim shaxsiy ehtiyojlarni qondirishni vaqtinchalik cheklash yoki kechiktirishga majbur qilishidan kelib chiqadigan qarama-qarshiliklar;

2) jamiyat hayotini, mehnat va taqsimlash munosabatlarini va hokazolarni tashkil etishdagi kamchiliklar bilan bog'liq qarama-qarshiliklar;

3) shaxsning shaxsiy intilishlari va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar.

Shaxs va jamiyat o'rtasidagi eng keskin to'qnashuvlardan biri bo'lgan jinoyatchilik jamiyatda mavjud ijtimoiy qarama-qarshiliklar bilan bevosita yoki izchil bog'liqdir. Nisbatan yangi «deformasiyalar» nazariyasi «qarama-qarshiliklar» nazariyasiga yaqin turadi.

A.Nomokonov har qanday qarama-qarshiliklarni emas, balki ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi qarama-qarshiliklarnigina jinoyatchilik manbai deb hisoblaydi. Bunday qarama-qarshiliklarni u «jamiyat hayotidagi deformasiyalar» deb nomlashni taklif qiladi.<sup>1</sup> Uning fikricha, muayyan mikromuhitda, shaxsning turmush tarzi yoki holatida namoyon bo'luvchi «deformasiyalar majmui» muayyan jinoyatlarga sabab bo'ladi.

Professor V.S. Ustinov A. Nomokonov asariga yozgan taqrizida har qanday qarama-qarshiliklar jinoyatchilik manbai bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi, chunki jamiyat taraqqiyotiga imkoniyat yaratuvchi omillar jinoyatchilikka qarshilik ko'rsatuvchi omillarga ko'p jihatdan qarama-

<sup>1</sup> Номоконов А. Преступное поведение: детерминация и ответственность. – Владивосток. 1989. – С.187.

qarshi bo'lishi mumkin (teng taqsimlash jinoyatlarning oldini olishga ko'maklashadi, lekin iqtisodiy taraqqiyot yo'liga g'ov bo'ladi; demokratiya fuqaroning xulq-atvor variantlarini tanlash chegaralarini kengaytirib, jinoyatchilikning rivojlanishiga imkoniyat yaratishi mumkin; qo'rquvga asoslangan totalitarizm jinoyatlarni kamaytiradi, lekin turg'unlikka sabab bo'lishi mumkin). Rivojlanishning qay yo'lini tanlash esa jamiyat ixtiyoriga havola etiladi.

Madaniyat etishmagan taqdirda demokratiya juda ko'p kamchiliklarga ega bo'ladi. Biroq, yuksak madaniyat, huquqqa hurmat, moddiy ne'matlar etariligi bilan mushtarak demokratiya juda kuchli antikriminogen omil bo'lib xizmat qiladi. Lekin, hatto birinchi ko'rinishda ham demokratiya nafaqat iqtisodiyot, balki inson huquqlarini himoya qilish uchun ham totalitarizmga qaraganda afzalroqdir, deb ta'kidlaydi V.S. Ustinov.

Professor V.S.Volkov g'ayriijtimoiy xulq-atvor deformasiyasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, jinoyatchilik sabablari va shartlarini uch guruh (kompleks)ga ajratishni taklif qiladi:

a) jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq sabablar va shartlar;

b) shaxsning jamiyatga integrasiyalashuvi, uning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosliklari bilan bog'liq sabablar va shartlar;

v) ijtimoiy munosabatlarni ijtimoiy-huquqiy tartibga solish va huquqiy tartibotdagi, huquqbuzarliklarning oldini olishdagi kamchiliklar bilan bog'liq sabablar va shartlar.

Garri S.Bekker va Isaak Erlixning jinoyatchilik iqtisodiy nazariyasi biz hozir boshdan kechirayotgan bozor munosabatlariga o'tish davriga bevosita daxldor bo'lgan jinoyatchilik sabablarining eng qiziqarli va zamonaviy nazariyalaridan biridir.

Siyosiy iqtisodchi Garri S.Bekker birinchilardan bo'lib kriminologiya klassik maktabining quyidagi dalillarini tikladi: odam uning motivasiyasi boshqa odamlar motivasiyasidan farq qilganligi uchun emas, balki o'z harakatlarining sarf-xarajatlari va foydali tomonlarini tahlil qilib, o'z qarorlarini qabul qilish uchun boshqacha xulosalar chiqarganligi uchun jinoyatchiga aylanadi. Jinoyatchi mutlaqo oqilona qaror qabul qiladi. U o'z axborot imkoniyatlari doirasida o'zining imkoniyatlarini tekshirib ko'radi va eng kam xarajatlarda va ayniqsa, kamroq jazoga tortilish xavfi bilan ko'proq shaxsiy naf keltirishi mumkin bo'lgan harakatni tanlaydi.

Boshqa siyosiy iqtisodchi Isaak Erlix fikriga ko'ra, jinoyatchilar bunday imkoniyatlarga jinoyatchilikka moyil bo'lmagan odamlar bilan bir

xilda munosabatda bo'ladi. Jinoiy jazoga loyiq qilmishlarni, ayniqsa, mulkiy jinoyatlarni ular «bozordagi normal operatsiyalar» kabi sodir etadilar. Jinoyatning og'irlik darajasi muskul kuchi va xarajatlarga qarab aniqlanadi. Har bir jinoyatchi xarajatlar va ko'rilishi mumkin bo'lgan nafni shunday tahlildan o'tkazadi. Isaak Erlix fikriga ko'ra, jinoiy qilmishlarning «yashirin bozori» huquqbuzarlar xulq-atvorini tartibga soladi va muvofiq-lashtiradi. Boz ustiga, mazkur bozor jinoyatlardan jabrlanuvchilarning xulq-atvorini, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini ham tartibga soladi.

Bundan tashqari, I. Erlix nazarida, jinoyatlardan jabrlanishi mumkin bo'lgan shaxslar har xil ehtiyot choralari yordamida o'zlarini jinoyatlardan himoya qiladilar. Bunday ehtiyot choralari qatoriga, masalan, qo'riqlash signalizatsiyasi o'rnatish, seyf xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarni kiritish mumkin. Ko'rsatib o'tilgan ob'ektlarga tajovuz qilish imkoniyatlarining cheklanishi jinoiy qilmishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish xarajatlarini ko'paytiradi. Pirovard natijada jinoyatni daromadlar tengsizligi vujudga keltiradi, deb ta'kidlaydi iqtisodchi. Bu tengsizlikka barham berish uchun ma'lumot olish, bandlik va etarli daromad olish imkoniyatlarini jamiyat-niing barcha vakillari uchun tenglashtirish zarur.

Vestfaliya universiteti kriminologiya institutining rahbari Gans Ioaxim Shnayder jinoyatchilik sabablarining uch iqtisodiy nazariyasini qayd etadi:

1) depressiya nazariyasi – konyunktura yuqori bo'lgan davrda jinoyatchilik kamayadi, iqtisodiy depressiya davrida esa – kuchayadi;

2) ekspansiya nazariyasi – iqtisodiyot o'sishi bilan jinoyatchilik ham o'sib boradi, iqtisodiy o'sish pasayishi bilan esa – pasayadi;

3) depressiya va ekspansiyaning uyg'unlik nazariyasi – iqtisodiyot yuksalgan va pasaygan paytlarda jinoyatchilikning o'sishi ro'y beradi<sup>1</sup>.

Jinoyatchilik sabablariga nisbatan asosiy yondashuvlarning qisqacha tahlilidan umumiy xulosa tariqasida quyidagilarni qayd etish mumkin. Har qanday hodisa serqirra bo'lib, u minglab bog'lanish va o'zaro ta'sirlarga ega. Jinoyatchilik ham, uning sabablari ham bundan mustasno emas. Boz ustiga, ular eng murakkab hodisalardir.

Buni tan olish ularni ko'p tomonlama tushuntirish imkoniyati va zarur-ligini nazarda tutadi. Shu sababli yuqorida qayd etib o'tilgan barcha nazari-yalar jamiyatda mavjud bo'lishga haqli bo'lib chuqur tadqiq etilishi lozim.

Jinoyatchilik sabablari muammosiga har xil yondashuvlar ilgari surilishi mumkin. Bizning vazifamiz esa, turli-tuman sabablar majmuidan

<sup>1</sup> Швайдер Г.И. Криминология. – М., 1994. – 213-244 с.

ularning har birining o'рни va ahamiyatini aniqlash, ularni izchil bir tizimga solishdan iboratdir. Mazkur murakkab vazifani bajarish esa, har bir yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab, ularning o'zaro bog'liq va farqli jihatlarini yoritib berishni talab etadi.

Shu bilan birga, ko'rsatilgan sabablarning zamon va makonda o'zaro ta'sirga kirishishini, nafaqat barcha jinoyatlarga (umumiy) va muayyan jinoyatlarga (xususiy) nisbatan, balki jinoyatlarning muayyan toifalariga nisbatan (maxsus) namoyon bo'lish mexanizmini (shakllarini) aniqlashga harakat qilish lozim.

### **3.3. Jinoyatchilik sabablarini tasniflash muammosi**

Har qanday tasniflash bilim yoki inson faoliyati sohasidagi turdosh tushunchalar tizimini (o'rganilayotgan ob'ektlarning turkumlarini) anglatadi. Undan mazkur tushunchalar yoki ob'ektlarning turkumlari o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Ilmiy tasnif unda ifodalangan borliqqa xos bo'lgan qonunlar tizimini aks ettiradi. Muhim belgilar ham, boshqa belgilar (mezonlar) ham tasniflash uchun asos bo'lishi mumkin. Mezon – hodisalar, narsalarni baholash, ta'riflash yoki tasniflash uchun asos qilib olingan belgi, o'lchovdir.

Jinoyatchilik muammolarini echish, aniqrog'i – echishga urinish ilmiy tasnifga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ilmiy tasnif muayyan darajada mustahkam metodologik negizga asoslanishi lozim.

Kriminologiyada jinoyatchilik sabablarini tasniflashning mantiqan izchil tizimi shakllangan. Kriminologiyada jinoyatchilik sabablarining birinchi va asosiy tasnifi sabablarning «amal qilish darajasi»ga asoslanadi va umumiy, maxsus va xususiy o'zaro nisbatining dialektikasi bilan belgilanadi. Jinoyatchilik sabablarining umumiylik darajasi ushbu tasnifning mezoni sifatida amal qiladi. Bunda barcha omillar majmuini quyidagicha guruhlash mumkin:

a) umuman jinoyatchilik sabablari (barcha jinoyatlarning umumiy sabablari);

b) jinoyatlar turli toifalarining sabablari (maxsus sabablar);

v) muayyan jinoyatlarning sabablari.

Jinoyatchilik sabablarining ikkinchi tasnifi muayyan sabablar namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisalarning mazmuni va xususiyatiga asoslanadi. Bunda jinoyatchilik sabablarini to'rt asosiy guruhga ajratish mumkin:



- 1) ijtimoiy-iqtisodiy sabablar;
- 2) mafkuraviy sabablar (ushbu guruhga madaniy-tarbiyaviy sabablar ham kiradi);
- 3) tashkiliy-boshqaruv sabablari;
- 4) ijtimoiy-psixologik sabablar.

Jinoyatchilik sabablarining uchinchi tasnifi sabablarni to'liqlik va o'ziga xoslik belgilariga qarab guruhlashning maqsadga muvofiqligiga asoslanadi.

Bunda jinoyatchilikning «to'liq sababi»ni quyidagilar tavsiflaydi:

- 1) barcha ijtimoiy hodisalar va faktlar majmui;
- 2) ular har xil xususiyatga egaligi (ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, tashkiliy-boshqaruv, huquqiy, ijtimoiy-psixologik hodisalar va omillar);
- 3) hodisalar va omillar jinoyatchilikda har xil tarzda namoyon bo'lishi (ya'ni asosiy, ikkinchi darajali, bevosita va bilvosita hodisalar va omillar).

O'ziga xoslik belgisiga qarab aniqlanadigan alohida sabab jinoyatchilikning to'liq sababi tarkibiga kiradi va jinoyatchilikning alohida sababi sifatida qaraladi. Jinoyatning o'ziga xos sababini tadqiq qilish muayyan tarixiy sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurashning muhim yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Jinoyatchilik sabablarining to'rtinchi tasnifi jinoyatchilikka ijtimoiy omillarning «ta'sir mexanizmi»ga asoslanadi. Bu erda jinoyatchilik sabablari va unga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar farqlanadi, bunda sabablar asosan shaxs sohasida yotadi.

Masalan, g'ayriijtimoiy qarashlar va odatlar jinoyatchilik sabablariga kiradi. Bunda sabab va oqibat bog'lanishi quyidagi ketma-ketlikda namoyon bo'ladi: hayot va tarbiya tafsilotlari – shaxsning o'ziga xos xususiyatlari – muayyan vaziyatdagi xulq-atvor xususiyatlari.

Jinoyatchilik sabablarining beshinchi tasnifi sabablarni ob'ektiv, ob'ektiv-sub'ektiv va sub'ektivga bo'linishiga asoslanadi. Mavjud bo'lishi shaxsning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan sabablar ob'ektiv sabablar hisoblanadi.

Sub'ektiv sabablar odamlar, ularning birlashmalari xohish-irodasi va faoliyati bilan belgilanadi.

Jinoyatchilik sabablarining oltinchi tasnifi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning, jamiyatning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi.

Jinoyatchilik sabablarini tasniflashning ushbu sxemasini mukammal deb bo'lmaydi. Biz bu erda faqat umumiy e'tirof etilgan tasniflarga to'xtalib o'tdik.

Shu bilan birga, jinoyatchilik sabablarini boshqa bir qancha mezonlarga ko'ra tasniflash uchun imkoniyat va zarurat mavjud deb o'ylaymiz.

Birinchidan, jinoyatchilik sabablarining manbalari soniga ko'ra, bir omilli va ko'p omilli sabablarni farqlash mumkin. Buni yuqorida so'z yuritilgan jinoyatchilik sabablarini o'rganish tarixi (masalan, sababiyat nazariyasi yoki «xromosomalar» nazariyasi) ko'rsatadi.

Ikkinchidan, sabablarni jinoiy xulq-atvor turlari va xususiyatiga ko'ra tasniflash ham mumkin. Mulikka qarshi, zo'ravonlik, davlatga qarshi, transportga oid, harbiy va boshqa jinoyatlarning sabablari shular jumlasidan.

Uchinchidan, jinoyatchilik sabablarini jinoyatlarning oqibatlari xususiyatiga ko'ra tasniflash mumkin (o'ta og'ir, og'ir, uncha og'ir bo'lmagan, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar va h.k.).

To'rtinchidan, jinoyatchilik sabablarini ular namoyon bo'lgan sohalarga ko'ra tasniflash mumkin (qishloq xo'jalik, savdo, qurilish sohasidagi, jamoat joylaridagi jinoyatlar va h.k.).

Beshinchidan, jinoyatchilik sabablarini jinoyat sodir etgan shaxslarning belgilariga qarab tasniflash mumkin (masalan, mahkumlar orasidagi jinoyatchilik, voyaga etmaganlar jinoyatchiligi, residiv jinoyatchilik, mansabdorlik jinoyatlari va h.k.).

Nihoyat, jinoyatchilik sabablarini jinoyat sodir etgan shaxslarning ayb shakliga ko'ra tasniflash mumkin (masalan, muayyan sohada ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va shartlari, muayyan sohada ma'lum shaxslar tomonidan qasddan sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va shartlari va h.k.). Mazkur tasnif nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir, chunki u jinoyatchilikka qarshi kurashish profilaktik chora-tadbirlari tizimini yanada aniqroq va mufassalroq ishlab chiqishga yordam beradi.

#### 4-mavzu. JINOYATCHINING SHAXSI TUSHUNCHASI, UNING TARKIBI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI

1. Shaxs umumiy tushunchasi.
2. Jinoyat sub'ekting shaxsi va uning tarkibi.
3. Jinoyatchilarni tasniflash.

##### 4.1. Shaxs umumiy tushunchasi

Erda insonning paydo bo'lishi va uning Quyosh sistemasiga kiruvchi boshqa sayyoralarda mavjudlik imkoniyati haqida bahs hozirga qadar davom etmoqda. Diniy yondashuvlarga ko'ra, paleontologiyaga oid solnomalar insonning evolyusion kelib chiqishini tasdiqlamaydi.

Evolyusionistlar asosan Charlz Darvin ta'limoti vujudga kelgan paytdan boshlab tuban (bir hujayrali) organizmlar asta-sekin murakkab va o'ta murakkab organizmlarga, so'ngra maymunlarning muayyan turlariga va nihoyat odamga aylanganligini isbotlashga harakat qiladilar. Aqlli "homo sapiens" komp'yuter olamini zabt etgan hozirgi odamning ilk ajdodi bo'lsa, ajab emas.

Odamda ong mavjudligining o'zi uni shaxs sifatida tavsiflamaydi. Boz ustiga, «shaxs» kategoriyasini hech bir fan doirasida mukammal ta'riflab bo'lmaydi. Shaxsni inson bilimlarining muayyan tarmoqlari o'rganar ekan, ular yuqorida zikr etilgan muammoning muayyan bir jihatiga hal qiladi, **degan fikrga** qo'shilish lozim.

Odamni juda ko'p fanlar – pedagogika, tibbiyot, biologiya, fiziologiya, psixologiya, axloq, sosiologiya, estetika, huquq, falsafa va boshqalar o'rganadi, lekin har bir fan unga o'ziga xos tarzda qiziqadi.

Masalan, axloq shaxsni **moddiy** boyliklar egasi va yaratuvchisi sifatida o'rgansa, psixologiya unga shaxsning ruhiy faoliyati nuqtai nazaridan tavsif beradi.

Sosiologiyada shaxs ijtimoiy munosabatlarning muayyan shakli, yurisprudensiyada esa – muayyan huquq va yuridik majburiyatlar egasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsga eng umumiy ta'rifni falsafa – tabiat, jamiyat va bilishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan beradi. Lekin bu erda ham biz juda ko'p har xil talqinlarga duch kelishimiz mumkin.

Neotomizm (tomizm – lot., thomas – Foma) – Foma Akvinskiy (1225-1274) ta'limotiga asoslangan katolik cherkovining rasmiy falsafiy

doktrinasi. 1889 yilda u o'z Falsafa oliy instituti (Luven, Belgiya)ga asos soladi. Hozirda bu institut Neotomizm xalqaro markaziga aylantirilgan (Fransiya, Ispaniya, Germaniya, AQShda va Lotin Amerikasining bir qancha mamlakatlarida bo'limlari bor). Neotomizm namoyandalari insonni mutlaqo erkin irodaga ega oliy mavjudot deb hisoblaydilar.

Neotomizm falsafasiga ko'ra, shaxs hayotining mazmuni faqat Xudo bilan aloqa qilishdadir. Har qanday tarixiy jarayon, kishilik jamiyati g'ayritabiiy transsedent kuchlarga bog'liq bo'lib, ular insonni va uning xulq-atvorini belgilab beradi.<sup>1</sup>

Shaxsni ta'riflashga nisbatan yondashuvga ko'ra «personalistlar» (lot. persona – shaxs) neotomizmga yaqin turadi. Personalizm – hozirgi zamon xristian falsafasidagi inson konsepsiyasi. Personalizm shaxsni birlamchi, ijodiy reallik va oliy ma'naviy qadriyat deb, olamni esa, oliy yaratuvchi kuch – Xudo ijodiy faolligining namoyon bo'lishi, deb hisoblaydi.

Personalizm XIX asr oxirlarida Rossiya va AQShda shakllandi, keyinchalik XX asrning 30-yillarida Fransiya va boshqa mamlakatlarga yoyildi. Rossiyada personalizm g'oyalari N.A.Berdyayev, A.Shestov hamda qisman N.O.Loskiylar tomonidan tadqiq etilgan. Amerika personalizmi-ning asoschilari B.Boun, J.Gays va ularning izdoshlari U.Xaying, E.Braytmen, J.Xaunsonlar edi. Hozirgi vaqtda personalizm sezilarli darajada o'z ta'sirini yo'qotgan, uning muammolari fenomenologiya, ekzistensializm, falsafiy antropologiya tomonidan ishlab chiqilmoqda.

Insonni tushuntirishdagi yana bir yo'nalish – freydzizm inson borlig'ini vujudga keltirgan asoslarni aniqlashga harakat qildi. Ayniqsa, inson shaxsi tarkibining asosiy komponentlari, elementlarini aniqlab berishga, kishi xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelishi sabablari, individ turmush tarzi prinsiplarining hosil bo'lishini tushuntirishga intildi. Freydzizm namoyandalari fikriga ko'ra, inson shaxsida bo'ladigan o'zgarishlar borliqning o'ziga xos, muhim xususiyat va xossalarga ega bo'lgan shaklidir. Freydzimning psixozanaliz uslubiga muvofiq, inson shaxsi uchta asosiy komponentdan tashkil topadi, ya'ni Id, Ego va Superego birlashib, bir butun inson shaxsini vujudga keltiradi.

«Shaxs» tushunchasiga nisbatan sosiologik yondashuvlar ayniqsa keng tarqalgandir. Sosiologiya odamga avvalo ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi. Haqiqiy ilmiy tahlil odamning mohiyatini ochishga harakat qilishi lozim. Inson – moddiy olamning uzviy qismidir. O'zi yashayotgan tabiiy

---

<sup>1</sup> Желнов М.В. Современная неотомистская концепция личности // Проблема человека в современной философии. – М., 1969. – 404 с.

muhitga moslashib oladigan hayvonlardan farqli o'laroq, odam ijtimoiy organizm, uyushgan ijtimoiy kuch sifatida tabiatga muayyan darajada qarshilik ko'rsatadi, o'zi yashayotgan muhitni o'zgartiradi, uni o'z ehtiyoj va manfaatlariga moslashtiradi. Inson tabiat bilan yashaydi.

Insonning tabiiy mavjudot sifatida hayvondan farqi shundaki, u ongli, faol mavjudotdir. Shu sababli u, oldindan qo'yilgan maqsadlarga muvofiq, tabiatdan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish bilan bir vaqtda, uni o'zgartiradi. Shu ma'noda inson nafaqat atrof muhit mahsuli, balki uning bunyodkori hamdir.

Insonda ongning mavjudligi uning ijtimoiy va biologik jihatlari o'zaro nisbatini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. Zotan, ong – ijtimoiy mahsulotdir. Ong insonning ob'ektiv boriqni aks ettirish shakli, odamning boshqa odamlar bilan ob'ektiv munosabatlarini aks ettirish shakli sifatida amal qiladi. Binobarin, ushbu munosabatlar o'z manbaiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga egadir.

Shaxs – alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individdir. Bu tushuncha barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z predmeti nuqtai nazaridan ishlatiladi. Shaxs haqida xilma-xil talqinlar bor. Shaxs – biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir.

Shaxsning shakllanishida quyidagi omillar qatnashadi: 1) biologik (nasl); 2) tabiiy muhit; 3) madaniy muhit; 4) ijtimoiy tajriba; 5) odamlar bilan munosabat.

Shaxsning biofiziologik jihati ovqatlanish, joylashish, jinsiy aloqaga kirishish, bola tug'ilishi kabi individual faoliyati bilan bog'liq hodisalardir. Shaxsning shakllanishiga tabiiy aloqador buyum va munosabatlar olami fizik muhit deb ataladi. Shaxs madaniylashgan jonzot; ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo'lgan muayyan avlod vakili; odamlararo munosabatlar sub'ekti bo'lishi ham mumkin. Bu uch omil ham shaxs hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy munosabatlar doirasidan tashqarida inson shaxs bo'la olmasligi shubhasiz. Ammo shaxsning ijtimoiylashuvi darajasi har xil bo'lishini ham inkor etish mumkin emas. Masalan, emizikli yoshdagi bolalar faqat potensial shaxslardir. Hayvonlar galasida yashab katta bo'lgan va so'ngra odamlar jamiyatiga qo'shilgan, lekin unga moslasha olmagan odamlar shaxs sanalishi mumkin emas.

Har qanday ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga befarq bo'lgan ruhiy kasallarni ham shaxs deb hisoblash mushkul. Ijtimoiy

hayot tajribasini o'zlashtirgan, o'z ijtimoiy pozitsiyasini ishlab chiqqan, ijtimoiy munosabatlar tashuvchisi va bunyodkori sifatida amal qiluvchi odamgina shaxs hisoblanadi.

Nerv sistemasi turi, mijoz, irsiy xususiyatlar kabi jihatlar shaxsni tavsiflashda ikkinchi darajali rol o'ynaydi, chunki ular muayyan ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

«Shaxs» tushunchasi insonning ijtimoiy foydali mehnatga munosabatini, inson ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan xossalarni shakllantirish uchun o'zi ustida qanday ishlashini muqarrar tarzda qamrab oladi.

Mehnatga, o'z huquqlaridan foydalanishga, o'z burchlarini bajarishga munosabat shaxsning jamiyatdagi ahamiyati darajasini belgilaydi. Shu sababli o'z faoliyati bilan ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi shaxslar ilg'or, taraqqiyparvar shaxslar sifatida ta'riflanadi. Va aksincha, taraqqiyot yo'lida to'g'anoq bo'luvchi, faqat o'zining tuban ehtiyojlarini qondirish bilangina kifoyalanuvchi odamlar qoloq va hatto reaksiyon shaxslar hisoblanadi.

Insonning biologik tabiatini inkor etish mumkin emas, ammo biologik omil shaxs mohiyatini yoritib bera olmaydi. U inson shaxsi rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch emas, balki uning shartlaridan biridir. Muayyan biologik asoslarda ba'zan ijtimoiy shart-sharoitlar ta'sirida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi.

Shunday qilib, inson shaxsi – tabiiy va ijtimoiy, moddiy va ma'naviy fazilatlar va xislatlarning murakkab uyg'unligidir. Shaxs – o'z shaxsiy (individual) va jamiyatdan olingan ijtimoiy tajribaga ega bo'lgan harakatchan tizimdir. Mazkur tajriba shaxsning o'zini qurshagan muhitga munosabatida, uning his-tuyg'ulari va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Shaxs – odamning ongi, sezgilari va xohish-irodasini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlarning muayyan borlig'idir. Shu munosabatlarning (eng avvalo iqtisodiy, ishlab chiqarish munosabatlarning) etuklik darajasi odam shaxsining etuklik darajasini belgilab beradi.

Shaxs tarkibi to'g'risidagi masala muhim metodologik masalalardan biridir.

Sosiologiyada shaxsning kamida uch muhim tarkibiy elementi farqlanadi:

1) shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy holati, avvalo uning ishlab chiqarishga munosabati – ishlab chiqarish munosabatlari tizimida shaxsning o'rni, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi;

2) shaxs qaysi funksiya va rollarni bajarishi;

3) shaxs hayoti va faoliyati motivlarining, manfaatlar (ijtimoiy, shaxsiy), ehtiyojlar (moddiy, ma'naviy) tizimining xususiyati, ya'ni shaxsning moyilliklari.

Jinoyat sub'ekti shaxsini o'rganish zamirida yuqorida qayd etilgan umumiy asosiy qoidalar yotishi lozim.

#### 4.2. Jinoyat sub'ekting shaxsi va uning tarkibi

Jinoyatchi shaxsi – avvalo jinoyat sub'ekting shaxsidir. Jinoyat qonunchiligiga binoan jinoyat sub'ekti uni aynan sub'ekt deb topish uchun zarur ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozim. Bunday ko'rsatkichlar uchta: jismoniy shaxs (jahonning ba'zi bir mamlakatlarida yuridik shaxslarni ham jinoyat sub'ekti deb topish imkoniyati nazarda tutilganki, bunga qo'shilish qiyin), shaxsning muayyan yoshga to'lganligi (MDHning bir qancha mamlakatlari qonunchiligiga ko'ra 14, 16, 18 yosh, jahonning ba'zi bir mamlakatlari jinoyat kodekslariga binoan esa – bundan ham kichikroq yosh) va aqli rasolik.

Ammo jinoyatchi shaxsini tavsiflash uchun jinoyat sub'ekting faqat jinoyat-huquqiy belgilari etarli emas. Muayyan sub'ekting jinoyat sodir etishi faqat jinoyat sodir etgan odam shaxsi mavjudligini e'tirof etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyat sub'ekting shaxsi odamning asosan jinoiy xulq-atvor xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa har xil ko'rsatkichlarini ham qamrab oladi. Jinoiy xulq-atvor eng avvalo odamni qurshagan borliq, muhit bilan belgilanadi. Lekin, ayni vaqtda, u shaxsning muayyan mayllari, intilishlari, xulq-atvor motivlari va maqsadlarini ham aks ettiradi. Tabiiyki, odamga qanday salbiy xususiyatlar xos bo'lmasin, agar u jinoyat sodir etmagan bo'lsa, uni jinoyatchi deb hisoblash mumkin emas.

Jinoyat sodir etganlik holati muayyan odamni g'ayriijtimoiy shaxs sifatida tavsiflaydi, lekin uning mazmun-mohiyatini to'liq tushuntirib bermaydi.

Jinoyatchi shaxsini to'laqonli tavsiflash va baholash uchun uning ham ijobiy, ham salbiy xulq-atvorini belgilovchi barcha xislatlari va xususiyatlarini, unga xos bo'lgan barcha xislatlar tizimida ijtimoiy salbiy xossalarni ulushini hisobga olish zarur.

Ijtimoiy borliq hodisasi sifatida, jinoyatchilik ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilgan shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Har bir muayyan jinoiy harakat ana shu xususiyatlarni aks ettiradi.

**Pirovardida** jinoiy qilmish sodir etgan shaxsda uning ijtimoiy munosabatlar – jinoiy tajovuz ob'ektiga salbiy munosabatini belgilovchi dunyoqarashi ham o'z aksini topadi.

Jinoyat sub'ekting shaxsi uch darajada: jinoiyatchi shaxsi umumiy tushunchasi nuqtai nazaridan, har xil toifaga mansub jinoiyatchilarning belgilarini aniqlash nuqtai nazaridan va muayyan jinoiyat sodir etgan shaxs (masalan, o'g'rilik, odam o'ldirish, nomusga tegish, avtomobilni olib qochish va hokazo jinoiyatlar sodir etuvchi shaxslar) darajasida o'rganilishi lozim.

**Mazkur darajalarda** shaxsni o'rganish va uning belgilarini aniqlash darajasi har xil bo'lishi mumkin, chunki bu erda umumlashtirish (abstraksiya) darajasi har xildir. Jinoyat sub'ekting shaxsi muayyan jinoiyat sodir etgan shaxs darajasida nisbatan to'liq tavsiflanishi mumkin. Ammo muayyan toifaga mansub jinoiyatchilarni (masalan, residivistlar, voyaga etmaganlar, mulkka qarshi, davlatga qarshi, zo'raonlik va hokazo jinoiyatlar sodir etgan shaxslarni) o'rganish jinoiyatchi shaxsini bunday shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan yoritish va tegishincha jinoiyatlarning tegishli toifalariga qarshi kurashning muayyan chora-tadbirlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ayni vaqtda, «jinoiyatchi shaxsi» umumiy tushunchasi ham odam fazilatlar va xislatlarining jinoiyatchilik bilan o'zaro bog'lanishini o'rganish va hisobga olish uchun foydalidir. Maxsus adabiyotlarda ayrim olimlar, xususan, professor Yu.D. Bluvshcheyn tomonidan ilgari surilgan «jinoiyatchi shaxsi» umumiy tushunchasidan voz kechish maqsadga muvofiqligi shaqidagi fikriga qo'shilib bo'lmaydi.

Kriminologiya fanida jinoiyat sub'ekti shaxsining asosiy tarkibiy elementlari ancha mukammal tavsiflangan. Mazkur tarkib umuman olganda jinoiyatchining muayyan xislat va xossalari belgilovchi ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-huquqiy belgilarni qamrab oladi.

Kriminolog olimlarning jinoiyatchi shaxsi sxemasi to'g'risidagi ba'zi bir muhim takliflarini keltirib o'tamiz. B.V.Voljenkin jinoiyatchi shaxsi tarkibidagi belgilarni uch guruhga ajratishni taklif qiladi:

1. Shaxsning jamiyat a'zosi sifatidagi umumiy belgilari.
2. Jinoyatchi shaxsining uni boshqa fuqarolardan farqlash imkonini beruvchi, lekin barcha jinoiyatchilar uchun umumiy bo'lgan (uning ijtimoiy xavfli darajasini tavsiflaydigan) alohida belgilari.



3. Jinoyatchi shaxsining mazkur odamni tavsiflaydigan o'ziga xos belgilari.<sup>1</sup>

N.T. Vedernikov shaxs belgilarini ikki guruhga ajratishni taklif qiladi:

a) **individuallashtiruvchi belgilar** (shaxsning tarjimai holi, moddiy ahvoli, jismoniy va ruhiy sog'lig'i haqidagi ma'lumotlar);

b) **shaxsning ijtimoiy** (ishlab chiqarishga oid, siyosiy va oilaviy) tavsifi.<sup>2</sup>

Yu.D. Bluvshteyn jinoyatchi shaxsining demografik, ijtimoiy, huquqiy, psixologik va biologik (tibbiy) belgilarini farqlaydi.<sup>3</sup>

Professor A.B. Saxarov dastlab jinoyatchi shaxsining belgilarini ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-biologik toifalarga ajratishni taklif qilgan edi.<sup>4</sup> Biroq, keyinchalik u o'z fikrini muayyan darajada o'zgartirdi va shaxsning biologik belgilari turkumini ro'yxatdan chiqarib tashladi.<sup>5</sup>

Har qanday odam, ijtimoiy mavjudot sifatida, har xil aloqa va ijtimoiy munosabatlarga egadir. Jinoyatchi shaxsini belgilaydigan aloqalar, xossalari va belgilarning rang-barangligi eng avvalo jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy ahamiyatga molik xislatlari va xususiyatlarini o'rganishni, jinoyatchi shaxsining tipologik xususiyatlarini aniqlashni va uni alohida ijtimoiy tip sifatida tavsiflashni nazarda tutadi.

Har qanday jinoyat harakat avvalo odamning intellektual, emosional va axloqiy fazilatlarini aks ettiradi. Shu bois mazkur fazilat va xislatlarning ob'ektiv ko'rsatkichlarini aniqlash, ularning deformatsiyalashuvi bosqichlarini tadqiq qilish kriminologiya uchun muhimdir. Shunga asoslangan holda u ijtimoiy sohada jinoyatchi shaxsini va uning jinoyat xulq-atvorini belgilaydigan kriminogen omillarning yaxlit tasnifini tuzishi mumkin.

Bunda ijtimoiy-demografik belgilar – jins, yosh, oilaviy va ijtimoiy holat, ma'lumot, kasb va hokazolar aholi turli ijtimoiy tabaqalarining jinoyat faolligini aniqlash, jinoyat sodir etgan shaxslarning yosh va jins xususiyatlarini kuzatishga yordam beradi. Shaxsning oilaviy va ijtimoiy

<sup>1</sup> Волженкин Б.В. Общественная опасность преступника и ее значение для уголовной ответственности и наказания // Автореферат канд. дисс. – Л., 1964. – С.15.

<sup>2</sup> Ведерников Н.Т. Изучение личности преступника в процессе расследования // Автореферат канд. дисс. – М., 1965. – С.8.

<sup>3</sup> Блувштейн Ю.Д. Теоретические вопросы статистического познания личности преступника по материалам уголовных дел о грабежах и разбойных нападениях // Автореферат канд. дисс. – М., 1968. – С.8.

<sup>4</sup> Сахаров А.Б. Учение о личности преступника // Сов. гос и право, 1968, №9. – С.69.

<sup>5</sup> Сахаров А.Б. Криминология и профилактика преступления. Учебник для ВУЗов МВД, 1989. – С.100.

holatini tadqiq qilish muayyan jinoyatchining shaxsi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan kriminogen omillar va holatlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Ijtimoiy-psixologik tavsif «shaxs-muhit» o'zaro ta'sir mexanizmlarini o'rganishga, jinoyatchining shaxsi shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi nojo'ya shart-sharoitlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi. Hissiyot, ong va iroda sohalarini tahlil qilish individual jinoiy xulq-atvor motivasiya jarayonlari haqida xulosalar chiqarish, jinoyatning muayyan motivlari va sabablarini aniqlash imkonini beradi.

Xususan, intellekt shaxsning aqliy rivojlanish darajasini, o'zini qurshagan muhit haqidagi bilimlari hajmi va ularning chuqurlik darajasini, ma'rifiy qiziqishlari mazmuni, doirasi va hajmini, ijtimoiy munosabatlari hajmini belgilaydi.

Odamning emosiyalar sohasi uning nerv jarayonlarining kuchi, muvozanati va harakatchanligini (mijozini), emosional ta'sirchanlik darajasini va hokazolarni ko'rsatadi.

Shaxsning irodasiga xos xususiyatlar uning o'z faoliyatini ongli tarzda tartibga solish ko'nikmasini, qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish, o'z maqsadiga erishish qobiliyatini tavsiflaydi. Ular tirishqoqlik, izchillik, tashabbuskorlik, topqirlik, qat'iylik, o'zini tuta bilish, serg'ayratlik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-psixologik tahlil pirovardida shaxsning jinoiy xulq-atvoriga ta'sir etuvchi bevosita sabablar va sharoitlarning amal qilish mexanizmini tushunib etish imkonini beradi. U jinoyatchi shaxsi g'ayriijtimoiy yo'nalishining mazmunini, uning salbiy ko'rinish kasb etgan qarashlari va moyilliklari, ehtiyojlari va manfaatlarini yoritishga ko'maklashadi. Bularning barchasi, o'z navbatida, jinoyatga turtki bergan omillarni aniqlashga yordam beradi.

Har qanday xulq-atvor, shu jumladan jinoiy xulq-atvor ham ijtimoiy-axloqiy mazmun va mezonga ega bo'ladi, shaxsning axloqiy xususiyatlari va xislatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Axloqiy bilish va axloqiy munosabatlar shaxs xulq-atvorini boshqarishning asosiy omillari qatoriga kiradi. Bu omillardagi har qanday nuqsonlar va qusurlar shaxsning xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan shaxsning axloqiy tavsifi uning ma'naviy va axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi barcha axloqiy fazilatlar va xislatlarni qamrab oladi. Ushbu tavsif zamirida yaxshilik va yomonlik, vijdoniylik va burch, sha'n va qadr-qimmat haqidagi qarashlar yotadi. Bu fazilatlar va xislatlar shaxsning ma'naviy etuklik darajasini aks ettiradi va uning har qanday qilmishi va xatti-harakatlarini belgilab beradi.

Odamning ongli faoliyatida ma'naviy sezgilar, kayfiyatlar va munosabatlar ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ularni kriminologik o'rganish juda muhimdir.

Shaxsning ijtimoiy belgilari asosan uning jamiyatdagi, jamoadagi, mikromuhitdagi o'rni, ya'ni uning ijtimoiy holati bilan tavsiflanadi. Shaxsning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha belgilarini o'z holicha kriminogen belgilar sifatida baholash mumkin emas. Ammo ularning ijobiy yoki salbiy ijtimoiy ahamiyatiga qarab, ular o'rtasida mavjud o'zaro bog'lanishlar shaxsning muayyan xulq-atvori maqbul yoki nomaqbul yo'nalishda namoyon bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Nihoyat, jinoyatchi shaxsining jinoiy-huquqiy tavsifi jinoyat-huquqiy kategoriyalarga (masalan, sodir etilgan jinoyat turi va uning og'irlik darajasi, jinoyat sodir etishda ishtirokchilik, umumiy va maxsus residiv, jinoyatchi shaxsining axloqan tuzalish darajasi va hokazo) asoslanadi va jinoyat sodir etgan shaxsning o'ziga xos suratini yaratish imkonini beradi.

Shunday qilib, jinoyat sub'ektining shaxsi – odamning o'zini ham, uning hayoti va faoliyatining turli tomonlari va ko'rinishlarini ham tavsiflovchi ijtimoiy ahamiyatga molik va individual belgi, xossa, xislat va boshqa ko'rsatkichlarining muayyan majmui (tizimi)dir.

### 4.3. Jinoyatchilarni tasniflash

Jinoyatchilarni tasniflash muhim analitik va profilaktik ahamiyatga egadir. U jinoyatchilik sabablarini yanada chuqurroq va har tomonlama o'rganish, jinoyatlarning oldini olish va prognoz qilish tizimini ishlab chiqishga yordam beradi. Shu sababli jinoyatchilarni tasniflash kriminologiyaning eng dolzarb, lekin hali yaxshi o'rganilmagan muammolaridan biri bo'lib qolayotir.

Jinoyatchilarni har xil asoslarga ko'ra tasniflash mumkin. Jinoyatchilarni ular sodir etgan jinoyatlarning turlari yoki xususiyatiga ko'ra tasniflash («o'g'ri», «firibgar», «bezori», «zo'rlik ishlatuvchi», «poraxo'r» va h.k.) eng sodda va umumiy e'tirof etilgan tasnifdir.

Jinoyat sodir etish motivlarining xususiyatiga ko'ra jinoyatchilarning «g'arazgo'y», «zo'ravon», «nufuzli», «seksual» va boshqa tiplari farqlanadi. Ruhiy sog'lomlik darajasiga ko'ra jinoyatchilar ruhan sog'lom, ruhiy kasallik bilan chegaradosh holatda, psixopat yoki ruhiy kasal bo'ladi.

**Jinoyatchilarni ijtimoiy-demografik belgilariga ko'ra ham tasniflash** mumkin: voyaga etmagan jinoyatchilar, shu jumladan o'g'il bolalar va qiz bolalar; jinoyatchi ayollar; xizmatchi-jinoyatchilar; o'quvchi-jinoyatchilar; jinoyatchi harbiy xizmatchilar; transport sohasidagi jinoyatchilar; tijorat sohasidagi jinoyatchilar va h.k.

Jinoyatchilarni g'ayriijtimoiy moyilliklari, qadriyatlari va mo'ljallari-ning xususiyatiga qarab tasniflash jinoyatchilarni tasniflashning eng keng tarqalgan usulidir. Ushbu mezunga ko'ra jinoyatchilarning shaxsi uch guruhga ajratiladi:

a) insonga, uning muhim boyliklari – hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va hokazolarga salbiy-bepisand munosabatda bo'lgan jinoyatchilar;

b) o'zgarar mulkiga, moddiy ne'matlarni mehnatga qarab taqsimlash prinsipiga nisbatan g'arazli-xudbinlik munosabatida bo'lgan jinoyatchilar;

v) jamiyat va davlat tomonidan o'rnatilgan qonun-qoidalarga, o'z umumfuqarolik, xizmatga doir va boshqa maxsus vazifalariga (masalan, harbiy xizmatga) anarxistik-xudbinlik munosabatida bo'lgan jinoyatchilar.

Ba'zi bir mualliflar (masalan, Yu.M. Antonyan) umum e'tirof etilgan ijtimoiy qadriyatlarga engiltaklik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'luvchi jinoyatchilarni (masalan, ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etuvchi shaxslarni) ham farqlaydi.

Jinoyatchilarni kriminogen zararlanish darajasiga qarab tasniflash holatlari ham uchraydi:

a) shaxsning umumiy yo'nalishi ijobiy bo'lgan holda nisbatan engil jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan shaxslar toifasi («tasodifiy» jinoyatchilar);

b) alohida tashqi nojo'ya holatlar ta'sirida og'ir jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan shaxslar («situativ» jinoyatchilar);

v) og'ir jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan, lekin ilgari boshqa huquqbuzarliklarga yo'l qo'ygan shaxslar («beqaror» jinoyatchilar);

g) bir necha marta jinoyat sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan shaxslar («ashaddiy» jinoyatchilar);

d) ko'p marta qasddan og'ir jinoyat sodir etgan shaxslar («o'ta xavfli» jinoyatchilar).

Evropa va Amerikadagi bir qancha mamlakatlar kriminologiyasida jinoyatchilar asosan uch guruhga ajratiladi: 1) tasodifiy jinoyatchilar; 2) professional jinoyatchilar; 3) potentsial jinoyatchilar. Ushbu tasniflash tizimi zamirida residivistlarga qarshi kurash bo'yicha maxsus choratadbirlar ishlab chiqiladi, sinab ko'rish, shartli jazo berish institutlari amal qiladi.

Umumiy xulosa shuki, har qanday tasnif muayyan darajada shartlidir, degan fikrga deyarli barcha kriminologlar qo'shiladi. Zotan, tasniflash uchun qanday mezon asos qilib olinganligi yoki tasniflashdan qanday maqsad ko'zlanganligiga qarab, jinoyatchilar tasnifi har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli amalda yuqorida ko'rsatilgan tiplardan birontasiga ham mos kelmaydigan, ayni vaqtda «aralash» belgilarga ega bo'lgan jinoyatchilar uchrashi mumkin.

## **5-mavzu. SHAXS G'AYRIJTIMOIY MOYILLIGINING SHAKLLANISHI HAMDA MUAYYAN JINOYAT SODIR ETISH MEKANIZMI**

1. Umumiy asosiy qoidalar.
2. Shaxsning salbiy xulq-atvori shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.
3. Muayyan hayotiy vaziyat.
4. Psixologik mexanizm.

### **5.1. Umumiy asosiy qoidalar**

Muayyan jinoiy xulq-atvor mexanizmini o'rganish va tavsiflash uchun dialektikaning asosiy metodologik prinsiplariga murojaat etishimiz lozim bo'ladi. Shu nuqtai nazardan «xususiy», «umumiy» va «maxsus» kategoriyalari ob'ektiv borliq hodisalarini, uning muayyan jihatlari aks ettiradi.

Olam muayyan hodisalardan tarkib topadi. Lekin ular mustaqil emas, balki o'zaro bog'langandir. Manbalari, ayrim xususiyatlari bir bo'lgan va ichdan bog'langan ba'zi bir hodisalar guruhlariga birlashtirilishi mumkin.

Har bir fan o'z tayanch nuqtasiga ega bo'lishi lozim. Kimyoda muayyan element, biologiyada – individ, kriminologiyada – jinoyat (individual xulq-atvor) shunday tayanch nuqtasi hisoblanadi. Kimyoviy elementlarning har biri alohida xossalarga ega, ammo ularning umumiy xossalari vaqti-vaqti bilan takrorlanib turganligi sababli, ular o'rtasida uzviy bog'lanish mavjud. Biologiyada individ (mavjudot) nafaqat o'ziga xos belgilarga, balki uni boshqa individlarga yaqinlashtiradigan umumiy belgilarga ham egadir. Shu takrorlanuvchi muhim belgilarga asoslangan holda individlar muayyan turlarga guruhlanadi.

Har qanday jinoyat – murakkab hodisa. U faqat hodisa sifatida murakkab emas. Jinoyat – bir qancha omillar bog‘lanishi va o‘zaro ta’siri natijasi (oqibati)dir. Bu omillarning ham har xil turlari bo‘lishi mumkin. Ammo ularning orasida eng muhimini ajratish mumkinmi? Boshqacha aytganda, ushbu natija – oqibatning vujudga kelishida qaysi muhim omil yoki «ishtirokchi» qatnashadi? Bu, eng avvalo, individ yoki muayyan jinoiy qilmish sodir etgan odamning shaxsidir. Ushbu shaxssiz oqibat – jinoyat ro‘y bermagan bo‘lur edi. Ammo shaxs – ongli mavjudot, shu bois u jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etishga nisbatan muayyan xohish-irodaga egadir. Binobarin, bu erda jinoyatchi shaxsining xohish-irodasi birinchi o‘ringa chiqadi.

Boz ustiga, xohish-iroda yo‘q joyda vujudga kelmaydi. U, o‘z navbatida, kamida ikkita boshqa omilning natijasi (oqibati)dir. Bu omillar quyidagilardir:

a) jinoyatchining shaxsi shakllangan shart-sharoit, ushbu shaxs jinoiy qilmish sodir etishiga imkoniyat yaratgan uning e‘tiqodi, odati, qarash va ehtiyojlari;

b) jinoyat sodir etilgan muayyan hayotiy vaziyat shart-sharoitlari.

Ko‘rib turganimizdek, qayd etib o‘tilgan asosiy omillar alohida, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda emas, balki o‘zaro bog‘langan va o‘zaro ta’sirga kirishgan holda ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, har qanday jinoyat darajasida sababiyatning elementlar zanjiri quyidagi uch bo‘g‘indan tarkib topadi:

a) jinoyat sodir etgan shaxsning xohish-irodasi (sababiyat zanjirining eng yaqin qismi)dan;

b) muayyan salbiy ko‘nikmalar, odatlar, qarashlar, e‘tiqodlar, manfaatlar, ehtiyojlar va hokazolar muayyan hayotiy vaziyat bilan o‘zaro ta’sirga kirishishi (sababiyat zanjirining bevosita yoki markaziy qismi)dan;

v) jinoyat sodir etgan odamning shaxsi shakllangan noqulay (salbiy) shart-sharoit (sababiyat zanjirining eng oxirgi, lekin eng chuqur qismi)dan.

Vaqt ko‘rsatkichiga (mezoniga) asoslanadigan bo‘lsak, sababiyat kompleksining mazkur sxemasi teskari tartibda tuzilishi mumkin. Shunday qilib, shaxs shakllanishining noqulay (salbiy) hayotiy shart-sharoitlari odamni muayyan jinoiy xulq-atvoriga (harakatga) olib keladigan eng muhim, eng kuchli va chuqur asosiy sababdir.

Muayyan shaxsning jinoiy xulq-atvoridagi sababiyat kompleksini aniqlashdan maqsad ko‘rsatib o‘tilgan bo‘g‘inlarning har birini o‘rganib chiqish va tavsiflashdan iboratdir.

## 5.2. Shaxsning salbiy xulq-atvori shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Shaxsning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishishi juda murakkab va qizg'in jarayondir. Shu sababli har qanday odamning shakllanish shart-sharoiti rang-barangdir. O'z-o'zidan ravshanki, ushbu shart-sharoit eng avvalo vaqt mezonini – shaxsning yosh xususiyatlari bilan bog'liq. Shu bois mazkur jarayonni voyaga etmaganlar misolida kuzatish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

B.G. Ananov fikriga ko'ra, yoshlarni rivojlanishning ruhiy-fiziologik ko'rsatkichlariga asosan tasniflash odam hayot tarzi o'zgarishi bosqichlarining quyidagi zanjirini o'z ichiga oladi: go'daklik (tug'ilgandan 18 oyga to'lgunga qadar); ilk bolalik (19 oydan 5 yoshga to'lgunga qadar); bolalik (5-12 yosh); o'spirinlik (12-15 yosh); o'smirlik (16-19 yosh); yoshlik (20-30 yosh); o'rta yosh (30-40 yosh); qarilik; mo'ysafidlik.

Har bir yosh o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular, tabiiyki, xulq-atvorda ham namoyon bo'ladi.

Shaxs nimani va qanday bilishi (gnoseologik salohiyat), nimani va qanday baholashi (aksiologik salohiyat), nimani va qanday yaratishi (ijodiy salohiyat), kim bilan va qanday muomala qilishi (kommunikativ salohiyat), badiiy ehtiyojlari qandayligi va ularni qanday qondirishi (badiiy salohiyat) bilan belgilanadi.

Shunday qilib, inson faoliyatining quyidagi besh asosiy turi farqlanadi: 1) o'zgartiruvchi faoliyat; 2) bilish faoliyati; 3) qadriyatlarni belgilash va mo'ljal olish faoliyati; 4) kommunikativ faoliyat; 5) badiiy faoliyat.

Shaxs rivojlanishining har bir bosqichiga har xil faoliyat turlarining muayyan o'zaro nisbati va ularning alohida mazmuni xosdir. Psixologlarning ta'kidlashicha, inson hayoti kommunikativ faoliyatning shakllanishi va uning mexanizmlarini o'zlashtirishdan boshlanadi.

Bolaning rivojlanishida yangi bosqich 3 yoshdan boshlanadi. Mazkur bosqich ijodiy faoliyatga o'tish bilan tavsiflanadi (devorga, mebelga rasm chizish va hokazo). Bu, ayniqsa, bolalarning o'yinlarida yorqin namoyon bo'ladi. Shu davrda bolaning kattalarga nisbatan emansipatsiyasi boshlanadi. Bu bolaning muayyan darajada erkinlashuviga va unda nafaqat o'z tengdoshlari, balki kattalar bilan ham muloqot qilish ehtiyoji tug'ilishiga olib keladi.

Inson rivojlanishining uchinchi bosqichi uning maktabda o'qishi bilan bog'liq. Bu erda bilish bola faoliyatining etakchi turiga aylanadi.

Inson rivojlanishining to'rtinchi bosqichi (o'smirlik)da qadriyatlarni belgilash va mo'ljallash faoliyati birinchi o'ringa chiqadi. Beshinchi bosqich o'zgartirish faoliyati inson faoliyatining asosiy turiga aylanishi bilan bog'liq. Inson hayotidagi oxirgi bosqich boshqalar bilan muloqot yana etakchi faoliyat turiga aylanishi bilan tavsiflanadi.

Voyaga etmagan huquqbuzarlar shaxsining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu sohada to'plangan tajriba voyaga etmaganlar muhitida huquqbuzarliklarga imkoniyat yaratuvchi holatlar shaxs jinoiy javobgarlikka to'lmasdan turib oq ta'sir eta boshlashini ko'rsatadi.

Shunga asoslangan holda, voyaga etmagan huquqbuzarlar shaxsining deformatsiyalashuvi shart-sharoitlarini o'rganishda quyidagi yosh guruhlarini tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi: 11-13 yosh; 14-15 yosh, 16-17 yosh.

11-13 yoshlilarda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanish mexanizmini quyidagicha tavsiflash mumkin. Pedagogikada «beshinchi sinflar muammosi» mavjud bo'lib, boshqa o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, ushbu hodisa beshinchi sinfda o'smirlar davomati pasayib ketishi bilan ham tavsiflanadi. Davomatning pasayishi uch xil ziddiyatga:

- o'smir va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatga;
- o'smir va sinf o'rtasidagi ziddiyatga;
- o'smir bilan ota-ona o'rtasidagi ziddiyatga sabab bo'ladi.

Ziddiyatlar o'z vaqtida hal qilinmasa, o'smir asosiy ijtimoiy kollektivlardan «siqib chiqariladi». Ammo bu yoshdagi o'smirning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u yakkalanib yashay olmaydi. O'smir o'ziga teng deb qaraydigan tengdoshlari guruhini qidiradi. Shu tariqa o'smirlarning salbiy guruhlarini shakllanadi. Bu erda o'zini namoyon qilishning maktab yoki oiladagidan ancha farq qiladigan usullari amal qiladi. Chekish, kissavurlik, mayda o'g'irliklar, psixotrop moddalar yoki spirtli ichimliklar iste'mol qilish, maktabda «a'lochilar»ni do'pposlash shular jumlasidandir.

Shaxs shakllanishining mazkur bosqichida ijtimoiy profilaktika zamirida yuqoridagiga o'xshash ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksi yotishi mumkin. Eng samarali yo'l – barcha ijtimoiy kollektivlarda o'smirlar o'zini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berish. Har bir o'smir o'zini nafaqat o'qishda, balki sportda, texnik ijodda, badiiy havaskorlikda va hokazolarda o'zini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

O'smir navbatdagi bosqichga (14-15 yosh) o'tishi jarayonida bir qancha o'zgarishlar ro'y beradi. Ushbu bosqichda o'ziga nisbatan



hurmatga ehtiyoj o'smirga xos bo'lgan asosiy xususiyatdir. Bunga erishish uchun u erkinlikka, mustaqillikka, o'z tengdoshlariga orasida dovruq taratishga harakat qiladi. Natijada u ziddiyatli holatlarga juda ko'p to'qnash keladi. Shu yoshda o'smirning xulq-atvorida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Garchi mazkur yosh guruhining jinoiy faolligi 16-17 yoshlilarga qaraganda kamroq (15-20%) bo'lsa-da, ushbu yoshda jinoyat sodir etish xavfi yuqoridir. Kriminologik tadqiqotlar shaxs jinoiy faoliyat yo'lga qancha erta kirsam, bu faoliyat shuncha uzoq davom etishi va xavfliroq tus olishini ko'rsatadi. Bir necha marta jinoyat sodir etgan shaxslarning aksariyati birinchi jinoyatni balog'at yoshiga to'lmay turib sodir etganlar.

O'smir shakllanishining ushbu bosqichida umumijtimoiy profilaktika chora-tadbirlari zahirida, eng avvalo, axloqiy, ma'naviy va mehnat bilan bog'liq tarbiyani takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yotadi.

Ma'lumki, 16-17 yoshda o'smirda faol fiziologik o'zgarishlar ro'y beradi. Shaxs rivojlanishi mazkur bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini tushunib etish uchun jinsiy rivojlanishning psixologik va sosiologik masalalari juda muhimdir. Erkinlik va ijozat chegaralari kengaygan, ijtimoiy va jinsiy rivojlanish o'rtasidagi tafovut esa tobora kattalashib borayotgan hozirgi davrda bu holat ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu holatga (u voyaga etmaganlar jinoyatlarining 80-85% ni sodir etadi) deformatsiyalashgan xulq-atvorning murakkab shakllari xos bo'lib hisoblanadi. Shaxsning shakllanish shart-sharoiti uning ijtimoiylashuvi darajasi, ya'ni odam ijtimoiy zarur fazilatlarini o'zlashtirish jarayoni bilan ham bog'liq bo'lib, bu jarayon ham juda murakkab hamda bir nechta bosqichlardan iborat:

- 1) muhitga qo'shilish;
- 2) muayyan ijtimoiy vazifa, funktsiya, norma, huquq va burchlarni o'zlashtirish;
- 3) muhitga moslashish va unga faol ta'sir ko'rsatish;
- 4) ijtimoiy mo'ljallar barqaror tizimining shakllanishi.

Sosiologiya fanida shaxsning ijtimoiylashuvi mexanizmi va sohalari farqlanadi.

Ijtimoiylashuv mexanizmi – inson ijtimoiy axborotni idrok etishi va o'zlashtirishiga yordam beruvchi vositalardir. Psixologlar fikriga ko'ra, bunday vositalar qatoriga ta'sir ko'rsatish, moslashtirish, ishontirish, taqlid qilish, boshqarish, yo'l-yo'riq ko'rsatish va hokazolar kiradi.

Ijtimoiylashuv sohalari – ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy institutlar bo‘lib, bunda makromuhit (ijtimoiy munosabatlar tizimi) va mikromuhit (oila, maktab, yaqin maishiy, oshnag‘aynilar muhiti va boshqa muhitdagi munosabatlar) farqlanadi.

Ijtimoiy muhit odamlar hayoti va faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Ammo shaxsning shakllanishi nafaqat jamiyatdagi moddiy, siyosiy va mafkuraviy munosabatlarga, balki o‘zi yashayotgan muhitga, unda amal qiluvchi qadriyatlar, an’analar va qoidalar tizimiga ham bog‘liqdir.

Ijtimoiylashuv jarayoni turli ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiylashuv institutlari – bu maxsus tuzilgan yoki tabiiy tarzda vujudga kelgan muassasa va organlar tizimidir. Ularning vazifasi va faoliyati avvalo ta’lim-tarbiya berish yo‘li bilan shaxslarni ma’nan rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Ijtimoiylashuv jarayonini amalga oshirish ikki o‘ziga xos xususiyatga egadir. Birinchidan, shaxs rivojlanishining har bir yosh bosqichi o‘zining asosiy ijtimoiylashuv institutiga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, turli yosh bosqichlaridagi ko‘pgina ijtimoiy institutlar har xil darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiylashuv institutlari orasida asosiy vazifasi insonning tabiiy xossalarini rivojlantirishdan iborat bo‘lgan institutlar guruhini alohida qayd etish lozim:

1) oila hamda bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari (asosiy faoliyat turi – o‘yin);

2) asosiy vazifasi ta’lim berishdan iborat bo‘lgan institutlar: maktab, lisey, gimnaziya, kollej, o‘rta maxsus o‘quv yurti, oliy o‘quv yurti (asosiy faoliyat turi – o‘qitish);

3) asosiy vazifasi amaliy faoliyatdan iborat bo‘lgan boshqa barcha institutlar (asosiy faoliyat turi – mehnat qilish).

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

1) ijtimoiylashuvning muayyan sohalari shaxs rivojlanishining turli sohalarida har xil ahamiyatga ega bo‘ladi;

2) shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida institutlar, ularning uyg‘unligi, ta’siri o‘zgarib boradi;

3) sohalar sonining ko‘payishi shaxs ijtimoiy vazifalari doirasining kengayishiga sabab bo‘ladi.

Endi shaxs ijtimoiylashuvining salbiy omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan eng muhim institutlarini ko‘rib chiqamiz. Shaxs ijtimoiylashuvining birinchi va eng muhim instituti oiladir. Shaxsning

axloqiy va ma'naviy shakllanishiga oila juda katta ta'sir ko'rsatadi. Hissiyotga tez beriluvchanlik, ta'sirchanlik, sezgirlik, hushyorlik, mehribonlik kabi fazilatlar eng avvalo oilada, bolalarning o'z ota-onasi, yaqinlari bilan o'zaro munosabatlarida shakllanadi.

Oila ijtimoiylashuv instituti sifatida bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1) U birinchi va shaxs shakllanishining muayyan bosqichida birdan-bir ijtimoiylashuv instituti hisoblanadi.

2) Oiladagi tarbiya boshqa har qanday tarbiyaga qaraganda ruhiy jihatdan kuchli bo'lib, bolaning oila ta'siriga bo'ysunishini belgilab beradi.

3) Oila bolani ijtimoiy hayotga asta-sekin va har tomonlama jalb qilish uchun eng yaxshi imkoniyatlarga egadir. Shu sababli hatto eng yaxshi bolalar uylarining tarbiyalanuvchilari ham rivojlanishda oilada tarbiya ko'rgan bolalardan ortda qoladi.

Shaxsda salbiy xususiyatlar shakllanishiga olib keluvchi oilada noto'g'ri ma'naviy va axloqiy tarbiya berish bir qancha ob'ektiv va sub'ektiv holatlar bilan belgilanishi mumkin. Eng ko'p tarqalgan bunday ob'ektiv omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- oiladagi moddiy qiyinchiliklar;
- ota-onaning ish yoki ro'zg'or yumushlari bilan qattiq bandligi. Bu bolalarni nazorat qilishni ob'ektiv tarzda qiyinlashtiradi;
- oila to'liq emasligi (ota yoki onaning yo'qligi);
- ota-ona ma'lumot darajasining pastligi, pedagogik bilimlarning yo'qligi;
- oilada ziddiyatli vaziyatning mavjudligi.

Moddiy ta'minlanganlik darajasi oilaning tarbiyalash imkoniyatlariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu holat asosiy ijtimoiy munosabatlar tubdan qayta qurilayotgan, juda ko'p odamlar ishsiz va bolalarga normal tarbiya berish uchun etarli mablag'siz qolgan hozirgi davrda alohida ahamiyatga egadir. Ayni vaqtda, bu erda nafaqat moddiy mablag'lar taqchilligi, balki ularning to'kin-sochinligi to'g'risida ham so'z yuritilishi lozim. Kriminologik tadqiqotlar huquqbuzarlar oilasida moddiy boylikka intilish ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga intilishga qaraganda ustunroq turishini ko'rsatganligi bejiz emas.

So'nggi yillarda bozor munosabatlariga o'tilishi munosabati bilan ko'pchilikda molparastlik, obro' ketidan quvish holatlari kuzatilmoqda. Bunday moyillik va intilishlar o'smirlarga ham ta'sir etmay qolmaydi, albatta. Yugurdaklik qilib bo'lsa ham yaxshi pul topish, xaridorlarni aldash

va har xil firibgarliklar yo'li bilan yashashdan tortinmaslik, hatto buni ochiq-oydin orzu qilish yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir.

Ota-onaning ma'lumoti va pedagogik bilimlar darajasi o'smir shaxsining to'g'ri shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan omillardan hisoblanadi. Voyaga etmagan huquqbuzarlar ota-onasining ma'lumot darajasi qonunga bo'ysunuvchi o'smirlar ota-onasining ma'lumot darajasidan statistik jihatdan ancha pastdir. Boz ustiga, ko'pgina huquqbuzarlar ota-onasining ma'lumot darajasi hatto voyaga etmagan huquqbuzarlarning ma'lumot darajasidan ham pastdir.

Agar birinchi holat mazkur omilning kriminogenligini ko'rsatsa, ikkinchi omil – ushbu kriminogenlik asosiy sabablaridan birini ko'rsatadi. Ota-ona umumiy ma'lumot darajasining pastligi o'smir rivojlanishining muayyan bosqichida oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini nafaqat ob'ektiv tarzda toraytiradi, balki uning ta'siri va nufuzini ham kamaytiradi.

Kriminologik tadqiqotlar ko'pgina voyaga etmagan huquqbuzarlarining ota-onalari bolalarga to'g'ri huquqiy tarbiya berishni bilmaganlari yoki bu haqda o'ylamaganlarini, natijada ba'zi bir oilalarda bolalarga haddan tashqari g'amxo'rlik va mehr-muhabbat ko'rsatishgani, ularning xulq-atvorini nazorat qilishmagani, ularning oshna-og'aynilari, tashqi aloqalari va hokazolar bilan qiziqishmaganini ko'rsatadi. Holbuki, haddan tashqari g'amxo'rlik o'smirlarda manmanlik, boqimandalik, boshqalarga nisbatan hurmatsizlik, jismoniy mehnatga salbiy munosabatni shakllantirishini amaliyot tasdiqlaydi. M.M.Boboev va G.M.Minkovskiy ma'lumotlariga ko'ra, voyaga etmagan jinoyatchilar tarbiyalangan oilalarning to'rtidan uch qismida ana shunday tarbiya berilgan.

Ota-onaning, boshqa oila a'zolarining sudlanganligi voyaga etmaganlar axloqining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi eng kuchli omillardan biridir.

Shaxs ijtimoiylashuvining navbatdagi asosiy sohasi maktabdir. Bilimlar hajmi har 10 yilda ikki baravar ko'payotgan, eng zamonaviy texnika bir necha yil ichida eskirib qolayotgan hozirgi sharoitda maktab, gimnaziya, lisey va hokazolarga ijtimoiylashuv instituti sifatida alohida e'tibor berish lozim.

Agar oilaning salbiy ta'siri o'smirlar jinoyat sodir etishining bevosita sabablaridan biri bo'lsa, boshlang'ich va o'rta ta'lim sohalarida ta'lim-tarbiya ishlaridagi kamchiliklar ushbu sabablar ta'sir ko'rsatishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit sifatida amal qilayotir. Bunday kamchiliklar qatoriga umumiy o'rta ta'limning yo'nalishi bilan hozirgi ehtiyojlar o'rtasidagi tafovut, ta'lim va tarbiyaning individuallashuvidagi

kamchiliklar kiradi. Kasb-hunar ta'limi va tarbiyasi sharoitida shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy, ob'ektiv va sub'ektiv omillar ham bisyordir.

Shaxsning ijtimoiylashuvi tizimida mehnat jamoasi alohida o'rin egallaydi. Ushbu institut ham oila, ham maktab funksiyalarini o'zida mujassamlashtiradi. Mehnat jamoasida shaxs asosiy ijtimoiy va fuqarolik majburiyatlarining egasi maqomiga ega bo'ladi. Bu sohada shaxs salbiy shakllanishiga imkoniyat yaratuvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) kasb tanlashda xatoga yo'l qo'yish. Buning natijasida yosh ishchi va xizmatchilarning ishga rag'bati yo'qoladi;

2) mehnat jamoasiga umumiy, shu jumladan psixologik moslashishdagi qiyinchiliklar. Natijada yosh ishchi yoki xizmatchi jamoaga faqat rasman bog'lanadi. Uning uchun oldingi ijtimoiy aloqalar va munosabatlar muhimroq bo'lib qolaveradi;

3) mehnat faoliyatining vaqtinchaligi (voyaga etmagan ishchi va xizmatchilarning beshdan to'rt qismi har yili ish joyini o'zgatiradi);

4) yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda bunday ishchi va xizmatchilarga nisbatan tarbiya ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi yoki umuman mavjud emasligi;

5) nihoyat, jamiyatda yangi – «bozor» munosabatlariga o'tish sharoitida jamoada tarbiya ishlari «pul topishning yo'lini bil» prinsipida yo'lga qo'yilishi.

Shaxsga u mansub bo'lgan guruhning salbiy ta'sirini tahlil qilish individual darajada jinoyat sodir etishga turtki bergan omillarni aniqlash uchun mustaqil ahamiyatga egadir. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarning aksariyati voyaga etmagan huquqbuzarlar bo'sh vaqtini kriminogen guruhlarda o'tkazishini ko'rsatadi. Aynan kriminogen guruh o'smirlar uchun g'ayriijtimoiy xulq-atvorni shakllantiruvchi va unga rag'batlantiruvchi muhit hisoblanadi. Bunday guruhlarning a'zolari yakka-yakka bo'lib ham, birgalikda ham, hatto bunday guruhlarga a'zo bo'lmagan shaxslar bilan ham jinoyatlar sodir etadilar. Bunda barcha guruhlarning ham jinoiy xulq-atvor bilan tavsiflanmasligi mumkin. Ularning ayrimlari g'ayriijtimoiy ko'rinishga ega bo'lgan, lekin jinoyat-huquqiy normalarni buzmaydigan qilmishlar bilan kifoyalanadi. Ba'zi bir guruhlarning esa ma'lum vaqtgacha axloq normalarini qo'pol ravishda buzishga yo'l qo'ymaydi.

O'smirlar kriminogen guruhlarga tushib qolishiga asosan oiladagi g'ayriijtimoiy holat, o'qish yoki ishdagi muvaffaqiyatsizliklar turtki

beradi. Shu tufayli ham aksariyat kriminogen guruhlar odatda o'smirlarning yashash joylarida shakllanadi.

Kriminogen guruh tashkil topishi uchun quyidagi bir necha holatlar muhim omil bo'lib xizmat qiladi:

1) jamiyatdan ajratilmagan va yangi shaxslar bilan aloqalar o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lgan guruh a'zolarining g'ayriijtimoiy xulq-atvor normalarini quvvatlashi yoki hatto ularni targ'ib etishi;

2) guruhda jinoiy xulq-atvor ko'rinishlarini targ'ib qiluvchi yoki bevosita namoyish etuvchi nufuzli a'zolarining paydo bo'lishi;

3) guruhning boshqa a'zolari tomonidan tanqid etilishdan qo'rqish. Bu holat guruhda jamoaviylik tuyg'usining kuchayishiga sabab bo'ladi.

Ilgari sudlangan shaxslar bilan muomala qilish shaxsning axloqiy buzilishini belgilovchi muhim omillardan biridir. Tadqiqotlar yosh huquqbuzarlarning oiladan tashqaridagi aloqalari asosan ko'chada maqsadsiz tentirash va jamoat joylarida mazmunsiz vaqt o'tkazish, bu erda spirtli ichimlik yoki giyohvandlik vositalari iste'mol qilish shaklida ro'y berganligini ko'rsatadi. Hozirgi sharoitda ko'pgina o'smirlar aksariyat vaqtini qimor o'ynash, mayda buyumlar, mahsulotlar bilan olib sotarlik qilish, nafaqat giyohvandlik vositalari, balki psixotrop moddalar ham iste'mol qilish bilan o'tkazmoqda.

Shunday qilib, huquqbuzarning oilasida vaziyat qanchalik noxush bo'lsa, uning jinoyatchilar va boshqa shaxslar bilan aloqasi shunchalik yaqin bo'ladi. Jinoyatchining shaxsi – noxush ta'sirlar majmuining o'ziga xos natijasidir. Shu sababli shaxs shakllanishining har xil nojo'ya manbalariga kompleks ta'sir ko'rsatish zarur.

### 5.3. Muayyan hayotiy vaziyat

Jinoyat sodir etishdan oldin shaxs tushib qolgan muayyan hayotiy vaziyatga ta'sir ko'rsatish shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirining jinoyatga yaqin bo'g'inidir. Zero, bunday vaziyat shaxsning muayyan jinoyat sodir etish qobiliyatini uzil-kesil ro'yobga chiqaradi.

Vaziyat – muayyan munosabatlarni, holatni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar majmui yoki uyg'unligidir. Kriminologiyaga tatbiqan muayyan hayotiy vaziyatni jinoiy qilmish sodir etish vaqtida shaxsning xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv holatlar majmui deb ta'riflash mumkin. Boshqacha aytganda, bu ijtimoiy xavfli qilmish

(harakat yoki harakatsizlik) sodir etishga ahdni uzil-kesil vujudga keltirgan vaziyat yoki holatdir.

Bunda vaziyatning ta'siri har xil bo'lishi mumkinligini e'tiborga olish lozim. Masalan, vaziyatning ta'siri kuchli bo'lishi ham (zaruriy mudofaa doirasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish), uncha kuchli bo'lmasligi ham (birovning yaxshi saqlanmayotgan boyligini o'g'irlash), umuman sezilmasligi ham (oldindan tayyorlangan tamagirlik niyatida odam o'ldirish) mumkin. Bundan tashqari, eng mushkul vaziyatda ko'pgina fuqarolar qonunni buzishdan o'zini tiyishi mumkinligini ham e'tiborga olish lozim.

Odamning har qanday qilmishi bu tashqi muhitga oddiy munosabat bildirish emas. Muayyan hayotiy vaziyat harakatga o'z holicha emas, balki shaxs bilan o'zaro ta'sirga kirishish orqali turtki beradi, uning o'ziga xos xislat va ijtimoiy xususiyatlari orqali amalda namoyon bo'ladi.

Muayyan hayotiy vaziyat tushunchasini «jinoiyat sodir etish vaziyati» tushunchasidan farqlash lozim. Ular o'rtasidagi farq shunda ko'rinadiki, muayyan hayotiy vaziyat, jinoiyat sodir etishga ahdni belgilovchi holatlar majmui sifatida, jinoiyat sodir etishdan oldin yuzaga keladi, jinoiyat sodir etish vaziyati esa shaxsning xulq-atvoriga jinoiy niyatni amalga oshirishga kirishilgan paytdan to u tugallangunga qadar ta'sir ko'rsatuvchi holatlar majmuini o'z ichiga oladi.

Hayotda jinoiyat sodir etish paytida (ehtiyotsizlik orqasida jinoiyat sodir etishda) bu ikki vaziyat mos kelishi mumkin. Lekin aksariyat hollarda ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar mazmunini belgilovchi holatlarning mazmuni o'ziga xos ko'rinish va xususiyatlarga ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

Muayyan hayotiy vaziyatning mazmuni va chegaralari har xil bo'lishi mumkin. Vaziyat juda katta mezonlarni qamrab olishi (genosid) yoki avtobus bekati doirasi bilan chegaralanishi (bezorilik), bir necha soniya ichida ro'y berishi (transport vositasida odam urib ketish) yoki bir necha yil davom etishi (o'zini o'zi o'ldirish darajasiga etkazish, qiynash) mumkin.

Muayyan hayotiy vaziyat amalda ro'y bergan voqealar bilan belgilanadigan ob'ektiv hamda sub'ektiv mazmunga (ushbu voqealarning odam ongidagi in'ikosi) egadir.

Ba'zi bir mualliflar jinoiy xulq-atvorni vaziyatga noto'g'ri munosabat natijasi sifatida tavsiflaydilar. Huquq va axloq normalari nuqtai nazaridan, jinoiyatchining xulq-atvori chindan ham noto'g'ridir. Lekin aksariyat hollarda bunday xulq-atvor huquqbuzarning ob'ektiv holatlarga bo'lgan

sub'ektiv munosabatiga mos keladi. Yuzaga kelgan vaziyatga nisbatan o'z munosabatini bildirar ekan, shaxs o'z fe'l-atvori va qarashlariga muvofiq tarzda harakat qiladi.

Muammoli vaziyat – hayotda keng tarqalgan va umumiy e'tirof etilgan vaziyatdir. Sub'ekt o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish yo'lida mavjud bo'lgan to'siq muammoli vaziyat sifatida ta'riflanadi. Ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etishda muammoli vaziyat katta rol o'ynaydi. Bunday vaziyatlar favqulodda hollarda yuzaga keladi va sub'ekt o'z harakatlari va qarorlarining mohiyatini anglab etishi uchun unda vaqt etishmasligi bilan tavsiflanadi. Muammoli vaziyatga ko'pincha zararli oqibatlariga sabab bo'lishi ehtimoli mavjudligi nuqtai nazaridan xavfli vaziyat sifatida qaraladi. Tabiiy kuchlar (dovul, er qimirlashi, qor yoki tog' ko'chkisi va h.k.) vaziyatning xavflilik manbalari bo'lishi mumkin. O'z-o'zidan ravshanki, bunday voqealar ro'y berganligi uchun hech kim javobgar bo'lmaydi, lekin odamlar mazkur voqealar sharoitida noto'g'ri harakat qilganligi, muayyan ehtiyot choralarini ko'rmaganliklari uchun javobgar bo'lishlari mumkin. Vaziyatning xavf tug'dirishiga uchinchi shaxslarning harakatlari (masalan, yo'lovchilar va haydovchilarni ogohlantirish choralarini ko'rmasdan yo'lni ta'mirlash) sabab bo'lishi mumkin. Xavf sub'ektning o'z harakatlari (masalan, yo'lda harakatlanish tezligini oshirish) natijasida tug'ilishi ham mumkin.

P.S. Dagel ko'pgina xavfli vaziyatlarga xos bo'lgan omillarni sanab o'tadi:

a) kutilmaganda zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yo'naltirilgan tabiiy kuchlar;

b) sub'ektning izchil faoliyatiga fizik jihatdan monelik qilayotgan omillar (transport harakatiga xalaqit berish);

v) sub'ektning e'tiborini chalg'ituvchi omillar;

g) zarar ob'ektlarining himoyasizligiga imkoniyat yaratuvchi omillar;

d) transport harakat yo'nalishida jabrlanuvchilarning bo'lishi.<sup>1</sup>

N.A. Ignatov ma'lumotlariga ko'ra, hatto tajribali va intizomli haydovchilar ham tang holatlarga tushib qoladi (kuniga 3-15 marta), faqat ular odatda bu vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqishga muyassar bo'ladilar.

Muammoli (ob'ektiv tarzda xavfli) vaziyatlar ba'zan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida ham (masalan, jinoyatchini ushlab to'g'risida so'z yuritilgan hollarda) yuzaga keladi.

<sup>1</sup> Дегель П.С. Неосторожность. – М., 1977. –С.54.



Jinoyat sodir etishga (ayniqsa, ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etish holatlariga) ob-havo, kun vaqti (ertalab, choshgoh, kechqurun, tun va h.k.) kabi vaziyat omillari ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Masalan, kunning qorong'i vaqtida harakat kunduzgidan bir necha baravar kam bo'lishiga qaramay, barcha yo'l-transport hodisalarining 60% ga yaqini ro'y beradi.

Muayyan hayotiy vaziyatlar konfliktli bo'lishi mumkin. Konfliktli vaziyat deganda qarama-qarshi manfaatlar, qarashlar va intilishlar to'qnashuvi ro'y beradigan, taraflar o'rtasida ziddiyat yuzaga keladigan vaziyat tushuniladi. Konfliktli vaziyatda bo'lajak jinoyatchi va bo'lajak jabrlanuvchi yoki bo'lajak jinoyatchi va hokimiyat organlarining vakili va hokazolar taraflar sifatida ishtirok etadi. «Qat'iy raqobatli» va «noqat'iy raqobatli» konfliktli vaziyatlar varqlanadi. «Qat'iy raqobatli» konfliktli vaziyatlarda ishtirokchilarning manfaatlari bir-biriga mutlaqo teskari bo'ladi va bir tarafning yutib chiqishi ikkinchi tarafning yutqazishini anglatadi. «Noqat'iy raqobatli» konfliktli vaziyatlarda shunday qarama-qarshi manfaatlar birlashuvi ro'y beradi.

Konfliktlarning ichki va tashqi tomoni farqlanadi.

Tashqi tomondan konflikt – ikki kuchning qarama-qarshiligidir. Ichki tomondan esa, konflikt har xil axborot tizimlarining o'zaro nisbati, «raqiblar» xulq-atvori zamirida yotgan o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo etuvchi fikrlash masalalarining ikki tomonlama echimidir.

Konfliktli vaziyatda qarama-qarshi tomonlar uni hal qilishning oqilona usulini topishga harakat qiladilar. Bu usul refleksiya deb ataladi. Refleksiya «raqib»ning fikrlari va harakatlarini imitasiya qilishni va o'z fikrlari va xulosalarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Shu sababli konfliktning har bir ishtirokchisi (bo'lajak jinoyatchi va milisiya xodimi) vaziyatni nafaqat o'z nuqtai nazaridan, balki «raqib» nuqtai nazaridan ham baholaydi. Bu «kurash»da kimning «refleksiya darajasi» yuqori bo'lsa, kim yuzaga kelgan vaziyatni to'g'ri anglab etgan, o'z raqibini yaxshi o'rgangan bo'lsa, o'sha g'olib chiqadi. Refleksiya jarayonlarini o'rganish va hisobga olish juda ko'p jinoyatlarni sodir etish mexanizmining ichiga kirishga yordam beradi. Ularni bilish tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishda jinoyatlarni oldini olish uchun ham zarurdir. Jinoyatchini (ayniqsa, qurollangan jinoyatchini) ushlashda raqibning «refleksiya darajasi»ni hisobga olish ayniqsa muhimdir.

Muayyan hayotiy vaziyatlar hatto kriminogen bo'lishi, ya'ni o'z mazmuniga ko'ra jinoiy niyat va jinoyat maqsadining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday vaziyatlar odatda «turtki beruvchi»

holatlarni (jabrlanuvchining agressiv xulq-atvori), ayrim shaxslarning noto'g'ri xulq-atvorini (erning surunkali ichkilikbozligi) o'z ichiga oladi va shu bois ularni jinoyatga turtki beruvchi vaziyatlar deb nomlash mumkin.

Maxsus adabiyotlarda jinoyatga imkoniyat yaratuvchi kriminogen vaziyatlar farqlanadi. Ular jinoyat sodir etishni engillashtiruvchi holatlarni (hisob yuritishdagi nomukammallik, qo'riqlashning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va h.k.) o'z ichiga oladi.

Muayyan hayotiy vaziyat tarkibiy jihatdan jinoyat sodir etish joyi, vaqti, iqlim sharoiti kabi omillardan tashkil topadi. Masalan, ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda, jinoyatlarning 65% ga yaqini shaharlarda, 30-35% – qishloqda, 27% – jamoat joylarida sodir etiladi. Fasl omili nuqtai nazaridan, eng ko'p jinoyat avgust oyida sodir etiladi, ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng quyi nuqta esa dekabr' oyiga to'g'ri keladi. Bahor-yoz oylarida (IV-IX) jinoyatlarning 60% ga yaqini sodir etiladi. Kunduzi barcha kissavurliklarning 60% ga yaqini, kvartira o'g'riliklarining esa – 40% sodir etiladi.

#### 5.4. Psixologik mexanizm

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shaxs darajasidagi sababiy zanjirda jinoyat sub'ektining o'zi asosiy bo'g'in bo'lib qoladi. U bilan jinoiy oqibatning kelib chiqishiga ko'ra bog'liq bo'lgan boshqa barcha holatlardan tashqari, shaxs ehtiyojlari (manfaatlari) va xulq-atvor motivlari kabi psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar ayniqsa qasddan sodir etilgan jinoiy qilmishlar sababiyatining tarkibini aniqlashda juda muhimdir.

Ehtiyojlar (manfaatlar) jinoiy xulq-atvor psixologik mexanizmining muhim elementlaridir. Shu munosabat bilan ba'zan kriminologiyaga oid adabiyotlarda ehtiyoj muayyan jinoyatning sababi deb hisoblanadi. Ammo bu to'g'ri emas.

*Birinchidan*, ehtiyojlar o'z holicha, jamuljamlikda jinoyat sodir etishga ta'sir ko'rsatgan boshqa omillar bilan bog'lanmasdan, jinoyat sababi sifatida amal qilishi mumkin emas.

*Ikkinchidan*, har qanday jinoyatning sababi muayyan jinoyatni muayyan tarzda tahlil qilish jarayonida aniqlanadi.

Inson ehtiyojlari ko'p sonli va rang-barangdir. Oddiy biologik va fiziologik ehtiyojlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uyqu, muhabbat, onalik va

h.k.), moddiy va ma'naviy yo'sindagi ijtimoiy ehtiyojlar (bilim, mehnat, muomala, o'z qobiliyatini namoyon etish, o'zini o'zi tartibga solish va h.k.) shular jumlasidandir.

Ehtiyojlar ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va boshqa ijtimoiy munosabatlar (eng avvalo ishlab chiqarish, sinfiy va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar) bilan belgilanadi. Ular harakatchandir. Hatto ehtiyojni qondirish usuli ham alohida ehtiyojga aylanishi mumkin. Masalan, kitob yig'ish shaxsning ma'rifiy, hayotda mo'ljal olish bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida, kitobsevarlikka (bibliofiliyaga) aylanishi mumkin.

Hayotiy zarur, normal, ya'ni umuman olganda maqbul ehtiyojlar hamda deformasiyalangan, buzuvchi, ya'ni ijtimoiy nomaqbul ehtiyojlar farqlanadi.

Deformasiyalangan, buzuvchi ehtiyojlar yomon odatlar va didga asoslanadi. Ba'zan ehtiyojning o'zi emas, balki uni qondirish usullari soxta bo'lib chiqadi. Aksariyat hollarda jinoyat xulq-atvor zamirida ehtiyojlar yotadi.

Ammo ehtiyojning ahamiyatini oshirib ko'rsatish ham yaramaydi. Chunki u jinoyatni bevosita emas, balki shaxsning sezgilar, manfaatlar, qarashlar, mo'ljallar, e'tiqodlar mexanizmi orqali vujudga keltiradi.

Qasddan jinoyat sodir etish mexanizmi (ya'ni muayyan hayotiy vaziyat yuzaga kelgunga qadar) uch bo'g'indan iborat: a) **motivasiya**; b) **rejalashtirish**; v) **jinoyatni ijro etish**.

**Motivasiya** – xulq-atvor motivining shakllanish va yuzaga kelish jarayonidir.

**Maqsad** – motivni amalga oshirishning o'ziga xos shaklidir. Boshqacha qilib aytganda, bu – oldindan ko'rilgan va erishish istalgan natijadir. Natija maqsadga bog'liq bo'ladi.

**Motiv** – inson faoliyatini harakatlantiruvchi kuchdir. Ayrim olimlar da'vat etuvchi kuchlarni (A.N.Leont'ev), ayrimlar – ongli ehtiyojlarni (V.G.Aseev), ayrimlar esa – ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan keskinlik holatini (K.Obuxovskiy) motivlar deb hisoblaydi.

**Motiv** – shaxs jinoyat sodir etishga ahd qilishiga turtki beruvchi ichki xulq-atvordir. Lekin motivning o'zi ham sub'ektning motiv hosil qiluvchi har xil ehtiyojlari (manfaatlari), qadriyatlarga munosabati va hokazolarning mahsulidir.

**Sezgilar** – eng keng tarqalgan xulq-atvor motivi. Rudin ma'lumotlariga ko'ra, sezgilarning 100 dan ortiq turi ma'lum. Shularning 30 dan ortig'i jinoyat motivi bo'lishi mumkin (g'azab, xusumat, nafrat, haqoratlanganlik, manmanlik, noto'g'ri tushunilgan burch, soxta o'rtoqlik,

romantika, qo'rqoqlik, qo'rquv, muhabbat, qasos va b.). Jinoyatning o'zi, umuman olganda, ijtimoiy va shaxsiy manfaat o'rtaqidagi to'qnashuv natijasidir.

**Shaxsning qadriyatlariga munosabati** – borliq hodisalari va voqealariga shaxs munosabatlarining ijtimoiy belgilangan tizimidir. «Bu dunyoda yashab qol», «Eng muhimi – pul», «Axmoq odam mehnat qiladi» va hokazolarga ko'pgina jinoyatchilar «dunyoqarashi»ga xos mo'ljallardir. Muayyan harakatga turtki beruvchi omillar motivni anglash bilan tugallanmaydi. Motiv anglab etilganidan keyin ko'pincha motivlar to'qnashuvi, kurashi ro'y beradi. Konfliktida oqilona, emosional omillar, o'ch olish hissi va ishga doir manfaatlar, tabiiy ehtiyoj va fuqarolik burchi, g'arazli manfaat va mansab vazifasi va hokazolarga munosabatlar to'qnashadi.

Ammo motivlar kurashi bilan bog'liq barcha holatlar uzil-kesil qaror qabul qilish bilan yakunlanadi.

**Jinoyat sodir etish haqida qaror qabul qilish** ikkinchi bo'g'in – jinoyatni (uning vaqti, joyi, usullari va hokazolarni) rejalashtirish bo'g'inining shakllanishini anglatadi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, jinoiy xulq-atvor sohasida ba'zi hollarda jinoyatni rejalashtirishning muayyan stereotiplari kuzatiladi: masalan, jinoyatchilar jinoiy rejani bajarishning boshqa variantlarini o'ylab o'tirmasdan, muayyan bir usulni tanlaydilar.

Sababiyatning psixologik mexanizmidagi o'ziga xos holatlardan biri shundan iboratki, jinoyat sodir etish to'g'risida qaror ba'zan emosional beqarorlik va asabiylashish holatida qabul qilinadi. Shuning uchun ham jinoyatni baholashda ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan qilmishlarda ko'p uchraydigan **impulsiv jinoiy xulq-atvor mexanizmiga** alohida e'tibor berish lozim.

**Impulsiv harakatlar** – shaxsning o'ylanmagan, motivatsiyasiz harakatlaridir. Xulq-atvorning impulsivligi qo'qqisidan tug'ilgan vaziyat, spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari iste'mol qilish bilan belgilanishi mumkin. Impulsiv xulq-atvoriga emosiyalar ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur hodisani o'rganish muayyan jinoiy xulq-atvorda sababiyatning psixologik mexanizmini aniqlash uchun muhim ahamiyatga egadir. Jamiyatda (shuningdek oilada) emosional munosabatlarining yozilmagan, lekin keng amal qiluvchi qoidalari yoki usullari juda ham ko'p. O'z sezgilarini tiyib turishda inglizlarga hech kim etolmaydi, deb hisoblaydilar. Italianlar esa emosiyalarining kuchliligi bilan ajralib turadi. Solmo qabilasiga mansub hindular o'ta tinchliksevar odamlardir.

Odam o'ldirish, zo'rlik ishlatish, o'zini o'zi o'ldirish, hatto mushtlashish ham ularga begonadir.

Umuman olganda, ko'pgina jinoyatchilarga emosiyalar madaniyat darajasining pastligi, o'z his-tuyg'ularini jilovlay olmaslik xosdir. Shuning uchun ham motivlari yo tashqi sabablarga mos kelmaydigan, yo o'rindosh xususiyatga ega bo'lgan jinoyatlar ko'p sodir etiladi.

Shunday qilib, shaxsning jinoiy xulq-atvorini belgilovchi holatlar ancha murakkab sababiyat kompleksini tashkil etadi. Bu kompleks mazmuni va xususiyatiga ko'ra har xil bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv omillarni o'z ichiga oladi. Ularni mufassal o'rganish va aniqlash – kriminologiya fani uchun mushkul, lekin muhim amaliy vazifadir.

## **6-mavzu. KRIMINOLOGIK VIKTIMOLOGIYA ASOSLARI**

- 1. Viktimologiya tushunchasi va uning ahamiyati.**
- 2. Viktimlikni tasniflash.**
- 3. Kriminologiyada viktimlikning oldini olish vazifalari.**

### **6.1. Viktimologiya tushunchasi va uning ahamiyati**

Kriminologiya nazariyasida jinoyatlarning jabrlanuvchilari haqidagi ta'limot «viktimologiya» deb ataladi. «Viktimologiya» atamasi ikki so'zdan: lotincha victima – «jabrlanuvchi» va yunoncha logos – «bilim, ta'limot» so'zidan tashkil topgan bo'lib, jabrlanuvchi haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi.

Viktimologiya mazmuni jabrlanuvchilar haqidagi umumiy ta'limotni, ya'ni nafaqat jinoyatchilikning, balki har xil holatlar, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar, urushlar, davlat siyosatining genosidi va hokazolarning jabrlanuvchilarini qamrab oladi. Ko'rib turganimizdek, kriminologiyada «viktimologiya» atamasi tor ma'noda, ya'ni faqat jinoiy xulq-atvordan jabrlangan shaxslarga nisbatan qo'llangan. Shu sababli mazkur fan yanada aniqroq, ya'ni kriminologiyadagi viktimologiya deb nomlansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Kriminologiya doirasida jabrlanuvchini turli tomonlardan tadqiq qilish vazifasi qo'yiladi. Jabrlanuvchisiz jinoiy qilmish bo'lishi mumkin emas. Har qanday jinoiy qilmish jabrlanuvchiga muayyan (moddiy, ijtimoiy, jismoniy, psixologik, ma'naviy, bevosita, bilvosita va h.k.) zarar

etkazadi. Jinoyatlardan har xil ob'ektlar yoki jinoyat qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy ahamiyatga molik manfaatlarining egalari jabrlanishi mumkin.

Muayyan fuqaro yoki jismoniy shaxs, shaxslar jamoasi, jamiyat, davlat va hatto xalqaro huquqiy tartibot jabrlanuvchi bo'lishi mumkin.

Jinoyatlardan odam o'ldirgan jinoyatchining oila a'zolari jabrlanishi, masalan, jinoy qilmishni to'xtatishda ishtirok etish vaqtida yoki jinoyat jarayonida huquqni muhofaza qilish organlariga ko'maklashish chog'ida ularga muayyan zarar etkazilishi mumkin.

Boz ustiga, ba'zan jinoyatchining o'zi jabrlanishi mumkin (masalan, ommaviy tartibsizliklarda, bir guruh shaxs bo'lib bezorilik qilishda, mushtlashuvlarda). Shu sababli kimni amalda va muayyan tarzda jinoyatdan jabrlanuvchi deb hisoblash mumkin, degan savol kriminalizasiya va dekriminalizasiya jarayoni, jinoyat tajovuz ob'ektining chegaralarini belgilash bilan bog'liq.

Jinoyat sodir etishning sabablar zanjirida jabrlanuvchi jiddiy rol o'ynaydi, degan g'oya yangi emas, u ko'p sonli adabiy manbalarda va huquq ijodkorligi yodgorliklarida o'z aksini topgan. Lekin uning muayyan darajada ifodali talqiniga XVIII asr mutafakkirlarining asarlarida duch kelish mumkin.

Huquq fanining mumtoz davri namoyandalaridan biri Ieremiya Bentam (1748-1832) jinoyat qonunchiligiga jabrlanuvchiga etkazilgan zararni qoplashni nazarda tutuvchi normalarni kiritishni taklif qilgan. Bu jinoyatchini yanada og'irroq jazolash va qo'rqitish imkonini beradi, deb hisoblagan u. Ijobiy huquq yo'nalishining vakili Raffael Garofalo (1852-1934) ham jabrlanuvchilarga etkazilgan zararni qoplashga aholini jinoyatchilardan himoya qilishni yanada kuchaytirish vositasi sifatida qaragan (turinlik bu sudya «kriminologiya» atamasini birinchi bo'lib ilmiy muomalaga kiritgan).

Nemis kriminologi Sara Marjora Fray (1894-1958) tadqiqotlarining diqqat markazida jinoyatchini undan jabrlangan shaxs bilan yarashtirish, ya'ni jamiyatda tartib va totuvlikni barqaror etish muammolari turgan.

Jinoyatdan jabrlanuvchilar muammosi, zararni qoplash (xun to'lash) va jinoyatlarning oldini olishda uning ahamiyati masalalari Sharq, O'rta Osiyo va ayniqsa, O'zbekiston xalqlarining tarixiy huquqiy yodgorliklarida va feodal tuzumi sud organlarining qarorlarida muhim o'rin egallaydi.

Lekin jinoyatchilikning muhim omili va kriminologiyaning tarkibiy qismi sifatida jabrlanuvchi faqat XX asrning birinchi yarmida tizimli ravishda tadqiq qilina boshlandi. Odatda bu adabiyotlarda 1948 yil

«Jinoyatchi va jabrlanuvchi» deb nomlangan katta va maxsus ilmiy tadqiqotni e'lon qilgan nemis olimi Gans fon Genting nomi bilan bog'lanadi. O'z tadqiqotida u o'quvchilar e'tiborini jinoyatning yuzaga kelish omili sifatidagi jabrlanuvchiga qaratadi. Genting shuningdek jinoyatchilikni zarur etkazuvchi va undan jabrlanuvchi o'rtasidagi muayyan o'zaro munosabatlar sifatida tushunish g'oyasini ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra, jabrlanuvchilar to'g'risida to'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlarning muayyan tiplarini ajratish mumkin, bu munosabatlar esa jinoyat bilan uzviy bog'liqdir. Bu esa sodir etilgan jinoyatni nafaqat tahlil qilishni, balki uning bo'lajak jabrlanuvchilari haqida muayyan prognozlar tuzishni va hatto latent (yashirin) jinoyatchilikning holatini aniqlashni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, kriminal viktimologiya kriminologiya darsliklari va qo'llanmalarida haligacha o'zining munosib o'rnini egallagani yo'q. Muammoning mazkur jihati hatto eng so'nggi «Kriminologiya» darsliklarida ham faqat muxtasar tarzda yoritib o'tiladi, ko'pgina nashrlarda esa umuman ko'rib chiqilmaydi. Holbuki, jinoyatchilik sabablarini o'rganish va uning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda jabrlanuvchi muhim rol o'ynaydi.

O'z-o'zidan ravshanki, kriminologiyada jinoyatdan jabrlangan shaxsni o'rganishning predmetga oid tor maqsadi jinoiy xulq-atvorning individual mexanizmida jabrlanuvchining roli va ahamiyatini, jinoiy vaziyatning yuzaga kelishi va rivojlanishiga jabrlanuvchi qo'shgan «hisssa»ni aniqlashni nazarda tutadi, buning uchun esa jabrlanuvchining shaxsi haqida, shuningdek uning jinoyat sodir etilishidan oldingi xulq-atvori to'g'risida tegishli umumiy axborot olish zarur.

Jabrlanuvchining shaxsi va xulq-atvori jinoyatchi o'z jinoiy niyatini amalga oshirishida nafaqat jinoyat sodir etilishidan oldin, balki jinoiy tajovuz vaqtida, shuningdek jinoyat sodir etilganidan keyin ham (residiv uchun) ma'lum rol o'ynashi mumkin.

Jabrlanuvchining xulq-atvori, bundan tashqari, latent (yashirin) jabrlanuvchilar qilmishlarining motivlari va sabablarini aniqlash, sodir etilgan jinoyat haqida hokimiyat organlari yoki mansabdor shaxslarga xabar berish yoki ariza bilan murojaat etishdan o'zini tiyish sabablarini aniqlash va ularga baho berish uchun ham muhimdir.

Shunday qilib, kriminologiya jinoyatdan jabrlanuvchining shaxsi va xulq-atvorini o'rganish jarayonida jabrlanuvchi muammosini asosan quyidagi nuqtai nazardan ko'rib chiqadi:

a) jinoyatchi va jabrlanuvchi munosabatlarining umumiy tavsifi, ularning o'zaro aloqasi;

b) jinoyat sodir etishning umumiy sabablari va shartlari umumiy tarkibida jabrlanuvchining shaxsi va xulq-atvori;

v) jinoyat sodir etilgan muayyan hayotiy vaziyatda jabrlanuvchining shaxsi va xulq-atvori;

g) jinoyat sodir etilganidan keyin jabrlanuvchining shaxsi va xulq-atvori (ayniqsa, residiv jinoyatchilikni o'rganishda);

d) jabrlanuvchi shaxsi va xulq-atvorining latent jinoyatchilik bilan o'zaro aloqasi.

## 6.2. Viktimlikni tasniflash

L.V.Frank fikriga ko'ra, viktimlik – bu muayyan shaxsning o'z ijtimoiy roli, jismoniy va ma'naviy fazilatlar va xislatlariga ko'ra muayyan holatlarda «jabrlanuvchiga aylanish», ya'ni jinoyatdan jabr ko'rish qobiliyatidir.

V.P.Polubinskiy L.V.Frank fikrini rivojlantirib, bunday «qobiliyat»ni to'rt turga: «individual», «turdosh», «gruppaviy» va «ommaviy» turlarga ajratishni taklif qiladi. Bunda «individual» viktimlik deganda muayyan shaxsning ma'lum hayotiy vaziyatda jinoyat sodir etilishi va unga zarar etkazilishiga imkoniyat yaratadigan ijtimoiy, biofizik yoki psixologik kossalari tushuniladi.

«**Turdosh**» viktimlik, V.P.Polubinskiy fikriga ko'ra, ayrim shaxslarning bir qancha holatlar ta'sirida ma'lum jinoyat turlaridan (masalan, talonchilik, nomusga tegish va hokazolardan) jabrlanishga «moyilligi»da ifodalanadi.

«**Gruppaviy**» viktimlik o'xshash ijtimoiy, demografik, psixologik, biofizik va boshqa xislatlarga ega bo'lgan odamlarning muayyan toifalariga (inkassatorlar, qorovullar, taksichilar va boshqalarga) xos bo'lgan jinoyatlardan jabrlanish qobiliyatida ifodalanadi.

«**Ommaviy**» viktimlik – odamlarning muayyan qismi uchun ularning sub'ektiv xislatlari tufayli ob'ektiv tarzda mavjud bo'lgan jinoyatlardan jismoniy, ma'naviy yoki moddiy zarar ko'rish imkoniyatidir.

Yuqorida keltirilgan manbalardan ko'rinib turibdiki, «viktimlik» tushunchasiga ta'rif berishda jabrlanuvchining o'ziga xos xususiyatlari hal qiluvchi va birdan-bir mezon bo'lib xizmat qilgan. Ammo kishi o'z shaxsiy xususiyatlariga ko'ra emas, balki ularning boshqa omillar bilan uyg'unlashuvi yoki bog'lanishi natijasida jinoyatdan jabrlanishi mumkin. Bundan tashqari, odamning holati «qobiliyat» sifatida noto'g'ri tavsif-



langan. Bu erda shaxs muayyan ob'ektiv holatlarda jabrlanuvchi bo'lib qolish imkoniyati to'g'risida so'z yuritish to'g'ri bo'ladi.

Adabiyotlarda viktimlikning ikki asosiy turi: umumiy (jabrlanuvchi-ning yoshi, jinsi, kasbi, ijtimoiy holati va hokazolarga bog'liq bo'lgan) va maxsus (ruhiy beqarorlikka, emosional beqarorlikka, eksentriklikka, ichkilikbozlikka va hokazolarga bog'liq bo'lgan) viktimlik farqlanadi. O'tkazilgan tadqiqotlar viktimlikning bu ikki turi uyg'un ko'rinishda kelgan hollarda viktimlik darajasi ancha oshishini ko'rsatadi.

Jinoyatlarning muayyan turlarini (guruhlarini) o'rganish kriminologik viktimologiyaning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Bunday o'rganish viktim xulq-atvor haqida juda ko'p axborot olish, oshiqcha viktimlikni belgilovchi omillarni aniqlash, viktim xulq-atvorni jinoiy xulq-atvoriga bog'lash imkonini beradi va shu tariqa jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Shu sababli ayrim jinoyat turlarini, guruhlarini o'rganish hozirgi vaqtda ancha keng va faol o'tkazilmoqda. Shu nuqtai nazardan ikki asosiy masala ko'ndalang bo'ladi.

**Birinchi masala.** Kim jinoyatlardan jabrlanadi? Bu masalani nafaqat bilimga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun, balki asosan eng «viktimogen» ijtimoiy guruhlarini aniqlash maqsadida o'rganish lozim.

Tegishli tadqiqotlar ayollar firibgarlik, qiynash kabi jinoyatlarni sodir etish bilan bog'liq hollarda, erkaklar – odam o'ldirish va badanga og'ir shikast etkazish kabi jinoyatlarni sodir etishda oshiqcha viktimlik bilan tavsiflanishini ko'rsatadi. Ushbu holat formal va noformal sohalarida erkaklar va ayollar bajaradigan ijtimoiy vazifalarning xususiyati, ularning kundalik turmush tarzi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Zo'ravonlik jinoyatlarining qariyb yarmida jinoyatchining qarindoshlari yoki tanishlari jabrlanadi. Bu, ayniqsa, bezorilik, odam o'ldirish, badanga og'ir shikast etkazish kabi jinoyatlarga xosdir. Nomusga tegish masalasiga kelsak, aksariyat hollarda u yaxshi tanish bo'lmagan odamlarga (tasodifiy tanishlarga) nisbatan sodir etiladi.

**Ikkinchi muhim masala.** Shaxsning jabrlanuvchi sifatida shakllanishiga nimalar imkoniyat yaratadi? Bu har qanday viktimologik tadqiqotning bosh masalasidir, chunki unga javob topmasdan jinoyatlarning viktimologik oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish mumkin emas. Qo'yilgan savolga javoblardan biri shunday bo'lishi mumkin: jabrlanuvchilar shuning uchun ham jabrlanadiki, ularni jinoyatchilarning o'zi tanlaydi. Jinoiy tajovuzdan jabrlanuvchini tanlash bosqichi barcha jinoyatlarni sodir etish holatlarida kuzatilmasa-da, qayd etilgan holat

ko'pgina jinoyatlarga xosdir. Amaliy nuqtai nazardan, jinoyatchi jabrlanuvchini tanlashda mo'ljal oladigan belgilarni o'rganish jinoiy qilmishlarning oldini olish va ularni fosh etish (masalan, jinoyatchini jinoyat ustida ushlash)ga yordam beruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Shaxslar muayyan toifasining vakillari jinoyatdan jabrlanish ehtimoli sodir etilayotgan jinoyat turiga qarab har xil bo'ladi. Masalan, bezorilikdan jabrlanuvchi shaxs nomusga tegishdan jabrlanuvchilarga qaraganda ko'proq darajada tasodifiy bo'ladi. Ayni vaqtda, firibgarlikdan jabrlanuvchilar nomusga tegishdan jabrlanuvchilarga qaraganda kamroq darajada tasodifiydir. Tasodifiylik omili jinoyat sodir etish usuliga, jinoyatchining «professional» tayyorgarligiga va boshqa holatlarga qarab namoyon bo'ladi.

Jinoyatchilar jabrlanuvchini tanlashda har xil belgilarga, chunonchi: ko'p miqdorda moddiy boyliklarning mavjudligiga; bo'lajak jabrlanuvchining tashqi ko'rinishiga (nomusga tegishda ayolning «chiroyliligi», jinoyatga turtki beruvchi xulq-atvori; firibgarlikda shaxsning «soddaligi» va h.k.); yoshiga; hayot tajribasiga; qiziqishlariga; fe'l-atvorining o'ziga xos xususiyatlariga (ichkilikka ruju qo'yganlik, ishonuvchanlik va h.k.) qarab mo'ljal oladi.

Jinoyatchining jabrlanuvchini tanlashi – viktimlikni belgilovchi muhim omildir. Lekin bu mazkur hodisaning birdan-bir omili emas. Boshqa bir holat – jabrlanuvchining xulq-atvori ham viktimlikni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishidan oldingi, jinoyat sodir etish vaqtidagi va jinoyat sodir etilganidan keyingi xulq-atvorini farqlash lozim.

Jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishidan oldingi xulq-atvori:

- **jinoyat sodir etishga turtki beruvchi** (shaxs o'z harakatlari bilan kriminogen vaziyatni yuzaga keltiradi);
- **faol** (shaxs bevosita kriminogen vaziyatni yuzaga keltirmaydi, lekin o'z harakatlari bilan uning yuzaga kelishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi);
- **passiv** (kriminogen vaziyatning yuzaga kelishida shaxs jiddiy yoki umuman hech qanday rol o'ynamaydi) bo'lishi mumkin.

Jinoyat sodir etish vaqtida jabrlanuvchining harakatlaridan kelib chiqib:

- shaxsning huquqbuzar ko'zlagan jinoiy niyatini ro'yobga chiqarishiga imkoniyat yaratadigan xulq-atvorini;
- jabrlanuvchining jinoyatchiga jinoiy natijaga erishish imkoniyatini engillashtiruvchi elementlarsiz xulq-atvorini («neytral» xulq-atvorni);

- g'ayrihuquqiy xulq-atvor amalga oshishiga muayyan darajada to'sqinlik qiluvchi xulq-atvorni farqlash mumkin.

Jabrlanuvchining xulq-atvoriga taalluqli bo'lgan qanday holatlarni jinoyat sodir etishga turtki beruvchi yoki imkoniyat yaratuvchi holatlarga kiritish mumkin?

**Odam o'ldirishda** – bu asosan axloqqa zid xulq-atvor yoki aybdorda agressiya, g'azab va boshqa salbiy emosiyalar va holatlarni kuchaytiruvchi g'ayriqonuniy xulq-atvor. Odam o'ldirishga qasd ba'zan qo'rqitish, jismoniy zo'rlik ishlatish, do'pposlash, tahqirlash, haqorat qilish, qo'pol yoki shafqatsiz muomalada bo'lish, moddiy zarar etkazish va hokazolar ta'siri ostida tug'iladi.

**Nomusga tegishda** jinoyat sodir etishga jabrlanuvchining ayblanuvchida jinsiy hirsni qo'zg'atuvchi axloqqa zid yoki engiltak xulq-atvori turtki beradi.

Bundan tashqari, jabrlanuvchining kuchsiz yoki ojiz holatini, uning zo'rlikka qarshilik ko'rsatish qobiliyati cheklanganligini ifodalovchi holatlarga ham e'tibor berish lozim.

**G'arazgo'ylik jinoyatlariga** ko'pincha jabrlanuvchining engiltak yoki axloqqa zid harakatlari, o'z mulkini asrashga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lishi, tanishlar orttirishda e'tiborsizligi, shubhali «do'st-lar» va begona shaxslarga nisbatan haddan tashqari ishonuvchanlik, jabrlanuvchi mol-mulkingning bo'lajak o'g'rilari bilan birgalikda aroqxo'rlik qilish, qimor o'ynash, jinsiy maylga berilish imkoniyat yaratadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, jinoyatdan jabrlanuvchilar ro'y bergan hodisa haqida tegishli organlarga xabar bermasligi: a) g'ayrihuquqiy (jinoyat haqida qonunga zid ravishda ongli tarzda xabar bermaslik); b) axloqqa zid; v) neytral (shaxs jinoyatdan jabrlanganini anglamaydi) bo'ladi. Bu jabrlanuvchilarning jinoyat sodir etilganidan keyingi xulq-atvoriga nisbatan yondashuvni tabaqalashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv jabrlanuvchilarning xulq-atvor motivlarini o'rganishga asoslanishi lozim. Zotan, jabrlanuvchilar xulq-atvor motivlarining rang-barangligi ularning jinoyat sodir etilganidan keyingi harakatlarini bir xilda baholash imkonini bermaydi.

### 6.3. Kriminologiyada viktimlikning oldini olish vazifalari

Viktimologik tadqiqotlar jinoyatchilik sabablari va shartlarini, uning tarkibini o'rganish, jinoyatchilikning umumiy salbiy oqibatlarini baholash

imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishga qodirdir. Holbuki, viktimologiyaning roli hozircha munosib baholangani yo'q. Rasmiy statistik hisobotlarda jabrlanuvchilar haqida tegishli ko'rsatkichlar ham mavjud emas. Jabrlanuvchilar, ularning huquqlari va burchlari, ularga etkazilgan zararni qoplash usullari va shakllari to'g'risida qonunlar qabul qilinmagan. Jinoyat-prosessual kodeksida jabrlanuvchilar to'g'risida, jabrlanuvchilar shaxsi va xulq-atvorini tergovda va sudda lozim darajada baholash to'g'risida maxsus bo'lim (boblar) mavjud emas.

Jabrlanuvchilar shaxsini viktimologik o'rganishning bosh maqsadi ogohlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Bu chora-tadbirlar majburiy va tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Mazkur chora-tadbirlar guruhlarining har biri umumiy, gruppaviy (maxsus) va individual (xususiy) darajalarda namoyan bo'lishi mumkin.

Individual va gruppaviy darajalardagi majburiy chora-tadbirlar jinoyat sodir etishga turtki beruvchi xulq-atvorli shaxslarga nisbatan zarur holarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarda huquqni muhofaza qilish organlarining nazorat faoliyatini ta'minlash uchun qo'llanilishi mumkin.

Tavsiya ko'rinishidagi chora-tadbirlar zarur hollarda:

1) shaxslarning muayyan guruhlariga kasbiy faoliyatda va kundalik hayot faoliyatida shaxsiy xavfsizlikni ta'minlashga ob'ektiv tarzda qodir bo'lgan ba'zi bir axloq qoidalarini tushuntirish;

2) shaxsiy mol-mulkni o'g'rilar, talonchilar yoki firibgarlardan asrash qoidalarini tushuntirish;

3) jinoyatchi bilan to'qnashgan hollarda oqilona harakatlarni, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilish tartibini tushuntirish uchun qo'llanilishi mumkin.

Viktimlikning oldini olish muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun qonunchilik bazasi, chunonchi: jinoyatchilikning, huquqbuzarliklarning oldini olish to'g'risida, jinoyatdan jabrlanganlarni himoya qilish to'g'risida, etkazilgan zararni qoplash tartibi va shartlari to'g'risida qonunlar qabul qilish, jinoyat, fuqarolik, prosessual va ma'muriy kodekslarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish zarur.

Shu nuqtai nazardan jahon amaliyoti diqqatga sazovordir. 1963 yilda Yangi Zelandiyada jahonda birinchi Jinoyatlardan jabrlanganlarga etkazilgan zararni qoplash to'g'risida qonun qabul qilindi. Tez orada ushbu mamlakat tashabbusiga Angliya, Niderlandiya, Shvesiya, Fransiya, AQShning ba'zi bir (12) shtatlari, Kanadaning sakkiz viloyati, Avstraliyaning besh shtati qo'shildi.

1972 yil AQShda Jinoyatdan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish to'g'risida federal qonun qabul qilindi. 1976 yil GFRda Zo'ravonlik

jinoyatlaridan jabrlanganlarga etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi qonun kuchga kirdi. 1982 yil AQShda Jinoyatdan jabrlanganlarni va guvohlarni jinoyat-huquqiy himoya qilish to'g'risidagi federal qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga binoan jinoyatchining moddiy zararni qoplashi mustaqil jazo turi sifatida mustahkamlab qo'yildi.

1983 yil Evropa Kengashining Vazirlar Kengashi Zo'ravonlik jinoyatlaridan jabrlanganlarga etkazilgan zararni qoplash to'g'risida Evropa konvensiyasini qabul qildi. Ushbu konvensiyada jinoyatlardan jabrlanganlarga etkazilgan zararni davlat tomonidan qoplash va mazkur sohada Evropa Kengashiga a'zo mamlakatlarning xalqaro hamkorligi shartlari va prinsiplari belgilab qo'yildi.

1980 yil mayda Yaponiya parlamenti Jinoyatlardan jabrlanganlarga pul to'lash to'g'risida qonun qabul qildi. Bu qonun 1982 yil 1 yanvardan kuchga kirdi.

Hatto Janubiy Afrika Respublikasida ham jinoyatlardan jabrlanganlarni o'rganish va jinoyatchilikning oldini olish maxsus instituti mavjud.

1979 yil Myunsterda Jahon viktimologiya jamiyati ta'sis etildi, 1980 yil Vashingtonda Jahon Kongressi bo'lib o'tdi.

## **7-mavzu. JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH**

1. Jinoyatchilikning oldini olish tushunchasi.
2. Jinoyatlarning oldini olish tarkibi.
3. Jinoyatlarni profilaktika qilish turlari.

### **7.1. Jinoyatchilikning oldini olish tushunchasi**

Jinoyat uchun jazo bergandan ko'ra, uning oldini olgan ma'qulligi umum e'tirof etilgan. Bu – har qanday ijobiy qonunchilikning bosh vazifasidir. Hozirgi vaqtda huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy, salbiy hodisalarga nisbatan qo'llanilgan «jinoyatchilikning oldini olish», «profilaktika qilish», «ogohlantirish», «to'xtatish», «barham berish» kabi atamalar nafaqat maxsus adabiyotlarda, balki har xil normativ hujjatlarda, shuningdek matbuotda ham ko'p uchraydi.

Bu atamalar IIV, MXX, adliya, prokuratura, sud, xo'jalik sudi, soliq, bojxona, o't o'chirish, chegara xizmatlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy xodimlari, shuningdek jamoat tashkilotlarining

jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha muayyan vazifalarni bajaruvchi vakillari tomonidan keng qo'llaniladi. Ba'zi bir idoralarning (xususan, IIVning) o'quv yurtlari tizimida «Jinoyatlar profilaktikasi» fani o'qitilishi fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi.

Kriminologiyaga oid adabiyotlarda jinoyatchilikning oldini olish tushunchasi haqida ko'p fikr yuritiladi, lekin mazkur tushunchaning umum e'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas.<sup>1</sup>

Jinoyatlar profilaktikasiga oid yirik tadqiqot muallifi G.A.Avanesov o'z kitobining birinchi nashrini «Kriminologiya va ijtimoiy profilaktika» deb nomlagan.<sup>2</sup>

Jinoyatlarning oldini olish muammosiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy tadqiqotlardan biri kievlik I.A.Gelfand va P.P.Mixaylenkoning «Jinoyatlarning oldini olish – jinoyatchilikka barham berish uchun kurash negizi» monografiyasidir.<sup>3</sup> Unda mualliflar jinoyatlarning oldini olish sohasida qo'llaniladigan atamalar to'g'risida so'z yuritib, «oldini olish», «barham berish», «profilaktika qilish», «to'xtatish» atamalarining mazmunida farq qidirish o'rinli emasligini, bu atamalarning mazmuni birligini – shu ma'noda ular muayyan shaxslar tomonidan jamiyatga zarar etkazuvchi qilmishlar sodir etilishining oldini olish va keyinchalik bunday holatlarga mutlaqo barham berish chora-tadbirlarini ko'rish zarurligi haqidagi fikrni ifodalovchi sinonimlar ekanligini ta'kidlaydilar.

Mazkur muammoga oid tadqiqotlarni XX asrning 70-yillarida e'lon qilgan boshqa mualliflar esa, aksincha, ko'rsatib o'tilgan atamalar ma'nosi o'rtasida farq mavjudligini qayd etadilar. Xususan, A.G.Lekar va A.F.Zelinskiy «jinoyatlarning oldini olish» va «jinoyatlar profilaktikasi» atamalarini bir-biridan farqlaydilar. Ular «jinoyatlarning oldini olish» deganda muayyan jinoyat sodir etilishiga qarshilik ko'rsatishni, «jinoyatlar profilaktikasi» deganda esa – jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va sabablarni bartaraf etishni tushunadilar. Ularning fikricha, «profilaktika»ga jinoyatchilik sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish jarayonini, «jinoyatlarning oldini olish»ga esa – rejalashtirilayotgan va tayyorlanayotgan jinoyatlarga yo'l qo'ymaslikni kiritish lozim.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Филимонов О.В. Индивидуальная профилактика преступлений. – Томск, 1985. – 5-7-б.; Аванесов Г.А. Криминология. – М., 1984. – С.334.

<sup>2</sup> Аванесов Г.А. Криминология и социальная профилактика. – М., 1980. – С.72.

<sup>3</sup> Гельфанд И.А., Михайленко П.П. Предупреждение преступлений – основа борьбы за искоренение преступности. – М.: Юридическая литература, 1964. – С.67.

<sup>4</sup> Лекарь А.Г. Профилактика преступлений. – М.: 1972. – С.45; Зелинский А.Ф. Значение нормы уголовного права для предупреждения преступлений. Автореферат дисс. канд. юрид. наук. – М., 1966. – С.4.

T.A. Avanesov ko'rsatib o'tilgan atamalar bir-birini istisno etmasligini, ular o'rtasida farqdan ko'ra o'xshashlik ko'proq ekanligini, mohiyatan ular turdosh tushunchalar hisoblanishini ta'kidlagan holda, jinoyatlar profilaktikasiga ikki xil ma'noda ta'rif beradi. Keng ma'noda jinoyatlar profilaktikasi – muayyan jinoyatlarga yo'l qo'ymaslik, jamiyatning muayyan a'zolarini huquqbuzarliklar sodir etishdan tiyib turish demakdir. Boshqacha aytganda, bu – huquq, shu jumladan jinoyat huquqi (jinoyat qonunchiligi) normalari buzilishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat faoliyat. Shu ma'noda jinoyatlar profilaktikasi mazmuniga huquqni muhofaza qilish faoliyati ham kiradi. Tor ma'noda esa, jinoyatlar profilaktikasi deganda, birinchidan, jinoyatlarning sabablarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi holatlar va shart-sharoitni aniqlash bo'yicha faoliyatni; ikkinchidan, jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslarni aniqlash va ular bilan zarur ogohlantirish tadbirlari o'tkazish bo'yicha faoliyatni tushunish lozim. Bu ikki tushuncha jamuljam holda «huquqbuzarliklar profilaktikasi» umumiy tushunchasini vujudga keltiradi<sup>1</sup>.

Shunga o'xshash fikrni boshqa mualliflarning asarlarida ham uchratish mumkin. Bizning nazarimizda, «jinoyatlarning oldini olish», «jinoyatlar profilaktikasi» atamalariga har xil ma'no yuklash mumkin emas, chunki umumsiyosiy, yuridik va fiologik adabiyotlarda ular bir xil ma'noda qo'llaniladi. Qonunchilikda ham biz ko'rsatib o'tilgan atamalar o'rtasida farqqa duch kelmaymiz. Mazkur atamalar orasida «jinoyatlarning oldini olish» ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, bu fikr bir qator mualliflar tomonidan ta'kidlangan<sup>2</sup>.

Jinoyatlarning oldini olish yoki jinoyatlar profilaktikasi tushunchasi haqida maxsus adabiyotlarda ko'p fikrlar bildirilgan. Lekin mazkur tushunchaga nisbatan «davlat va jamoatchilik organlari va tashkilotlarining jinoyatlarning sabab va shart-sharoitini bartaraf etish yoki ularni neytrallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlari yoki chora-tadbirlar majmui», degan ta'rif ayniqsa keng tarqalgan.

Bizning fikrimizcha, «jinoyatlarning oldini olish» va «jinoyatlar profilaktikasi» tushunchalari o'rtasida uzviy bog'lanish mavjudligini inkor etish mumkin emas. «Jinoyatlarning oldini olish» nisbatan umumiy tushuncha bo'lsa, «jinoyatlar profilaktikasi»da jinoyatlarning oldini olishda muayyan chora-tadbirlarning roli ta'kidlanadi.

<sup>1</sup> Avanesov G.A. Криминология. – М., 1984. – С.339.

<sup>2</sup> Антонов Ю.М. О понятии профилактики преступлений // Вопросы борьбы с преступностью. – М., 1977. Вып. 26. – С.27-29; Филимонов О.В. Индивидуальная профилактика преступлений. – Томск, 1985. – С.8.

Shu bilan birga, bu ikki tushuncha o'rtasida mutlaq tenglik belgisini qo'yish ham o'rinli bo'lmaydi. Bunga ishonch hosil qilish uchun «jinoyatlarning oldini olish» tushunchasining «ichki» tuzilishini yanada mufassalroq ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

## 7.2. Jinoyatlarning oldini olish tarkibi

«Jinoyatlar profilaktikasi» tushunchasining ta'rifi uning asosiy va o'ziga xos tarkibiy elementlari yoki qismlarini ajratishni nazarda tutadi. Bunday chuqur tahlilsiz umumiy tushunchani tavsiflash mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, jinoyatlar profilaktikasi, eng avvalo, harakatni (harakatlar majmuini) yoki muvofiqlashtirilgan harakatlar tizimini, ya'ni muayyan ijtimoiy sub'ektlarning jinoyatni vujudga keltiruvchi shart-sharoit va sabablarga barham berish yoki ularni neytrallashtirish maqsadida muayyan narsalar va hodisalarga (omillarga) ta'sir ko'rsatish bo'yicha faoliyatini anglatadi. Juda ko'p mualliflar jinoyatlar profilaktikasi deganda aynan harakat (faoliyat)ni tushunadi. K.E.Igoshev va V.S.Ustinov haqli ravishda ta'kidlab o'tganidek, huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasi huquqiy tartibga solishning ijtimoiy mexanizmi buzilishining oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan davlat va jamoatchilik faoliyatini belgilash uchun qo'llanilishi lozim<sup>1</sup>.

Lekin jinoyatlar profilaktikasi tushunchasiga ta'rif berishda mazkur asosiy element (harakat yoki faoliyat)ni ko'rsatish bilan kifoyalanmaslik kerak. Muayyanroq ko'rinishda jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bog'liq har qanday faoliyat, shu jumladan jinoyatlar profilaktikasi ham kriminogen omillarga barham berishga, jinoyatchi shaxsining shakllanishiga yo'l qo'ymaydigan shart-sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy sub'ektlar o'rtasidagi tegishli ijtimoiy munosabatlarni anglatadi. Shu sababli jinoyatlarning oldini olish bo'yicha faoliyatning elementlari jamuljam holda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos tizimini tashkil etadi<sup>2</sup>.

Ijtimoiy munosabatlar o'z holicha murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, huquq sohasida ular tomonlarning muayyan huquqlari va yuridik majburiyatlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Binobarin, profilaktika faoliyati nafaqat yuridik jihatdan mustahkamlab qo'yilgan muayyan

<sup>1</sup> Игошев К.Е., Устинов В.С. Введение в курс профилактики правонарушений. – Горький, 1977. – С.15.

<sup>2</sup> Предупреждение преступности. – М., 1986. – С.8.



huquqlarni ro'yobga chiqarishni, balki bunday faoliyat ishtirokchilarining tegishli majburiyatlari bajarilishini ham anglatadi.

Ijtimoiy faoliyat yoki harakatlar majmui faoliyat sub'ektlarini nazarda tutadi, zero, har qanday faoliyat bu faoliyatni amalga oshiruvchining mavjudligini nazarda tutadi va bunday sub'ektlarning asosiy doirasini belgilash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarda profilaktika sub'ektlari doirasini belgilashga nisbatan har xil yondashiladi. Masalan, A.A. Gersenzon, N.R. Mironov va boshqalar jinoyatlarning oldini olish sub'ektlari sifatida faqat davlat va jamoat tashkilotlarini ko'rsatadilar.<sup>1</sup> Jinoyatlarning oldini olish tushunchasiga berilgan ba'zi bir ta'riflarda esa, nafaqat jamoat tashkilotlari, balki fuqarolar ham ko'rsatilmagan.

A.E. Jalinskiy jinoyatlar profilaktikasi sub'ektlari deganda faqat jismoniy shaxslarni tushunadi va ularni jinoiy faoliyatga jalb etilganlik darajasiga qarab tasniflaydi.<sup>2</sup> Holbuki, jinoyatlarning oldini olish nafaqat so'zning keng ma'nosidagi ijtimoiy jarayonni davlat tomonidan boshqarishning o'ziga xos usuli, balki ko'p sub'ektki kompleks, jinoyatchilikka ta'sir ko'rsatishning har xil metodlari va chora-tadbirlarni qamrab oluvchi harakatlar tizimi hamdir.

Yu.D. Bluvshsteyn profilaktika faoliyati sub'ektning asosiy belgilarini qayd etishni taklif qiladi. Uning fikricha, bunday belgilar qatoriga quyidagilar kiradi:

- jinoyatlar profilaktikasini tizim tajribasini o'zlashtirish va undan foydalanishga qodir bo'lgan funktsiya sifatida izchil amalga oshirish;
- tizimning boshqa elementlari bilan gorizontaal yo'nalishda (koordinatsiya) va vertikal yo'nalishda (subordinatsiya) bog'langanlik;
- o'z xulq-atvorini tizim «boshqaruv mexanizmi»ning ko'rsatmalariga muvofiq yo'lga solish;
- xulq-atvorni ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektning muayyan holatlari va tizim belgilagan chegaralarga qarab tanlash imkoniyatining mavjudligi.

Ko'rsatib o'tilgan belgilardan bittasiga ega bo'lmagan organlar, tashkilotlar yoki shaxslar ham jinoyatlar profilaktikasi sub'ekti sifatida qaralishi mumkin emas. Masalan, faoliyati bevosita profilaktika maqsadlarini ko'zlamagan organ yoki tashkilot profilaktika sub'ekti bo'la olmaydi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Герсензон А.А., Миронов Н.Р. О некоторых вопросах предупреждения преступности и других антиобщественных явлений и борьбы с ними в современных условиях. – М., 1961. – С.9.

<sup>2</sup> Жалинский А.Е. Специальное предупреждение преступлений. – Львов, 1976. – С.152.

<sup>3</sup> Блувштейн Ю.Д. Предупреждение преступлений в обществе. – Минск, 1980. – С.34.

Binobarin, faoliyatining asosiy yo'nalishi jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishdan iborat bo'lgan sub'ektgina profilaktika sub'ekti sifatida tan olinishi mumkin.

Shunga muvofiq, jinoyatlar profilaktikasining ijtimoiy sub'ektlari doirasiga faqat huquqni muhofaza qilish organlari kiradi. Bu, eng avvalo, ichki ishlar organlaridir. Ular mazmuni va yo'nalishi har xil bo'lgan profilaktika ishlarini amalga oshiradi, o'z jinoyatlar profilaktikasi sub'ektlarining muayyan kichik tizimiga ega bo'ladi. Ichki ishlar organlari o'zining jinoyatlarni profilaktika qilish funksiyasini bajara borib:

- spirtli ichimliklar bilan qonunga xilof ravishda savdo qiluvchilarni va mayda bezorilik yoki mayda o'g'rilik sodir etgan piyonistalarni, shifokor ko'rsatmasiz giyohvandlik vositalari iste'mol qiluvchilarni, bangixona va fohishaxonalarni saqlab turuvchilarni, jinoyat sodir etishda shubha qilinganlarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadi;

- ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzadi;
- huquqbuzarlarni ushlab va ularni ichki ishlar organlariga etkazishni ta'minlaydi;

- shaxs, buyum va transport vositalarini ko'zdan kechiradi, buyum hamda hujjatlarni olib qo'yadi;

- ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning qonunda nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarini qo'llaydi;

- huquqbuzarlik sodir etgan harbiy xizmatchilarni ushlaydi;

- ma'muriy nazorat ostiga olingan shaxslar hisobini yuritadi, ularni nazorat qiladi, ularga nisbatan qonunda nazarda tutilgan cheklashlarni qo'llaydi;

- jamoat joylarida insonning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlovchi va ijtimoiy axloqqa zid mast holda bo'lgan shaxslarni maxsus tibbiy muassasalarga yoki ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlariga etkazadilar va h.k.

Bundan tashqari, tergov apparati xodimlari ham muayyan profilaktika ishlarini amalga oshiradi. Tergov bo'linmalarining profilaktika ishini maqsadiga qarab ikki turga ajratish mumkin: a) jinoyatlarni to'xtatish chora-tadbirlari; b) jinoyatchilik sabablari va shart-sharoitini bartaraf etish chora-tadbirlari.

Tergov apparatining profilaktika faoliyatiga quyidagilar kiradi:

- 1) jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratadigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritish;

- 2) aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish orqali uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga barham berish;

3) jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish;

4) ish materiallaridan profilaktika faoliyatida foydalanish;

5) jinoyat sodir etilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari bilan uchrashish va suhbatlashish.

Tibbiy hushyorxonalar ham katta profilaktika ishini olib boradi.

Ichki ishlar organlarining tibbiy hushyorxonalari statistika ma'lumotlarini tahlil qilib, quyidagi guruhiiy va individual-shaxsiy profilaktika ishlarini amalga oshiradi:

1) spirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchi shaxslar bilan suhbatlar o'tkazish;

2) aniqlangan va maxsus hisobga olingan shaxslar (surunkali piyonistalar, ruhiy kasallar, davolash-mehnat profilaktoriysidan qaytgan shaxslar) to'g'risida sog'liqni saqlash idoralariga xabar berish.

Ichki ishlar organlari yoshlar va voyaga etmaganlar o'rtasida juda muhim profilaktika ishlarini olib boradi. Voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalarining xodimlari profilaktika faoliyatining asosiy maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1) huquqbuzar o'smirlarni, o'smirlarning g'ayrihuquqiy yo'nalishdagi guruhlarini aniqlash, voyaga etmaganlar jinoyatlarining oldini olish va ularni to'xtatish, bunda ijtimoiy adaptasiya va rehabilitasiya ishining shakli va usullarini, shuningdek fuqaroviy-huquqiy va ma'muriy ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini qo'llash;

2) bolalar va o'smirlar jinoyatchiligi, huquqbuzarligi va nazoratsizligiga imkoniyat yaratuvchi tashkilotchilar va dalolatchilarni, ota-onalar yoki boshqa shaxslarni aniqlash, ularning salbiy ta'sirini jinoyat, oila, fuqarolik qonunchiligi talablariga muvofiq to'xtatish;

3) voyaga etmaganlarning jinoyatlari, huquqbuzarliklari va nazoratsizligi masalalarida ommaviy axborot vositalari orqali aholiga huquqiy yordam ko'rsatish.

O'z navbatida, ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarish uchun voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalarining xodimlari:

a) huquqbuzarlarni aniqlash va ularning g'ayriijtimoiy xulq-atvoriga qonun hujjatlariga muvofiq chek qo'yish maqsadida bolalar va o'smirlar ommaviy tarzda bo'lib turadigan joylarda profilaktika ishlari va operatsiyalar tashkil etadilar va o'tkazadilar;

b) jinoyiy qilmish sodir etgan o'smirlarni ushlaydilar va voyaga etmaganlarni jamiyatdan ajratish, adaptasiya va reabilitasiya muassasalariga etkazadilar;

v) jinoyat sodir etishga moyil o'smirlar, bolalar va o'smirlar jinoyatchiligi, huquqbuzarligi va nazoratsizligiga imkoniyat yaratuvchi tashkilotchilar va dalolatchilar, ota-onalar yoki boshqa shaxslar haqida ma'lumotlarni tegishli organlar va muassasalardan so'rab oladilar va ularga nisbatan tegishli chora ko'radilar;

g) ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan o'smirlarni jinoyiy javobgarlik yoshiga to'lgunga qadar maxsus yopiq o'quv muassasalariga yuboradilar;

d) voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda qatnashadilar;

e) ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tab qaytgan voyaga etmaganlar takroran jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida jinoyat-ijroiya tizimi muassasalari bilan hamkorlikda, tegishli idoralar va muassasalar orqali bunday shaxslarga ishga joylashish va jamiyatga moslashishda yordam beradilar va hokazo.

Profilaktik ta'sir ko'rsatish ob'ektlarining doirasiga ko'ra, voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalari faoliyatining uch asosiy yo'nalishini farqlash mumkin:

a) barcha voyaga etmaganlarga nisbatan o'tkaziladigan umumiy profilaktika;

b) voyaga etmaganlarning muayyan guruhlar yoki toifalariga nisbatan o'tkaziladigan maxsus (guruhiy) profilaktika;

v) muayyan voyaga etmagan shaxslarga nisbatan o'tkaziladigan individual profilaktika.

Umumiy profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirishda voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalari eng avvalo ijtimoiy munosabatlarining turli sohalarida ro'y berishi mumkin bo'lgan kriminogen holatlarni aniqlash va bartaraf etish bilan shug'ullanadi.

Voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalariga tushadigan kriminogen holatlar haqidagi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

a) bo'linma xizmat ko'rsatadigan hududda sodir etilgan huquqbuzarliklar holati, tarkibi va dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish materiallari;

b) fuqarolar, jamoat yoki davlat tashkilotlarining xabarlari;

v) ichki ishlar bo'limlari tergov qilayotgan muayyan jinoyat ishlarining materiallari;

g) sudlardagi fuqarolik ishlariga oid materiallar;

- d) maxsus tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olingan materiallar;
- e) ommaviy axborot vositalari: televidenie, matbuot, radio xabarlari va h.k.

Voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalari o'z faoliyatini umumiy profilaktika tadbirlari rejalariga asosan amalga oshiradi. Mazkur rejalar barcha mavjud materiallarni puxta va har tomonlama o'rganish asosida har chorakda yoki har oyda tuziladi. Rejalarda doim quyidagi asosiy tadbirlar aks ettirilishi lozim:

a) voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalari xodimlarining o'zi bevosita o'tkazuvchi tadbirlar;

b) ichki ishlar bo'limlarining xodimlari boshqa davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkazuvchi tadbirlar;

v) voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalari ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari yoki xizmatlari bilan hamkorlikda o'tkazuvchi tadbirlar.

Maxsus (guruhiy) profilaktika voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalarining mansabdor shaxslari tomonidan voyaga etmaganlarning muayyan guruhlari yoki toifalariga nisbatan amalga oshiriladi. Bunda voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalarining mansabdor shaxslari:

a) o'smirlar mast holatga kelishiga sabab bo'lgan yoki ularni ichki-likbozlik, jinoiy faoliyat, tilanchilik qilish, qimor o'ynash, prostitutsiya bilan shug'ullanishga majbur qilgan, g'yohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol qilishga jalb etgan shaxslarni;

b) huquqbuzar o'smirlar g'ayriijtimoiy guruhlarga mansubligini, ushbu guruhlarning sardorlari va faol ishtirokchilarini, ular yig'iladigan joylarni va ular jinoyat sodir etuvchi ob'ektlarni;

v) g'ayriijtimoiy xulq-atvori boshqa shaxslarni ularga nisbatan jinoyat sodir etishiga turtki berishi mumkin bo'lgan o'smirlarni;

g) bolalar bilan shafqatsiz muomalada bo'ladigan, ularni kaltaklaydigan yoki voyaga etmaganlarga nisbatan boshqa g'ayrihuquqiy harakatlar sodir etadigan ota-onalarni yoki boshqa shaxslarni;

d) o'smirlar tomonidan o'g'irlangan mol-mulkka o'xshash buyumlarni egallash holatlarini, shuningdek voyaga etmaganlar spirtli ichimliklar, boshqa buyum va ashyolar xarid qilishga sarflagan pul mablag'larining manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlaydilar.

Voyaga etmaganlar o'rtasidagi jinoyatlar, huquqbuzarliklar va nazoratsizlikning individual profilaktikasi voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalarining mansabdor shaxslari tomonidan barcha voyaga

etmaganlarga, shuningdek umumiy ta'lim maktablarining o'quvchilariga nisbatan amalga oshiriladi.

Individual profilaktika quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- a) profilaktika qilinishi lozim bo'lgan shaxslarni aniqlash;
- b) shaxsni va uning turmush tarzini har tomonlama va ob'ektiv tarzda o'rganish;
- v) voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalarida kuzatuv ishini yuritish orqali hisobga olish;
- g) bevosita profilaktika ishini amalga oshirish.

Individual-profilaktik ta'sir ko'rsatish shakllaridan biri o'quvchilarni voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalariga olib kelishdir. Voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'linmalariga:

- a) jinoiy javobgarlik yoshiga to'lgunga qadar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan;
- b) jamoat tartibiga daxl etuvchi ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan;
- v) voyaga etmaganlarni jamiyatdan vaqtinchalik ajratish, adaptasiya va rehabilitasiya qilish markazlarini o'zboshimchalik bilan tark etgan;
- g) o'n olti yoshga to'lmasdan, shuningdek 16-18 yoshda oilani o'zboshimchalik bilan tark etgan, shaxsi aniqlanmagan, nazorat va yordamga muhtoj bo'lgan;
- d) adashib qolgan yoki tashlab ketilgan bolalar va o'smirlar olib kelinishi mumkin.

Voyaga etmaganlar huquqbuzarliklarini profilaktika qilishda uchastka nazoratchilari muhim rol o'ynaydi. Uchastka nazoratchilarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'zi xizmat ko'rsatayotgan hududda tartibning saqlanishini ta'minlash;
- jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va to'xtatish;
- qonunda belgilangan vakolati doirasida surishtiruv va ma'muriy ish yurituvni amalga oshirish;
- o'ziga berilgan vakolatlar doirasida jinoyatlarni fosh etishda va jinoyatchilarni qidirishda qatnashish;
- o'ziga birlashtirilgan ma'muriy uchastkalarda jamoat tartibini saqlashni ta'minlashda patrullarga yordam berish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yordam ko'rsatish.

Shunday qilib, jinoyatlar profilaktikasining ma'lum tarkibiy qismlari haqida tasavvur hosil qilgach, biz uning umumiy tushunchasini ta'riflashimiz mumkin.

Jinoyatlar profilaktikasi yoki jinoyatlarning oldini olish – davlat organlari (shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari), jamoat birlashmalari, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarning jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va sabablarni bartaraf etish, ularga barham berishga qaratilgan, o'z mazmuniga ko'ra har xil chora-tadbirlarni (ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini) qamrab oluvchi, ob'ektiv tashqi omillarga va muayyan jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Profilaktika tushunchasiga berilgan umumiy ta'rif har bir muayyan holatda uni jinoyatlarning har xil toifalari va turlariga (davlatga qarshi jinoyatlar, o'zgalar mulkiga qarshi jinoyatlar, shaxsga qarshi jinoyatlar, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar va h.k.) nisbatan, profilaktik ta'sir ko'rsatish sub'ektining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari va vositalaridan yoki profilaktika ob'ektining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib muayyanlashtirish imkonini beradi.

### 7.3. Jinoyatlarni profilaktika qilish turlari

Jinoyatlar profilaktikasi umumiy tushunchasining ta'rifi va tarkibi uni tasniflash muammosi bilan uzviy bog'langan. Huquqiy, shu jumladan kriminologiyaga oid adabiyotlarda bunday tasniflashning har xil mezonlari taklif qilingan, lekin bu masalaga nisbatan bir xil yondashuv hali ishlab chiqilmagan.

V.F. Zudin profilaktika muammolariga global darajada yondashish va uning alohida doktrinasini ishlab chiqishni taklif qiladi. Uning fikricha, g'ayriijtimoiy hodisalarni ijtimoiy profilaktika qilish nazariyasi va amaliyoti quyidagi uch yo'nalishda rivojlanishi lozim:

- urushlar, ekologik muvozanatning buzilishiga qarshi qaratilgan g'ayriijtimoiy hodisalarni global darajada profilaktika qilish to'g'risidagi ta'limotning shakllanishi;

- ijtimoiy profilaktika umumiy nazariyasining shakllanishi;

- g'ayriijtimoiy hodisalarni ijtimoiy profilaktika qilish muammolarini ilmiy bilimlarning turli tarmoqlari va profilaktika faoliyatining shart-

sharoitlariga ko'ra toifalashtirish (davlat-huquqiy, axloqiy, madaniy va boshqa yo'nalishlar).<sup>1</sup>

G.A. Avanesov o'zining «Kriminologiya va ijtimoiy profilaktika» kitobida ijtimoiy profilaktika konsepsiyasini ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra, fan sifatidagi ijtimoiy profilaktika salbiy hodisalar to'g'risidagi umumiy ta'limotni muayyanlashtirish bilan shug'ullanishi va ularni bartaraf etish yo'llarini nazariy jihatdan asoslab berishi lozim. Muallif ijtimoiy profilaktikaning keng doirasini, chunonchi: axloqiy, huquqiy, kriminologik, maxsus profilaktikani belgilaydi.

Profilaktikani tasniflash muammosi huquqbuzarliklarning eng xavfli qismi – jinoyatchilik va jinoyatlarga nisbatan ancha chuqur va mufassal ishlab chiqilgan. Bu erda jinoyatlar profilaktikasi eng avvalo uni sodir etish vaqtiga (muddatiga) ko'ra tasniflanadi. Jinoyatlar profilaktikasining uch turi: ilk profilaktika, bevosita profilaktika (yoki so'zning o'z ma'nosidagi profilaktika) va residiv jinoyatlar profilaktikasi umumiy e'tirof etilgan.

Ilk profilaktika tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U g'ayriijtimoiy, g'ayrihuquqiy xulq-atvorni dastlabki bosqichdayoq ogohlantirishni nazarda tutadi. Bunda profilaktika tadbirlarini amalga oshirishni boshlashga muayyan g'ayriijtimoiy qilmish yoki xulq-atvor, chunonchi: manmanlik, qo'pollik, yolg'onchilik va boshqa salbiy harakatlar yoxud shaxsga boshqa odamlar salbiy ta'sir ko'rsatayotganligining aniqlanganligi signal bo'lishi mumkin.

Bevosita profilaktika jinoyatni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablar va shart-sharoitni aniqlash va bartaraf etishdan iborat. Residiv jinoyatlar profilaktikasi takroran jinoyat sodir etishga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va sabablarni aniqlash va bartaraf etishni nazarda tutadi. Jinoyatlarni vaqt belgisiga ko'ra profilaktika qilishning uchala turi ham jinoyatlarning muayyan guruh va turlarini profilaktika qilishga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Kriminologiyaga oid adabiyotlarda jinoyatlar profilaktikasini darajasi, maqsadlari, mazmuni va boshqa ko'rsatkichlariga ko'ra tasniflash taklif qilinadi. Jinoyatlar profilaktikasini darajasiga ko'ra tasniflash nisbatan keng tarqalgan. Bunda profilaktika faoliyatining uch darajasi: jamiyat (oliy daraja), ijtimoiy guruhlar va jamoalar (o'rta daraja) hamda individual (quyi daraja) farqlanadi.

A.B. Saxarov jinoyatlar profilaktikasining ikki darajasini – umumijtimoiy va maxsus kriminologik darajalarini farqlaydi. V.D.

<sup>1</sup>Зудин В.Ф. Социальная профилактика преступлений. – М., 1983. – С. 109.



Filimonov jinoyatlar profilaktikasi individual darajada va tuman, shahar, viloyat, respublika yoki butun mamlakat darajasida amalga oshirilishini ta'kidlaydi.

A.I. Alekseev jinoyatlar profilaktikasining to'rt darajadan iborat keng sistemasini taklif qiladi:

1) birinchi daraja umumiy va maxsus profilaktika chora-tadbirlarini (jinoyatlar profilaktikasini) qamrab oladi;

2) jinoyatlarning oldini olish va ularni to'xtatish profilaktika faoliyatining ikkinchi darajani tashkil etadi;

3) uchinchi darajada umumiy va individual profilaktika tadbirlari amalga oshiriladi;

4) ilgari sudlangan va sudlanmagan shaxslarga nisbatan individual profilaktika chora-tadbirlari profilaktika faoliyatining to'rtinchi darajani tashkil etadi<sup>2</sup>.

Profilaktika faoliyatining mazmuniga ko'ra, uning ikki turi: umumijtimoiy va maxsus kriminologik profilaktika farqlanadi.

Umumijtimoiy profilaktika huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish yoki barham berishga, boshqa g'ayriijtimoiy qilmishlarga qarshi kurashishga, fuqarolar va mansabdor shaxslarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalashga, ijtimoiy axloq qoidalarini buzuvchilarni qayta tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy, huquqiy va tarbiyaviy xarakterdagi chora-tadbirlarni qamrab oladi.

Maxsus kriminologik profilaktika, ko'pgina olimlarning fikricha, bevosita jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va sabablarni bartaraf etish yoki barham berishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Profilaktikaning bu ikki turidan adabiyotlarda so'nggisi – maxsus kriminologik profilaktikaga mufassalroq tavsif berilgan. Maxsus kriminologik profilaktikani tasniflash zahirida har xil mezonlar yotadi. G.M. Min'kovskiy uning ikki asosiy belgisini: jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar xususiyatini (texnik, prosessual, tashkiliy) va ta'sir ko'rsatish ob'ektlarini ko'rsatadi.<sup>3</sup>

V.G. Tanasevich profilaktika faoliyatini tasniflashda quyidagi ikki belgidan foydalanishni taklif qiladi: faoliyatning jinoyat-prosessual qonun bilan tartibga solinganlik darajasi (prosessual va noprosessual tadbirlar) va

<sup>1</sup> Филимонов В.Д. Проблемы криминологической классификации преступников // Проблемы повышения эффективности борьбы с преступностью. – Томск, 1981. – С.3.

<sup>2</sup> Алексеев А.И. Индивидуальная профилактика рецидива преступлений. – М., 1973. – С.54.

<sup>3</sup> Миньковский Г.М. Понятие и система мер предупреждения преступности среди молодежи. – М., 1971. – С.45.

**faoliyat xususiyati** (muayyan shaxsga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari, muayyan jinoyatning oldini olish chora-tadbirlari va jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va sabablarni bartaraf etish chora-tadbirlari)<sup>1</sup>.

A.E. Jalinskiy maxsus kriminologik profilaktika tarkibini ko'rib chiqarkan, uning quyidagi belgilarini farqlashni taklif qiladi: profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadi, usullari, taomili va ko'nikmalar; chora-tadbirlarning tashkiliy shakllari; shart-sharoitlari; ogohlantiruvchi samarasi.<sup>2</sup>

M.M. Babaev profilaktika chora-tadbirlarini ularning ta'sir darajasiga ko'ra tasniflashni taklif qiladi:

- kriminogen hodisa va holatlar yuzaga kelishining oldini oluvchi chora-tadbirlar;

- kriminogen hodisa va holatlarni bartaraf etuvchi chora-tadbirlar;

- kriminogen hodisa va holatlarni bartaraf etuvchi chora-tadbirlar;

- kriminogen hodisa va holatlar yuzaga kelishini qiyinlashtiruvchi chora-tadbirlar.<sup>3</sup>

Shunday qilib, jinoyatlar profilaktikasini tasniflashda turli mualliflar har xil mezonlarga, kimdir – sub'ektning o'ziga xos xususiyatlariga, kimdir – profilaktikani amalga oshirish usullarining o'ziga xos xususiyatlariga, kimdir – profilaktika chora-tadbirlarini huquq normalari bilan tartibga solishga, yana kimdir (ular ko'pchilikni tashkil etadi) – profilaktika chora-tadbirlarining xususiyatiga asoslanadi.

Profilaktika chora-tadbirlarini tasniflash doim izchil va muayyan mezonga ko'ra amalga oshiriladi. Shu bois eng avvalo tasniflash mezonlarini tahlil qilish lozim.

Tanlangan mezonga ko'ra tasniflash barcha o'xshash holatlar yoki hodisalarni qamrab olishi, mezon esa tasniflashni umumiydan xususiylga tomon harakat qilish prinsipiga asosan amalga oshirish imkonini berishi kerak. Buning uchun individuallashtiruvchi belgilarni aniqlash va ularning yordamida tasniflashni amalga oshirish zarur.

Hozirgi vaqtda adabiyotlarda ham, ijtimoiy sub'ektlarning amaliy faoliyatida ham profilaktikaning ikki turi: umumiy va individual profilaktika keng tarqalgan.

Umumiy profilaktika faoliyati davlat va jamoat tashkilotlarining jinoyatchilik sabablarini, jinoyatlarga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlarni,

<sup>1</sup> Танасевич В.Г. К теоретическим основам разработки мер предупреждения преступлений // Сов. государство и право, 1964, №6. – С.18.

<sup>2</sup> Специальное предупреждение преступлений. Вопросы теории. – Львов, 1976. – С.358-360.

<sup>3</sup> Бабаев М.М. Значение профилактики в борьбе с преступностью // Сов. юстиция, 1973, №19. – С.24-26.

shuningdek jinoyiy natijaga erishishni engillashtiruvchi holatlarni aniqlash, o'rganish va bartaraf etish faoliyatini o'z ichiga oladi.

Umumiy profilaktika chora-tadbirlar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- hodisa sifatidagi jinoyatchilik sabablarini aniqlash va o'rganish chora-tadbirlari;

- jinoyatchilik muayyan turlarining (masalan, voyaga etmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik, residiv jinoyatchilik, ichkilikbozlik bilan bog'liq jinoyatchilik va hokazolarning) oldini olish chora-tadbirlari;

- jinoyatlarning muayyan guruhlari yoki turlarining sodir etilishi sabablarini va ularga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitni aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlari;

- jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi yoki jinoyiy natijaga erishishni engillashtiruvchi ob'ektiv holatlarga barham berish chora-tadbirlari.

Shunday qilib, umumiy profilaktika chora-tadbirlariga ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, mafkuraviy, tashkiliy, huquqiy, texnikaviy va boshqa chora-tadbirlar kiradi.

Jinoyatlar individual profilaktikasining maqsadi – jinoyatlarning muayyan sabablarini bartaraf etish, odamlarda jinoyatlar sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan g'ayriijtimoiy boqimandalik kayfiyatlari va qarashlariga barham berishdan iborat.

Individual profilaktika faoliyati o'zaro bog'langan bir necha bosqichdan tashkil topadi:

- xulq-atvori, kayfiyati va qarashlari ular jinoyat sodir etishi mumkinligidan dalolat beruvchi shaxslarni aniqlash;

- ushbu shaxslarni va ularga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalarni o'rganish;

- bunday shaxslar jinoyat sodir eta olmasligi uchun mumkin qadar ijobiy muhitni vujudga keltirish;

- salbiy ta'sir manbalarini bartaraf etish;

- jinoyat sodir etishga moyil shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish (zarur holda – majburiy tarzda);

- mazkur shaxslarning xulq-atvori va turmush tarzini nazorat qilish;

- olib borilayotgan ish natijalarini vaqti-vaqti bilan tekshirib turish.

Jinoyatlar profilaktikasi – nafaqat qonunchilik tizimi, balki hamma joyda barcha odamlar tomonidan huquqiy qoidalarga amal qilish, qonuniylikka qat'iy rioya etish demakdir. Shuning uchun ham profilaktika

faoliyatini yaxshi yo'lga qo'yish jinoyatchilikka qarshi kurashning eng muhim, eng samarali va istiqbolli yo'nalishidir.

Shunday qilib, jinoyatlar profilaktikasi haqida yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, aytish mumkinki, jinoyatlarning oldini olish quyidagi asosiy tarkibiy qismlar, tomonlar (elementlar)dan tashkil topadi:

1. Jinoyatlarning oldini olish sub'ekti.
2. Sub'ektning jinoyatlarning oldini olish faoliyati.
3. Jinoyatlarning oldini olish ob'ekti.
4. Jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari.

Jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari tizimi ancha murakkab tizimdir. U quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab olishi mumkin:

1. Umumiy chora-tadbirlar.
2. Maxsus chora-tadbirlar.
3. Individual profilaktika chora-tadbirlari.

Jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari orasida jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari alohida o'rin egallaydi.

Jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarining quyidagi turlari farqlanadi:

- a) jinoyatlarning umumiy oldini olish chora-tadbirlari;
- b) muayyan jinoyat sodir etganlik uchun individual, shaxsiy javobgarlik va jazo choralari.

Binobarin, har qanday jinoyatning oldini olish chora-tadbirlari tizimini ko'rib chiqishda tadqiq qilish va tavsiflashning quyidagi sxemasidan kelib chiqish lozim:

- 1) umumiy profilaktika chora-tadbirlari;
- 2) maxsus profilaktika chora-tadbirlari;
- 3) individual profilaktika chora-tadbirlari, shu jumladan jinoiy javobgarlik va jazo choralari.

## **8-mavzu. JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK**

1. Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida BMT yo'nalishidagi xalqaro hamkorlik.

2. Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida xalqaro nodavlat tashkilotlari yo'nalishidagi xalqaro hamkorlik.

3. Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida Interpol yo'nalishidagi xalqaro hamkorlik.

## 8.1. Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida BMT yo'nalishidagi xalqaro hamkorlik

Rossiyalik kriminolog V.V.Luneev *qiyosiy kriminologiyani* kriminologiya fanining jinoyatchilikning umumjahon, mintaqaviy va milliy xususiyatlarni va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini, uning sababiy negizini va unga qarshi kurash choralarini, shuningdek jinoyatchilikning kelib chiqishi, shart-sharoitlari va uni oldini olish yo'llari haqidagi asosiy nazariyalarni qiyosiy o'rganuvchi sohasi sifatida ta'riflagan.

Qiyosiy kriminologiyaning *predmeti* tarkibiga:

- qiyosiy jinoyatchilik;
- jinoyatchilik sabablari haqidagi qiyosiy nazariyalar;
- jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlik

kiradi.

Jinoyatchilikka doir dastlabki qiyosiy tadqiqotlar 1901 yilda Italiya, Fransiya, Ispaniya, Avstriya, Germaniya, Angliya, Shotlandiya va Irlandiyada o'tkazilgan, 1911 yilda esa xalqaro qiyosiy tadqiqotlar uchun yagona ko'rsatkichlar tizimi taklif qilindi. Bu tizim keyinchalik tahlil qilinuvchi ma'lumotlarning qiyosiylikini oshirish nuqtai nazaridan takomillashtirildi.

Qiyosiy usullar ishlab chiqilganidan so'ng bir qancha qiyosiy tahlillar o'tkazildi, shuningdek, Xalqaro statistika instituti va Xalqaro jinoyat huquqiy va penitensiar komissiya o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Utgan asrning 30- yillarida ular tomonidan turli mamlakatlardagi jinoyat statistikasini qiyosiy o'rganish uchun Aralash komissiya tashkil qilindi. 1937 yili bu komissiya turli mamlakatlarning hukumatlariga xalqaro jinoyat-statistika tadqiqotlari dasturini yubordi. Ikkinchi jahon urushi davrida bu faoliyat vaqtincha to'xtatildi.

Urush tamom bo'lganidan so'ng mazkur vazifa bilan BMT shug'ullana boshladi. 1950 yili BMT Bosh Assambleyasi har besh yilda BMTning jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bo'yicha xalqaro kongresslarini chaqirishning zarurligi haqida rezolyusiyani qabul qildi. Sobiq SSSR BMT kongresslarida 1960 yildan ishtirok eta boshladi.

BMT Bosh Assambleyasi 1972 yil 18 dekabrda o'zining 3021-sonli rezolyusiyasini qabul qildi. Unda BMTga a'zo bo'lgan davlatlarga o'z mamlakatlaridagi jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashning ahvoli haqida Bosh kotibga axborot berib borish taklif qilindi.

1976 yilda BMT a'zo-davlatlarga so'rovnoma yubordi va unga muvofiq 1970-1975 yillarda ro'yxatga olingan jinoyatlarning umumiy sonini aks ettirish hamda ularni *jinoyatlarning o'n turi* (qasddan odam o'ldirish, shaxsning sog'lig'i yoki sha'niga qarshi tajovuz, jinsiy jinoyatlar, odam o'g'irlash, talonchilik, o'g'rilik, firibgarlik, giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda savdo qilish va h.k.) bo'yicha ma'lumotlar berishni so'radi. 64 davlatning hukumatidan javoblar olindi. Javoblarni tahlil qilish natijalari *Jinoyatchilikning birinchi obzori* deb nomlandi va uning natijalari Bosh kotibning BMT Bosh Assambleyasining 32-chi sessiyasidagi ma'ruzasida bayon etildi.

Keyinchalik BMT 1975-1980 yillardagi jinoyatchilikning tendensiyalari haqida axborotlar olishga mo'ljallangan ishlarni amalga oshirdi. 70 mamlakatning hukumati o'z davlatlaridagi jinoyatchilikning ahvoli haqida axborot berdi. Tahlil natijalari BMTning Ettinchi kongressida (1985 yil, Milan) e'lon qilingan *Jinoyatchilikning ikkinchi obzorida* bayon etildi. Kongress o'zining «Jinoyatchilik va jinoyat adliyasi sohasidagi axborot va statistika tizimlarini rivojlantirish» deb nomlangan rezolyusiyasida jinoyatchilikning obzorlari *natijalarini mustaqil o'rganish, mavjud qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf qilish yo'llari* bo'yicha tavsiyalar taqdim etdi.

Keyingi obzorni tayyorlash uchun 95 mamlakatdan javoblar olindi. Sobiq SSSR ham birinchi marta ma'lumotlar taqdim etdi. Tahlil 1980-1986 yillarni qamrab oldi. Uning natijalari Uchinchi obzorda bayon etilib, BMTning Sakkizinchi kongressida (1990 yil, Gavana) bayon etildi. Kongress o'zining «Jinoyat adliyasi sohasidagi BMT statistik obzorlarini rivojlantirish» rezolyusiyasida obzorlarning rivojlanishini faollashtirish va ularning uslubiy negizini takomillashtirishni taklif qildi.

Ro'yxatga olingan jinoyatchilik, jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar, mahkumlar haqida ma'lumotlar olish uchun yangi so'rovnoma ishlab chiqildi. Bu so'rovnoma to'rt bo'limdan tashkil topgan edi. Unga polisiya, prokuratura, sud, turmalar, jinoyatchilik faoliyatiga oid savollar kiritilgan edi. 1986-1990 yillarda sodir etilgan qasddan va ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish, zo'rvonlik nomusga tegish, talonchilik, o'g'rilik, o'zganing turar joyiga qonunga xilof ravishda kirish, firibgarlik, poraxo'rlik va boshqa jinoyatlar bo'yicha statistik ma'lumotlar berish lozimligi kiritildi, 100 mamlakatdan javoblar olindi. Sobiq SSSR hududidan Armaniston, Belarus', Latviya, Litva, Moldova, Rossiya, Tojikiston va Estoniya javob yubordi. To'rtinchi obzorning natijalari BMTning To'qqizinchi kongressida (1995 yil, Qohira) bayon qilindi. 1999

yildan boshlab Uzbekiston Respublikasi xam jinoyatchilik holati xakida BMTga ma'lumot berib bormoqda.

Obzorlar o'tkazilishi jarayonida javoblar soni ortdi, obzorlar negizi, ularni ob'ektivlashtirish va approssimasiya qilish usullari kengayib va takomillashib bordi, BMT hamda alohida davlatlar tashabbusi bilan o'tkazilayotgan qiyosiy tahlillarning zarurligi chuqur anglab etildi.

BMTda jahondagi jinoyatchilikning tendensiyalarini vaqti-vaqti bilan kuzatib borish, alohida davlatlarda esa-o'z mamlakatlaridagi kriminologik voqelikni boshqa mamlakatlarning ma'lumotlariga va butun jahon bo'yicha ma'lumotlarga qiyoslab tahlil qilish, shuningdek mahalliy jinoyatchilikning oldini olish choralari samaradorligini oshirish uchun boshqa davlatlarning tajribasidan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi.

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945 yilning oktyabrida tashkil topgan. BMT Ustaviga binoan u barcha dolzarb muammolar bo'yicha davlatlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlik uchun mas'uldir. *Mamlakatlarning inoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorligi masalalari* bilan BMT organlaridan biri—*Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS)* bevosita shug'ullanadi. 1950 yili bu kengash tarkibida Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bildirishi bo'yicha ekspertlar qo'mitasi ta'sis etildi. 1971 yilda u Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash qo'mitasiga, 1993 yilda esa—*Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat adliyasi bo'yicha komissiya deb* qayta nomlandi.

Komissiya (qo'mita) EKOSOSga jinoyatchilikka qarshi yanada samarali kutash olib borish va huquqbuzarlarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bulishga qaratilgan tavsiya va takliflar taqdim etadi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan mazkur organ zimmasiga har 5 yilda bir marta *Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bo'yicha BMT kongresslarini* tayyorlash vazifasini yuklatilgan. Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat adliyasiga doir xalqaro qoidalar, standartlar va tavsiyalar ishlab chiqishda BMT kongresslari asosiy rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtgacha 9 kongress o'tkazilgan.

## **8.2. Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida xalqaro nodavlat tashkilotlar yo'nalishidagi xalqaro hamkorlik**

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlik sub'ektlari orasida *nohukumat tashkilotlardan*: Jinoyat huquqi xalqaro uyushmasi, Xalqaro kriminologik jamiyat, Ijtimoiy himoya xalqaro jamiyati va

Xalqaro jinoyat va penitensiar fondi faoliyatini qayd etib o'tish zarur, deb uylaymiz.

Jinoyat huquqi xalqaro uvushmasi 1924 yili tashkil topgan. U jinoyatchilikni, uning sabablarini va unga qarshi kurash vositalarini o'rganadi, jinoyat huquqiy qiyosiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadi, jinoyat huquqi muammolari bo'yicha xalqaro kongresslar o'tkazilishini tashkil qiladi, BMT, YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarga maslahatlar beradi.

Xalqaro kriminologik jamiyat 1934 yilda tashkil etilgan bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorlikni ta'minlash bilan bevosita shug'ullanadi. U kriminologiya sohasidagi milliy institutlar va mutaxassislarni birlashtiradi. Xalqaro kriminologik jamiyat EKOSOS, BMT va YuNESKO maslahatchisi maqomiga ega. Mazkur jamiyat xalqaro miqyosda jinoyatchilikning sabablarini o'rganadi, kriminologik kongresslar, seminarlar, kollokviumlar tashkil qiladi, ularning materiallarini e'lon qiladi, milliy kriminologik institutlarga yordam ko'rsatadi, kriminologiya fanini rag'batlantirish uchun stipendiya va mukofotlar ta'sis etadi va tayinlaydi.

Ijtimoiy himoya xalqaro jamiyati va Xalqaro jinoyat va penitensiar fondi ham o'z sohasida shunga o'xshash ishlarni amalga oshiradi.

### **8.3. Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida Interpol yo'nalishidagi xalqaro hamkorlik**

Xalqaro hamkorlikda *Xalqaro jinoyat polisiyasi tashkiloti (Interpol)* alohida o'rin tutadi. U 1923 yili Venada dastlab xalqaro jinoyat polisiyasi komissiyasi tarzida tashkil etilgan. Interpol nohukumat tashkilotdan hukumatlararo tashkilotga aylandi. Bugungi kunda u 170 dan ortiq davlatni birlashtiradi. Interpolning oliy organi Bosh assambleya hisoblanadi. Uning sessiyalari yilda bir marta o'tkaziladi. Ijro etuvchi qo'mita mintaqalarning vakillaridan tashkil topadi. Muntazam ishlovchi apparati kotibiyat hisoblanadi. Hujjatlarni ilmiy ishlab chiqish uchun maslahatchilar instituti faoliyat ko'rsatadi.

Boshqa xalqaro tashkilotlardan farqli o'laroq, Interpol har bir mamlakatda, jumladan Uzbekistonda ham o'z *milliy markaziy byurosiga (MMB)* egadir.

Interpol o'z Ustaviga binoan mamlakatlarda amal qiluvchi qonunlar doirasida jinoyat polisiyasi organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlaydi va rivojlantiradi, jinoyatchilikning oldini olishga yordam beradigan



muassasalarni tashkil etadi va rivojlantiradi. Uning asosiy ishi – MMBdan va ular uchun axborotlar qabul qilish, tahlil qilish va berish yo‘li bilan muayyan jinoyat ishlari bo‘yicha hamkorlikni tashkil etishdan iborat.

Har bir MMB o‘z huquqni muhofaza qilish organlari bilan, xalqaro miqyosda esa–boshqa mamlakatlarning MMB va Interpol Bosh kotibiyati bilan muntazam aloqa qiladi.

## **9-mavzu. RESIDIV JINOYATCHILIKNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA UNING OLDINI OLISH**

1. Residiv jinoyatchilik tushunchasi, turlari va tavsifi.
2. Residiv jinoyatchilik ijtimoiy tipi sifatidagi residivist shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Residiv jinoyatchilikning oldini olish.

### **9.1. Residiv jinoyatchilik tushunchasi, turlari va tavsifi**

Jinoyatchilikka ta’sir o‘tkazishning jinoyat-huquqiy choralarini takomillashtirish jinoyat sodir etgan shaxslar, shu jumladan takroran jinoyat sodir etganlarning jinoiy javobgarligini yanada tabaqalashtirishni taqozo etadi.

Amaldagi jinoyat qonunchiligida takroriy jinoyatchilikning har xil turlariga turlicha baho beriladi. Ayrim hollarda ilgari jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishi qilmishni baholashga ta’sir ko‘rsatadi, ayrim hollarda esa javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat hisoblanadi (agar sud uni shunday deb topishdan bosh tortmasa). Qonunda belgilangan hollarda jinoyatni takroran sodir etganlik sudning ozodlikdan mahrum qilish muassasasi rejimining turini tanlashini belgilaydi.

Takroran jinoyat sodir etish mahkumning shaxsini tavsiflash uchun ham muhim, shuningdek tarbiya ishini tashkil etishda hisobga olinadi.

Residiv va takroriylik – bir-biri bilan uzviy bog‘langan, biroq mustaqil tushunchalar. Aybdorning ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik belgisining mavjudligi takroriylikka sifat jihatidan boshqacha mazmun baxsh etadi va yangi tushuncha – residiv jinoyatchilikini yuzaga keltiradi.

Bu erda gap faqat ko‘p sonli jinoyatlar sodir etishning boshqa turlariga taqqoslaganda residivning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriroq

ekanligida emas. Bu erda residivning o'ziga xos belgisi – shaxs ilgari sudlanganligi va o'z qilmishiga sud, binobarin, davlat baho berganligi faktiga bepisandligi birinchi o'ringa chiqadi.

Residiv tushunchasi, uning turlari va tavsifi masalalari jinoyat huquqi huquqi nazariyasi va kriminologiyada ko'p yillardan beri o'rganilib kelinadi. Shunga qaramay, takroriy jinoyat sodir etgan shaxsni residivistlar qatoriga, ko'rib chiqilayotgan hodisani esa – residivga kiritish imkonini beruvchi belgilarni tanlash yuzasidan kiritilgan muayyan takliflar o'rtasida jiddiy tafovutlar mavjud.

Bu tafovutlar muayyan darajada ob'ektiv xususiyatga ega, chunki «residiv» tushunchasi turli fanlar: jinoyat huquqi, kriminologiya, axloq tuzatish-mehnat (jinoyat-ijroiya) huquqiy vakillari tomonidan qo'llaniladi. Tegishli ravishda huquqiy (legal), kriminologik, penitensiar residiv farqlanadi<sup>1</sup>.

Ayni vaqtda, fanning bir tarmog'i doirasida residiv va uning belgilarini aniqlash borasidagi tafovutlar ancha kattadir. Residivni tavsiflash uchun turli mualliflar tomonidan taklif qilingan belgilarni atroflicha ko'rib chiqish o'rinni bo'ladi. Huquqiy (legal) residiv tushunchasidan boshlaymiz.

Masalan, P.F. Grishanin residiv va residivistni tavsiflovchi huquqiy belgilar qatoriga quyidagilarni kiritadi: 1) aybdorning ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etganligi; 2) aybdor takroriy jinoyat sodir etishdan oldin ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik holatining mavjudligi; 3) aybdor sudlanishdan oldin va keyin sodir etgan jinoyatlar qasddan sodir etilganligi<sup>2</sup>.

Dastlabki ikki belgi huquqiy residivni baholashda deyarli barcha olimlar tomonidan qayd etiladi<sup>3</sup>. Uchinchi belgi xususida har xil fikrlar ilgari surilgan. Masalan, V.N. Vasilchenko fikricha, ayb shakli residiv belgisi sifatida faqat sudlangandan keyin sodir etilgan jinoyatni baholashda hisobga olinishi lozim.

Ayrim tadqiqotchilar jinoyatchi ilgari sodir etilgan jinoyat uchun jazoni (to'liq yoki qisman) o'taganligini ham residivning muqarrar belgisi deb hisoblaydilar<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Карпец И.И. Проблема преступности. – М., 1969. – С.113-115; Кузнецова Н.Ф. Преступление и преступность. – М., 1969. – С.179; Рецидивная преступность: понятие и криминологическая характеристика / Писедов А.М. и др. – Рига, 1983. – С.10-11.

<sup>2</sup> Гришанин П.Ф. Социально-правовые проблемы борьбы с рецидивной преступностью. – М., 1981. – С.5; Бузинова С.П. Уголовно-правовое понятие рецидива и его виды // Проблемы уголовно-правовой борьбы с преступностью. – М., 1989. – С.35; Иващенко А.В. Многократные рецидивисты, не признающие особо опасными; криминологический и уголовно-правовой аспект: Автореф. дис.... канд. юрид. наук. – Томск, 1986. – С.9.

<sup>3</sup> Кудрявцев В.Н. Общая теория квалификации преступлений. – М., 1972. – 312-б.; Яковлев А.М. Борьба с рецидивной преступностью. – М., 1964. – С.8.

<sup>4</sup> Трайнин А.П. Уголовное право. Часть общая. – М., 1929. –С.288; Галиагаров Р., Ефимов Е. Множественность преступных деяний как институт советского уголовного права // Советская юстиция. 1967. – С.5; Князьев Х. Понятие рецидива преступления в уголовном праве и криминологии // Труды по правведению. –

Bayon etilgan yondashuvga ko'ra, mahkum sud hukmi qonuniy kuchga kirgani zahoti takroriy jinoyat sodir etgan bo'lsa, u residivist deb topilmaydi; biroq mahkum oradan o'n kun o'tgach ozodlikdan mahrum qilish joyida sodir etgan jinoyat uni residivistga aylantiradi. Bu fikrga qo'shilish qiyin. Bizning nazarimizda, V.I. Popovning quyidagi fikri to'g'riroq: «...muddatli jazoning samarasizligi sud tomonidan tayinlangan muddat to'liq o'tmagunicha qayd etilishi mumkin emas. Takroriy jinoyatni residiv deb topishning sharti sifatida jazoni to'liq o'tash talabi esa qonunga va residiv jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotiga ziddir»<sup>1</sup>.

Demak, jazoni o'taganlik (ya'ni mahkumga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilganlik) fakti emas, balki shaxs jazoga hukm etilganligi va davlat organi sifatidagi sud tomonidan uning qilmishiga salbiy baho berilganligi muhimroqdir. Bu yondashuvning tasdig'i sifatida jinoyat qonunchiligida o'ta xavfli residivist tushunchasiga berilgan ta'rifga murojaat etamiz. Shu narsa diqqatga sazovorki, bu erda shaxs jazoni to'liq yoki qisman o'taganligi emas, balki shaxs sodir etgan jinoyatlarning xususiyati, sudlanganlik holatlarining soni, shuningdek tayinlangan jazo e'tiborga olingan (O'zR JKning 34-, 56-moddalari). Binobarin, jazoni o'taganlik faktidan residivni aniqlashda emas, balki uning turlarini tasniflashda foydalanish mumkin.

Ayrim mualliflar shaxsni residivist deb topishni faqat og'ir jinoyatlar sodir etish<sup>2</sup> yoki og'irlik darajasi bir xil bo'lgan jinoyatlar sodir etish<sup>3</sup> yoxud turdosh va hatto bir xil jinoyatlar sodir etish<sup>4</sup> bilan bog'laydilar. Boshqa takliflar ham mavjud bo'lib, ularning mazmuni aybdor residivist deb topilishi uchun u oldingi va keyingi jinoyatlari uchun, albatta, ozodlikdan mahrum qilingan bo'lishi kerak<sup>5</sup>.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilardan foydalanish lozim, biroq residivni aniqlash uchun emas, balki uning ayrim turlarini tasniflash uchun. Tadqiqotlar o'xshash va hatto bir xil (maxsus) residiv residivistlarga xos emasligini ko'rsatadi. Ular ko'pincha har xil jinoyatlar sodir etadi<sup>6</sup>. Albatta, maxsus residiv shaxs g'ayriijtimoiy moyilligining barqarorligidan dalo-

---

Тарту, 1975. – С.63; Панько К.А. Рецидив преступлений и механизмы правового регулирования ответственности рецидивистов: Автореф. дис... докт. юрид. наук. – Киев, 1989. – С.21.

<sup>1</sup> Попов В.И. Особо опасный рецидив и его предупреждение органами внутренних дел. – Киев, 1975. – С.11.

<sup>2</sup> Ткачевский Ю.М. Досрочное освобождение от наказания. – М., 1962. – С.49.

<sup>3</sup> Паше-Озерский Н.Н. Общественность в борьбе за предупреждение рецидива // Роль общественности в борьбе с преступностью. – Воронеж, 1960. – С.185.

<sup>4</sup> Шляпочников А. Некоторые вопросы борьбы с преступностью // Советская юстиция. 1957. – С.41.

<sup>5</sup> Агафонов К.Л. Рецидив преступлений: Автореф. дис... канд. юрид. наук. – М., 1974. – С.9.

<sup>6</sup> Михлин А., Рамазин С. Пути совершенствования законодательства о борьбе с рецидивом // Социалистическая законность. 1984. № 3. – С.73.

lat beradi, biroq har xil jinoyatlar sodir etganlik uchun uch yoki to'rt marta ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tagan shaxslar ham ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ya'ni jinoyat sub'ekti g'ayriijtimoiy moyillik va odatlarining barqarorligi nafaqat turdosh, balki har xil jinoyatlar sodir etishda ham namoyon bo'ladi.

Residiv tushunchasini faqat og'ir jinoyatlar sodir etish yoki aybdor jinoyat sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum qilinganligi shartlari bilan chegaralashga urinishlarni ham o'rinli deb bo'lmaydi. Kriminologik tadqiqotlar ko'pgina ashaddiy jinoyatchilar o'z jinoiy faoliyatini ijtimoiy xavflilik darajasi uncha katta bo'lmagan jinoyatlardan boshlaganligini<sup>1</sup> va aksincha, residivistlarning asosiy tarkibiga keyingi jinoyatlarning xavflilik darajasini pasaytirish xosligini<sup>2</sup> ko'rsatadi. Shu bois ko'pgina uncha og'ir bo'lmagan takroriy jinoyatlarni «residiv» tushunchasi doirasidan chiqarish va faqat og'ir yoki turdosh jinoyatlarni hisobga olish residivga to'g'ri baho berish imkoniyatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Ayrim mutaxassislar residivni faqat bir belgi – takroriylik bilan bog'laydilar. Boshqacha aytganda, residiv va takroriylik tushunchalari tenglashtiriladi. Bu yondashuv birinchi marta jazoga hukm qilinadigan shaxslar orasida bungacha ikki va undan ortiq jinoyat sodir etgan shaxslar ham borligi va ular residivist deb topilishi lozimligi bilan asoslanadi<sup>3</sup>.

Bizning nazarimizda, mazkur yondashuv residiv va takroriylik tushunchalari o'rtasida farq yo'qolishiga olib kelishi va pirovardida residiv umumiy tushunchasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu munosabat bilan X. Kings keltirgan dalillarga qo'shilish mumkin. Uning fikricha, yuqorida zikr etilgan yondashuvning yanglishligi shundaki, ayni holda faqat ikki jinoyat sodir etgan residivist tarozining bir pallasiga, ko'p sonli jinoyatlar sodir etgan jinoyatchi esa – ikkinchi pallasiga qo'yiladi<sup>4</sup>. Vaholanki, bu ikki shaxs teng miqdorda o'xshash jinoyatlar sodir etgan holdagina taqqoslash o'rinli bo'ladi.

Shunday qilib, jinoyatlar residivini ikki asosiy belgi: takroriylik hamda sudlanganlikning mavjudligiga ega bo'lgan ko'p sonli jinoyatlar sodir etish turlaridan biri sifatida ta'riflash mumkin<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Кривошеин П.К. Повторность в советском уголовном праве: Автореф. дис... докт. юрид. наук. – М., 1990. – С.23.

<sup>2</sup> Блувштейн Ю.Д. О некоторых закономерностях рецидивного поведения (модель "эволюции" рецидивной преступности) // Сб. научных работ ЛитНИИСЕ. – Вильнюс, 1980. Вып. 6. – С.198; Зелинский А.Ф. Рецидив преступлений (структура, связи, прогнозирование): Автореф. дис... докт. юрид. наук. – М., 1978. – С.17.

<sup>3</sup> Утевский Б.С. Основные вопросы советской науки исправительно-трудового права // Советское государство и право. 1987. № 3. – С.38-39.

<sup>4</sup> Кинге Х. Ко'rsatilgan asar. – Б.50.

<sup>5</sup> Малков В.П. Множественность преступлений и ее формы по советскому уголовному праву. – Казань, 1982. – С.91; Кафаров Т.М. Ко'rsatilgan asar. – Б.25; Караев Т.Е. Повторность преступлений. – М., 1983. – С.29;

Ammo jinoyatlar residivining mazkur umumiy tavsifi atroflicha yoritilishi lozim. Aks holda muayyan shaxsni residivist deb topishga yuzaki yondashish, residivistlarning har xil toifalarini tenglashtirish hollari yuz berishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda residivistlarning quyidagi uch xil tasnifini joriy etish taklif qilinganligi bejiz emas: residivist, xavfli residivist, o'ta xavfli residivist. Taklif etilgan tasnif bilan bog'liq ro'yxatga quyidagi belgilar asos qilib olishini mumkin: 1) jinoyat zo'rlik ishlatib sodir etilganligi; 2) sodir etilgan jinoyatlar soni; 3) ayb shakli; 4) qilmishning og'irlik darajasi; 5) ro'yxatga kiritilgan jinoyatlarning takrorlanish xavfi<sup>1</sup>.

Residivda jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra residivistlarni bunday tasniflash umuman residiv jinoyatchilikning tarkibi va xususiyatini yanada teranroq tushunish imkonini beradi.

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etgan shaxslar ham residivistlar deb topilishi mumkin. Mazkur residiv turining farqlanishi shu bilan bog'liqki, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun ko'p karra sudlanish hollari jinoyat qonuniga rioya etish zaruratiga bepisandlikdan dalolat beradi va ilgari sudlanmagan shaxs tomonidan sodir etilgan ayni shu qilmishlarga nisbatan boshqacha baholashni taqozo etadi.

Xavfli va o'ta xavfli residiv shaxs xavflilik darajasi yuqori bo'lgan jinoyatlar sodir etishga moyil ekanligidan dalolat beradiki, bu jiddiy huquqiy oqibatlariga sabab bo'lishi lozim. Ushbu takliflar<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining yangi JKda o'z aksini topdi. O'zR JK 34-moddasining ikkinchi qismida ilgari hukm qilingan jinoyatiga o'xshash jinoyat sodir etgan, Jinoyat Kodeksida alohida ko'rsatilgan hollarda esa, Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi xavfli residiv jinoyat deb topilishi qayd etilgan. O'zR JK 34-moddasining uchinchi qismiga binoan, besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya'ni:

a) ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta og'ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi;

---

Попов В.И. Ко'rsatilgan asar. – Б.20; Алиев Н.Б. Повторность и рецидив преступлений по советскому уголовному праву. – Махачкала, 1978. – С.68-69.

<sup>1</sup> Михлин А., Рамазин С. Ко'rsatilgan asar. – Б.73.

<sup>2</sup> Чукумаитов Д.С. Влияние первого преступления на последующую противоправную деятельность рецидивистов. – М., 1994. – С.91.

b) ilgari og'ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldinkeyinligidan qat'i nazar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli residiv jinoyat deb topiladi.

Huquqiy residivning u yoki bu jihatlarini aniqlash uchun kriminologiya apparatiga murojaat etish lozim. U hodisalarning ijtimoiy-psixologik mohiyatini yoritib, ko'rib chiqilayotgan tushunchaning jinoyat va jinoyat-ijroiya huquqidagi mazmunini yanada boyitishi mumkin. Bunda asosiy e'tiborni muammoning quyidagi jihatlariga qaratish lozim. Residiv jinoyatchilik muammosini o'rgangan mualliflarning deyarli barchasi uning xavflilik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi va buni ilgari tarbiyaviy ta'sir choralari ko'rilgan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligi sub'ektning g'ayriijtimoiy moyilligidan dalolat berishi bilan tushuntiradi.

Bu erda davlat tomonidan ilgari jazolangan va bu faktidan saboq olishi kerak bo'lgan shaxs to'g'risida so'z yuritilmoqda. Ilgari sudlangan shaxs yangi jinoyat sodir etganligi, odatda, shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligidan dalolat beradi va u yangi jinoyatlar sodir etishining oldini olish borasida yangi muammolar qo'yadi.

Shu bois residiv mustaqil tushuncha va uni ko'p karra jinoyat sodir etish yoki jinoiy faoliyatning boshqa turlari bilan aralashmaslik kerak. Bizningcha, jinoyat qonuni takroran buzilgan hollarga nisbatan residiv atamasi qo'llanilmasligi lozim.

Kriminologiyada sudlanganlik faktini residivning muqarrar belgisi sifatida tan olishdan voz kechish amalda residivning xususiyatini baholashda shaxsning sudlanganlik faktini e'tiborga olmaslikni anglatadi.

Shunday qilib, residiv jinoiy faoliyatning shunchaki davomi emas, balki aybdorning harakatlariga davlat salbiy baho berganiga qaramay, bu faoliyatga qaytishdir. Zotan, bir necha jinoyat sodir etgan shaxs biron marta ham jazoga hukm qilinmalan bo'lsa, unga nisbatan jinoiy jazo qo'llanilishi qanday natija berishini hech kim oldindan ayta olmaydi<sup>1</sup>. Albatta, agar birinchi shunday ta'sir natijasida shaxs boshqa hech qachon jinoyat sodir etmasa, bir necha jinoyatni ketma-ket sodir etganligi uchun unga oldindan ishonchsizlik bildirish o'rinli bo'lmaydi.

Shunday qilib, residivning asosiy belgisi – qilmishga davlat organi sifatidagi sud salbiy baho berganligiga qaramay, qayta jinoyat sodir etish. Huquqiy residiv haqida aytilganlar penitensiar residivga ham tegishli. Bunda penitensiar residiv jazoni o'tash chog'ida yuz berishi bilan ajralib

<sup>1</sup> Ефимов М.А., Шкурко В.А. Рецидивная преступность и ее предупреждение. – Минск, 1977. –С.7.

turadi. Uning xavflilik darajasi shu bilan belgilanadiki, shaxs oldingi jinoyati uchun jazoni o'tab bo'lmasidan yangi jinoyat sodir etadi. Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tash paytida shaxs davlatning maxsus organlari nazorati ostida bo'ladi, biroq bu uni to'xtatmaydi.

Ayni vaqtda penitensiar residivning boshqacha talqini ham bor. Masalan, A.X. Kunashev penitensiar residiv deganda «shaxs ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni takroran o'tashi»ni tushunadi<sup>1</sup>. Bu fikrga qo'shilish qiyin, chunki bu erda urg'u jinoyat sodir etish sohasidan jazoni o'tash sohasiga ko'chirilgan. Agar muallif ilgari ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tagan shaxs bu jazo unga qayta tayinlanishiga sabab bo'lgan yangi jinoyat sodir etganligini nazarda tutgan bo'lsa, bu atama o'rinli bo'lmasa kerak.

Birinchiidan, lotincha "roena" so'zi nafaqat ozodlikdan mahrum qilishni, balki umuman jazoni anglatadi. Bundan tashqari, residiv turi shaxsga tayinlangan jazoga bog'liq bo'lishi mumkin emas. Shu bois «penitensiar» atamasi jazo tayinlash paytiga emas, balki jinoyat sodir etish paytiga tegishli bo'lishi lozim. Residiv turini belgilash bilan bog'liq boshqa atama – «postpenitensiar» atamasi shundan dalolat beradi, uni A.X. Kunashev nuqtai nazaridan tushuntirish maqsadga muvofiq emas. Bizning fikrimizcha esa, bu erda so'z jazo o'talganidan keyin sodir etilgan residiv jinoyat to'g'risida borishi lozim.

Adabiyotlarda residiv turlarining har xil mezonlarga asoslangan ko'p sonli tasniflari taklif qilingan. Masalan, umumiy va maxsus residiv, qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan residiv, oddiy va ko'p karra sodir etilgan residiv farqlanadi.

Umumiy residiv – bu oldingi jinoyati uchun sudlangan shaxsning har qanday yangi jinoyat sodir etishi. Maxsus residiv deganda shaxsning yangi o'xshash yoki turdosh jinoyat sodir etishi tushuniladi. Shu bois o'xshash va turdosh residiv farqlanadi<sup>2</sup>.

Sodir etilgan jinoyatlar soni ham shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligidan dalolat berishi mumkin. Bu erda oddiy (bir karra) va murakkab (ko'p karra) residiv – ilgari sodir etilgan jinoyatlar uchun ta'sir choralari qo'llanilganidan keyin yangi jinoyat sodir etish holati qayd etiladi.

<sup>1</sup> Кунашев АХ Уголовная ответственность за рецидив преступления по советскому уголовному праву: Автореф. дис.... канд. юрид. наук. – М., 1970. – С.4.

<sup>2</sup> Миклин А.С., Иванов А.Т. Об однородном рецидиве и сочетании различных преступлений у судимых лиц // Труды ВНИИ МВД СССР. М., 1978. – С.47-56.

Qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida yangi jinoyat sodir etish hollari ham o'ziga nisbatan har xil yondashuvlarni taqozo etadi.

Residivning sanab o'tilgan turlaridan tashqari adabiyotlarda boshqa residivlar ham uchraydi. Masalan, X. Kinge jazoni o'tagandan so'ng oradan uzoq vaqt o'tgach yangi jinoyat sodir etishga nisbatan «tasodifiy» residiv atamasini qo'llaydi<sup>1</sup>.

Oldingi jinoyatning keyingi jinoyatlarga ta'siri jinoyat-huquqiy adabiyotlarda maxsus ko'rilmagan. Masalan, A.S. Nikiforov shaxsning barqaror turdosh salbiy xususiyatlari namoyon bo'luvchi qilmishlargina o'zaro bog'liq, deb hisoblaydi. Agar jinoyatlar aybdor shaxsining ularda o'z aksini topgan salbiy xususiyatlariga ko'ra har xil bo'lsa, bu hatto jinoyatlar majmui ham emas, balki jinoyatlar yig'indisi hisoblanadi<sup>2</sup>. X. Kings bu borada o'z mulohazasini bayon etar ekan, shunday yozadi: agar shaxs jazoni o'tash paytida axloqan tuzalmay, o'z g'ayriijtimoiy moyilliklarini biroz o'zgartirgan va yangi boshqa xil jinoyat sodir etgan bo'lsa, bu umumiy residiv sifatida qaraladi. Agar shaxs axloqan tuzalib, keyinchalik unda g'ayriijtimoiy moyilliklar qayta shakllangan va u yangi jinoyat sodir etgan bo'lsa, ayni holda tasodifiy residiv to'g'risida so'z yuritish mumkin. U yoki bu jinoyatni umumiy yoki tasodifiy residiv sifatida baholashda yangi jinoyat sodir etilgan vaqt mezon bo'lib xizmat qiladi. Agar yangi jinoyat sudlanganlik holati tugatilishi yoki olib tashlanishidan oldin sodir etilgan bo'lsa, bu umumiy residiv bo'ladi, bordiyu jinoyat sudlanganlik holati tugatilganidan yoki olib tashlanganidan so'ng sodir etilgan bo'lsa, bu tasodifiy residiv bo'ladi.

X. Kingsning mazkur yondashuvi shubhasiz diqqatga sazovor. Biroq u taklif qilgan terminologiya biroz e'tiroz uyg'otadi. Tasodifiy residiv deganda u kriminologik residivni nazarda tutadi. «Kriminologik residiv» tushunchasi shaxs hukm qilinganidan keyin yangi jinoyat sodir etishi bilan bog'liq barcha holatlarni qamrab oladi. Bizning nazarimizda, uni o'rganishda asosiy e'tibor residivdagi jinoyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqaga qaratilishi lozim. Bu mahkumlarning tarkibi va kriminologik belgilariga ko'ra turdosh toifalarini farqlashga yordam berishi, takroriy jinoyat hamda aybdor shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasini baholashni engillashtirishi mumkin.

<sup>1</sup> Kinge X. Понятие рецидива преступления в уголовном праве и криминологии // Труды по правоведению. Тарту, 1975. – С.60-61.

<sup>2</sup> Никифоров А.С. Совокупность преступлений. – М., 1965. – С.16.



**Residiv jinoyatchilik tavsifi.** Hozirgi vaqtda residiv jinoyatchilik umumiy jinoyatchilikning 10% ni tashkil etadi. Tarkibiy jihatdan residiv jinoyatchilik quyidagi ko'rishga ega.

Ilgari sudlanganlar ko'p va juda ko'p miqdordagi har uch o'g'rilikning birida, har uch bosqinchilikning birida, har to'rt qasddan odam o'ldirish, o'limga olib kelgan badanga og'ir shikast etkazish, tovlamachilik, kvartira va avtomototransport o'g'riligining birida, har besh talonchilik va nomusga tegishning birida, har olti avtotransportni o'g'irlash va ichki ishlar organlari xodimiga qarshilik ko'rsatishning birida ishtirok etgan.

Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, residiv jinoyatchilik tarkibi amalda dastlabki jinoyatchilik tarkibi bilan mos keladi. U zo'rlik ishlatib-tamagirlik yo'li bilan sodir etiladigan jinoyatlar tarkibi (1980 yilgacha) tamagirlik yo'li bilan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga (oxirgi o'n yillikda) o'zgarishi bilan tavsiflanadi.

Masalan, 2004 yilgi jinoyatchilik tarkibida (O'zR IIV jinoyat qidiruv yo'nalishi bo'yicha): shaxsiy mol-mulkni o'g'irlash – 43,1%; davlat mulkini o'g'irlash – 16,8%; talonchilik – 7,1%; bezorilik – 4,7%; badanga og'ir shikast etkazish – 2,6%; avtotransportni olib qochish hamda firibgarlik – 1,6% dan; odam o'ldirish – 1,5%; bosqinchilik – 1,3%; nomusga tegish – 1,1%; tovlamachilik – 0,8%, boshqa barcha jinoyat turlari – 17,8% ni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, jami jinoyatlarning 70% ga yaqini tamagirlik niyatida hamda tamagirlik yo'li bilan zo'rlik ishlatib sodir etilgan qilmishlardir.

Respublikamizda 2003 yilda 13176, 2004 yilda 12824 hamda 2005 yilda 12564 ta (-1,4) residiv jinoyat sodir etilganligi aniqlandi. Ikki marta va ko'p karra jinoyat sodir etish ko'rsatkichi bo'yicha residiv tarkibi quyidagi barqaror bog'lanish bilan tavsiflanadi: ikkinchi marta hukm qilingan residivistlar ulushi uchinchi marta hukm qilinganlar ulushidan taxminan 2,5 ko'proq, uchinchi marta hukm qilinganlar ulushi esa, to'rtinchi marta hukm qilinganlar ulushidan taxminan shuncha baravar ko'proq.

Umumiy va maxsus residiv nisbati sodir etilgan jinoyatlarga qarab har xilligi bilan tavsiflanadi. Masalan, firibgarlar va o'g'rilarda maxsus residiv ulushi zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etganlar va odam o'ldirganlardagi maxsus residivga qaraganda ko'proq.

So'nggi yillarda zo'rlik ishlatib sodir etiladigan hamda tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning ayrim og'ir turlarida maxsus residiv darajasi va ulushi oshib bormoqda. Quyidagi ko'rsatkichlar

shundan dalolat beradi: shaxsga qarshi og'ir jinoyatlar sodir etgunga qadar turli ma'muriy huquqbuzarliklar uchun bezorilarning 60% dan ko'prog'i, odam o'ldirganlarning 40% dan ko'prog'i, talonchilik va bosqinchilik sodir etgan shaxslarning tegishli ravishda 37% va 29%, nomusga tegish jinoyati sodir etganlarning 20%, badanga og'ir shikast etkazganlarning 15% javobgarlikka tortilgan.

Zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etganlar orasida umumiy residiv 30% ni; talonchilar orasida – 70% ni; odam o'ldirganlar orasida – 80% ni; bezorilar orasida – 90% ni; bosqinchilar orasida – 33% ni; badanga og'ir shikast etkazganlar orasida – 27% ni tashkil etgan.

Maxsus residivning eng katta ulushi – 88% bezorilik sodir etganlar orasida, eng kam ulushi – 12,1% qasddan odam o'ldirganlar orasida qayd etilgan, bu ko'rsatkich nomusga tekkanlar orasida 15% ni, talonchilar orasida – 16%, bosqinchilar orasida – 17%, badanga og'ir shikast etkazuvchilar orasida – 19% ni tashkil qilgan.

Boshqa tomondan, bu ma'lumotlar xavfli darajasi pastroq bo'lgan huquqbuzarlikni sodir etish shaxsga qarshi og'irroq jinoyatlarga qo'l urish uchun o'ziga xos tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qiliishidan dalolat beradi. Binobarin, jinoyatlarning oldini olish uchun barcha huquqbuzarliklarni, shu jumladan ahamiyatsiz g'ayrihuquqiy qilmishlarni ham profilaktika qilish talab etiladi<sup>1</sup>.

## **9.2. Residiv jinoyatchilik ijtimoiy tipi sifatidagi residivist shaxsining o'ziga xos xususiyatlari**

Jinoyatlar har biri o'zining betakror ichki dunyosiga ega bo'lgan odamlar tomonidan sodir etiladi. Shu bois har bir jinoyatda shaxsiy (ruhiy, ijtimoiy va h.k.) xususiyatlar o'z ifodasini topadi, ya'ni har bir jinoyatda shaxsning o'ziga xos xususiyatlari aks etadi. Biroq jinoyatlarning rang-barangligini, bu jinoyatlar sub'ektlarining individualligi kabi, tahlil qilish mumkin, chunki har qanday individual xususiyat boshqa ko'pgina shaxslarda takrorlanadi. Ya'ni shaxsning har bir xususiyati bir odamning ham, ko'plab odamlarning ham belgisi hisoblanadi. Biz A.S. Mixlinning xususiyat hamda xususiyatlar majmuining namoyon bo'lish darajasigina deyarli betakroridir, degan fikriga qo'shilamiz<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Tahlil natijalari to'liq ko'rsatilgan asardan keltirilgan.

<sup>2</sup> Михлин А.С. Личность осужденных к лишению свободы и проблемы их исправления и перевоспитания. Фрунзе, 1980. – С.33.

Shaxs sodir etgan jinoyat sub'ektda g'ayriijtimoiy moyillikning mavjudligini taxmin qilish imkonini beradi. Residiv yuz bergan holda bu ishonch mustahkamlanadi va aksariyat mualliflar sub'ekt g'ayriijtimoiy moyilliklari, ko'nikmalari va odatlarining barqarorligi to'g'risida so'z yuritadi.

Bunday umumlashtirishlar qay darajada o'rinni? Shaxs xossalari va xususiyatlari ko'p va rang-barang ekanligiga qaramay, biz quyidagi umumlashtirishlarni izchil qo'llashimiz: tamagirlik jinoyati yoki zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etgan shaxs; residivist va birinchi marta sudlanayotgan shaxs va hokazolarni farqlashimiz va ular to'g'risida so'z yuritishimiz mumkin. Shaxs xususiyatlari soni qancha ko'p bo'lsa, bunday soni ham shunchalik ko'p. Binobarin, residivistlar orasida ham shaxslarning har xil toifalari mavjud.

Bunday guruhlarini farqlash jinoyatlarning rang-barangligini ham, jinoyat sub'ektlarining individualligini ham tahlil qilish imkonini beradi. Shu ma'noda K.E. Igoshevning tiplarga ajratish masalasi jinoyatchi shaxsi muammosidagi eng muhim masala, degan fikriga qo'shilish mumkin. «Tiplarga ajratish – nafaqat jinoyatchining ijtimoiy mohiyatini bilish metodi, balki jinoyatlarning oldini olish faoliyatini amalga oshirishning muhim nazariy prinsipi hamdir», deb yozadi u<sup>1</sup>.

Shunday qilib, jinoyatchi, xususan residivist shaxsiga xos xususiyatni bilish residivistlarning muayyan guruhlarini ajratish va o'rganish, ular sodir etadigan jinoyatlarning o'zaro aloqalarini tahlil qilish, ularning xulq-atvorini prognoz qilish imkonini beradi.

Residivist shaxsi tushunchasining umumiy ta'rifi ham muhim ahamiyatga ega. U har bir guruhning umumiy tizimdagi o'rnini aniqlash uchun zarur. Shu sababli residiv va uning turlari tushunchasining ko'pgina qoidalari residivist shaxsi va uning tiplari tushunchasiga ham taalluqli.

Umuman kriminologiyada jinoyatchi shaxsi muammosini o'rganish uzoq yillik tarixga ega. Xususan, 1897 yil Xalqaro kriminalistlar uyushmasining Geydelbergda bo'lib o'tgan anjumanida jinoyatchilarning quyidagi tasnifi qabul qilindi:

- 1) tasodifiy jinoyatchilar;
- 2) xulq-atvori beqaror bo'lgan yoki bir necha marta jinoyat sodir etgan jinoyatchilar;
- 3) ashaddiy yoki professional jinoyatchilar<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Игосhev К.Е. Основные аспекты и виды социализации личности преступника // Советское государство и право. – 1975. № 6. – С.66.

<sup>2</sup> Игосhev К.Е. Ко'rsatilgan asar. – Б.71.

Ko'rib turganimizdek, jinoyat sodir etuvchi shaxslar toifasi bir xil emas. Nafaqat tasodifiy jinoyatchilar ko'p karra jinoyat sodir etgan shaxslardan, balki ko'p karra jinoyat sodir etganlar bir-biridan ham farq qiladi.

Shu munosabat bilan K.E.Igoshev taklif qilgan jinoyatchi shaxsining tasnifi diqqatga sazovor. U ikki asosiy tipologik guruhni ajratadi. Bir guruhga jinoyat shaxs xususiyatlari shakllanishi salbiy jarayonlarining qonuniy natijasi sanalgan shaxslar kiradi. Bunday individlar uchun g'ayriijtimoiy rolni hamda xulq-atvorning ijtimoiy xavfli variantini tanlash barqaror g'ayriijtimoiy moyillarni ro'yobga chiqarishni anglatadi. Bu toifaga muallif residivistlarni, shuningdek uzoq vaqt har xil g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etuvchi shaxslarni hamda turmush va xulq-atvor tarzi qonuniy ravishda jinoiy faoliyatga olib kelgan kishilarni kiritadi. Boshqa tipologik guruhga jinoyat sodir etish fakti muayyan darajada tasodifiy hol sanalgan shaxslar kiradi. Bu tipologik guruhga K.E. Igoshev ehtiyotsizlik orqasida va kuchli ruhiy hayajonlanish ta'sirida jinoyat sodir etgan shaxslarni kiritgan.

Biroq barcha hollarda jinoyatchi qiyofasida jinoyat fakti bilan sabab va oqibat bog'lanishlari mavjud bo'lgan xususiyatlar to'g'risida so'z yuritiladi<sup>1</sup>. Umumiy hollarda K.E. Igoshev fikriga qo'shilgan holda, uning ikki muhim jihatini qayd etib o'tmoqchimiz. Birinchidan, keltirilgan tasnif haddan tashqari umumiy xususiyatga ega va unga dastlabki tasnif sifatida qaralishi mumkin. Ikkinchidan, ta'riflangan residiv tushunchasidan kelib chiqilsa, xulq-atvori beqaror muvaqqat holatda bo'lgan residivistlarning ayrim toifalarini ham oraliq tipologik guruhlariga ajratish lozim.

A.B. Saxarov jinoyatchi shaxsini atroflicha o'rganib, quyidagi tasnifni taklif qildi:

1) o'z shaxsining umumiy ijobiy-ijtimoiy mo'ljallariga zid uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etgan shaxslar («tasodifiy» jinoyatchilar)<sup>2</sup>;

2) tashqi sharoit ta'sirida uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan va ijobiy tavsiflanuvchi shaxslar («situativ» jinoyatchilar);

3) birinchi marta jinoyat sodir etgan, biroq ilgari huquqbuzarliklar va g'ayrihuquqiy qilmishlarga qo'l urgan shaxslar («beqaror» jinoyatchilar);

4) ko'p karra jinoyat sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan shaxslar («ashaddiy» jinoyatchilar);

<sup>1</sup> Гузов А.И. Профессиональная преступность. Прошлое и современность. – М., 1990. – С.9.

<sup>2</sup> Голык Ю.В. Личность случайного преступника: криминологические и уголовно-правовые проблемы: Автореф. дис... канд. юрид. наук. – Томск, 1982. – С.9.

5) o'ta xavfli residivistlar toifasiga kiruvchi shaxslar («o'ta xavfli» jinoyatchilar)<sup>3</sup>.

Keltirilgan tasnif amalda birinchi marotaba jinoyat sodir etgan shaxslarni ham, residivistlarni ham o'z ichiga oladi. Takroran biron-bir jinoyat sodir etgan shaxslar orasida A.B. Saxarov ashaddiy hamda o'ta xavfli jinoyatchilarni ajratganki, bu juda o'rinli bo'lgan. Ayni vaqtda, u ko'p marta jinoyat sodir etgan, shu jumladan sudlangan shaxslarni ashaddiy jinoyatchilar deb nomlar ekan, shaxs g'ayriijtimoiy moyilligining barqarorligi hamda ashaddiylilik ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan. Ammo birinchi va ikkinchi jinoyatni noqulay shart-sharoit ta'sirida sodir etgan yoki avval bezorilik sodir etib, so'ngra ehtiyotsizlik orqasida jinoyatga qo'l urgan shaxsni ashaddiy jinoyatchi deb bo'ladimi?

Bizning fikrimizcha, har qanday residivistni ham ashaddiy jinoyatchi deb bo'lmaydi. Shaxsning kriminogen zararlanganlik darajasiga qarab o'z hayotini jinoyatsiz tasavvur qilolmaydigan global tipni ajratgan A.G. Kovalev fikriga ham qo'shila olmaymiz<sup>1</sup>. Bu borada biz jinoyat sodir etuvchining shaxsi qarama-qarshiliklarga to'la bo'lib, unga faqat salbiy xususiyatlar majmui nuqtai nazaridan yondashish mumkin emas, degan fikrga<sup>2</sup> qo'shilamiz.

Jinoyatchilarni har xil mezonlar asosida guruhlash mumkinligini ko'pgina kriminologlar qayd etadilar. Masalan, P.S. Dagel guruhlashning quyidagi mezonlarini taklif qiladi: 1) jinoyatchi shaxsining jismoniy belgilariga ko'ra; 2) sodir etilgan jinoyat xususiyatiga ko'ra; 3) oldingi jinoiy faoliyatning mavjudligi va uning xususiyatiga ko'ra; 4) jinoyatchi shaxsining psixologik xususiyatlariga ko'ra; 5) axloqan tuzalish darajasiga ko'ra. Muallif fikriga ko'ra, barcha tasniflar jinoyatchilarni ular shaxsining ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatlariga ko'ra umumiy tarzda guruhlashga olib kelishi lozim<sup>3</sup>.

A.I.Dolgova, V.D.Ermakov quyidagilarni tavsiflovchi belgilarni tasnif mezoni sifatida olishni taklif etadilar:

-shaxsning qadriyatlar va mo'ljallari, ma'naviy va huquqiy qarashlari hamda moyilliklari tizimini;

-xulq-atvor nuqtai nazaridan ijtimoiy ahamiyatga molik qilmishlar tizimini;

<sup>3</sup> Сахаров А.Б. Личность преступников и типология преступников // Социалистическая законность. 1973. №3. – С.22-24; Сахаров А.Б. Личность преступника. – М., 1975. – С.53.

<sup>1</sup> Ковалев А.Г. Психологические основы исправления правонарушителя. – М., 1968. – С.48-51.

<sup>2</sup> Зубков А.И. Психологические проблемы организации перевоспитания осужденных // Юридическая психология. – М. 1983. – С.190.

<sup>3</sup> Дагель П.С. Учение о личности преступника в советском уголовном праве. – Владивосток, 1972. – С.122-131.

-shaxsning oldingi xulq-atvori bilan sodir etilgan jinoyatning o'zaro nisbatini;

- huquqbuzar yashaydigan mikromuhitni<sup>4</sup>.

Bu shaxsning tipologik xususiyatlari o'z aksini topgan ijtimoiy hodisa sifatidagi residivga nafaqat to'la tavsif berish, balki uning uchun ahamiyatli bo'lgan sifat ko'rsatkichlarini ham qayd etishga imkoniyat yaratadi.

Biz shaxsni tiplarga ajratish uchun bosh mezon sifatida jinoyatchining jinoiy faollik darajasini yoki uning faoliyatini tanlagan mualliflar fikriga ko'shilamiz. Aksariyat olimlar jinoyatchilar shaxsining «jinoiy» qirralarini emas, balki ularning harakatlarini birinchi o'ringa qo'yishlari bejiz emas.

Bizning nazarimizda, qasddan jinoyatlar sodir etuvchi residivistlar shaxsining tipologiyasi ularning ijtimoiy xavflilik darajasini aks ettirishi va oldingi jinoiy faoliyat xususiyatiga hamda uning sodir etilgan oxirgi jinoyat bilan o'zaro nisbatiga asoslanishi lozim. Ijtimoiy xavflilik darajasida jinoyatlarning muayyan turlarida va jinoiy javobgarlikka tortilgan sub'ektlarning ijtimoiy qiyofasida namoyon bo'luvchi barqaror xususiyatlar o'z ifodasini topadi. Shu bois ijtimoiy xavflilik darajasini jinoyatchi shaxsi tushunchasiga tipni belgilovchi muhim ijtimoiy belgi sifatida asos qilib olish murakin.

Kriminologiyada residivistlarning jinoiy faollik darajasini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bir guruh tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan bunday tadqiqot ularga residivistlarning uch tipologik guruhini: faol kriminogen tip, beqaror tip va axloqiy buzuq tipni ajratish imkonini berdi<sup>1</sup>.

Ajratilgan tiplarning har biriga jinoiy xulq-atvorning boshqa faoliyat turlari bilan alohida nisbati xos bo'lib chiqdi. Residivistlarning har xil tiplarida turmush ijtimoiy shart-sharoitlari, ularga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillar xususiyati har xil. Jinoiy harakatlar o'rtasida izchil aloqa mavjudligi, ular qasddan sodir etilganligi, o'ziga xos ko'nikmalar va usullardan foydalanilganligi shaxs jinoiy faollik darajasining yuqorilidan dalolat beradi.

Bizning fikrimizcha, K.E. Igoshev taklif qilgan tipologik guruhlarining birinchisini jinoyat sodir etuvchi shaxslar orasida uchraydigan

<sup>4</sup> Долгова А.И., Ермаков В.Д. Вопросы методики разработан классификации несовершеннолетних преступников и ее основания // Типология личности преступника и индивидуальное предупреждение преступлений. - М., 1979. - С.64.

<sup>1</sup> Горбатовская Е.Г., Кононов А.И., Юлкова Е.М. Личность рецидивиста использование данных о ней в деятельности прокуратуры. - М., 1987. - С.12-21.

jinoyatchi shaxsining uch tipiga ajratish mumkin: 1) izchil-kriminogen tip; 2) situativ-xavfli tip; 3) situativ tip.

Izchil-kriminogen tipga mansub residivistlarga izchil jinoiy xulq-atvor: faol ko'p karra residiv; izchil maxsus residiv (ayniqsa tamagirlik jinoyatlari) xos. Bu tipda o'ta xavfli residivistlar va professional jinoyatchilar etakchilik qiladi. Residivda jinoyatlar sub'ekt g'ayriijtimoiy moyilliklari va mo'ljallarining mustahkamligi bilan belgilanadi.

Situativ-xavfli tipga mansub residivistlar stixiyali ravishda, noizchil harakat qiladilar. Jinoyat sodir etishga qasd ba'zan qo'qqisdan yuzaga keladi, jinoyat xususiyati yuzaga kelgan vaziyatga bog'liq bo'ladi, biroq, odatda og'ir oqibatlariga olib keladi. Ushbu tipda spirtli ichimliklarni suiiste'mol qiluvchi shaxslar etakchilik qiladi, ular shuning zamirida bezorilik harakatlari hamda boshqa jinoyatlarni ko'p sodir etadilar. O'z shaxsiy xususiyatlariga ko'ra bu tipga mansub residivistlar bir xil emas.

Situativ tip esa odatda, umumiy, ba'zan ko'p martali residiv qayd etiladi. Bu tipga mansub residivistlar xulq-atvori og'ir oqibatlariga sabab bo'lmaydi. Ko'pincha sodir etilgan jinoyatlar o'rtasida ichki bog'lanish kuzatilmaydi.

### **9.3. Residiv jinoyatchilikning oldini olish**

Qo'yilgan muammolardan kelib chiqib, residiv jinoyatchilik oqibatlarini engillashtirishning ikki asosiy yo'nalishini belgilash mumkin. Birinchi yo'nalish residiv jinoyatchilik natijasida etkaziladigan zararni kamaytirish chora-tadbirlari majmuini o'z ichiga oladi. Ikkinchi yo'nalish residiv jinoyatchilikning oldini olish faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarning samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bu yo'nalishlarni mufassalroq ko'rib chiqamiz. 1. Residiv jinoyatchilik natijasida etkaziladigan zararni kamaytirish chora-tadbirlari majmuini umumijtimoiy va maxsus chora-tadbirlarga ajratish mumkin.

Ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lgan umumijtimoiy chora-tadbirlarning moddiy, tashkiliy, ijtimoiy nazorat va tarbiyaviy turlari farqlanadi.

Masalan, moddiy chora-tadbirlarga jinoyatlardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishning har xil turlarini, hayot va sog'liqni ijtimoiy sug'urta qilishni, kasallik varaqasi bo'yicha haq to'lashni, nogironlik bo'yicha pensiya to'lashni va hokazolarni kiritish mumkin.

**Tashkiliy chora-tadbirlarga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni ishga joylashtirish, ularni turar joy bilan ta'minlash, jamiyatga moslashish markazlari tashkil etish, jinoyatlar uchun sudlanganlar hamda jinoyatlar-dan jabrlanganlar va ularning qarindoshlarini zarur holda qariyalar uylari, mehribonlik uylari va boshqa tarbiya muassasalariga joylashtirish, guvoh-larni himoya qilish chora-tadbirlari majmui kiradi.**

Ijtimoiy nazorat va tarbiya chora-tadbirlari jumlasiga ilgari sudlan-ganlarni ijtimoiy hayotga jalb etish, fuqarolarning huquqiy madaniyati va ongini yanada yuksaltirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, hu-quqni muhofaza qilish organlariga nisbatan ishonch muhitini yaratish, ilgari sudlanganlarga (ayniqsa yoshlarga) ustoz yoki murabbiylar, jamoatchilik kuzatuvchilari birlashtirish va hokazolarni kiritish mumkin.

Bizning nazarimizda, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan chora-tadbir-lar qatoriga avvalo residiv jinoyatchilik natijasida etkaziladigan zararni ka-maytirish yoki uni qoplash uchun huquqiy vositalardan foydalanishni kiritish lozim. Ayni holda ma'muriy nazorat o'rnatish hamda jinoiy faoli-yat natijasida etkazilgan zararni qoplashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'ri-sida so'z yuritilmoqda.

Afsuski, so'nggi yillarda ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning aksariyati mehnat bilan ta'minlanmagan va shu boisdan ozodlikdan mahrum qilish joylarida maosh olmaydi, binobarin, ular da'vo arzlarni qoplashga qodir emas. Shu bois ba'zi bir jinoyat-huquqiy choralar, chunonchi: jarima, axloq tuzatish ishlarini qo'llash doirasi kengaytirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Jinoyat prosessida fuqarolik da'vosi ham shu maqsadlarga ma'lum darajada xizmat qilishi mumkin.

Shu o'rinda residiv jinoyatchilik voyaga etmaganlar jinoyatchiligi bilan uzviy bog'liqligini hisobga olib, jinoyat sodir etgan o'smirlarni jamiyatga qaytarish, ularning ijtimoiy muhitini sog'lomlashtirish maxsus dasturlarini amalga oshirish zarur. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jinoiy jazoni avvalo voyaga etmaganlarga nisbatan ijro etishning ayrim jihatlarni qayta ko'rish, ularga shartli jazo berish amaliyoti doirasini kengaytirish lozim.

Residivistlarning jinoiy faoliyatini aniqlash va tergov qilishning sifatini oshirish uchun jinoiy muhitni o'rganish hamda residiv jinoyatchi-likning oldini olishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish kerak. Har bir residivistga axborot faylini shakllantirish va zamonaviy axborot-qidiruv tizimini tashkil etish yuqorida qayd etilgan maqsadlarga xizmat qilishi lozim.



Nihoyat, qamoqxonada madaniyatiga qarshi kurash borasida huquqni muhofaza qilish organlari mutaxassislari va madaniyat xodimlarining kuch-g'ayratini birlashtirish, residiv jinoyatchilikning oldini olishda aholining faol ishtirokini ta'minlash kerak.

2. Residiv jinoyatchilikning oldini olish faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarning samaradorligini oshirish jinoyatchilikka qarshi kurash xarajatlarini qayta taqsimlash hisobiga residivistlar ustidan nazorat doirasini kengaytirish yo'llarini nazarda tutishi lozim. Bizningcha, bu borada imkoniyatlar mavjud va ular jinoyat, jinoyat-ijroiya siyosatiga o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq.

Birinchidan, birinchi marta sudlanayotganlarga nisbatan ko'p miqdorda jarima, shartli hukm qilish hamda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jinoyat-huquqiy choralarni kengroq qo'llash lozim. Jarima, axloq tuzatish ishlari, jamiyatdan ajralmasdan jinoiy jazoni o'tash ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni saqlash xarajatlarini ko'paytirmasdan jinoyatlarning oqibatlarini moddiy jihatdan qoplash imkonini beradi.

Ikkinchidan, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jinoiy jazoni ijro etish paytida rag'batlantirish normalari: muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish, saqlash shart-sharoitlarini engilrog'iga almashtirishni kengroq qo'llash kerak.

Uchinchidan, jinoyatchilikning ijtimoiy oqibatlarini engillashtirishdan olingan mablag'larni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan shaxslarni jamiyatga qaytarish chora-tadbirlariga yo'naltirish lozim. Ozodlikdan mahrum qilingan ko'p sonli shaxslarni saqlashdan ko'ra residivning oldini olishga pul sarflash ma'qul hamda maqsadga muvofiqligi hech kimga sir emas. Bundan tashqari, residiv jinoyatchilikning oldini olish vazifasini ko'p millionli kapital jamg'armalar hisobiga emas, balki ma'muriy nazoratni yaxshiroq tashkil etish va fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish asosida ijtimoiy nazoratni takomillashtirish yo'li bilan hal qilishga harakat qilish lozim.

Jinoyat, jinoyat-ijroiya siyosatining asosiy tamoyillarini hayotga tatbiq etish to'g'risida so'z yuritganda huquqni muhofaza qilish organlari ishida kamchiliklarni bartaraf etish birinchi o'ringa chiqadi. Bu erda jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatda mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish nazarda tutilmoqda.

Jinoyatlarni ochish darajasini oshirish, jazoning muqarrarligini ta'minlash, surishtiruv, tergov hamda ishni sudga ko'rish muddatlarini kamaytirish, garov hamda yashash joyini tark etmaslik haqida tilxat olish

kabi choralarni keng qo'llash, sansalorlikka va asossiz ravishda jinoyiy javobgarlikka tortish hollariga barham berish – bularning barchasi xarajatlarni kamaytirish chora-tadbirlari sifatida qaralishi va shu jumladan jinoyatchilikka qarshi kurash xarajatlarini qisqartirish bilan bog'lanishi lozim.

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida xarajatlarni tejash to'g'risida so'z yuritganda mazkur moddalar bo'yicha xarajatlarni asossiz kamaytirish ham yaramaydi. Bu maqsadlar uchun zarur xarajatlarni baholashda ular pirovard natijada jamiyatning har xil (nafaqat moddiy, balki ma'naviy) boyliklarini muhofaza qilishga yo'naltirilganligini unutmaslik kerak.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining «Jazodan ozod qilingan shaxslarning jamiyatga moslashish jarayonida maxsus yordam ko'rsatish to'g'risida»gi qonuni qabul qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi deb o'ylaymiz.

Bu qonunda davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ijtimoiy moslashuvni ta'minlash borasidagi vakolati va faoliyatining asosiy yo'nalishlari; jazodan ozod qilingan shaxslarning huquqiy holati, ularni ish va turar joy bilan ta'minlash tartibi; ularning jamiyatga moslashishini tashkil etish belgilab qo'yilishi lozim. Bunda mahalliy boshqaruv organlariga jazodan ozod qilinganlarni ma'muriyat ko'rsatmasi bilan ishga joylashish uchun muayyan korxonalarga yuborish vakolati berish, bu ko'rsatmani bajarmagan mansabdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish tartibini nazarda tutish kerak.

Bundan tashqari, ijtimoiy yordam ko'rsatilishi lozim bo'lgan shaxslarning toifalari belgilab qo'yilishi kerak. Fikrimizcha, ijtimoiy yordam tadbirlari har xil asoslarga ko'ra jazodan muddatidan ilgari ozod qilinganlarga, shuningdek alkogolizm va giyohvandlikdan majburiy davolangan shaxslar, tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan voyaga etmaganlar, ijtimoiy foydali aloqalarini yo'qotgan boshqa fuqarolarga nisbatan amalga oshirilishi lozim. Bunda pensiya yoshidagi shaxslar va nogironlarga yordam ko'rsatish masalalariga qonunda alohida e'tibor berilishi kerak.

Mazkur toifaga mansub jazodan ozod etilgan shaxslarga samarali yordam ko'rsatish maqsadida mahalliy hokimiyatlar qoshida maxsus yotoqxonalar, moddiy yordam fondlari, kichik ishlab chiqarishlar tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasida jazodan ozod qilingan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida maxsus bo'lim nazarda tutilishi lozim. Shuningdek, mazkur shaxslarning hayoti va mehnatidagi xulq-

atvori ustidan ijtimoiy nazoratning har xil shakllari, chunonchi: ma'muriy nazorat, patronat, jamoatchilik kuzatuv belgilanmog'i darkor. Bunda jazodan ozod qilinganlarning ijobiy yoki salbiy xulq-atvoriga qarab bir shakldan boshqa shaklga o'tish imkoniyati nazarda tutilishi lozim.

Shunga o'xshash qonunlar ayrim xorijiy mamlakatlarda mavjud. Masalan, Yaponiyada ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod etilganlarni ish va turar joy bilan ta'minlash masalalari «Penitensiar homiylik to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Bu Qonunga binoan reabilitasion yordam ko'rsatish vazifasi hukumat, xususan adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Jazodan ozod qilinganlarni ish va turar joy bilan ta'minlash masalalarini tezkorlik bilan hal qilish, ularning ijtimoiy foydali aloqalarini tiklash uchun respublikamizda maxsus davlat tashkilotlari – ijtimoiy moslashuv markazlari tashkil etilishi, ularga mahkumlar jazoni o'tashning yakunlovchi bosqichida yoki ozodlikka chiqqanidan keyin jalb qilinishi lozim. Bu masalalar ham yuqorida zikr etilgan qonun bilan tartibga solinishi kerak.

Bunday markazlar faoliyati chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, Angliyada ochiq axloq tuzatish muassasalaridan ayniqsa mahkumlarni muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishga tayyorlash davrida keng foydalaniladi. Ularda mahkumlarga penitensiar muassasa chegarasidan chetga chiqishga ruxsat beriladi. Shunga o'xshash «ochiq» muassasalar GFR, Chexiya, Slovakiyada mavjud.

AQShning Yuta shtatida qamoq muddatining bir qismini (kamida uchdan birini) o'tagan va muddatidan ilgari shartli ravishda ozodlikka chiqish huquqini qo'lga kiritgan mahkumlar ozodlikda yashashga tayyorlanish uchun jamoatchilik axloq tuzatish muassasalariga yuboriladi. Bu erda mahkumlar to'liq ozod etilgunga qadar normal hayotni yo'lga qo'yish uchun mustaqil ravishda o'ziga ish tanlaydi, qarindoshlari va tanishlari bilan aloqa bog'laydi.

Shvesiyada ozodlikdan mahrum qilish joylaridan chiqarilgan shaxslarni uchun reabilitasiya markazlari tashkil etilgan. Ularda sobiq mahkumlar o'zlarini ish va turar joy bilan ta'minlash masalalari hal qilingunga qadar oz miqdordagi haq evaziga yashab va ovqatlanib turishlari mumkin. Shvesiyadagiga o'xshash reabilitasiya markazlari hozirgi vaqtda Sankt-Peterburg, Samara, Yaroslavl va boshqa shaharlarda tashkil qilingan hamda faoliyat yuritmoqda. Sobiq Ittifoq davrida Respublikamizning Buxoro va Toshkent shahrida reabilitasiya markazi mavjud edi, hozirda

faoliyati tugatilgan mazkur markazlarni qayta tiklash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jazodan ozod qilinganlarning ijtimoiy moslashuvi muammosini ichki ishlar organlarining kuch-g'ayrati bilangina echib bo'lmaydi; bundan jamiyat va umuman davlat manfaatdor bo'lishi kerak.

Jazodan ozod qilinganlarning jamiyatga moslashuv jarayonini ta'minlashga nisbatan yangicha yondashuv sifatida ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan ijtimoiy moslashuv markazlari orqali patronat, ya'ni ijtimoiy nazorat shaklini tashkil etish taklif qilinadi; u jamoatchilik kuzatuvidan qattiqroq, biroq ma'muriy nazoratdan sezilarli darajada yumshoqroqdir. Mazkur nazorat shakli shaxs xulq-atvori ustidan qattiq nazorat o'rnatish zarurati bo'lmagan hollarda qo'llanilishi mumkin.

## **10-mavzu. UYUSHGAN JINOYATCHILIK VA UNING OLDINI OLISH**

1. Uyushgan jinoyatchilik mazmuni va ta'rifi hamda uning o'ziga xos xususiyatlari. Uyushgan jinoyatchilik tarkibi.
2. Uyushgan jinoyatchilikning oldini olishning eng muhim masalalari.

### **10.1. Uyushgan jinoyatchilik mazmuni va ta'rifi hamda uning o'ziga xos xususiyatlari. Uyushgan jinoyatchilik tarkibi**

Sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari qatori mustaqil O'zbekistonga ham undan nafaqat vayron bo'lgan iqtisodiyot, moddiy va ma'naviy qashshoqlik, balki o'sib borayotgan jinoyatchilik ham meros qoldi. Mustaqillikning ilk yillarida jinoyatchilik tobora professional va uyushgan tus olib borib, og'ir oqibatlariga sabab bo'ldi.

Kriminal professionalizm guruhiiy, residiv, professional jinoyatchilik hamda uning oliy shakli – uyushgan jinoyatchilikning paydo bo'lishiga olib kelayotir. Kriminal professionalizmga xos jihatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: a) "ixtisoslashganlik", ya'ni jinoiy faoliyatning surunkaliligi; b) "malakalilik", ya'ni zarur bilim va ko'nikmalarga egalik; v) jinoiy faoliyat tirikchilik manbai hisoblanadi; g) shaxs g'ayriijtimoiy muhit bilan bevosita aloqa qiladi.

Uyushgan jinoyatchilik faoliyati, uning yuzaga kelishi va mavjudligi yurisprudensiyaning tegishli sohalarida, iqtisodiyot jabhasida, sosiologiya

va psixologiyada juda ko'p nazariy va amaliy masalalarni yuzaga keltirdi. Kriminologik jihatdan o'ta salbiy hodisa bo'lgan «uyushgan jinoyatchilik» tushunchasini tahlil qilish va o'rganish unga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotining muhim masalalaridan biridir. Shuni ta'kidlash lozimki, ayrim mualliflar mazkur hodisaning bunday nomlanishiga qo'shilmay, uni muvaffaqiyatsiz deb hisoblaydilar. Sobiq Ittifoq hududida uyushgan jinoyatchilik qachon paydo bo'lgan, degan masala yuzasidan ham yakdillik mavjud emas. Kimdir u nisbatan yaqinda paydo bo'lgan<sup>1</sup>, kimdir – doim mavjud bo'lgan deb hisoblaydi, yana kimdir uning mavjudligiga shubha bildiradi.

Yuridik va maxsus adabiyotlarda uyushgan jinoyatchilikka har xil ta'riflar beriladi. Olimlardan bu tushunchaga eng to'liq ta'rifni A.N.Volobuev bergan. «Uyushgan jinoyatchilik deganda mintaqa (mamlakat) doirasida kriminal muhitning (odatda muayyan jinoyat sodir etish bilan bog'liq bo'lgan) tashkilotchilik, rahnamolik vazifalarini bajaruvchi rahbarlar atrofida jipslashuvi, jinoiy uyushma ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash uchun davlat, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlarini jinoiy faoliyatga jalb qilish, mumkin qadar ko'proq moddiy naf ko'rish maqsadida g'ayrihuquqiy faoliyat doirasini kengaytirish bilan tavsiflanuvchi ijtimoiy hodisani tushunish lozim, – deb yozadi u. – Ijtimoiy faoliyati uyushgan jinoyatchilik bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan barcha shaxslar jinoiy uyushmani tashkil etadi».

Yuqoridagilar asosida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin, uyushgan jinoyatchilik, birinchidan, ijtimoiy hodisa; ikkinchidan, kriminal jabhaning jipslashuvi bilan tavsiflanadi; uchinchidan, uning rahbarlari g'ayrihuquqiy faoliyatni kengaytirish va xavfsizlik bilan bog'liq tegishli vazifalarni bajaradi; to'rtinchidan, uyushma mumkin qadar ko'proq moddiy naf ko'rishga harakat qiladi. Nihoyat, beshinchidan, muallifning fikrini davom ettirsak, uyushgan jinoyatchilik jinoiy uyushmalardan tarkib topadi. Boshqacha aytganda, u ijtimoiy xavfli va g'ayriqonuniy uyushmalar (guruhlar) majmui; umuman olganda – tarkibiy qismlari o'z uyushqoqlik darajasiga ko'ra har xil bo'lgan jinoiy uyushmadir.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mas'ul xodimlari ham mazkur mulohazaga qo'shilgan holda, uyushgan jinoyatchilik o'z tuzilishi va g'ayriijtimoiy ahamiyatiga ko'ra har xil bo'lgan jinoiy tashkilot hamda uyushgan jinoiy guruhlardan tarkib topadi, deb hisoblaydilar.

Uyushgan jinoyatchilik belgilari jumlasiga yuqorida qayd etilgan umumiy belgilardan tashqari quyidagilar ham kiritiladi: turli klanlar,

<sup>1</sup> Кузнецова Н.Ф. Проблема криминологической детерминации. – М., 1984. – 69-б.

mafiya va jinoiy guruhlarining yashirin faoliyati; yuqorida zikr etilgan jinoiy uyushmalarning barcha a'zolari o'zaro kelishilgan jinoiy xulq-atvor kodeksiga qat'iy rioya etishi; xufyona iqtisodiyot korchalonlari, jinoiy uyushmalarning sardorlari asosan tashkilotchilik va rahnamolik vazifalarini bajaradi va odatda, muayyan jinoyatlar sodir etish bilan bog'liq bo'lmaydi, shu bois ularni jinoiy javobgarlikka tortish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Korrupsiya masalasiga kelsak, kriminologik nuqtai nazardan u uyushgan jinoyatchilikning bir turidir. Bu erda nafaqat qonunga xilof ravishda boylik orttirish, balki rivojlangan mamlakatlardagi korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi dalolat berishicha, hokimiyat cho'qqilarini zabt etish ham birinchi o'ringa qo'yiladi. Demak, uni faqat iqtisodiyot jabhasi bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi.

Lotincha «korruptio» – korrupsiya so'zi “pora evaziga og'dirish” degan ma'noni anglatadi. Biroq ma'rifatli dunyoda, ayniqsa siyosiy-yuridik sohada u ancha keng tushuniladi va mansabdor shaxslar, jamoat arboblari va siyosatchilarni pora evaziga og'dirish, ularning haq evaziga sotilishi degan ma'noni anglatadi.

Sobiq Ittifoq jinoyat qonunchiligiga «korrupsiya» jinoyati ma'lum emasdi, shu bois uning huquqiy ta'rifi ham yo'q edi. Vaholanki, barcha respublikalarning jinoyat kodekslarida turdosh tarkiblar: pora olish, pora olishda vositachilik qilish, xizmat mavqei yoki hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilish, xizmat mavqeini suiiste'mol qilib davlat mulkini talon-toroj qilish bo'lgan. Bu holat ayrim olimlar «korrupsiya»ni jinoyat qonuniga mustaqil jinoyat tarkibi sifatida kiritishga qarshi chiqishlariga yuridik asos bo'lgan.

O'zbekistonda oliy hokimiyat o'z rasmiy hujjatlarida «korrupsiya» atamasidan ko'pdan beri foydalanib keladi. Bunda u ko'pincha uyushgan jinoyatchilik tushunchasi bilan birga keladi, uning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda korrupsiyaga qarshi kurash olib boradigan maxsus tarkibiy bo'linmalar tashkil etilgan, boshqa choralar ham ko'rilmoqda (masalan, soliq siyosati, bojxona xizmati yo'nalishlarida).

«Yuridik atamalar qomusiy lug'ati» mualliflari korrupsiyaga shunday ta'rif berganlar: «Korrupsiya – davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va

imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi»<sup>1</sup>.

Shunday qilib, korrupsiya qandaydir imtiyozlar olish maqsadida davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek o'z xizmat vakolatlaridan foydalanib, bunday imtiyozlarni berish kabi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 205-210, 214-moddalarida javobgarlik belgilab qo'yilgan jinoyatlar majmuidir.

Korrupsiya jinoyatlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni faqat poraxo'rlik yoki davlat mulkini talon-toroj qilish yoxud boshqa mansabdorlik jinoyatlariga bog'lab bo'lmaydi. Korrupsiya – bu jinoyatlarning har xil ko'rinishdagi «birikmasi», ularning biri ikkinchisini to'ldiradi va korrupsiya tarkibini vujudga keltiradi. Bu ob'ektiv faoliyatning miqdor sifatga aylanadigan holatidir. Bu erda nafaqat davlat aksiyadorlik-tijorat apparatini boshqarish ishiga, balki mazkur boshqaruv asoslariga zarar etkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov haqli ravishda ta'kidlaganlaridek<sup>1</sup>, birinchidan, siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish ifodasidir. Unda o'z umrini yashab bo'lgan, yangi iqtisodiy munosabatlarni o'ziga qarshi tahdid deb bilgan holda, ularning rivojlanishini sekinlashtirib qo'yishga harakat qiladigan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bilan "xufyona" iqtisodiyotning manfaatlari ob'ektiv ravishda birlashib ketadi. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarining manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bu esa, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazadi. Bundan tashqari, yangi iqtisodiy munosabatlarga endigina asos solinayotgan va sifat jihatidan boshqa siyosiy tizim shakllantirilayotgan o'tish davrida korrupsiya o'z xatti-harakati bilan bu jarayonning yo'lini to'sib qo'yish imkoniga ega.

Ikkinchidan, jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitusiyaviy asoslarini emiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. "Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o'tishdir" degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga olib boradi.

<sup>1</sup> Yuridik atamalar qomusiy lug'ati. – T.: Sharq. 2003. – B.201.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., O'zbekiston, 1997.

Uchinchidan, jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini emiradi. Jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga salbiy munosabat vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g'oyasining o'zini obro'sizlantiradi va eski zamonlarni, shu jumladan "qudratli markazning kuchli qo'li"ni qo'msash hissini tug'diradi.

O'tish davrining muayyan qiyinchiliklari sharoitida fuqarolar ongida, ayniqsa, yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishi va qaror topishi mumkin. Qing'ir yo'l bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va huquqiy nazoratning e'tiboridan chetda qolsa, odamlarni, ayniqsa, hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlarni yomon yo'lga og'diradi.

To'rtinchidan, "pul hokimiyatga intiladi", degan bir ibora bor. Lekin bu pul jinoiy yo'l bilan topilgan bo'lsa-yu, uning egalari jamiyatning hokimiyat tuzilmalariga chiqib olsalar, ular qanday usullar bilan boshqarishlarini tasavvur qilish qiyin emas.

Jinoyat olamining nufuzli shaxslari hokimiyatga qanday yo'llar bilan kirib olishi yaxshi ma'lum va ko'p mamlakatlarda sinovdan o'tgan. Avvaliga bu ish nopok daromad manbalarini saqlab qolish, ulardan kafolatli foydalanish maqsadida hokimiyat tuzilmalari bilan aloqa bog'lash va bu aloqani mustahkamlashdan boshlanadi. Shundan so'ng hokimiyatning o'zi ham qo'lga kiritiladi.

Beshinchidan, nopok yo'l bilan boylik orttirganlar jazodan qutulib qolish va o'zlarining jinoiy sarmoyalarini himoya qilish uchun har qanday xatti-harakatlarga tayyor turishlarini yaxshi bilib olish lozim. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo'rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar. Bunday paytda ehtiroslarni junbushga keltirish, olomonni qo'zg'atish va uning orqasiga yashirib olishdan qulayi yo'q. Bunday odamlarning "Faqat bizga yaxshi bo'lsa, ishimiz bitsa – bo'lgani" qabilidagi maslagi xudbinlikning, hamyurtlariga nisbatan surbetlarcha loqaydlikning yaqqol ko'rinishidir.

Oltinchidan, jinoiy usullar bilan boylik va mo'may pul orttirgan kimsalarning yangi huquq himoyachilari va hatto demokratiya uchun jaf chekkan kurashchilar sifatida siyosatga kirib olishga harakat qilayotganidan dalolat beruvchi misollar, jumladan, bizda ham oz emas.

Ettinchidan, jahon xo'jalik aloqalariga faol integrasiyalashuv, chet el investisiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o'zgarishlar jarayoniga tortish



sohasidagi aniq maqsadga qaratilgan faoliyat bugun O'zbekiston uchun ustuvor vazifalar hisoblanadi. Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish sharoitida korrupsiyachilarning xatti-harakatlari nafaqat mamlakatimizning halol fuqarolarini tadbirkorlikdan chetlatadi, balki chet ellik sheriklarda ishonchsizlik uyg'otadi va ularni cho'chitib qo'yadi. Natijada mamlakat g'oyat muhim kapital mablag'lar manbaidan, texnologiyalar va tajribadan, jahon iqtisodiy tizimining sog'lom, "sof" qismiga qo'shilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Bunday mamlakat xalqaro xufiya va jinoiy tuzilmalar tobora ko'proq qiziqadigan va faol ish olib boradigan makon bo'lib qoladi.

Borgan sari uyushib va professional tus olib borayotgan hozirgi jinoyatchilikning jipslashishi, jinoiy guruhlar tomonidan iste'mol bozorlarining butkul egallab olinishi, qonunsiz ravishda qo'lga kiritilgan kapitallarning xo'jalik va tijorat tuzilmalari orqali qonuniylashtirib olinishi yaqqol ko'zga tashlanayotganligi ham juda xavflidir.

O'zbekistonda, shubhasiz, jinoyatchilikning sabablarini aniqlash choralari ko'rilmogda, fosh etilgan korrupsiyachilar qattiq jazolanmogda. Mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo davlat tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi. Jinoyatchilik keng avj olib ketishiga va korrupsiyachilar domiga ilingan amaldorlarning beboshligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlar ishga solingan. Ular jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyamizni belgilab beradi.

Uyushgan jinoyatchilik turlari to'g'risida so'z yuritganda, u ikki yo'nalishga ega ekanligini e'tiborga olish lozim. Birinchi yo'nalish – tamagirlik niyatidagi xo'jalik jinoyatlari; ikkinchi yo'nalish – umumiy uyushgan jinoyatchilik; so'nggisi esa – g'ayriqonuniy tijorat bilan emas, balki talonchilik, bosqinchilik va hokazolar bilan shug'ullanuvchi jinoyatchilar orasidagi uyushgan jinoyatchilik bo'lib, amalda bu mafiya faoliyatida ifodalanadi.

**Uyushgan jinoyatchilik tarkibi:** sardor, rahbarlar, shaxsiy soqchilar, jangarilar, yordamchi «ishchi kuchi». Bularning barchasini jinoiy faoliyat sohasi qamrab oladi.

Uyushgan jinoyatchilikning shakli (jinoiy uyushma, mafiya, banda)ga qarab ularning elitasi yuzaga keladi. Ayrim hollarda u o'zganing mol-mulkini ko'p miqdorda talon-toroj qiluvchilar, «ishbilarmonlar», moliyaviy korchalonlardan tashkil topadi. Ularning maqsadi – ko'p miqdorda moddiy boylik orttirish, o'z hokimiyati doirasini kengaytirish. Ba'zi hollarda bu elita o'g'riboshilar, jinoiy muhitdagi mashhur kallakesardan tashkil topadi.

## 10.2. Uyushgan jinoyatchilikning oldini olishning eng muhim masalalari

Uyushgan jinoyatchilik mavzusini o'rganishda uyushgan jinoyatchilikning oldini olishga bugungi kunning muhim masalalaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda jinoyatlarning oldini olish – bu jinoyatchilik sabablari va omillarini bartaraf etish yoki ularning oldini olishga qaratilgan davlat va jamoat chora-tadbirlari majmui ekanligini yodda tutish kerak. Jinoyatchilikning oldini olish huquqiy davlat, uning iqtisodiyoti, mafkurasi, madaniyati, odamlar o'rtasidagi rang-barang ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar majmui, ya'ni jamiyat hayotini jinoyatchilikka zid bo'lgan tarzda tashkil etish yo'li bilan ta'minlanadi.

Kriminogen (jinoyatlarni yuzaga keltiruvchi yoki ularga imkoniyat yaratuvchi) omillarni bevosita bartaraf etish borasidagi izchil faoliyat ham jinoyatchilikning oldini olishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti bu erda uning fosh qilinishi hamda uning oldini olish nuqtai nazaridan, ayniqsa, jinoyat prosessi yo'nalishida oqilona huquqiy normalar yaratish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Mamlakatimizning siyosiy va iqtisodiy tizimlarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan, davlatimizda huquqiy islohot amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda korrupsiya hollariga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Davlat hokimiyati apparati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati aholining keng ommasiga kaftdek ko'rinib turishi, amaldorlar korrupsiya domiga ilinganligi haqida fuqarolarda asossiz tasavvur tug'ilmasligi, Prezident, hukumat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi qat'iy kurash olib borishga ahd qilganligiga bo'lgan ishonch mustahkamlanishi lozim.

Ushbu hodisa murakkab va serqirra bo'lgani tufayli korrupsion huquqbuzarliklarning ba'zi bir turlari alohida jinoyat sifatida ajratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bizningcha, bu korrupsiyaning jamoatchilikni junbushga keltirishi va hokimiyat obro'siga sezilarli darajada putur etkazishi mumkin bo'lgan faktlariga qarshi kurashga alohida e'tibor qaratilishiga imkoniyat yaratadi.

Birinchi navbatda quyidagi yo'nalishlar ajratilishi lozim:

- rahbar organlar faoliyatidagi korrupsiya illatlariga barham berish;
- huquqni muhofaza qilish organlari saflarini korrupsiya domiga

ilingan xodimlardan tozalash;

- avvalo, uyushgan jinoyatchilikning hokimiyat va boshqaruv tuzilmasiga suqilib kirishga harakat qilayotgan shakllariga qarshi kurash olib borish.

Shu o'rinda, uyushgan jinoyatchilikning oldini olish borasida qanday yo'nalishlar ustuvor hamda jamiyatimizning madadiga muhtoj, degan savol tug'ilishi tabiiy. Eng avvalo, iqtisodiy choralar ko'rilishi lozim. Uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashning mantiqi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish yo'lidan yanada izchil borishni, halol tadbirkorlik uchun chinakam erkinlikni ta'minlash ba'zan uning yo'lida saqlanib qolayotgan ko'plab byurokratik sansalorliklar va to'siqlarni bartaraf etishni talab qiladi.

O'zbekistonda butun huquq va sud tizimini takomillashtirish dasturini mamlakat ichidagi jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kuchli chora deb hisoblamoq darkor. Bir tomondan, Qonunning mutlaq ustunligi va fuqarolarning huquqlari kafolatli himoya qilinishi ushbu dasturning maqsadi bo'lishi lozim. Ikkinchi tomondan, mamlakat aholisini va ayniqsa yoshlarni huquqiy tarbiyalashni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish nihoyatda zarur.

## **11-mavzu. VOYAGA ETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI**

1. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining holati.
2. Voyaga etmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabab va shart-sharoitlar.
3. Voyaga etmagan jinoyatchining shaxsi.
4. Voyaga etmaganlar jinoyatyachiligining oldini olish.

### **11.1. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining holati**

Hozirgi vaqtda voyaga etmaganlar jinoyatchiligi haqida salmoqli statistik material to'plangan, uni tahlil qilish metodikasi asosan ishlab chiqilgan. Bularning barchasi voyaga etmaganlar jinoyatchiligining holatini, uning miqdor va sifat (tarkibiy va boshqa) o'zgarishlarini ancha aniq baholash imkonini beradi.

O'zbekistonda jinoyat statistikasi 1990 yilgacha jinoyat sodir etgani aniqlangan shaxslar soniga ko'ra voyaga etmaganlar jinoyatchiligi har

besh yilda o'rtta hisobda 4-8% ga izchil o'sib borganini qayd etib kelgan. 1991 yildan bu tendensiya sezilarli darajada o'zgardi. 1995-1996 yillarda ro'yxatga olingan jinoyat sodir o'smirlar sonining o'sishi 8% ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich Rossiya Federasiyasida 20%, Ukrainada – 16,8%, Ozarbayjonda – 18,1, Qozog'istonda – 14,9%, Turkmanistonda – 9%, Belorussiyada – esa 9,8% ni tashkil etgan. Voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar Respublikamizda 2003 yilda 2586 ta(-9,5), 2004 yilda 2856 ta, 2005 yilda esa 2549 tani (-1,4) tashkil etmoqda.

1998 yilda 50 mingdan ortiq jinoyatchi, shu jumladan ikki mingdan ortiq voyaga etmaganlar hukm qilingan bo'lib, bu jazoga tortilgan jinoyatchilar umumiy sonining 4% ga yaqinini tashkil etadi. 1996 yilda bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 51602 jinoyatchi, 2023 o'smir va 3,9% ni tashkil etgan, 50 dan ortiq o'smir Oliy sud tomonidan jazoga hukm qilingan edi.

Mahkumlar tarkibini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, 1998 yilda jinoyat sodir etgan 2000 dan ko'proq jinoyatchi orasida 37 kishi hayotga qarshi jinoyatlar uchun (JKning 97-103-moddalari bo'yicha) hukm qilingan (1996 yilda – 10 kishi). Sog'liqqa qarshi jinoyat sodir etganlar (JKning 104-111-moddalari) 50 dan ortiq kishini, talonchilik uchun 150 dan ortiq kishi, bosqinchilik uchun – 40 dan ortiq kishi hukm qilingan, shundan 160 dan ortiq kishiga (bu jami voyaga etmagan mahkumlarning 8% ni tashkil etadi) shartli jazo tayinlangan.

Voyaga etmagan jinoyatchilarning yarmidan ko'prog'iga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo belgilangan. Voyaga etmaganlar o'rtasidagi ayollar jinoyatchiligiga oid ma'lumotlar ham diqqatga sazovor. 2142 o'smirdan 113 kishi (5,35%) ayol jinsiga mansub bo'lgan.

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining hududiy taqsimlanishini o'rganish kriminologik ahamiyatga molik bir qancha tendensiyalarni namoyon etadi. Statistik kuzatish bilan qamrab olingan respublika va uning viloyatlari chegaralarida ayrim mintaqalar o'rtasida jinoyatchilik darajasida jiddiy miqdoriy tafovutlar qayd etiladi.

Voyaga etmaganlar jinoiy faolligining eng katta darajasi so'nggi yillarda Toshkent shahri, Navoiy, Toshkent, Sirdaryo, Namangan, Farg'ona, Qashqadaryo, Andijon va Xorazm viloyatlarida, eng past ko'rsatkichlar – Jizzax, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilmoqda.

Jinoyatchilik darajasidagi hududiy farqlarni tahlil qilishda doim yirik sanoat markazlarida voyaga etmaganlar jinoyatchiligining eng yuqori

ko'rsatkichlari qayd etiladi. Qishloq hududlarida tadqiqotchilar ko'proq uning miqdor va sifat xususiyatlari o'xshashligini qayd etadilar.

Kriminologlar voyaga etmaganlar jinoyatchiligi darajasi bilan mintaqani tavsiflovchi bolalar va o'smirlar umumiy soni va ulushi; ishlamaydigan va o'qimaydigan mehnatga layoqatli voyaga etmaganlar ulushi; sudlanganlar, maishiy huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslar (piyonistalar, bezorilar va h.k.) ulushi; har xil tibbiy ro'yxatlarda turuvchi shaxslar (alkogolizm, giyohvandlik kasalliklariga chalinganlar, ruhiy kasallar va b.) ulushi kabi ko'rsatkichlar o'rtasida izchil bog'lanish mavjudligini aniqlaganlar.

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligidagi mintaqaviy farqlar bilan buzilgan oilalar o'rtasida uzviy aloqa mavjudligi aniqlangan. Ayni shu ko'rsatkichga ko'ra o'smirlar jinoyatchiligining eng kam va eng katta darajasi qayd etilgan mintaqalar bilan ajrashgan er-xotinlar soniga ko'ra o'xshash mintaqalarning deyarli to'liq mos kelishi kuzatiladi<sup>1</sup>. Bu voyaga etmaganlar bilan tarbiya-profilaktika ishlarining ustuvor yo'nalishlarini tanlashda oiladagi beqarorlik ko'rsatkichlaridan bosh mezonlardan biri sifatida foydalanish imkonini beradi.

Kriminologiyada voyaga etmaganlar jinoyatchiligini tarkibiy tahlil qilish ayniqsa keng tarqalgan. U qasddan odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir shikast etkazish, nomusga tegish, bosqinchilik, talonchilik, o'g'rilik, bezorilik kabi jinoyatlar bo'yicha o'tkaziladi.

O'qotar qurolni egallash va qo'llash, milisiya xodimlariga qarshilik ko'rsatish hamda ularning qonuniy talablariga bo'ysunmaslik hollari ko'payib borayotir. Voyaga etmaganlar o'rtasida ilgari asosan kattalarga xos bo'lgan jinoyatlar, chunonchi: qurol va giyohvandlik vositalari bilan savdo qilish; fohishaxona saqlash yoki qo'shmachilik qilish; bosqinchilik; firibgarlik; o'g'rilik mol bilan savdo qilish tobora keng tarqalmoqda.

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligi doimo asosan guruhliy xususiyatga ega bo'lgan. Voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan gruppaviy jinoyatlar ulushi kattalar jinoyatchiligining shunday ko'rsatkichidan taxminan 1,5-5 baravar ortiq va voyaga etmaganlarning umumiy jinoyatchiligi tarkibida 20-80% ni tashkil etadi. Yosh, ruhiyat va boshqa shaxsiy xususiyatlarga ko'ra ijobiy va salbiy tusdagi guruhliy xulq-atvor voyaga etmaganlar uchun tabiiy hol hisoblanadi.

So'nggi yillarda g'ayrihuquqiy xulq-atvorli o'smirlar guruhlarining yiriklashuvi kuzatilmoqda. Jami guruhlar beshdan uch qismi ishtirokchilari

<sup>1</sup> Опыт двадцатого крим. Изучения личности во взаимодействии с социальной средой. – М., 1992; Жигарев Е.С. Административная ответственность несовершеннолетних: понятие, виды и её профилактика. – М., 1992 ва б.

yoshining har xilligi ularning mazkur faoliyatga moyilligini yanada kuchaytiradi, uning yanada faollashuviga turtki beradi.

O'smirlar guruhlarining uyushgan jinoyatchilikka bo'ysunish jarayoni ham faol kechayotir. Bu guruhlar ishsiz, mayda tijorat bilan shug'ullanuvchi, shuningdek ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qaytgan va hayotda o'z o'rmini topa olmagan o'smirlar hisobiga to'lishi uchun ijtimoiy negiz kengayib bormoqda. Kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan o'smirlar xufyona iqtisodiyot va uyushgan jinoyatchilik tuzilmalariga tobora faolroq jalb qilinmoqda. Uyushgan jinoyatchilik sardorlari o'smirlarni o'z ta'siri doirasiga bajonidil kiritib, ularning professional jinoyi shakllanishi va o'sishini nazorat qilmoqdalar.

Voyaga etmagan jinoyatchilarning shaxsiy xususiyatlari ham diqqatga sazovor. Mazkur toifaga mansub jinoyatchilar orasida doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan (ishlamaydigan va o'qimaydigan) o'smirlar ko'pchilikni tashkil etishini deyarli barcha tadqiqotchilar qayd etadilar.

Turi ma'lumotlarga ko'ra voyaga etmagan jinoyatchilar orasida maktab o'quvchilari 38,3% ni, ishlaydiganlar – 11,4% ni, doimiy daromad manbaiga ega bo'lganlar – taxminan 30% ni tashkil etadi.

## **11.2. Voyaga etmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabab va shart-sharoitlar**

Huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabab va shart-sharoitlar muammosi har qanday kriminologik tadqiqotda u yoki bu tarzda ko'rib chiqiladi, chunki u kriminologiyaning muhim muammolaridan biridir. Zero, ilmiy o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Jinoyat sabablari nima-yu, uning shart-sharoitlari deganda nima-ni tushunish lozim, degan masala bizning kriminologik adabiyotlarimizda, afsuski, hanuzgacha aniq hal qilinmagan. Aksariyat hollarda bu tushunchalar adashtiriladi yoki bir-biriga tenglashtiriladi. Aytilgan holatlar voyaga etmaganlar huquqbuzarliklarining sabab va shart-sharoitlari muammosiga ham taalluqli. Ushbu masalaga nisbatan har xil yondashuvlar mavjud.

Ayrim olimlar voyaga etmaganlar jinoyatchiligining sabablari jumlasiga quyidagilarni kiritadi: yashash, o'qish yoki ish joyidagi muhitning salbiy ta'siri; o'qishni tashlab ketgan o'smirlar uzoq vaqt muayyan ish bilan shug'ullanmasligi; o'smirning noto'g'ri tarbiyalanishini belgilovchi shart-sharoit omillari; yoshi katta jinoyatchilarning dalolatchiligi; zo'ravonlik va qonunsizlikni ifodalovchi kitoblar va filmlar ta'siri. Voyaga

etmaganlar jinoyatchiligining shart-sharoitlari sifatida esa, quyidagilar qayd etiladi: nazoratsizlik; umumiy ta'lim maktablari va kollejlarda ta'lim-tarbiya ishlarida mavjud kamchiliklar; ishga joylashtirishda hamda ishlab chiqarishda tarbiya ishlarini tashkil etishda mavjud kamchiliklar; madaniy hordiq chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar; voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olish hamda unga qarshi bevosita kurash olib borish vazifalari zimmasiga yuklangan organlar faoliyatidagi kamchiliklar.

Ayrimlar voyaga etmaganlar jinoyatchiligining sabablari qatoriga quyidagilarni kiritadi: o'smirning kayfiyati va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi hayotdagi muvaffaqiyatsizliklar; ma'naviy va axloqiy mo'ljallarning beqarorligi; shaxslar jinoiy guruhi bilan yaqin aloqada bo'lish yoki muayyan sharoitda ular o'smiringa salbiy ta'sir ko'rsatishi; ruhiyatining ayrim xususiyatlari; oila yoki jamoadagi noqulay shart-sharoitlar.

S.S. Ostroumov va N.F. Kuznesova fikriga ko'ra, oiladagi tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar huquqbuzarliklar sodir etishning sabablari emas, balki shart-sharoitlaridir. I.I. Karpes nazoratsizlikka ichkilikbozlik bilan bir qatorda jinoyatga shart-sharoit yaratuvchi omil sifatida qaraydi.

Huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlari tushunchalari materialistik dialektika kategoriyalarining muayyanlashtirilgan ko'rinishlari hisoblanadi. Demak, «sabab» va «shart-sharoit» falsafiy kategoriyalarini tushunib etmasdan kriminologiyada ularni ilmiy talqin qilish va qo'llash mumkin emas.

Sababiy aloqalar – determinasiya munosabatlari turlaridan biri hisoblanadi. Determinasiya – bu hodisalar o'zaro aloqasining shundan bir usuliki, bunda bir hodisaning yuzaga kelishi boshqa hodisalar bilan belgilanadi. Determinasiya munosabati bir tomondan belgilovchi omillar (determinantlar)ni nazarda tutsa, boshqa tomondan – belgilangan natija (hosila)ni nazarda tutadi. Determinizm umumiy prinsipiga ko'ra, voqealar muayyan tarzda yuz beradi va ular yuzaga kelishi mobaynida kechadigan jarayonlar belgilovchi omillar majmuidan tarkib topadi<sup>1</sup>.

Falsafiy adabiyotlarda determinasiya jarayonining quyidagi tarkibiy qismlari farqlanadi: 1) shart-sharoit; 2) faoliyat; 3) harakat (oqibat, natija).

Shart-sharoit deganda mazkur hodisa yoki uning xossalari yuzaga kelishi, mavjud bo'lishi, o'zgarishi yoki yo'qolishini belgilovchi muhim omillar majmui tushuniladi. U yoki bu hodisa ma'lum joyda tegishli shart-sharoit yuzaga kelgan holdagina yuz berishi mumkin va muayyan shart-sharoit mavjudligi tufayli mavjud bo'lishi mumkin.

<sup>1</sup> Парнюк М.А. Принцип детерминизма в системе материалистической диалектики. – Киев, 1972. – С.93.

«Shart-sharoit» tushunchasidan «muhit» tushunchasini farqlash lozim. So'nggi zikr etilgan tushuncha nafaqat shart-sharoit sifatida amal qiladigan omillarni, balki mazkur hodisada ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan bilvosita omillarni ham o'z ichiga oladi. Bu qoida kriminologik tadqiqotlar uchun ayniqsa muhim, chunki ijtimoiy muhitda jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratgan kriminogen sabablarni ham, bilvosita sabablar yoki kriminogen sabablarga qarshi omillarni ham e'tiborga olish lozim.

Shart-sharoitga aylanuvchi omillar belgilangan hodisa yuz bergunga qadar tasodifiy holatlar majmui sifatida mavjud bo'ladi. Shunday qilib, o'z holicha mavjud bo'lgan muayyan sabablar determinasiya jarayonida o'zalari belgilayotgan hodisaga nisbatan shart-sharoitga aylanadi. Shart-sharoitning mavjudligi hodisa yuz berishi mumkinligini anglatadi.

Qanday qilib imkoniyat borliqqa aylanadi, nimaning ta'sirida harakat (oqibat) paydo bo'ladi? Determinasiya jarayonining mazkur elementiga xos bo'lgan faoliyat – sabab ta'sirida yuzaga keladi. Demak, sabab shart-sharoitni harakatga aylantiruvchi faol asosdir. Sababni faqat uning oqibati orqali tushunish mumkin va aksincha, oqibatning tab'atini faqat uning sababi orqali aniqlash mumkin, chunki ular bir-birini taqozo etadi<sup>1</sup>.

Sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga nisbatan to'rt xil yondashuvni farqlash mumkin:

1) «Kandisionalistik» (shartli) yondashuv sabab deganda mazkur oqibat uchun zarur va etarli bo'lgan holatlar majmuini tushuadi<sup>2</sup>.

2) An'anaviy yondashuv – bunda tashqi ta'sir mazkur oqibatning sababi hisoblanadi. Kriminologiyada jinoyatlar ular sodir etilgan sharoit hamda boshqa shaxslar, shu jumladan jabrlanuvchilar xulq-atvori bilan bevosita bog'lanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, kriminologiyada sababiyatning «an'anaviy» talqini tor xususiyatga ega bo'lib, deyarli hech qachon yakka holda qo'llanilmaydi, balki doim boshqacha yondashuvlar bilan to'ldiriladi.

3) An'anaviy-dialektik yondashuv keng tarqalgan va kriminologik adabiyotlarda ancha puxta ishlab chiqilgan yondashuv hisoblanadi. Unga ko'ra, mazkur oqibatni yuzaga keltiruvchi hamma narsa sababdir. Muayyan tashqi holatlar ta'sirida ob'ektda o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Ayrim mualliflar salbiy ijtimoiy-ruhiy hodisalar va jarayonlarni jinoyatchilik va jinoyatning «bevosita» sababi deb hisoblaydi. Bundan «Jinoyat-

<sup>1</sup> Гегель Г.Ф. Работы разных лет: В 2-х т. – М., 1973. Т. 2. – С.107.

<sup>2</sup> Иванов В.Г. Причинность и детерминизм. – Л., 1974. – С.14-15.



chilik sabablari doim ijtimoiy-psixologik tabiatga ega bo'ladi», degan xulosa kelib chiqadi.

Bu ijtimoiy-psixologik muammolar kriminologiyada ikki yo'nalishda, birinchidan, jinoiy xulq-atvor va jinoyatchilikning genezisini aniqlash nuqtai nazaridan, ikkinchidan, ko'rib chiqilayotgan hodisaga qarshi kurash, shu jumladan huquqbuzarliklarning oldini olish nuqtai nazaridan o'rganilishi lozim.

Shaxsni kriminologik jihatdan o'rganishda uni ijtimoiy muhitga bog'lab tahlil qilish muhimdir, chunki jinoiy xulq-atvorni muhit yoki shaxsning o'zi emas, balki ularning o'zaro ta'siri yuzaga keltiradi.

Binobarin, ijtimoiy shart-sharoitning jinoiy xulq-atvor bilan aloqasi murakkab xususiyat kasb etadi, bunda ijtimoiy shart-sharoit doim jinoyatda shaxs orqali namoyon bo'ladi.

Jinoyatchilikning ijtimoiy-ruhiy jihatlari to'g'risida so'z yuritganda, jinoyatchilik jinoyatlarning oddiy yig'indisi yoki majmui emasligini, u o'z qonuniyatlari, miqdor va sifat ko'rsatkichlariga ega ekanligini qayd etib o'tish lozim. Jinoyatchilikning asosiy sabablarini aniqlash uchun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini, uni belgilovchi aloqalar va munosabatlarni o'rganish va ularni jinoyatchilikka bog'lab tahlil qilish kerak.

Jinoyatchilik mintaqaviy xususiyatlarga ham bog'liq bo'ladi, binobarin uni ham alohida o'rganish lozim. Bunda mikromuhitni hisobga olish muhim ahamiyatga ega, chunki shaxs xulq-atvori, uning shakllanishi oilaga, uning do'stlari, tanishlari, qo'shnilari va hokazolar muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligi bilan bir xil sabablarga ega, biroq ularning voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga ta'sir ko'rsatish mexanizmi ancha farq qiladi. Bu sabablar shaxsning shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tarbiya tashkiliy va stixiyali jihatlarini, tarbiya hamda tegishli ijtimoiy amaliyot ta'sirini o'z ichiga oladi.

### 11.3. Voyaga etmagan jinoyatchining shaxsi

Shaxsning alohida ijtimoiy tipini ajratish uchun asos bo'ladigan shaxsiy xususiyatlar mavjudligi to'g'risidagi masala qizg'in bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Ayrim mualliflar fikriga ko'ra, jinoyatchi shaxs

<sup>1</sup> Долгова А.И. Социально-психологические аспекты преступности несовершеннолетних. – М., 1981. – С.35.

sifatida boshqa odamlardan ajralib turadi<sup>2</sup>, ayrim mualliflar esa, asosan jinoyat sodir etish paytida shaxsning shart-sharoit bilan o'zaro ta'siriga ishora qiladi<sup>3</sup>.

Umuman olganda, shaxsning ijtimoiy xususiyatlari u mansub bo'lgan ijtimoiy guruh bilan bog'lanadi, bu – tiplarga ajratishga nisbatan metodologik yondashuvning negizi. Jinoyat sodir etuvchi voyaga etmagan shaxsning tipini aniqlashda ayrim metodologik va metodik qoidalarni e'tiborga olish lozim.

Birinchiidan, bu erda tipning ijtimoiy tabiati to'g'risida so'z yuritiladi, shu bois aynan insonning «shaxsi, ijtimoiy qiyofasi» uning oktogenozi jarayonida o'rganiladi.

Ikkinchiidan, ko'rib chiqilayotgan shaxs tipi u o'ziga xos bo'lgan odamlarning barqaror ijtimoiy belgilangan xususiyatlarining mavjudligini ifodalagan taqdirdagina ahamiyat kasb etadi. Bu xususiyatlar jinoiy xulq-atvor fakti bilan emas, balki uning imkoniyati bilan belgilanadi. Mazkur imkoniyat faqat muhit bilan o'zaro aloqada yuzaga chiqadi. Shu bois mazkur shaxs tipining tarqalganlik darajasi jinoyat sodir etuvchi shaxslarning tarqalganlik darajasiga mos kelmasligi mumkin. U qonunda belgilangan tartibda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan barcha shaxslarni qamrab olmaydi. Shu sababli deyarli barcha tadqiqotchilar asosan shart-sharoit ta'sirida jinoyat sodir etuvchi «tasodifiy jinoyatchi» tipini farqlaydi.

Binobarin, kriminogen shaxs tushunchasi boshqa shaxs tiplari bilan taqqoslaganda tegishli shart-sharoitda jinoiy xulq-atvor yuz berish ehtimoli katta bo'lgan muayyan ijtimoiy tipni ifodalashi mumkin. Bunday ehtimol faqat ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishish natijasida ro'yobga chiqadi va shundan keyin, ya'ni jinoyat sodir etilganidan so'nggina kriminogen shaxsning ijtimoiy tipini ifodalovchi shaxs jinoyatchiga aylanadi. Shaxs kriminogen xususiyatga ega ekanligini aniqlash uning ijtimoiy muhitini sog'lomlashtirish, shaxsga zarur ijtimoiy yordam ko'rsatish, unga nisbatan tarbiyaviy-profilaktik ta'sirni kuchaytirish uchun asos bo'ladi. Tayinlanadigan jazo sodir etilgan qilmishning xususiyatiga mos kelishi lozim.

Uchinchiidan, bu erda aynan tip nazarda tutiladi, shu bois jinoyat sodir etuvchi shaxslarda kriminogen shaxs tipining jihatlari har xil darajada mujassamlashishi mumkin.

<sup>2</sup> Лейкина Н.С. Личность преступника и уголовная ответственность. – М., 1968. – С.9.

<sup>3</sup> Сахаров А.Б. Ko'rsatilgan asar. – Б.111.

To'rtinchidan, mazkur holda jinoiy xulq-atvor bilan bevosita bog'liq bo'lgan xususiyatlar to'g'risida so'z yuritilishi lozim. Kriminogen shaxsning jinoyatchi bo'lmagan shaxsdan farqi aynan jinoiy xulq-atvor bilan bog'liq.

Beshinchidan, voyaga etmagan kriminogen shaxs o'ziga xos kriminologik ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar majmuini o'zida mujassamlashtirgan alohida hodisa. Odamlar xulq-atvori, faoliyati pirovard natijada shaxsning barcha o'ziga xos xususiyatlari «ishi»ning yakuni hisoblanadi. Jinoyatchi shaxsi faqat bir o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, deb o'ylash to'g'ri bo'lmaydi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqotlar jinoyatchilarning turli toifalari orasida uchraydigan kriminogen shaxs tipi quyidagi o'ziga xos jihatlarni majmui bilan ajralib turishini ko'rsatdi:

- faol g'ayrihuquqiy va axloqiy ta'sir sharoitida shaxsning shakllanishi, oilada g'ayrihuquqiy xulq-atvor va xatti-harakatlarning kuzatilishi va sh.k.;

- hatto jamiyat va davlat muhiti hamda uning qadriyat va me'yorlar tizimi tomonidan ta'sir o'tkazish choralari ko'rilganidan keyin ham har xil axloqqa zid va g'ayrihuquqiy qilmishlar tizimining mavjudligi;

- jinoyat sodir etish sharoitida shaxsning faolligi va odatda jiddiy sabablar bo'lmagan sharoitda jinoyat sodir etish.

Yuqorida keltirilgan tavsif umumiy xususiyatga ega bo'lib, kriminogen shaxs tiplarining rang-barangligini aks ettirmaydi. Vaholanki, jinoyatlarning oldini olish, jazolash va huquqbuzarlarni axloqan tuzatish ijtimoiy tizimi shaxslarning u yoki bu guruhlariga xos bo'lgan xususiyatlarni e'tiborga olishi lozim. Odatda, bunday xususiyatlar ikki asosiy belgi: shaxsning kriminogen buzilish darajasi va bu buzilishning xususiyatidan kelib chiqib hisobga olinadi. Voyaga etmagan shaxs mikromuhitining tavsifi, uning jinoyat sodir etishdan oldingi xulq-atvori haqidagi ma'lumotlarni, ongning mazmun tomoni xususiyatlarini hisobga oluvchi kompleks mezonga asoslanib, qasddan jinoyat sodir etuvchi o'smirlarning uch tipi: izchil kriminogen, situativ kriminogen va situativ tiplari qayd etilgan.

**Izchil kriminogen tip.** Ushbu tip vakillarining jinoiy xulq-atvori odatdagi xulq-atvor tarzidan kelib chiqadi va sub'ektning qarashlari, maqsadi va moyilliklari bilan belgilanadi. Odatda, mazkur shaxs jinoyat sodir etish vaziyatidan nafaqat foydalanadi, balki uning vujudga kelishida faol ishtirok etadi. Ushbu tip vakillari zarur holda muayyan muhitni o'zlariga «moslashtirish»ga qodirlar. Ularning jinoiy xulq-atvori izchil

kriminogenlik shakllangan bosqichdan boshlab nisbatan erkin xususiyat kasb etadi.

**Situativ kriminogen tip.** Ziddiyatli mikromuhitda shakllanadi va faoliyat olib boradi; jinoyat ko'p jihatdan uni sodir etishning ma'naviy va huquqiy nuqtai nazardan salbiy holati bilan belgilanadi. Ayni holda shaxs va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shaxsni jinoyatga u qo'shilgan mikromuhit, uning oldingi turmush tarzi olib keladi.

**Situativ tip.** Mazkur shaxs ongi va xulq-atvorining, shuningdek u qo'shilgan mikromuhitning axloqqa zid elementlari ahamiyatsizdir. Jinoyat mazkur shaxs aybi bilan yuzaga kelmagan, uning uchun ma'lum darajada g'ayrioddiy va boshqa sub'ektlar bilan birgalikda axloq va huquq normalarini buzish bilan bog'liq bo'lgan vaziyatning hal qiluvchi ta'siri natijasida sodir etiladi.

Ijtimoiy shaxs va muhit murakkab sharoitda – muammoli va mojaroli vaziyatlarda o'zaro ta'sirga kirishish mexanizmining nuqsonlari ayniqsa muhimdir. Jinoyat boshqa shaxslarning aybiga ko'ra yuzaga keluvchi vaziyat ta'sirida sodir etiladi. Bunda axloq va huquq normalari boshqa sub'ektlar tomonidan buziladi. Ayni vaqtda, tegishli sharoitda shaxs o'zining va bironing g'ayrihuquqiy xulq-atvorini, hatto jinoyatini oqlashi yoki mojarolarni hal qilishning boshqa, qonuniy va axloqiy usullarini bilmaligi mumkin. Bu erda jinoyat sodir etilgan shart-sharoit hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etuvchi voyaga etmagan jinoyatchining shaxsi o'zini ko'rsatishga, o'z bevosita muhitidagi shaxslar yuksak bahosini olishga intilishning kuchliligi bilan ajralib turadi.

Zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etuvchi voyaga etmagan jinoyatchining shaxsi, umuman jinoyatchi shaxsi kabi, xudbinlik xususiyatiga ega. Biroq uning xudbinligi odatda guruhiy xususiyat kasb etadi. Zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etuvchi o'smirlarning o'zini ko'rsatish usullari shu bilan bog'liqki, ular norasmiy guruhga qattiq bog'langan holda, o'z faolligi, o'zining qobiliyatlarini rasmiy darajada ma'qullanuvchi shakllarda namoyish etishga harakat qilmaydi. Tamagir jinoyatchining shaxsiga kelsak, unga guruhiy emas, balki individual xudbinlik xos bo'ladi.

Voyaga etmagan jinoyatchilarning aksariyati aralash tipga mansub, ayniqsa, agar ular kriminogen mikromuhitda uzoq vaqt yashagan va g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etuvchi shaxslar bilan yaqin aloqa qilgan bo'lsa.

#### 11.4. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olish

Voyaga etmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning kriminologik muammolarini o'rganish voyaga etmaganlar ijtimoiy kategoriyasining mazmuni, uning shakllanishi, rivojlanishi va jamiyatdagi o'rni, voyaga etmaganlarning qadriyatlarini, maqsadlari va faol hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar, yosh xususiyatlari va hokazolarni tahlil qilish bilan bog'liq ayrim umumiy metodologik qoidalarni ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Kriminologiyada jinoyatlarning oldini olish deganda jinoyat va boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yoki ularga barham berishga qaratilgan davlat va jamiyat chora-tadbirlari majmuini tushunish odat tusini olgan<sup>1</sup>.

Ko'pgina kriminologlar jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarning umumiy va maxsus profilaktikasini farqlaydilar, shuningdek kriminologik profilaktikaning turli vazifalari va darajalarini qayd etadilar<sup>2</sup>. O'tkazilgan tadqiqotlar aksariyat voyaga etmagan jinoyatchilar shaxsining shakllanishi yo'lidagi birinchi bosqich shaxs tarbiyasining og'irligi hisoblanishini ko'rsatadi. Kriminologik jihatdan bu tushuncha g'ayriijtimoiy shaxsning axloqsiz shaxs hamda qisman huquqbuzar shaxsi kabi tiplariga mos keladi.

Tarbiyasi og'ir o'smir – bu axloqan tuzatish va qayta tarbiyalashga muhtoj bo'lgan voyaga etmagan shaxs. Uni axloqan tuzatish va tarbiyalash mazkur shaxs jinoyatchiga aylanishining oldini olish, shuningdek uning jamiyat bilan normal aloqalarini tiklash, unda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Har bir voyaga etmagan tarbiyasi og'ir shaxsning xulq-atvori o'ziga xosdir; u o'smir shaxsi shakllanishining ob'ektiv va sub'ektiv omillari bilan belgilanadi. Bu tarbiya va profilaktika ishlarida individual yondashuv etakchilik qilishi lozimligini anglatadi.

Afsuski, amalda tarbiyasi og'ir o'smirlarga nisbatan asosan og'zaki ta'sir ko'rsatish vositalari (tanbeh, hayfsan va sh.k.) qo'llaniladi. Tarbiyasi og'ir o'smirlarga juda to'g'ri, xayrixoh munosabatda bo'lish, uning potensial imkoniyatlariga ishonch bildirish muhimdir. Maktab bolalar va o'smirlar hayoti va xulq-atvori uchun mas'ul pedagogik markazga aylanishi lozim.

Agar jinoyatlarni profilaktika qilishning ixtisoslashmagan sub'ektlari zararli ta'sir manbalarini bartaraf etishga qaratilgan tarbiya va profilaktika choralarini o'z vaqtida ko'rmasalar, tarbiyasi og'ir o'smir pedagogik va ijtimoiy beqarorlikning navbatdagi bosqichiga o'tishiga sababchi bo'ladi-

<sup>1</sup> Криминология. – М., 1996. – С.203-204.

<sup>2</sup> Игошев К.Е. Социальный контроль и профилактика преступлений. – Горький, 1976. – С.39-40.

lar. Bu bosqich o'smirning oiladagi, maktabdagi, ishdagi munosabatlari yanada yomonlashuvi, u ijtimoiy jihatdan ijobiy muhitdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadi. Oiladagi nazoratsizlik, o'quv yoki mehnat jamoasi ta'siridan chetda qolish o'smirda mas'uliyatsizlik va boshboshdoqlik kabi salbiy tuyg'ularni shakllantiradi hamda mustahkamlaydi.

Dastlabki huquqbuzarliklarning jazosizligi qonun talablariga bepilandlik, atrofdegilar fikri bilan hisoblashmaslik odatini rivojlantiradi. Agar jinoiy xulq-atvor genezisining birinchi bosqichida jinoyatlarni profilaktika qilishining ixtisoslashgan sub'ektlari (voyaga etmaganlar bilan ishlovchi komissiyalar va inspeksiyalar, maxsus maktablar va h.k.) tegishli choralarini ko'rmasalar, bu o'smirning g'ayriijtimoiy moyilliklarini yanada chuqurlashtiradi.

Voyaga etmaganlar jinoiy xulq-atvori etnologiyasini o'rganish hozirgi sharoitda voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashda jinoyatlar profilaktikasi asosiy o'rinni egallashi lozimligini ko'rsatadi.

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligini profilaktika qilish – bu xulq-atvori axloqiy va huquqiy normalar chegarasidan chetga chiqayotgan, lekin hali jinoiy tus olmagan voyaga etmaganlar shaxsini axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash borasidagi maxsus faoliyat. Bu erda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning uch turi (axloqqa zid, g'ayrihuquqiy va jinoiy xulq-atvor)dan dastlabki ikkitasi profilaktika ob'ekti sifatida amal qiladi. Shunday qilib, profilaktika o'z mazmuniga ko'ra barcha voyaga etmaganlarga qaratilgan umumiy tarbiyaviy choralar bilan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jinoyat-huquqiy choralar o'rtasida oraliq bo'g'in hisoblanadi.

Umumiy profilaktika choralari asosan beqaror oilalarning salbiy ta'sirini bartaraf etadi, muhtoj o'smirlarga davlat va jamoat yordamini ko'rsatish (vasiy yoki homiy belgilash, mehribonlik uyi, maktab-internatga yuborish, o'qishga yoki ishga joylashtirish), voyaga etmaganlarga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish, o'smirlarning dam olishini oqilona tashkil etish, voyaga etmaganlar qonun hujjatlariga rioya etishi ustidan nazorat olib borish va hokazolarni nazarda tutadi.

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olish bilan bog'liq barcha choralar uning bosh vazifasini amalga oshirish – boshlangan shaxs buzilishini to'xtatishga, uning ayrim salbiy xususiyatlariga barham berishga, shuningdek mikromuhit kriminogen omillarining ta'siriga chek qo'yishga qaratilishi lozim. Profilaktika chora-tadbirlari tarbiyasi og'ir o'smirlar g'ayriijtimoiy xulq-atvorning yanada xavfliroq shakllariga

o'tishini to'xtatishlari, ular kelajakda to'g'ri yo'lga kirib, faol hayotiy pozitsiyani egallashlarini ta'minlashi lozim.

Bu boradagi jiddiy kamchilik shundan iboratki, voyaga etmaganlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlarining profilaktik ta'siri doirasiga asosan huquqbuzarliklar sodir etganlaridan keyin tushadilar.

O'smirlarning g'ayriijtimoiy moyilliklarini dastlabki bosqichda profilaktika qilish choralarini qo'llashga nisbatan yuzaki yondashish hollari mavjudligini ham qayd etib o'tish lozim. Masalan, voyaga etmaganlar bilan ishlash inspeksiyalari va komissiyalar asosan tarbiyasi og'ir o'smirlarning o'ziga ta'sir o'tkazadi. Ularning beqaror ota-onalariga nisbatan esa, nari borsa ma'muriy choralar ko'rish bilan kifoyalanadi. Vaholanki, bu choralar o'z holicha o'smirning mikromuhitini sog'lomlashtira olmaydi. Ko'pincha bu o'smir bilan o'tkazilgan tarbiya ishlarining barcha natijalarini chippakka chiqaradi.

Bu sohada qonuniylikka rioya etilishi ustidan prokuror nazorati choralari ham muhim ahamiyatga ega. Nazoratni tashkil etishga nisbatan yuzaki yondashuv shunga olib kelmoqdaki, ayrim qarorlar amalda bajarilmayapti yoki o'z vaqtida, to'liq yohud lozim darajada bajarilmayapti. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni prokuratura organlari zimmasiga huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka va boshqa huquqbuzarliklarga, shu jumladan voyaga etmaganlar jinoyatchiligi va huquqbuzarligiga qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasini yuklaydi. Bu profilaktika ishining barcha ishtirokchilari kuch-g'ayratini birlashtirishni nazarda tutadi va ayni vaqtda prokurorlarning nazorat funksiyalarini bajarish majburiyatini soqit etadi. Prokuraturaning vazifasi – jinoyatlarning oldini olish, voyaga etmaganlarni tarbiyalash uchun mas'ul xodimlar o'zlariga yuklangan qonuniy vakolatlarni qanday amalga oshirayotgani ustidan nazoratni kuchaytirish.

Voyaga etmaganlar bilan ishlovchi komissiyalar shug'ullanadigan muhim masala – voyaga etmaganlarni ishga joylashtirish masalasi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Mazkur bob doirasida biz voyaga etmaganlar jinoyatchiligining eng muhim masalalarinigina yoritishga harakat qildik. Biroq yuqorida aytilganlarning o'zidan ko'rinib turibdiki, profilaktika faoliyatini yanada takomillashtirish – huquqiy jamiyat rivojlanayotgan sharoitda voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashning samaradorligini oshirishning muhim vositasidir.

## 12-mavzu. AYOLLAR JINOYATCHILIGI VA UNING OLDINI OLISH

1. Ayollar jinoyatchiligining holati, tarkibi va dinamikasi.
2. Ayollar jinoyatchiligining sabablari.
3. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish.

Umuman olganda jinoyatchilik har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ayrim turlarga bo'linadi. Bu xususiyatlar ayrim turdagi jinoyatlar-ning kriminologik tavsifi, sababiy bog'lanishlarida ham, ularning oldini olish hamda ularga qarshi kurash usullarida ham ifodalanadi. Ayollar jinoyatchiligi jinoyatchilikning ana shunday alohida turlaridan biridir.

Jinoyatchilikni jinsiy belgiga ko'ra farqlash, hech shubhasiz, o'rinlidir, chunki ayollar jinoyatchiligining miqdor ko'rsatkichlari ham, sifat ko'rsatkichlari ham erkaklar jinoyatchiligidan farq qiladi. Miqdoriy xususiyatlar masalasiga kelsak, ayollar jinoyatchiligi asrlar mobaynida erkaklar jinoyatchiligidan orqada qolib kelgan. Ayollar sodir etadigan jinoyatlarning erkaklar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar bilan o'zaro nisbati 1:8 ni (jinoyatlar umumiy sonining 12,5% ni) tarkkil etadi. Vaholanki, mamlakatimizda ayollar soni erkaklar soniga qaraganda ko'proq.

Sifat xususiyatlari masalasiga kelsak, statistika ayollar tomonidan tamagirlik niyatida va zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek boshqa jinoyatlarning o'zaro nisbati erkaklar o'rtasida yuzaga kelgan vaziyatdan ancha farq qilishini ko'rsatadi. Ayollarga xos bo'lgan mikromuhit yoki sharoit ta'sirida muayyan davrda yuzaga kelgan xulq-atvor tarzi o'z aksini topgan jinoyatlar farqlanadi.

Shuningdek, ayollar jinoyatchiligining o'zgarish xususiyati ham o'ziga xos bo'lib, erkaklar jinoyatchiligining o'zgarish xususiyati bilan doim ham mos kelavermaydi. Masalan, ayollar tomonidan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning o'sishi doim nisbatan sust kechadi.

Ayol jinoyatchi shaxsining kriminologik tavsifi ham o'ziga xosdir. Odatda, ularning o'rtasida katta yoshdagi shaxslar aniqlangan erkak jinoyatchilar o'rtasidagi shunday shaxslarga qaraganda ko'proq bo'ladi. So'nggi yillarda jinoyatchilarning yosharishi kuzatilayotganiga qaramay, yuqorida zikr etilgan tendensiya hozirgacha saqlanib qolayotir. Ayol jinoyatchilarning ma'lumot darajasi erkak jinoyatchilarga qaraganda doimo yuqori bo'lgan, biroq ilgari ayol jinoyatchilar orasida oliy ma'lumotli shaxslarning bunday yuqori o'sishi hech qachon qayd etilmagan edi.

Bu ayollar jinoyatchiligining ba'zi bir xususiyatlari va farqlari, xolos. So'nggi yillarda umumiy jinoyatchilik qatori ayollar jinoyatchiligi ham



sezilarli darajada (+6,7) o'sdi. Quyidagi statistik ma'lumotlar ham fikrimizni tasdiqlaydi: ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 2000 yilda 7649 ta, 2001 yilda 7654 ta, 2002 yilda 8010 ta, 2003 yilda 9305 ta, 2004 yilda 9073 ta, 2005 yilda 9685 tani tashkil etdi. O'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligiga qaramay, ayollar jinoyatchiligi ham jinoyatchilikning umumiy qonuniyatlarini hamda unda yuz bergan o'zgarishlarni aks ettiradi. U umumiy jinoyatchilikning kichik tizimi sifatida amal qiladi va u bilan uzviy bog'langan.

Ayollar jinoyatchiligi erkaklarnikidan orqada qolib kelayotganligini asoslovchi bir nechta nazariya mavjud. A.Kettle bu hodisani nafaqat ayollarning jismonan zaifligi, balki jamoatdan uzoqdaligi, oilaviy majburiyatlardan doirasidan kam chetga chiqishi bilan tushuntirgan. Biroq ayollar jamoat hayoti va professional faoliyatga tobora faolroq qo'shilishiga qarab, shuningdek jinoyatchilikda o'sish yuz bergan davrlarda umumiy jinoyatchilik tarkibida ayollar jinoyatchiligining ulushi doimo oz bo'lib qolgan. U erkaklar jinoyatchiligi ulushidan bir necha baravar kam bo'lgan.

Bu hodisaning boshqa bir izohi antropologik maktab namoyandalari – Ch. Lombrozo va uning Rossiyadagi izdoshi P.N.Tarnovskaya tomonidan ilgari surilgan. Ular ayollar jinoyatchiligining faollik darajasi erkaklarnikiga nisbatan pastligini ayol organizmining o'ziga xosliklari, ayol tabiati va uning ma'lum darajada «biologik norasoligi» (ya'ni jismonan baquvvat emasligi) bilan izohlaganlar.

Biroq fanning keyingi rivojlanishi jinoyatchilikning sababiy omillari majmuida ijtimoiy hayot shart-sharoitlari ta'sirida shakllanuvchi holatlar ustunlik qilishini ko'rsatdi. Ayollar jinoiy va umuman olganda, qonuniy xulq-atvorining shakllanishiga aynan shu holatlar ayniqsa jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning nazarimizda, ayollar jinoyatchiligining biologik sabablarini ham, ijtimoiy sabablarini ham farqlash mumkin. Ayni vaqtda, ushbu sabablar bir-biri bilan uzviy bog'liq.

Ayollarga qadim zamonlardayoq oilani tebratish va ro'zg'or yuritish vazifalari yuklangan, erkaklar esa ovchilik yoki baliqchilik bilan shug'ullangan. Ijtimoiy vazifalarning bunday taqsimlanishiga jismoniy tengsizlik sabab bo'lgan deb faraz qilish mumkin, biroq, ma'lumki, jismoniy kuch jihatidan erkaklardan qolishmagan amazonkalar ham mavjud bo'lgan. Shu bois, ehtimol tutilgan jismoniy tengsizlikdan tashqari, jinslarning ma'naviy-ruhiy farqlari ham erkaklar va ayollar vazifalarining ajratilishiga sabab bo'lgan bo'lsa kerak. Ayol ona bo'lish uchun yaratiladi, tegishli ravishda unda bunyodkorlik xususiyatlari ustunlik qiladi, erkak esa, ovchi yoki baliqchi sifatida, ko'proq agressiv

xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu ayollar agressiyadan butunlay xoli, erkaklar esa bunyodkorlikka qodir emas, degan ma'noni anglatmaydi. Amaliyotda o'zining yangi tug'ilgan chaqaloqlarini tap tortmasdan o'ldiradigan onalar ham, nafaqat o'z zuryodini, balki asrab olingan bolalarni ham tarbiyalab voyaga etkazadigan otalar ham uchraydi.

Gap shundaki, aksariyat ayollarda jinoyat sodir etishga monelik qiluvchi xususiyatlar ustunlik qiladi, chunki ayollar xulq-atvorini shakllantiruvchi omillar odatda oila bilan bog'liq. Oilani muhofaza qilish, uning moddiy farovonligini ta'minlash, qulay psixologik muhit yaratish ko'pincha ota zimmasiga tushadi. Bunda oila uchun mas'uliyat yuki avvalo ayol zimmasiga tushadi. Ayni shu sababli ayol hayoti jinoiy faoliyat bilan kam bog'lanadi, chunki u farzandlari, oilaning farovonligi va butunligi uchun o'z mas'uliyatini his etadi. Agar ayol jinoyat yo'liga kirsas, u o'z oilasini xavf ostida qoldiradi, chunki ayol bu qilmishi uning jazoga tortilishi, ozodlikdan mahrum qilinishiga sabab bo'lishini, jazoni o'tash paytida esa oilaning buzilish ehtimoli katta ekanligini, farzandlarini tarbiyalash va voyaga etkazish bilan kim shug'ullanishi noma'lumligini yaxshi tushunadi. Shuningdek, oilali odam jazodan bo'yin tovlashi ancha qiyin kechadi, chunki jinoyat qochib yashirinish, yashash joyini o'zgartirishga ahd qilsa, oilaning mavjudligi bu niyatni amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, oilali odam jinoyatni rejalashtirish va sodir etish uchun vaqt topishi ham qiyin kechadi, chunki oila yumushlari ancha ko'p vaqtni oladi. Sanab o'tilgan sabablardan tashqari, ayol jinoyat sodir etishiga to'sqinlik qiladigan boshqa omillar ham mavjud. Ayollar zo'rlik ishlatib sodir etadigan jinoyatlardan asosan erlari, jazmanlari, farzandlari, yaqin qarindoshlari jabrlanishi ham ayol oilaga erkaklarga qaraganda qattiqroq bog'langanligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, ayolning tabiati uning jamiyatdagi ijtimoiy rolini belgilaydi, bu rol, o'z navbatida, ayollar o'rtasidagi jinoyatchilik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi holatlarni belgilashda ayolning jamiyatdagi faoliyatining xususiyatini, ya'ni ayol ishda va uyda band bo'lganligi munosabati bilan yuzaga keluvchi barcha vaziyatlarni hisobga olish lozim. Shu yondashuv erkaklar jinoyatchiligini ko'rib chiqishda ham o'rinalidir. Tabiatan zabt etuvchi, agressiv xususiyatlarga ega bo'lgan erkak jamiyatda ham shunga mos vazifalarni bajaradiki, erkaklar jinoyatchiligining ulushi ayollar jinoyatchiligidan ancha katta ekanligi ayni shu holat bilan belgilanadi.

So'nggi yillarda jinoyatchilik, shu jumladan uning tarkibiy qismi sanalgan ayollar jinoyatchiligining egri chizig'i ham jadal sur'atlarda o'sib

borayotir. Bu holatni avvalo mamlakatimizning siyosiy va iqtisodiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar ijtimoiy keskinlik, ijtimoiy mojarolar va qarama-qarshiliklarning o'sishiga sabab bo'lganligi bilan tushuntirish mumkin.

Ayol ijtimoiy maqomini tushunishda ham muayyan o'zgarishlar yuz berdiki, bu, shubhasiz, ayollar jinoyatchiligida, xususan, uning miqdori va sifatida o'z aksini topdi.

Ishsizlik, real daromadlarning kamayishi, oila ahamiyatining pasayishi, ajrashishlar sonining ko'payishi jinoyatchilik darajasining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida qayd etilmoqda. Natijada ayollar o'rtasidagi jinoyatlarda ayniqsa katta o'sish kuzatilayotgan bir necha jinoyat turlari mavjud. Ular jumlasiga oila-ro'zg'or munosabatlari zahirida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar, tamagirlik jinoyatlari, iqtisodiy jinoyatlar kiradi.

qSiyosiy va iqtisodiy hayotdagi tangliklardan tashqari, ma'naviy inqiroz ham kuzatilmoqdaki, u odamlar, ayni holda— ayollar mamlakatdagi vaziyatning o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni engishga qodir emasligi bilan bog'liq. Bu ichkilikbozlik darajasining o'sishiga olib kelgan omillardan biriga aylandi va o'z navbatida oilada zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar sonining ko'payishiga sabab bo'ldi. Mastlik holatida qarindoshlar, ko'pincha er-xotin o'rtasida chiqqan janjallar aksariyat hollarda yo odam o'ldirish, badanga har xil og'irlikda shikast etkazish bilan yakunlanadi.

O'z qobiliyatini namoyon etish imkoniyatining yo'qligi, ishsizlik, turmush darajasining pasayishi, shuningdek oilaviy qadriyatlarga qiziqishning susayishi shunga olib kelmoqdaki, ayollar ba'zan tirikchilik uchun mablag'lar topishga urinib, jinoyat yo'liga kirmoqdalar. To'g'ri, jinoyatchi ayollar ko'pincha tovlamachilik, firibgarlik, o'g'irlik, xaridorlarni aldash kabi jinoyat turlarini tanlaydilar, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarida kam ishtirok etadilar, biroq yildan yilga vaziyat o'zgarmoqda va ayollar jinoyatchiligi jinoyatchilik tizimida barqaror o'rin egallab bormoqda.

So'nggi yillarda umumiy jinoyatchilik tarkibida ayollar jinoyatchiligi ulushining ko'payganligi boshqa sabablar bilan bir qatorda jinslarning huquqiy, ijtimoiy va boshqa jihatlardan tenglashuvi bilan ham bog'liq. Agar ayol jamiyatda erkak bilan tenglashsa, u beixtiyor erkaklarga xos bo'lgan agressiv xulq-atvor tipini ham qabul qiladi. Oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning o'sishi ayni shu holat bilan belgilanadi, chunki ayol uyda ham o'zini agressiv tuta boshlaydi.

Ayollar tamagirlik jinoyatlarida ham faolroq harakat qila boshlamoqdalar, chunki unga tabiatan xos bo'lgan oilani tebratuvchi xususiyatlari

ikkinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Endilikda ayol oila uchun javobgarlikni to'liq o'z zimmasiga olishga harakat qilmaydi, u mazkur javobgarlikni erkak bilan teng bo'lishadi. Jinoiy faoliyatdan tiyib turuvchi asosiy omil bo'lgan oila uchun javobgarlik ulushi kamaymoqda, bu esa jinoyatchilikning o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Ayniqsa, iqtisodiy jahhada jinslarning tenglashuvi ayollar jinoyatchiligi foizining ko'payishiga ta'sir ko'rsatdi, chunki ayollarda mazkur jinoyat turini sodir etish uchun imkoniyat paydo bo'ldi. Ilgari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan ayollar soni ancha kam edi, rahbarlik lavozimlarini ham ular kam egallardi, ayollar asosan iqtisodiy jinoyatlar sodir etishga «moslashmagan» lavozimlar (ish joylari)da band edi.

Shunday qilib, erkak va ayol ijtimoiy rollarining aralashuvi shunga olib keldiki, ayol ham, erkak ham ularning ishda va uyda bandligi munosabati bilan yuzaga keluvchi har xil vaziyatlarga tushib qolmoqdalar. Ya'ni, jinoyat bilan yakunlanishi mumkin bo'lgan janjallar, iqtisodiy yoki tamagirlik jinoyatlari sodir etish uchun imkoniyatlarning yuzaga kelish ehtimoli erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham bir xil.

Tabiiyki, jinsidan qat'i nazar, har qanday odam ham jinoyatga qo'l uravermaydi. Biroq, ilgari ayol jinoyat sodir etish uchun zarur ma'naviy-ruhiy xususiyatlar majmuiga ega bo'lsa, uning imkoniyatlari shunday xususiyatlar majmuiga ega bo'lgan erkak bilan bir xil bo'lardi. Endilikda erkaklar ham, ayollar ham o'z jinoiy niyatlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlarga ega. Jinslarning bu tenglashuviga umumiy jinoyatchilik tarkibida ayollar jinoyatchiligi ulushi ko'payganligining sabablaridan biri sifatida qarash mumkin.

## **13-mavzu. OILADAGI JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI**

1. Oiladagi jinoyatlar.
2. Farzandkushlikning kriminologik tavsifi.
3. Oilaga qarshi jinoyatlar.
4. Oiladagi jinoyatlarning oldini olish.

### **13.1. Oiladagi jinoyatlar**

Oiladagi jinoyatlar muammosi oilaviy kriminologiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Oiladagi jinoyatlar deganda oilada

uning bir a'zosi boshqa a'zolarga qarshi sodir etuvchi jinoyatlar tushuniladi<sup>1</sup>, bunda er-xotin o'rtasidagi munosabatlar yuridik jihatdan qonuniylashtirilgan yoki qonuniylashtirilmaganligi ahamiyatga ega emas.

Oilada har xil (g'arazgo'ylik, jinsiy va boshqa) jinoyatlar sodir etiladi. Biroq ularning orasida bir oila a'zosi boshqa oila a'zosiga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etadigan jinoyatlar, shu jumladan farzandkushlik hamda bolalarga qarshi boshqa jinoyatlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Oiladagi jinoyatlar zahirida odatda oila a'zolari o'rtasidagi ichki janjal yoki oila a'zolari va u yashaydigan muhit o'rtasidagi janjal yotadi. Bugungi kunda oiladagi jinoyatlar orasida xotinga (erga) qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar va farzandkushlik ayniqsa mufassal o'rganilgan<sup>1</sup>.

Oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar – olamshumul ijtimoiy muammo. Chet elda oilaviy munosabatlar kriminologiyasining bu yo'nalishi ko'pincha «uydagi zo'ravonlik» («oiladagi zo'ravonlik») deb ataladi.<sup>2</sup> Bu muammoning olamshumulligi shu bilan belgilanadiki, turli mamlakatlarda zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning aksariyat qismi aynan oilada sodir etiladi. Oila doirasida jinoyatlar ko'pincha er (xotin) tomonidan xotinga (erga) nisbatan sodir etiladi.

Umuman olganda, oiladagi zo'ravonlik muammosi umuman zo'rlik ishlatish muammosiga qaraganda kamroq muhokama qilinadi. Mazkur muammo bahs-munozara predmetiga aylanishida siyosatchilar va olimlarning emas, balki xotin-qizlar harakatlari hamda bola manfaatlarini himoya qiluvchi harakatlarning xizmati katta.<sup>3</sup>

Zo'rlik ishlatish tushunchasiga ta'rif berish nafaqat mushkul ish, balki buning iloji ham yo'q, chunki biz kundalik turmushda to'qnash keladigan holatlarning ko'pchiligi zo'rlik ishlatish bilan bog'liq, ammo biz ularni normal hodisa sifatida qabul qilamiz (masalan, bolalarni jismoniy jazolash). Butun dunyoda ko'pgina oilalarda bolalarga nisbatan shaxsga qarshi har xil jinoyatlar jumlasiga kiritilgan zo'rlik ishlatiladi. Oilada biriktirilgan vazifalarni bajarish (masalan, ota-ona vazifasini bajarish, tarbiya bilan bog'liq huquqlarni amalga oshirish va sh.k.) yo'li bilan hokimiyatni amalga oshirish uchun ishlatiladigan zo'rlik axloq nuqtai nazaridan qonuniy tusga ega. Bu huquqlar chegarasidan chetga chiqish va mazkur harakatlarning oshkor bo'lishigina aybdorlarga nisbatan jazo

<sup>1</sup> Криминология. Учебник для юридических вузов. – М., 1998. – С.502.

<sup>1</sup> O'sha erda. – Б.199.

<sup>2</sup> Криминология. Словарь-справочник. Составитель Х.Ю.Кернер. Перевод с немецкого. – Изд-во Юрма. 1998. – С.162.

<sup>3</sup> O'sha erda.

choralari ko'rilishiga sabab bo'ladi. Bunda aybli xulq-atvor jabrlanuvchining badaniga etkazilgan (ko'zga tashlanadigan) shikast bilan belgilanadi. Vaholanki, zo'rlik ishlatish og'zaki iboralarda, ruhiy ta'sir o'tkazishda, o'z vazifalarini bajarmaslikda (masalan, erni yoki xotinni moliyaviy madaddan mahrum etish) ifodalanishi ham mumkin. Kattalar oilada bolalarga nisbatan zo'rlik ishlatar ekan, asrlar mobaynida shakllangan xulq-atvor andozlariga ko'ra, bu harakatlari bilan jinoyat qonunini buzayotganlarini doim ham anglayvermaydilar. Bu jinoyatlarning aksariyati, ayniqsa, ular odam o'limiga yoki jabrlanuvchining sog'lig'iga jiddiy ziyon etishiga sabab bo'lmasa, atrofdagilar uchun noma'lum bo'lib qoladi va tegishli choralar ko'rilishiga olib kelmaydi.

Jahonda o'tkazilgan tadqiqotlar bolalarga nisbatan zo'rlik ishlatish aksariyat odamlar tomonidan ma'qullanishidan dalolat beradi. Masalan, Germaniyada o'tkazilgan Xori so'rovi (1968) aholining 85% bolalarni do'pposlashni tarbiya vositasi deb hisoblashini ko'rsatadi. Oradan ikki yil o'tgach, bu ko'rsatkich biroz kamaydi (75%). AQShda har yili 18 yoshga to'lmagan har ming kishiga nisbatan jismoniy, jinsiy zo'rlik ishlatish va shafqatsizlik bilan munosabatda bo'lish bilan bog'liq 5,7 holat to'g'ri kelishi aniqlangan (1979–1980 yillar). Mutaxassislar bergan bahoga ko'ra, AQShda har yili 0,5–2,5 mln. qariya zo'rlikdan jabr ko'radi.

Oilada qariyalarga zo'rlik ishlatilishiga sabab bo'ladigan omillar orasida qariyalar qaramog'ida bo'lgan shaxslarning zo'rlik ishlatish tabiiy hol sanalgan muhitda o'sib ulg'ayganligi; avlodlar o'rtasidagi ziddiyat; gerontologik muammolar (kasallik, qarilik) qayd etiladi.

Oilada jinoyatlar ko'pincha er (xotin) tomonidan xotinga (erga) nisbatan sodir etiladi. Badanga og'ir shikast etkazishga fuqaro N.ni O'zR JKning 104-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda ayblash bo'yicha ish misol bo'lishi mumkin. N. 1998 yil 4 iyul kuni mast holatda o'z uyida pul taqchilligi bahonasida eri bilan janjallashib qolgan, hamda badanga shikast etkazish maqsadida stol ustida turgan oshpichoqni olib, erining qorin sohasiga tiqqan. Eri fuqaro I. kasalxonaga olib kelingan. Sud-tibbiyot ekspertizasi xulosasiga ko'ra, I.ning qorin sohasida hayot uchun xavfli bo'lgan va ushbu belgiga ko'ra badanga og'ir shikastlar qatoriga kiruvchi sanchilgan-kesilgan yara va oshqozonning jarohatlanishi aniqlangan. Ish Toshkent shahar Akmal Ikromov tuman sudida 1998 yil 8 sentyabrda ko'rib chiqildi hamda N. O'zR JKning 104-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilib, 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilindi.

Xususiyati va og'irlik darajasi har xil bo'lgan jinoyatlar zo'rlik ishlatib sodir etiladi. Ularning orasida hayot va sog'liqqa qarshi jinoyatlar (ayniqsa, odam o'ldirish va qasddan badanga og'ir shikast etkazish), shaxsning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar etakchilik qiladi.

Masalan, Rossiyada har yili taxminan 12000 oilada odam o'ldirish jinoyatlari sodir etiladi, shulardan 60% ga yaqinini erning (xotinning) xotinni (erni) o'ldirishi tashkil etadi, bu mamlakatda sodir etiladigan barcha odam o'ldirishlarning 25% dan ko'proqdir.<sup>1</sup>

Aksariyat mamlakatlarda oiladagi jinoyatlardan jabrlanganlar orasida erkaklarga qaraganda ayollar ko'pchilikni tashkil etadi. Biroq, ayrim mamlakatlarda buning teskarisi kuzatiladi (masalan, Ugandada).

Agar XX asr 70-yillarining ikkinchi yarmida jabrlangan ayollar va erkaklarning o'zaro nisbati taxminan 7,1 ni tashkil etgan bo'lsa, 90-yillarda bu nisbat 3,1 ni tashkil etdi, ya'ni ayollarning oiladagi kriminal faolligi oshdi<sup>1</sup>.

Oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlardan biri – erning (xotinning) xotinni (erni) o'ldirishi jinoyatining uch turi farqlanadi:

1) tamagirlik niyatida erning (xotinning) xotinni (erni) o'ldirishi. Odam o'ldirishning mazkur turi erning (xotinning) xotinni (erni) o'ldirishi bilan bog'liq jinoyatlarning atishi 5% ni tashkil etadi. Tamagirlik niyatida odam o'ldirishga alimant to'lashdan xalos bo'lish, turar joy maydonini egallash, meros olishni tezlashtirish kabi maqsadlarda sodir etilishi mumkin. Erning (xotinning) xotinni (erni) o'ldirishi «nikoh firibgarligi» bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Bunda firibgar qotil xotinning (erning) mol-mulkini egallash maqsadida nikohga kiradi, so'ngra uni o'ldirib, merosga ega bo'ladi.

2) har xil yumushlardan xalos bo'lish niyatida erning (xotinning) xotinni (erni) o'ldirishi (taxminan 5%). Bunday yumushlar jumlasiga bemor yoki keksa xotinga (erga) surunkali qarash zarurati yoxud unga boshqacha tarzda bog'liqlikni kiritish mumkin. Bunday odam o'ldirishlar er (xotin) yangi nikoh tuzmoqchi bo'lgan hollarda (agar xotin (er) nikohni bekor qilishga rozi bo'lmasa) ham sodir etilishi mumkin. Bunday odam o'ldirishlar doim qasddan sodir etiladi, ular juda puxta rejalashtirilganligi bois ularning yashirinlik darajasi juda yuqori bo'ladi.

3) rashk zamirida erning (xotinning) xotinni (erni) o'ldirishi (50% dan ortiq). Bunday odam o'ldirishlar odatda xotin (er) eriga (xotiniga)

<sup>1</sup> Криминология. Учебник под ред. В.Н.Бурлакова, И.П.Сальникова. – Санкт-Петербург, 1995. – Б.503.  
<sup>1</sup> O'sha erda.

xiyonat qilgani aniqlangan hollarda sodir etiladi. Ba'zan bunday odam o'ldirish shubha ta'sirida sodir etilishi ham mumkin.

Fuqaro O.ning 1996 yil 7 noyabrda xotini M.ning «buyurtmasi»ga ko'ra o'ldirilishi rashk zahirida odam o'ldirishga misol bo'lishi mumkin. Ularning oilasida surunkali janjallar 1993 yildan boshlandi, er-xotin o'rtasidagi jarlik yildan-yilga chuqurlashib bordi. 1995 yilda O. xotinidan butunlay ko'ngli sovib, u bilan ajrashmoqchi bo'ldi hamda boshqa ayol bilan yashay boshladi. Biroq M. bunga rozi bo'lmadi, hamda erini og'ir jazoga «hukm» etdi: «Agar tanangni burda-burda qilib, itlarga edirmasam, odam emasman». Bu «hukm»ni ijro etishni M.ning eski dugonasi – T. o'z zimmasiga oldi. Buning evaziga u M.dan «Volga» GAZ-31 mashinasi, 70 ming dollar pul hamda O.dan qolgan merosning yarmini talab qildi. T. o'z navbatida, do'stining akasi Tojiboev M.ga O.ni o'ldirish uchun 15000 dollar to'ladi va «buyurtma» bajarildi. Ish O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida ko'rib chiqildi hamda aybdorlar o'z jazosini oldi<sup>1</sup>.

Rashk zahirida odam o'ldirish ayollarga qaraganda erkaklar tomonidan ko'proq sodir etiladi. Xotinning eridan qasos olish maqsadida uni o'ldirish hollari ham diqqatga sazovor. Eridan surunkali kaltak eb, xo'rlanib kelgan xotinlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga doim ham murojaat etavermaydi. Vaqti kelib ular o'z zolim eridan o'ch olish, undan xalos bo'lish yo'llarini izlay boshlaydi, ba'zan esa erini o'ldirishga ham qaror qiladi.

Bu mezonlardan foydalanib, hayot va sog'liqqa qarshi oiladagi jinoyatlarning boshqa turlarini, masalan, qasddan badanga shikast etkazishni ham tavsiflash mumkin. Toshkent shahar Akmal Ikromov tuman sudida ko'rilgan R.ni O'zR JKning 105-moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etishda ayblash bo'yicha ish qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast etkazishga misol bo'lishi mumkin. R. 1998 yil 5 may kuni soat 21.30 da uyiga mast holatda qaytib kelayotganida orqasidan uch noma'lum erkak ketayotgan xotinini ko'rib qolgan. Uyg'a kelgach, R. xotini V.dan bu erkaklar kimligini so'ragan, V. esa ularni tanimasligini aytgan. Er-xotin orasida rashk zahirida janjal chiqib, u mushtlashishga aylangan. R. qasddan xotiniga bir necha zarba bergan. Olingan jarohatlar natijasida V. kasalxonaga yotqizilgan. Sud-tibbiyot ekspertizasining xulosasiga ko'ra, V.ning pastki jag'i ichdan singani aniqlangan. Sud R.ni jinoyat sodir etishda aybdor deb topib, maoshining 30% ni davlat foydasiga chegirib qolish sharti bilan bir yil muddatga axloq tuzatish ishlariga hukm qilgan.

<sup>1</sup> Axmedova Z., Qurboniyozova M. Qorining qotillik qissasi // J. Qonun Himoyasida. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining jurnali. 1998 yil. 5-son. – B.26-36.



Oilada shaxsning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar sodir etilishi ham mumkin. Bu holda asosan ayollar jabrlanuvchi bo'ladilar. Bundan tashqari, oilada voyaga etmagan bolalar (ko'pincha o'gay qizlar va o'g'illar)ning jinsiy daxlsizligi, ularning normal jismoniy va axloqiy rivojlanishiga qarshi jinoyatlar, voyaga etmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish va boshqa shunga o'xshash jinoiy qilmishlar ham sodir etiladi. AQSh olimlarining baholashlariga ko'ra, 2 mln.ga yaqin amerikalik ayollar bolaligida shunga o'xshash jinoyatlardan jabrlangan.<sup>2</sup> Bunday jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi juda yuqori, chunki ular o'smirning normal va xavfsiz rivojlanishiga tajovuz qiladi.

Oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar orasida farzandkushlik ham uchraydi. Ammo bu jinoyatning kriminologik tavsifi ancha keng masala bo'lgani uchun uni alohida ko'rib chiqamiz.

### 13.2. Farzandkushlikning kriminologik tavsifi

Farzandkushlik – oiladagi ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lgan jinoyatlarning turlaridan biri bo'lib, odam o'ldirishning boshqa turlaridan o'ziga xosligi va jinoyat tarkibining xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kriminofamilistikada so'zning keng ma'nosidagi farzandkushlik deganda ota yoki ona yoxud ularning ikkalasi birgalikda o'z farzandini yoki ulardan biri ikkinchisining farzandini o'ldirishi tushuniladi.<sup>1</sup> Xususan, jinoyat qonunida va sud tibbiyotida qo'llaniladigan tor ma'nodagi farzandkushlik onaning yangi tug'ilgan chaqalog'ini tug'ruq paytida yoki bevosita tug'ruqdan keyin o'ldirishini anglatadi.

Farzandkushlik nafaqat turli tarixiy davrlarda, balki bir davrning o'zida har xil baholangan jinoyatlardan biridir. Bu jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida farzandkushlikning ahamiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga munosabat har xil bo'lganligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligiga binoan tug'ruq paytida yoki bevosita tug'ruqdan keyin o'z bolasini o'ldirish imtiyozli jinoyat tarkibi hisoblanadi, chunki fiziologik tug'ruq chog'ida ayol alohida ruhiy-jismoniy holatda bo'ladi<sup>2</sup>. Mazkur holat tug'ruq paytidagi og'riqlar, qiynalish bilan bog'liq bo'lishi, bu ayolda bolaga nisbatan salbiy tuyg'ular uyg'otishi yoki bu nomaqbul tug'ruq (nomusga tegish natijasida

<sup>2</sup> Криминология. Словарь-справочник. – М.:Порма, 1998. – С.165.

<sup>1</sup> Криминология. Учебник по ред. В.Н.Буракова, И.П.Сальникова. – С.-Петербург. 1998. – С.511.

<sup>2</sup> Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. – Т.: 1998. – С.51.

homiladorlik yoki tug'ayotgan ayolni unga uylanishni va'da qilib aldashgan bo'lsa) bo'lishi mumkin. Shunday qilib, farzandkushlik odatda noqulay oilaviy yoki shaxsiy vaziyat oqibati bo'ladi.

Yu.M. Antonyan o'z bolasini o'ldirgan ayolga ancha to'liq tavsif bergan. O'zining yangi tug'ilgan chaqalog'ini o'ldirgan ayollar orasida turmush qurganlar juda oz. Ularning aksariyati odatda malaka va ma'lumot darajasi past bo'lgan so'qqabosh ayollardir. O'ldirilgan bola ko'pincha birinchi muvaffaqiyatsiz jinsiy tajriba bilan bog'liq bo'ladi. Ularning ko'pchiligi ota-onali bo'lib, aynan ota-onasining salbiy munosabatidan qo'rqish ular o'z chaqaloqlarini o'ldirishiga turtki beradi<sup>3</sup>.

V.N. Kudryavsev va V.E. Eminov o'z bolasini o'ldirgan onalarni tavsiflab, shunday deb yozadilar: «Odatda, bunday qilmishlarni jamiyatga yaxshi moslashmagan, oilasiz, uysiz, moddiy jihatdan ta'minlanmagan yosh ayollar sodir etadi. Ayrim hollarda bunday jinoyatlar ortida erkak turadi, ya'ni bu xavfli jinoyatlar erkak, aksariyat hollarda ayolning jazmani yoki o'ynashining roziligi yoki turtkisi bilan sodir etiladi»<sup>1</sup>.

Farzandkushlik ayollarga xos bo'lgan jinoyatdir. Faqat yangi tuqqan ayol mazkur jinoyat sub'ekti bo'lishi mumkin. Bunda ona o'zining yangi tug'ilgan chaqalog'ini uning biron-bir qiami yoki o'zi to'liq ona qornidan chiqqan paytda o'ldirgan hollardagina jinoyat O'zR JKning 99-moddasi bo'yicha tavsiflanishi lozim. Agar ona o'zining yangi tug'ilgan chaqalog'ini tug'ruqdan so'ng oradan ma'lum vaqt o'tgach, ya'ni uning tug'ruq chog'idagi alohida ruhiy-jismoniy holati o'tib ketganidan keyin o'ldirgan bo'lsa, bu qilmish O'zR JKning 97-moddasi bilan tavsiflanishi lozim.

Ayrim ayollar tug'ruq paytida yoki undan keyin ma'lum vaqt mobaynida o'z harakatlarining ahamiyatini tushunmaydigan va ularni boshqara olmaydigan holatda bo'ladi. Ayolning mazkur ruhiy holati boshqa omillar bilan jamuljam holda jinoyatga sabab bo'lishi mumkin. Biroq bu holat zamirida ruhiy kasallik yotmaydi, aks holda ayol jinoyi javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmas edi.

Umuman olganda, farzandkushlik zamirida hodisalar bir necha guruhining o'zaro ta'siri yotadi. Birinchidan, ayol hayotida jinoyat sodir etishdan oldingi vaziyat. U har xil bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda u ayol o'z chaqalog'ini o'ldirishiga sabab bo'ladi, ayrim hollarda esa bunday holat yuz bermaydi. Yu.M. Antonyan ayrim bo'lajak jinoyatchi ayollar bir qarashda yaxshi oilada tarbiyalangani, ota-onasi ularga yaxshi munosabatda bo'lganligini qayd etadi<sup>2</sup>. Ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy xususiyatlari, man-

<sup>3</sup> Antonyan Ю.М. Преступность среди женщин. – М.: Право, 1992. – С.70.

<sup>1</sup> Криминология. Учебник под ред. Кудрявцева В.Н., Еминова Е.М. – М.: Юрист, 1997. – С.301.

<sup>2</sup> Antonyan Ю.М. Преступность среди женщин. – М.: Право, 1992. – С.70.

faatdor shaxslarning gapiga kirmaslik qobiliyati. Uchinchidan, ayolning biologik, psixologik xususiyatlari, xulq-atvori. Odatda, ayollar o'ta ta'sirchan, his-tuyg'ularga boy bo'ladi. Bu beqaror ruhiy jarayonlar tug'ruq jarayonida sezilarli darajada kuchayadi. Bundan tashqari, ayollarda nevrozlar va psixopatiyalar darajasi ham ancha yuqori bo'ladi. Bularning barchasi birgalikda onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayolning boladan qutulish niyati uni qasddan o'ldirish jinoyatiga aylanishiga imkoniyat yaratuvchi bir qancha sub'ektiv va ob'ektiv omillar mavjud. Bular:

- nikohsiz bola tuqqani uchun atrofdagilarning qoralashidan qo'rqish hamda uyalish;
- bolaning otasi, o'z qarindoshlari yoki boshqa shaxslar onani o'z chaqalog'ini o'ldirishga og'dirishi;
- ota-onasining salbiy munosabatidan xavfsirashi;
- jinoiy homila tushirish bilan shug'ullanuvchi shaxslarning og'dirishi;
- homiladorlikning oldini olish, homilani davolash muassasalarida tushirish imkoniyatiga doir maxsus tibbiy bilimlarning yo'qligi;
- so'qqabosh ona bolani tarbiyalashda moddiy va ma'naviy qiyinchiliklarga duch kelishini tushunish, homilador ayollar va so'qqabosh onalarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatilishi haqida zarur huquqiy bilimlarning yo'qligi va h.k.

Yangi tuqqan ayollarning ruhiy-jismoniy xususiyatlarini aniqlash onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishiga imkoniyat yaratuvchi omillarni aniqlash, ob'ektiv jazo chorasini tanlash, bu salbiy hodisalarning oldini olish yoki ularning oqibatlarini engillashtirish choralarini ko'rishga yordam beradi. Mamlakatda onalik va bolalikni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish ham farzandkushlikning oldini olishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylanishi lozim. Zotan, inson tug'iladigan va tarbiyalanadigan oila muammosi jamiyatda hal qilinadigan muhim muammolardan biridir. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan asrning yigirmanchi yillariga taqqoslaganda farzandkushlik holatlari soni uch baravar ko'paygan<sup>1</sup>. Rossiya statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1995 yilda 143 onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirish holati aniqlangan, odam o'ldirish sodir etgan har yigirma ayolning biri o'zining yangi tug'ilgan chaqalog'ini o'ldirishda ayblangan<sup>2</sup>.

Garchi onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishi imtiyozli jinoyat tarkibi hisoblansa-da, u xavflilik jihatidan boshqa odam o'ldirish jinoyatlaridan qolishmaydi. Yu.M. Antonyan juda to'g'ri ta'kidlaganidek, «onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishidan qo'polroq tabiat «qonunlari»ni buzishni

<sup>1</sup> Криминология. Учебник под ред. Кудрявцева В.Н., Еминова Е.М. – М.: Юрист, 1997. – С.301.

<sup>2</sup> Криминология. Учебник юрид. вузов. Под ред. А.И.Долговой. – М.: Инфра-Норма, 1997. – С.670.

tasavvur qilish mumkin emas»<sup>3</sup>, shu bilan birga barcha odamlar qatori yashash huquqiga ega bo'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqdan o'zroq va himoyasizroq jabrlanuvchi ham yo'q.

### 13.3. Oilaga qarshi jinoyatlar

Ko'pgina xalqaro hujjatlarda<sup>4</sup> mustahkamlangan qoidalarga ko'ra, oila, onalik, bolalik jamiyat va davlat tomonidan himoyalaniş huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi ham bu konvensiyalarga qo'shilib, mazkur qoidalarni o'z qonunchiligiga joriy etgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 63-moddasiga binoan: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega». Asosiy qonunimizning 65-moddasida onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi qayd etilgan. Xullas, oilani muhofaza qilish, bolalar va o'smirlar hayotini saqlash, ularning jismoniy rivojlanishi va shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish davlat va butun jamiyat ishidir.

Oila va bolalikni davlat tomonidan muhofaza qilish:

1) oila a'zolarining huquqlari va burchlarini normativ yo'l bilan tartibga solishni (O'zR Oila kodeksining 2, 4, 5-bo'limlari);

2) davlat bu huquqlar va burchlarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishini;

3) inson ijtimoiylashuvining muhim sohasi bo'lgan oilaga tajovuz qilganlik uchun javobgarlikni ta'minlashni<sup>1</sup> nazarda tutadi.

Ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar asosan davlat Konstitusiyasi va qonunlarida mustahkamlangan axloqiy normalar bilan tartibga solinadi. «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar», deyilgan O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonunida (64-modda). Bu ularning huquqi va burchidir (O'zR Oila kodeksining 73-moddasi), ayni vaqtda, «Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar» (O'zR Konstitusiyasining 66-moddasi).

Ammo bu burchlar doim ham bajarilavermaydi. Qonun chiqaruvchi mazkur sohaning muhimligini hisobga olib, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlarni O'zR JK Maxsus qismining alohida 5-bobida jamlagan.

<sup>3</sup> Алтонян Ю.М. Преступность среди женщин. - М.: Право, 1992. - С.35.

<sup>4</sup> Inson Huquqlari umumiy deklarasiyasi (16-modda); Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy Huquqlar to'g'risidagi xalqaro bitim (10, 11-moddalar); Fuqarolik Huquqlari va siyosiy Huquqlar to'g'risidagi xalqaro bitim (23, 24-moddalar).

<sup>1</sup> Криминология. Учебник под ред. Бурлакова В.Н., Сальникова В.П. - СПб, 1998. - С.506.

Kriminologik ma'noda oilaga qarshi jinoyatlar deganda oilaning har qanday a'zosi shaxsi, huquq va manfaatlariga tajovuz qiluvchi har qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar tushuniladi. Xullas, kriminologik ta'rif ancha keng bo'lib, oila a'zolariga qarshi sodir etiladigan har qanday jinoyatlarni qamrab oladi. Quyida O'zR JK Maxsus qismining 5-bobida nazarda tutilgan jinoyatlarnigina ko'rib chiqamiz.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarning ob'ektiv tomonini tahlil qilishda aniqlanadigan farqlarga ko'ra ularni bir necha kichik guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) oilaviy va tarbiyaviy majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlash;
- 2) voyaga etmagan shaxsning huquqlari va manfaatlariga daxl etuvchi harakatlar;
- 3) axloqqa hamda oilaviy munosabatlarning normal tartibiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar;
- 4) voyaga etmaganlarni g'ayriijtimoiy faoliyatga jalb qilish;
- 5) 16 yoshga to'lmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi harakatlar.

Oilaviy va tarbiyaviy majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlash shaxsni unga o'z qaramog'idagilar haqida g'amxo'rlik qilish vazifalarini yuklovchi huquqiy qoidalarga nisbatan befarq hamda mas'uliyatsiz kishi odam sifatida tavsiflaydi. Bunday qilmishlar jumlasiga voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (O'zR JKning 122-moddasi), ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (O'zR JKning 123-moddasi) kiradi.

O'zR Oila kodeksining 96-100-moddalarida ota-onaning voyaga etmagan bolalariga ta'minot berish majburiyati mustahkamlangan. Bunda qonunda ota-onaning voyaga etmagan bolalariga to'laydigan aliment miqdori belgilangan bo'ladi. M.G. Masevich bu xususda shunday deb yozadi: «Ota-onaning voyaga etmagan bolalariga to'laydigan aliment miqdorini belgilashdan maqsad nafaqat bolaning muhim ehtiyojlarini qondirish, balki imkoniyatga qarab u ota-onasining normal o'zaro munosabatlari sharoitida ega bo'lishi mumkin bo'lgan turmush darajasini saqlashdan iborat».<sup>1</sup>

Voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart (O'zR Oila kodeksining 109-moddasi).

Moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni

<sup>1</sup> Масевич М.Г. Появление права в укреплении семьи в социалистич. обществе. – Алма-ата, 1997. – С.29.

moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib uch oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik, xuddi shuningdek voyaga etgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashi, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib uch oydan ortiq muddat mobaynida to'lamasligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi (O'zR JKning 122 va 123-moddalari). Bunda bo'yin tovlash usuli (to'g'ridan-to'g'ri bosh tortish, yashash yoki ish joyini o'zgartirish, olgan maoshining haqiqiy miqdorini yashirish va h.k.) jinoyat kvalifikatsiyasi uchun ahamiyatga ega emas.

Bolalar yoki ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashda har xil shart-sharoitlar hisobga olinadi. Masalan, mehnatga layoqatsiz ota-ona nafaqat voyaga etmagan bolalariga, balki voyaga etgan mehnatga layoqatsiz muhtoj bolalariga ham aliment to'lashi shart (masalan, o'z pensiyasidan).

Mehnatga layoqatsiz voyaga etmagan bola mehnatga layoqatsiz ota-onasiga aliment to'lashga majbur emas. Bundan tashqari, sud ota-onalik burchini bajarishdan bo'yin tovlaganligini aniqlagan bo'lsa, bolalar ota-onasini moddiy ta'minlash majburiyatidan ozod qilinishi mumkin.

Voyaga etmagan shaxsning huquqlari va manfaatlariga daxl etuvchi harakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda qasddan bolani almashtirib qo'yish (O'zR JKning 124-moddasi);
- farzandlikka olish sirini oshkor etish (O'zR JKning 125-moddasi).

Ob'ektiv tomoni bolani almashtirib qo'yish, ya'ni bir yangi tug'ilgan yoki emizikli chaqaloqni (o'g'il bolani qiz bolaga, kasal bolani sog'lom bolaga va h.k.) almashtirib qo'yish bolaning, shuningdek uning ota-onasining huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxl etadi. Agar mazkur jinoyat tamagirlik yoki boshqa past niyatlar (qasos, hasad, xusumat, dushmanlik va sh.k.)da qasddan sodir etilgan bo'lsa, shaxs O'zR JKning 124-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bundan tashqari, bunday qilmishlar sodir etgan shaxslar shafqatsizlik, axloqiy prinsiplarga ega emaslik, shaxsga va oilaga hurmatsizlik bilan tavsiflanadi.

U yoki bu sabablarga ko'ra ota-onadan mahrum bo'lgan voyaga etmaganlar farzandlikka olinishi mumkin. Bunda farzandlikka olingan bola bilan uni farzandlikka olgan shaxslar o'rtasida ota-ona va bola

munosabatlari yuzaga keladi. Davlat ota-onasiz bolalarni farzandlikka olgan odamlarga imtiyozlar beradi.

Ota-ona (bolani farzandlikka olgan shaxslar)ning manfaatlarini himoya qilish maqsadida, shuningdek bola axloqiy jihatdan normal rivojlanishi uchun O'zR Oila kodeksida farzandlikka olishni sir saqlash majburiyati belgilangan (153-modda). Farzandlikka oluvchilarning yoki vasiylik va homiylik organining erkiga qarshi, etim yoki ota-ona g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka olishning qonun bilan qo'riqlanadigan sirini oshkor qilgan shaxslar O'zR JKning 125-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi.

O'zR JKning 126-moddasida axloqqa hamda oilaviy munosabatlarining normal tartibiga tajovuz qiluvchi jinoyat – ko'p xotinli bo'lish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. O'zR oila qonunchiligi zamirida bir kishi bilan nikohda bo'lish prinsipi yotadi. Ikki yoki ko'p xotinlilik uchun qonunda jinoiy javobgarlik belgilangan. Bunda jinoyatlar umumiy xo'jalik yuritish negizida ikki yoki undan ortiq ayol bilan er-xotin bo'lib yashashda ifodalanadi.

Voyaga etmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish ham ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. O'zR JKning 127-moddasiga binoan, voyaga etmagan shaxsni:

a) tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol qilishga;

b) giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol qilishga;

v) jinoyat qilishga jalb etish voyaga etmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish deb topiladi.

Nihoyat, oilaga qarshi jinoyatlarning oxirgi guruhiga 16 yoshga to'lmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi harakatlar kiradi. Bular: 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (O'zR JKning 128-moddasi); 16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish (O'zR JKning 129-moddasi).

Bundan tashqari, oilaga qarshi jinoyatlar qatoriga O'zR JK Maxsus qismining 5-bobidan o'rin olmagan boshqa jinoyatlar, masalan, voyaga etmaganlarning hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlar ham kiradi.

Shunday qilib, oilada, oilaga qarshi, uning voyaga etmagan a'zolariga qarshi har xil jinoyatlar sodir etiladi. Quyida mazkur salbiy hodisalarga barham berish yoki ularning oqibatlarini engillashtirish uchun qanday choralar ko'rish lozimligi haqida so'z yuritamiz.

### 13.4. Oiladagi jinoyatlarning oldini olish

Oilada, oilaga qarshi sodir etiladigan jinoyatlarning nazariy negizini oila kriminologiyasi ishlab chiqadigan oilani kriminologik tuzatish konsepsiyasi tashkil etadi. U jinoiy xulq-atvor sabablariga qarshi oila imkoniyatlaridan foydalanish chora-tadbirlari tizimini nazarda tutadi<sup>1</sup>.

Oilaviy munosabatlarga kriminologik tuzatish kiritish umumiy (profilaktik) choralar tizimidan iborat, chunki oilaga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan nafaqat oiladagi jinoyatlarning, balki boshqa barcha jinoiy qilmishlarning ham oldini olish mumkin.

Shaxsda jinoyatga moyillik tuyg'usi ko'pincha oilada shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois oiladagi jinoyatlarning oldini olish borasidagi maxsus choralar haqida gapirishdan oldin quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini qayd etish lozim:

- oila a'zolariga oilaning salbiy ta'siriga barham berish uchun shart-sharoit yaratish;
- muayyan nizolarni hal qilish;
- oilaning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanish;
- oila institutidagi qarama-qarshiliklarga chek qo'yish.

Bu chora-tadbirlar jinoyatchilikning umumiy darajasi pasayishiga imkoniyat yaratadi. Oiladagi jinoyatlarning oldini olish choralarini bir necha guruhga ajratish mumkin:

1) Oiladagi kriminogen ta'sir o'choqlarini aniqlash choralari. Bu guruhga beqaror oilalarni, ilgari sudlanganlar hamda huquqbuzarlar yashaydigan oilalarni, oilalardagi salbiy ta'sir manbalarini, janjal chiqqan oilalarni, bolalarning nazoratsizlik holatlarini aniqlash choralari kiradi. Bu choralar oilaviy barqarorlik, ilgari sudlanganlarning oilaviy holati, maktabda darslarga qatnamayotgan bolalar haqidagi ma'lumotlar yig'ish va umumlashtirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

2) Beqaror oilalarni hisobga olish va ularni muntazam nazorat qilishni ta'minlovchi choralar. Bunday oilalar har bir tumanda yagona organda to'planishi, ushbu axborot beqaror oilalarga yordam ko'rsatishga qodir organlarga yuborilishi, zarur choralar ko'rilishi ustidan nazorat olib borish lozim.

3) Oilani qo'llab-quvvatlash choralari. Oilaviy hayotni rag'batlantirish, oilalarga moddiy va turar joy muammolarini echishda ko'maklashish, oilali shaxslarni ish bilan ta'minlash masalalarini hal qilish kerak. Bu

<sup>1</sup> Криминология. Учебник под ред. В.Н.Бурлакова, В.П.Сальникова. – СПб., 1998. – С.203-204.



maqsadga erishish uchun sog'lom oila turmush tarzini targ'ib qilish, bolali muhtoj oilalarga nafaqalar tayinlash lozim.

Prezident Islom Karimov aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazishni islohotlarning ilk bosqichida faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etganligi bejiz emas<sup>1</sup>. Bunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan bo'lishi kerakligi ta'kidlandi<sup>2</sup>. Ijtimoiy mavjudlikning yangi tizimidan asosan bolalar va kam ta'minlangan oilalar foydalanadi. 1994 yilning oktyabridan davlat kam daromadli oilalarga faol yordam bera boshladi – farmonga binoan ayni mana shunday oilalarga moddiy yordam joriy etildi. Davlat byudjetining sosial soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy xarajatlari 2006 yilda 51 foizni tashkil etganligi<sup>1</sup> ham so'zimizning yaqqol dalilidir.

Bola boquvchi onalarga nafaqa to'lanadi. Bunda to'lanayotgan nafaqaning miqdori ko'paytirilishidan tashqari, uning muddati ham uzaytirildi. Mazkur nafaqa ilgari bir yarim yilgacha to'langan bo'lsa, endi bu muddat ikki yilgacha uzaytirildi. Ishlovchi onalar ham, ishlamaydigan onalar ham bu nafaqadan bahramand bo'lmoqdalar. Onalarga nisbatan ijtimoiy adolat tiklandi va bu narsa ko'pgina oilalar uchun muhim madad bo'ldi. O'n olti yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga yagona nafaqa joriy etilib, bolalarga ilgari berib kelingan hamma nafaqa va imtiyozlar bekor qilindi. Bolalarga beriladigan to'lovlar tizimi takomillashtirildi<sup>2</sup>.

Yoshlarni ijtimoiy himoyalashning boshqa shakllari – ovqat narxining bir qismini qoplaydigan qo'shimcha to'lovlar, maktab oshxonalari va tamaddi xonalari qo'shimcha xarajatlarining bir qismini byudjet mablag'lari hisobidan qoplash, xususiy xonadonlarda yashayotganlar uchun qo'shimcha to'lovlar, jamoat transportida arzon haq to'lab yurish va boshqa engilliklar joriy etildi. Milliy an'analarni nazarda tutib, birinchi bor nikohdan o'tayotgan kelin-kuyovlar uchun mebel va gilam mahsulotlari sotib olishning imtiyozli tartibi belgilandi.

Shunday qilib, bunday choralar oilani qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'rilishi lozim. Bu oilada ziddiyatlarni yumshatishga yordam beradi va natijada mazkur sohada jinoyatlar soni kamayishiga imkoniyat yaratiladi.

<sup>1</sup> Каримов И.А. О'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –Т. 1995. – 118-б.

<sup>2</sup> O'sha erda. – 122-6.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – usutvor vazifamizdir. T.: O'zbekiston, 2007. – B.40.

<sup>2</sup> O'sha erda. – B.124.

4) Bolalar nazoratsizligining oldini olish chora-tadbirlari. Oilada bolalar tarbiyasiga ko'proq e'tibor berish, ular nima bilan shug'ullanayotganligini nazorat qilish, ota-ona va bolalar o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatish lozim.

5) Oilaviy dam olish jabhasini rivojlantirish choralari. Oilaviy dam olishni tashkil etishning har xil shakllarini rivojlantirish: dam olish uylari, madaniyat saroylari, sport maktablari, madaniyat va istirohat bog'lari ishini tiklash kerak.

6) Oiladagi munosabatlarga psixologik tuzatish kiritish choralari. Oiladagi munosabatlarni sog'lomlashtirishga, oila a'zolari o'rtasidagi muammolarni bartaraf etishga ko'maklashuvchi maxsus xizmatlar tashkil etish lozim.

7) Oilaga kriminologik ta'sir ko'rsatish choralari muttasil takomillashtirish choralari – respublika va mahalliy darajalarda oilani muhofaza qilish va barqarorlashtirish, unga har xil madad ko'rsatishni ta'minlash yuzasidan tavsiyalar berishdan iborat. Buning uchun oilaga ijobiy ta'sir ko'rsatish yuzasidan takliflarni umumlashtirish, tahlil qilish va tizimga solish, har bir tumanda oilaga va yosh avlodga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun mutaxassislarning keng doirasi (psixologlar, pedagoglar va h.k.)dan tashkil topgan maxsus maslahat komissiyalari tuzish lozim.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish turli organlar: ichki ishlar boshqarma va bo'limlari, ijtimoiy ta'minot bo'limlari, aholini ish bilan ta'minlash organlari, turar joy-kommunal xizmat muassasalari, Ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligining bo'limlari va boshqarmalari, voyaga etmaganlar bilan ishlovchi komissiyalar va hokozolar zimmasiga yuklanishi mumkin.

Negizini mahallalarning fuqarolar yig'inlari tashkil etuvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham oila jabhasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oiladagi jinoyatlarning oldini olish maqsadida davlat miqyosida «Oilani rejalashtirish», «Onalik va bolalikni muhofaza qilish», «Tarbiyasi og'ir o'smir», «Otarlar va bolalar» kabi maqsadli dasturlar qabul qilish mumkin. Bu dasturlarga oila siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiruvchi eng muhim qoidalar, chunonchi:

- oilani qadriyat sifatida barqaror etish;
- oila hayot faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- oilalarga maxsus yordam ko'rsatish tizimlarini tashkil etish;
- oilani rejalashtirish dasturlarini amalga oshirish;

- onalik va bolalikni ijtimoiy va tibbiy himoya qilish;
- oila a'zolari o'rtasida yaxshi aloqalar o'rnatilishiga ko'maklashish;
- oilada zo'rlik ishlatilishining oldini olish kiritilishi lozim.

Turmush shart-sharoitlarini hisobga olib, oila to'g'risidagi qonun hujjatlarini rivojlantirish kerak.

Nihoyat, oiladagi jinoyatlarning oldini olish maqsadida bolalarga bog'cha yoshidan boshlab oilada zo'rlik ishlatishga qarshi psixologik immunitetni singdirish, kattayu kichikka hurmat ruhida tarbiyalash, asab buzarlik vaziyatlarida o'z hissiyotlarini nazorat qilishni o'rgatish lozim.

## **14-mavzu. TAMAGIRLIK NIYATIDA ZO'RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA ULARNING OLDINI OLIH**

Kriminologiya fani jinoyatchilik shakllari va uning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqalarini teran tahlil qilish, jinoyatchilik sabablari va omillarini aniqlash, odamlarning ijtimoiy borlig'i, iqtisodiyot va mafkuradagi o'zgarishlarga qarab jinoyatlarning xususiyati, holati va dinamikasini tavsiflash imkonini beradi. Shu ma'noda I. Karpes kriminologiyani «ogohlantiruvchi fan» deb nomlaganida, to'la haqli edi<sup>1</sup>.

Mustaqil davlatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida kriminologik tadqiqotlarning natijalariga tayanmasdan, kriminologik vaziyat qonuniyatlari va tendensiyalarini chuqur bilmasdan jinoyat-huquqiy, prosessual, kriminalistik va penitensiar muammolarni samarali echish mumkin emas.

Ayni vaqtda, ba'zi bir olimlar fikr-mulohazasi yaqin vaqtlargacha o'tmish andozalardan xoli bo'lmaganligini qayd etib o'tish lozim. Masalan, kriminologiya kursining birinchi jildida: "...sotsialistik jamiyatda undan oldingi tuzumlarga xos jinoyatchilikning eng xavfli shakllari, gangsterizm, reketga o'rin yo'q; jinoyatchilar dunyosi davlat apparati bilan birikmaydi; jinoyatchilik orqasidan boylik orttiruvchi va undan manfaatdor bo'lgan aholi tabaqalari mavjud emas; hokimiyatga jinoiy yo'llar bilan kelishga harakat qiluvchi siyosatchilar yo'q"<sup>2</sup>, deb aytilgan. Jinoyatchilik sotsialistik tuzum tabiatiga yot, deb yozish odat tusini olgan.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Карпец И.И. Пределы криминологических исследований // Социалистическая законность. 1968. №9. - С.14.

<sup>2</sup> Курс советской криминологии. - М.: Юр. лит-ра. 1985. Т.1. - С.145.

<sup>3</sup> Номоконов В.А. Преступное поведение: детерминизм и ответственность. - Владивосток: Изд-во Дальневосточного университета. 1989. - С.81.

Tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni kriminologik tavsiflashda birlashtirilgan ma'lumotlar bu jinoyatlarning muhim belgi va xossalarini, ularning oldini olish nuqtai nazaridan muhim omillarni to'liq aks ettirishi lozimligini e'tiborga olish lozim<sup>4</sup>.

Jinoyatchilikning umumiy tarkibida tahlil qilinayotgan jinoyatlar ulushi uncha katta emas (1995 yilda ular ro'yxatga olingan jinoyatlar umumiy sonining 6% dan ko'prog'ini tashkil etdi). Masalan, tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish uchun hukm qilingan shaxslar soni 1992 yilga nisbatan 1993 yilda 34,5% ga, bosqinchilik uchun hukm qilinganlar soni – 85,7% ga, tovlamachilik uchun hukm qilinganlar soni – 65% ga, zo'rlik ishlatish yo'li bilan sodir etilgan talonchilik uchun – 84,8% ga ko'paygan. Ayni vaqtda, 1995 yilda sudlanganlik ko'rsatkichlarining ma'lum darajada pasayishi yuz bergan. Tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar asosan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar toifasiga mansub bo'lib, ularning 2005-2007 yildagi ko'rsatkichlari quyidagicha: og'ir jinoyatlar 2005 yilda 11618 tani hamda 2006 yilda 11224 tani, o'ta og'ir jinoyatlar esa, 2005 yilda 6275 tani hamda 2006 yilda 6304 tani tashkil etdi.

Tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar asosan katta shaharlarda sodir etiladi<sup>1</sup>. Toshkentda mazkur jinoyatlar uchun 1991 yilda hukm qilinganlar soni 6,8% ni, 1992 yilda – 6,9% ni, 1993 yilda – 7,1% ni, 1994 yilda – 7,6% ni tashkil etgan. Shu bilan birga, Toshkent shahrida 2005 yilda 212 ta hamda 2006 yilda 201 ta qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etilganligi ham fikrimizni yana bir bora tasdiqlaydi. Mazkur ko'rsatkich boshqa viloyatlarga qaraganda 4 baravardan (Qashqadaryo, Andijon) 10 baravargacha (Sirdaryo) yuqoriroqdir. Mazkur jinoyat uchun hukm qilinganlar umumiy sonining etti foizdan ko'prog'i Samarqand, Nukus, Navoiy va Farg'ona shaharlarida javobgarlikka tortilgan.

<sup>4</sup> Ястребов Б.В. К вопросу о понятии криминологической характеристики преступлений // Вопросы борьбы с преступностью. Вып. 37. – М., 1982. – 16-б.; Степичев С.С., Моисеенко Г.З. Что показало криминологическое изучение грабежей и разбоев // Вопросы криминалистики и криминологии. Изд-во Таджикского университета, 1968. – С.25.

<sup>1</sup> Габияни А.А., Гаччиладзе Р.Г. Некоторые вопросы географии преступности. - Тбилиси: Изд-во ТГУ, 1982. – С.109.

**Quyidagi jadvalda jinoly qilmishlar sodir etilgan joylar keltirilgan:**

Tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etilgan joy	Bosqin-chilik	Tovlamachilik	Zo'rlik ishlatib sodir etilgan talonchilik	Tamagirlik niyatida odam o'ldirish
Shahar	83,0	82,5	91,5	86,5
Ishchilar shaharchasi	9,0	10,5	5,0	9,0
Qishloq	8,0	7,0	4,0	4,0
Aholi yashaydigan joydan tashqarida	-	-	0,5	0,5
<b>Jami</b>	<b>100%</b>	<b>100%</b>	<b>100%</b>	<b>100%</b>

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1996 yilda O'zbekiston aholisi 23 mln. kishini tashkil etgan. Jami aholining 40% dan ko'prog'i shaharlarda, 60% ga yaqini qishloqda yashaydi.<sup>1</sup> Tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etgan o'smirlar masalasiga kelsak, ularning 87% shaharlarda yashagan. Bunda tahlil qilinayotgan jinoyatlar uchun hukm qilingan voyaga etmagan shaharliklarning aksariyatini viloyat markazida yashovchi o'smirlar tashkil etgan. Hukm qilingan qishloqlik o'smirlarning eng katta ulushini shaharlar va tuman markazlari yaqinida joylashgan qishloqlar va shaharchalarda yashovchilar tashkil qilgan.

Qishloqda tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning kamligi, bizning nazarimizda, o'smirlar va yoshlar bu erda ota-onasi, qarindoshlari va tanishlarining doimiy nazorati ostida bo'lishi bilan izohlanadi. Bu erda maktab bilan ota-onalar ham yaqinroq aloqa qiladi, ko'rsatib o'tilgan omillar jinoyatlarning oldini olish, ularni ilk alomatlarini namoyon bo'lgan zahoti to'xtatish imkonini beradi. Boz ustiga, qishloqda begona shaxslar kam, hamma bir-birini taniydi, bu esa o'g'irlangan molni yashirish va sotishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi statistik ma'lumotlarining tahlili ko'rsatib o'tilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar ko'proq Buxoro, Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida sodir etilishini ko'rsatdi. Bu viloyatlarda tuman va viloyat sudlarida har yili 30-50 jinoyat ishi ko'riladi.

O'zganing shaxsiy buyumlarini egallash maqsadida bosqinchilik, o'zganing mulkini talonchilik yo'li bilan zo'rlik ishlatib egallash kabi,

<sup>1</sup> Комидова Ф. Демографический потенциал Узбекистана. - Т.: Узбекистан, 1991. - 16-б.

ko'chada sodir etiladi: mazkur jinoyatlarning 83% shaharlar va shaharchalarning ko'chalarida sodir etilgan. Kriminologik tadqiqotlar zo'rlik ishlatish yo'li bilan talonchilik hamda bosqinchilik jinoyatlari asosan jamoat joylarida, chunonchi: ko'chada – 39,5%, korxonalar hududida – 5%, davlat, jamoat, kooperativ, har xil tadbirkorlik tashkilot va muassasalarida – 19%, avtostansiya, bekat va aeroportlarda – 3,9%, xiyobon va bog'larda – 8%, bozorlarda – 2,5%, uylar, oilaviy, yoshlar va ishchilarning umumiy yotoqxonalarida – 18%, boshqa joylar (kafe, restoranlar, poezd vagonlari, barlar, garajlar, hojatxonalar)da – 4,1% sodir etilishini ko'rsatadi.

Yo'llarda taksi haydovchilari va avtotransport egalarini talash va ularga nisbatan bosqinchilik hujumlari uyushtirish, fuqarolarga ularning turar joyiga kirib hujum qilish ham keng tarqalgan.

Talonchilik, bosqinchilik hamda tamagirlik niyatida odam o'ldirish xususiy shaxs tomonidan oson pullanadigan va iste'moi qilinadigan joylarda ko'p sodir etiladi. Jami hollarning 49% da tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatish jinoyatchi yashaydigan erda, 51% – boshqa aholi yashaydigan joyda, shulardan 7% – qo'shni davlatlar: Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Rossiya Federasiyasida sodir etilgan. Binobarin, jinoyatchilar o'zlarini tanib qolishlaridan qo'rqib, boshqa davlatda jinoyat sodir etgan. Bosqinchilik hujumlari, talonchilik ko'proq qishda sodir etiladi – 29%; bahorda, yozda va kuzda bu jinoyatlar ulushi tegishli ravishda 26%, 24% va 21% ni tashkil etadi. Mazkur jinoyatlar ko'proq qishda sodir etilishi qulay shart-sharoit mavjudligi bilan izohlansa kerak: qishda qorovullar sovuqdan qochib, postni tashlab ketadi yoki qorovulxonada elektr isitgichni yoqib o'tiradi va h.k. Qishda fuqarolar ancha qimmat turadigan issiq kiyimlar (mo'yna telpak, po'stin, issiq palto, etik va sh.k.) kiyadi.

Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatish hollarining 13% soat 00 dan 09 gacha, 10% – soat 09 dan 15 gacha, 21% – soat 15 dan 19 gacha, 30% – soat 19 dan 22 gacha, 27% – soat 22 dan 24 gacha sodir etilgan. Xulosa qilib aytganda, ko'rsatib o'tilgan jinoyatlarning aksariyati (69%) kechqurun va tunda, ko'pincha soat 18.00 dan 24.00 gacha sodir etiladi.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, jami holatlarning 59% da ruhiy zo'rlik, ya'ni zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, 38% da – jismoniy zo'rlik ishlatilgan va faqat 3% da jinoyatchi jabrlanuvchining mulkini aldov yo'li bilan, jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatmasdan egallagan. Bu jinoyatlarning har ikkitasidan birida jinoyatchilar og'zaki do'q-po'pisani

o'qotar, sovuq qurol yoki qurol o'rnida ishlatilgan boshqa narsani ko'rsatish yo'li bilan mustahkamlagan.

Jinoyatchilar ishlatgan jismoniy zo'rlik xususiyati har xil: qo'l bilan urish, tepkilash, bolta, pichoq, temir zanjir va boshqa narsalar bilan zarba berish, o'qotar qurol ishlatish va h.k. Aksariyat hollarda jismoniy zo'rlik qo'rqitish jinoyatchilarga istalgan natijani bermaganidan keyin ishlatilgan.

Jazoga hukm qilinganlarning 59% zo'rlik ishlatish harakatlarini bir usulda amalga oshirgan (bo'g'ziga pichoq tiragan, jabrlanuvchiga boshqa chorasi yo'qligini anglatishga harakat qilgan, agar tushunmasa, qurol ishlatgan, bo'yniga sirtmoq solgan, orqadan kelib boshiga zarba bergan, oyog'idan osib qo'ygan, erto'laga, muzlatgichga qamab qo'ygan), 33% har xil (jabrlanuvchining o'zini tutishiga qarab) ish ko'rgan va faqat 8% «ixtisoslashgan», ya'ni santexnik, tele-, radio-, audio-, video yoki telefon ustasi, turar joy shirkatlari uyushmasi xodimi niqobida turar joyga kirgan. Tadqiqotlar har yuz holatdan etmishtasida jinoyatchilar turar joyga pochta xizmati, sug'urta idorasi, maishiy xizmat ko'rsatish, milisiya xodimi yoki shifokor niqobida, yigirma oltitasida – tanish yohud qarindoshlar niqobida yoki ularning nomidan, qolgan hollarda – zo'rlik ishlatib, eshik yoki derazani buzish yo'li bilan kirganligidan dalolat beradi<sup>1</sup>.

Zo'rlik ishlatib talonchilik, bosqinchilik va tovlamachilik sodir etishda jinoyatchilar ko'pincha o'z do'q-po'pisalarini amalga oshirganlar. Masalan, har bir o'n bir holatning birida jabrlanuvchiga odatda hayot uchun xavfli og'ir shikast, deyarli har olti holatdan birida – o'rtacha og'ir va engil shikast etkazilgan. Aksariyat hollarda (89%) jismoniy zo'rlik mulk egasi bo'lgan jabrlanuvchiga va har yuz holatdan o'n bittasida mulk egasi bo'lmagan shaxslarga, ruhiy zo'rlik esa – nafaqat mulk egasiga, balki uning yaqinlari: ota-onasi, buvasi, buvisi, xotini, eri, bolalariga (29%) nisbatan ishlatilgan.

Jinoiy jazoga loyiq qilmishlar predmetini chet el valyutasi, pul, qimmatli qog'oz, avtomashina, audio va videoapparatura, magnitofonlar, shuningdek mo'yna, telpak, gilam, po'stin, charm kamzul, zargarlik buyumlari, spirtli ichimlik va oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etgan. Har ikki jinoyatdan birida jinoyatchilar pullarni, har o'n jinoyatdan birida – valyutani, har uch jinoyatdan birida – billur idish va kiyim-kechaklarni egallaganlar. O'g'irlangan buyumlar orasida kumush, tilla sirg'a, uzuk va boshqa zargarlik buyumlar 31% ni, spirtli ichimliklar (kon'yak, brendi, viski, aroq, shampan vinosi, musallas) esa 9% ni tashkil etgan.

<sup>1</sup> Криминология. – М.: Юрист, 1995. – С.370-371.

Ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etishda olib qo'yilgan shaxsiy buyumlar qiymati ancha katta bo'lgan. Ko'p miqdorda sodir etilgan tamagirlik niyatidagi zo'rlik jinoyatlari 51,5% ni, juda ko'p miqdorda sodir etilgan shunday jinoyatlar – 15,5% ni tashkil qilgan.

Tadqiqotlar jinoyatchilar odatda jinoyatga oldindan tayyorlanmasligini ko'rsatadi – 74, 5%; barcha jinoyatlarning 25,5% dagina qurol, avtotransport oldindan qidirib topilgan, jinoyat sodir etish uchun ob'ektlar tanlangan, rejalar tuzilgan, vazifalar taqsimlangan va h.k. Mahkumlarning 36% o'z harakatlarini yashirin tarzda boshlagan, ya'ni ular o'g'rilik yo'li bilan o'zganing mulkini egallashga harakat qilgan, harakatlari oshkor bo'lganidan keyingina bosqinchilik hujumiga yoki zo'rlik ishlatib talonchilik qilishga kirishgan. Jinoyatchilarning 9% ga yaqini qurol yoki giyohvandlik vositalarini egallash maqsadida jinoyat sodir etgan. Har yuz jinoyatdan etmish to'qqiztasida o'qotar qurol, yigirma bittasida – sovuq qurol yoki boshqa narsalar qurol sifatida ishlatilgan.

Tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatish asosan odamlar ko'z o'ngida sodir etiladi. Biroq, tadqiqotlarda «Jinoyat sodir etishingizga chetdan biror odam to'sqinlik qilish niyatida aralashganmi?», degan savolga so'ralganlarning faqat 5% “ha” deb, 95% – “yo'q” deb javob bergan.

1993 yilda o'tkazilgan tadqiqotlar jinoyatchi talonchilik, bosqinchilik va tovlamachilik kabi jinoyatlarni odamlar ko'z o'ngida sodir etishda ularning bir qismi “och qonim – tinch qulog'im” mataliga amal qilib, ijtimoiy xavfli tajovuzni to'xtatish bo'yicha faol choralar ko'rmasligiga umid qiladi. Ko'pgina mahkumlar agar fuqarolar ularning harakatlarini to'xtatishga harakat qilganlarida, jinoyatni sodir etishning iloji bo'lmas edi, deb qayd etganlar. O'z jismoniy holatiga ko'ra ko'z o'ngida sodir etilayotgan jinoyatlarni to'xtatishga qodir bo'lgan fuqarolarning aralashmasligi o'zi jabrlanishdan qo'rqish, jabrlanuvchining taqdiriga befarqlik bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarning natijalari tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarning umumiy tarkibida so'nggi yillarda guruh bo'lib sodir etiladigan jinoyatlar ulushi ko'payib borayotganligidan dalolat beradi. Masalan, 1977 yilda guruhga qo'shilib jinoyat sodir etgan shaxslar mahkumlar umumiy sonining 60-70% ni tashkil etgan bo'lsa, 1994 yilda bu ko'rsatkich 80% ga etdi. Voyaga etmaganlar har yuz holatdan etmish oltitasida guruhga qo'shilib bosqinchilik, talonchilik, tovlamachilik sodir etgan.

Amaliyotni o'rganish muayyan shaxslarga nisbatan tovlamachilik cheksiz davom etishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Pirovardida qarama-



qarshi tarafilar o'zaro kelishib, jinoiy faoliyatni amalga oshirish vazifalarini o'rtada taqsimlaydi<sup>1</sup>.

Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, talonchilik jinoyatlarining 17%ga yaqini, bosqinchilik hujumlarining 19%i turar joyga kirib sodir etilgan. O'tkazilgan tadqiqot natijalari mamlakatimizda jazoni o'tagan shaxslar tomonidan zo'rlik ishlatib talonchilik qilish 24% ni, bosqinchilik qilish – 26%, tamagirlik niyatida odam o'ldirish – 26%, tovlamachilik – 27% ni tashkil etganligidan dalolat beradi.

1970-1975 yillarda axloq tuzatish-mehnat muassasalarida ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan mahkumlarni maxsus ro'yxatga olish natijalariga ko'ra talonchilar va bosqinchilar barcha residivistlarning 10% dan ko'prog'ini tashkil etgan<sup>2</sup> bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich O'zbekistonda 12,5% ni tashkil qiladi.

Jinoyatlar sodir etishda huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari va fuqarolar birgalikda ishtirok etganligi aniqlandi. Bunday holatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Farg'ona viloyatlari va boshqa viloyatlarda aniqlandi. Masalan, Qoraqalpog'istonda Qo'ng'iro't tuman IIB xodimlari I. va N. jinoyatchilar bilan til biriktirib harakat qilgan. Qoraqalpog'iston IIVning iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha xodimi A. ham jinoyat sodir etgan. Qoraqalpog'iston IIV jinoyat qidiruv boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari T. o'z ukalari va bir nechta tanishlari bilan birga uyushgan guruh tashkil qilgan va uning faoliyatida faol ishtirok etgan. Ular odam o'ldirgan, nomusga tegish, talonchilik kabi jinoyatlar bilan shug'ullangan, jabrlanuvchilarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lib, izlarni yashirishga harakat qilgan. Boshqa bir holatda Nukus shahar prokuraturasining prokuror yordamchisi S. ham uyushgan guruh tuzib tovlamachilik jinoyatlari sodir etishda faol ishtirok etgan.

Tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlardan jabrlanganlar asosan erkaklar bo'lgan – 87%, ayollar soni atigi 13% ni tashkil etgan. 40 dan ortiq shunday qilmishlar chet el fuqarolari: qo'shma korxonalarining xodimlari, tijoratchilar, turistlar va boshqa shaxslarga nisbatan sodir etilgan.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> M'ingboev U.K. Oliy sud: kecha va bugun. – T.: Kamalak, 1995. – B.65.

<sup>2</sup> Характеристика осужденных к лишению свободы. По материалам контрольной переписи осужденных. – М., 1975. – С.50-51.

<sup>1</sup> Асагов С.А., Федоров Ю.Д., Собиров К.А., Гулямов З.Х., Акрамходжаев Б.Т. Расследование преступлений с участием граждан иностранных государств. – Т.: Академия МВД, 1996. – С.45.

## Sudlanuvchiga bog'liqlik haqida quyidagi jadval dalolat beradi:

Sudlanuvchiga bog'liqlik	Bosqinchilik	Tovlamachilik	Zo'rlik ishlatib sodir etilgan talonchilik	Tamagirlik niyatida odam o'ldirish
Eri yoki xotini (jazmani) <sup>2</sup>	17,0	-	2,0	10,4
Boshqa qarindoshlari	18,1	27,7	3,0	9,5
Tanishlari, qo'shnilari va h.k.	42,3	39,4	49,5	37,9
Notanishlar	22,6	32,9	45,5	12,2
<b>Jami:</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

Ayblanuvchilarga tanish bo'lmagan jabrlanuvchilardan 42,2% bosqinchilik hujumi sodir etish paytida o'ldirilgan.

## Jabrlanuvchilar yoshi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:

Jabrlanuvchilar yoshi	Bosqinchilik	Tovlamachilik	Zo'rlik ishlatib sodir etilgan talonchilik	Tamagirlik niyatida odam o'ldirish
18 yoshgacha	7,0	4,0	8,0	-
18-30 yosh	16,2	11,7	24,5	23,6
31-40 yosh	32,3	29,2	36,4	28,1
41-50 yosh	34,5	35,0	22,1	21,5
50 yoshdan katta	10,0	20,1	9,0	27,8

Tahlil qilinayotgan jinoyatlar bo'yicha har uch jabrlanuvchidan biri mast holatda bo'lgan;<sup>1</sup> har o'n bir jabrlanuvchidan biri notanish odamlar

<sup>2</sup> Шестаков Д.А. Суицидальное убийство как общественная проблема. - СПб.: Изд-во С.-Петербургского университета, 1992. - С.14-15.

<sup>1</sup> Сердаров Х. Влияние поведения потерпевшего на совершение преступления. Автореф...дисс.канд юрид наук (на туркменском языке). - Ашгабат, 1993. - С.15; Викимнологические проблемы борьбы с преступностью. - Иркутск: Изд-во Иркутского уни-та, 1988. - С.134; Каракетов Ю.М., Усманалиев М. Криминологические меры борьбы с преступностью. - Т.: Узбекистан, 1995. - С.64.

bilan (ko'chada, barda, uyda, dala hovlisida) spirtli ichimliklar iste'mol qilib, jinoyatga muayyan darajada turtki bergan.

Voyaga etmaganlar ko'pincha kiyim-kechak va poyafzal (21,5%); motosikl va velosipedlar hamda ularga ehtiyot qismlar (33,4%); magnitofon, magnitola hamda radioapparatura (13,1%); audio va videoapparatura (7%); avtomobillar (2%); oziq-ovqat mahsulotlari (7%) o'g'irlydilar. Jinoiy tajovuz narsalari orasida spirtli ichimliklar 6% ni tashkil etadi.

So'nggi yillarda huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari ba'zan zo'rlik ishlatish yo'li bilan talonchilik, bosqinchilik, tovlamachilik qiluvchi va odam o'ldiruvchi uyushgan guruhlar va jinoyatchilarning uyushmalariga to'qnash kelmoqdalar<sup>2</sup>.

Uyushgan jinoyatchilik – bu uch darajadagi jinoiy tuzilmalar (jinoiy guruhlar, tashkilotlar va uyushmalar) tuzish hamda ularning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishi<sup>3</sup>. Birgalikda faoliyat olib borishning ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichlari, guruh ishtirokchilarining miqdor va sifat xususiyatlari, faoliyat yo'nalishi va doirasi, tarkibiy tuzilishi va aloqalarining murakkablik darajasiga qarab jinoiy guruhlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) umumjinoiy; 2) tamagirlik-xo'jalik; 3) aralash. Ishtirokchilari soniga ko'ra: 1) kichik (10 tagacha odam); 2) o'rtacha (11 tadan 20 tagacha odam); 3) katta (20 kishidan ortiq). Faoliyat doirasiga ko'ra: 1) mintaqalararo; 2) mahalliy. Tarkibiy tuzilishi (ierarxiyasi)ning murakkablik darajasiga ko'ra: 1) oddiy; 2) murakkab; 3) ko'p darajali. Aloqalarining tuzilishiga ko'ra: 1) to'liq; 2) aralash; 3) murakkab<sup>1</sup>.

Uyushgan jinoyatchilik – bu tamagirlik niyatida birgalikda jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda muayyan ijtimoiy sohada yoki hududda nazorat o'rnatishga erishish maqsadida uyushgan shaxslarning barqaror jinoiy birlashmasi. Bu erda yana masalaning quyidagi jihatlari ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Jinoiy uyushmalar o'z muhim ehtiyojlarini qondirganidan keyin oluvchi jinoiy daromad qonuniy tijoratga, yaxshi daromad keltiradigan qahvaxona, restoran, tungi klub va hokazolarga joylashtiriladi. Bu erda qonunlashti-

<sup>2</sup> Организованная преступность. Проблемы, дискуссии, предложения. – М.: 1989; Каракетов Ю.М. Неструдовые доходы и юридическая ответственность. – Т.: Узбекистан, 1989; "Телевал" экономика и организованная преступность // Вестник МГУ, серия "Право", 1990, №4.

<sup>3</sup> Лунеев В.В. Организованная преступность в России: осознание, истоки, тенденции // Государство и право, 1996, №4. – С.97.

<sup>1</sup> Кагтемиров В.Т. Криминологическая характеристика групп в сфере организованной преступности. Автореф. дисс... канд. юр. наук. – Волгоград, 1992. –С.16; Биков В.М. Преступная группа: криминологические проблемы. – Т.: Узбекистан, 1991. – С.24; Гуров А. Организованная преступность не миф, а реальность. – М.: Знание, 1992. – С.74.

rilgan jinoiy daromad davlat nazoratidan chetda qoladi. Aybdorlar esa, tergovda va sudda mazkur faoliyatni rad etadi va yashiradi<sup>2</sup>.

Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, bosqinchilik bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlarining 9,0% ijtimoiy xavflilik va barqarorlik darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. A.Gurov professional jinoyatchilikning to'rt asosiy belgisini qayd etadi:

- 1) jinoiy mashg'ulotning barqaror turi (ixtisoslashuv);
- 2) muayyan bilim va ko'nikmalar (malaka)ga egalik;
- 3) jinoyat tirikchilik manbai ekanligi;
- 4) ijtimoiy muhit bilan aloqasi<sup>3</sup>.

Bizning nazarimizda, A.A.Tayvakov professional jinoyatchilikni to'laroq tavsiflagan:

1. Jinoyatlar sodir etish tirikchilik uchun mablag'lar topishning asosiy usuli yoki asosiy usullaridan biri hisoblanadi (so'rovdan o'tkazilganlarning 78,0% shu holatni qayd etgan).

2. Professional jinoyatchilar tomonidan jinoyat sodir etish jinoyatga oldindan tayyorgarlik ko'rish, o'rganish, jinoiy kasb sirlarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi (bu omilning mavjudligini respondentlarning 80,0% ga yaqini qayd etgan).

3. Professional jinoyatchilar huquqqa xilof qilmishlar sodir etishni engillashtiruvchi maxsus, oldindan tayyorlangan va sinovdan o'tgan moslamalarga ega bo'ladi (so'rovdan o'tkazilgan jinoyatchilarning 75,0% bunday qurollarga ega bo'lgan).

4. Kriminal professionallarga jinoyat sodir etishning maxsus usul va vositalari xos (respondentlarning 91,0% ularni biladi va ulardan o'z "amaliyoti"da foydalanadi).

5. Professional jinoyatchi jinoiy faoliyatni o'zining hayotdagi maqsadi sifatida tanlaydi.

6. Professional jinoyatchilik vakillari o'rtasida aniq ierarxiyaviy tabaqalanish mavjud (so'ralganlarning 87,0% bu holatni qayd etgan).

7. Professional jinoyatchilar o'z jinoiy jargoniga ega (so'rovdan o'tkazilganlarning 95,0% ulardan xabardor).

8. Professional kriminalitet vakillari professional, korporativ belgilarga ko'ra birlashadi (respondentlarning 82,0% bu holatni qayd etgan).

<sup>2</sup> Козаченко И.Я. Признаки организованной преступности должны найти отражение в уголовном законодательстве // Совершенствование правоприменительной деятельности в условиях перестройки. - Омск, 1989. - С.70.

<sup>3</sup> Гуров А. Криминальный профессионализм // Человек и закон. 1990. №9. - С.76; Гуров А.И. Профессиональная преступность. - М.: Юридическая литература, 1990. - С.52.

9. Professional jinoyatchilikka an'analar, odatlar, jinoiy "folklor", jinoiy madaniyatning boshqa elementlari xos (so'rovdan o'tkazilganlarning 71,0% mazkur hodisalar bilan u yoki bu darajada tanish).

10. Professional jinoyatchilar o'z bilimlari va ko'nikmalarini, g'ayri-huquqiy qilmishlar sodir etish usullarini boshlovchi jinoyatchilarga o'rgatish, o'zlariga o'rinbosarlar tayyorlashga qodirlar (so'rovdan o'tkazilganlarning 50,0%ga yaqini o'ziga xos «jinoiyat maktabi»ni o'tagan).

11. Jinoiyatdan keyingi xulq-atvor qat'iy belgilangan andozalarining mavjudligi (so'ralganlarning 92,0% o'g'irlik molni sotishning yaxshi yo'lga qo'yilgan kanallariga ega, jinoiyat sodir etilgan joydan qochib yashirinishning sinashta yo'llarini biladi).

12. O'z kriminal kasbidan faxrlanish tuyg'usi hamda professional jinoyatchilar ruhiyatining boshqa shunga o'xshash elementlari (respondentlarning 45,0% o'z jinoiy kasbidan g'ururlanishini aytgan)<sup>1</sup>.

So'nggi yillarda uyushgan guruhlardan bo'lgan professional jinoyatchilar yirik talonchi va bosqinchilar bilan birlashishi xavfli kriminogen omilga aylanmoqda. Yirik talonchi va bosqinchilar o'g'irlik molni sotish, uni qo'riqlash, raqiblardan himoyalanih, ularga tazyiq o'tkazish uchun uyushgan jinoyatchilarga muhtoj bo'la boshladilar. Ayni vaqtda, talonchi va bosqinchilar jinoiy yo'l bilan topgan boyliklar uyushgan jinoiy guruhlar, avvalo ularning sardorlari e'tiborini tortmoqda<sup>2</sup>.

Endi ayollar jinoyatchiligi haqida. So'nggi 15 yilda sobiq SSSRda har yili 180-200 ming ayol huquqbuzarlik sodir etgan.<sup>1</sup> Ayollar jinoyatlarining tarkibi o'zgarimoqda. Ular azaldan ayollarga xos bo'lgan jinoyatlar – firibgarlik, mayda o'g'irlikdan erkaklarga xos bo'lgan jinoyatlarga o'tmoqdalar.

1992 yil MDH mamlakatlarida sodir etilgan jinoyatlar tahlili ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan ayollarning 75 foizi yoki uchdan ikki qismi u erga mulkka va hayotga qarshi jinoyatlar uchun tushganligini ko'rsatdi<sup>2</sup>. O'zbekistonda jinoyat sodir etgan shaxslar orasida ayollar 10,3%ni<sup>3</sup>, tamagirlik niyatida zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha – 4,3% ni tashkil etadi. Ayollar jinoyatchiligiga kriminologik tavsif berishda shuni ta'kidlash lozimki, bu hodisa so'nggi

<sup>1</sup> Тайваков А.А. Профессиональный преступник (опыт социологического исследования). Социологические исследования, 1993, № 4. – С.86-87.

<sup>2</sup> Особо опасные лидеры в ИТУ и воспитательно воздействие на них. – М.: НИИ МВД СССР, 1989. – С.73.

<sup>1</sup> Переступившая закон // Мир женщины. 1992, №1. – С.18.

<sup>2</sup> Краминава Н. Групповой портрет с дамой // Московские новости. 1993, №8. -11-б.

<sup>3</sup> Узбекистан-контакт. 1991, №6. – 3-б

yillarga kelib, ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha erkaklar jinoyatchiligiga yaqinlashmoqda<sup>4</sup>.

## 15-mavzu. IQTISODIY JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA ULARNING OLDINI OLISH

1. Iqtisodiy jinoyatchilik tushunchasi va uning kriminologik tavsifi.
2. Iqtisodiy jinoyatlarning sabablari va ularni yuzaga keltiruvchi omillar.
3. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olish.

### 15.1. Iqtisodiy jinoyatchilik tushunchasi va uning kriminologik tavsifi

«Iqtisodiy jinoyatchilik» (yoki iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar) tushunchasi «uyushgan jinoyatchilik» va «jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonunlashtirish» tushunchalari bilan bir qatorda, kriminolog hamda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida keng foydalaniладigan atamalar ro'yxatidan mustahkam o'rin olgan.

Iqtisodiy jinoyatchilik tushunchasining har xil ta'riflari mavjud, biroq u jamoatchilikka ilk bor «oq yoqalilar jinoyatchiligi» nomi bilan tanilgan. Bu ibora muallifi – amerikalik kriminolog E.Saderlend. 1940 yilda u yuksak martabali shaxslar o'z kasbiy vazifasi doirasida o'zlariga ko'rsatilgan ishonchni buzib, sodir etuvchi huquqbuzarliklar majmuini «oq yoqalilar jinoyatchiligi» deb nomlagan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida M.Klaynard mazkur muammoni o'rganib, ko'rsatib o'tilgan jinoyatlar natijasida iste'molchi va soliq to'lovchilar juda katta zarar ko'rganligini aniqladi (1952). Keyinchalik korxonalarining rahbarlari o'z ishchilarining ijtimoiy huquqlariga qarshi sodir etgan jinoiy harakatlarni Skott o'rgandi (1974). M.Klaynard va P.Yiger 582 yirik korxonada xo'jalik sohasida sodir etilgan jinoyatlarni tahlil qilib (1980), 1975-1976 yillarda korxonalarining egalari sodir etgan jinoiy harakatlardan ayrim jinoyatchilar hayotga qarshi sodir etgan jinoyatlarning qurbonlaridan ko'proq odam halok bo'lganligini aniqladi. Amerikalik taniqli kriminologlar R.Klark va E.Shchur ham o'z tadqiqotlarida iqtisodiy jinoyatchilik masalalariga to'xtalgan. Kriminologlar G.Kayzer va G.Matsir-Brepsher korxonalar va korporasiyalardagi jinoyatchilikni

<sup>4</sup> Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. – М.: Российское право, 1992. –79-б.

o'rganib, ularda jinoiy jazoga loyiq barcha jinoyatlarning 84% ni mulkka qarshi jinoyatlar tashkil etishini aniqladi (1976). Shvesiyalik taniqli kriminolog B.Svensson iqtisodiy jinoyatlarga xo'jalik faoliyati doirasida sodir etiladigan tamagirlik xususiyatiga ega jinoiy qilmish deb ta'rif bergan (1986).

Sobiq Ittifoqda sosializm davridagi iqtisodiy jinoyatchilik asoslarini V.G.Tanasevich, B.E.Bogdanov, G.K.Sinilov, A.N.Lar'kov kabi huquqshunos olimlar o'rgangan.

So'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi natijasida tahlil qilinayotgan jinoyatchilik turida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Yangi mulk shakllarining yaratilishi, iqtisodiyot bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko'rsatishi, jahon iqtisodiyotiga qo'shilish unda kriminal vaziyatning og'irlashishiga olib keldi. Iqtisodiy jinoyatchilik kriminallashtirilgan iqtisodiy munosabatlarning mantiqiy davomi sifatida amal qilayotir.

Kriminolog olimlar fikriga ko'ra, iqtisodiy jinoyatchilik bu xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda foydalanilayotgan mulkka tamagirlik niyatida tajovuz qilish, iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning belgilangan tartibiga hamda fuqarolarning iqtisodiy huquqlariga iqtisodiy munosabatlarni tizimida muayyan vazifalarni bajaruvchi shaxslar tomonidan daxl etish bilan bog'liq jinoiy harakatlar majmuidir.

Amalda iqtisodiy jinoyatchilik – bu jinoyat qonunida nazarda tutilgan bir necha o'n ta jinoyat tarkiblari (o'zganing mulkini talon-toroj qilish, valyuta boyliklari bilan g'ayriqonuniy bitimlar tuzish, qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasash yoki ularni o'tkazish, daromadlarni soliq organlaridan yashirish, g'ayriqonuniy tadbirkorlik, kontrabanda va boshqalar)ning murakkab yig'indisidir. Ayrim mualliflar iqtisodiy jinoyatlar jumlasiga tamagirlik niyatidagi mansabdorlik jinoyatlari, xususan poraxo'rlikni kiritadilar. Shunday qilib, iqtisodiy jinoyatchilik ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi u jamiyat institutlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, davlatning moddiy negizi – iqtisodiyot faoliyatining belgilangan tartibi buzilishida ifodalanadi. U quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Iqtisodiy jinoyatlarning latentlik darajasi ancha yuqori. Ularning aksariyat qismi fuqarolar va mansabdor shaxslarning arizalariga ko'ra aniqlanmaydi. Mazkur toifa jinoyatlar asosan mol-mulknii boshqarish, saqlash va ta'minlash vakolati berilgan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Iqtisodiy jinoyatlar ayrim yangi turlarining latentlik darajasi nisbatan past (masalan, bank kreditlari olishda firibgarlik). Qalbaki pul yasashdek xavfli jinoyatning latentlik darajasi haqida ham shunday deyish mumkin.

2. Iqtisodiy jinoyatlar natijasida jamiyatga ancha katta zarar etkaziladi.

3. Iqtisodiy jinoyatchilik aholi aksariyat qismining turmush tarziga aylanishi, yarim jinoyiy mentalitetni shakllantirishi mumkin. Masalan, Rossiyada 10 mln.dan ortiq fuqaro chetdan mol olib kelib sotish bilan shug'ullanadi. Tadqiqotlar ularning deyarli barchasi belgilangan boj to'lash qoidalarini buzishi, daromadlarni soliq organlaridan yashirishini ko'rsatadi.

4. Iqtisodiy jinoyatchilik o'z tabiatiga ko'ra, to'la uyushgan xususiyatga ega. Aksariyat chet mamlakatlarda uyushgan jinoyatchilik asosan jinoyiy daromad manbalari – qimorxonalar, giyohvandlik vositalari va qurol-yarog'lar savdosi, tovlamachilikni nazorat qilsa, ayrim mamlakatlarda (masalan, Rossiyada) u butun iqtisodiyotni boshqaradi.

Iqtisodiyotning normativ negizini har xil huquqiy normalar, chunonchi: konstitusiyaviy, fuqarolik-huquqiy normalar, ma'muriy huquq va xo'jalik huquqi normalari tashkil etadi. Shu bois iqtisodiy jinoyatlarni o'rganish va ularning oldini olish muammosi jinoyat huquqi normalarini iqtisodiyotda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarga va iqtisodiyotning normativ negiziga bog'lab tahlil qilishni nazarda tutadi<sup>1</sup>.

## **15.2. Iqtisodiy jinoyatlarning sabablari va ularni yuzaga keltiruvchi omillar**

Iqtisodiyot sohasida sodir etiladigan tamagirlik jinoyatlarining sabablari ham ob'ektiv, ham sub'ektiv xususiyatga ega. Iqtisodiy munosabatlar, ularning ziddiyatligi va salbiy xususiyati jinoyatchilikni vujudga keltiradi. Iqtisodiy jinoyatchilik makrodarajada mavjud bo'lishini ta'minlaydigan va tashkiliy-xo'jalik faoliyatining muayyan jabhasida jinoyat sodir etish ahdigiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash mazkur jinoyatchilik turini bilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kriminologik tadqiqotlar bozor iqtisodiyotiga o'tish ishlab chiqarishning shakllanayotgan usullari bilan iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini amalga oshiruvchi tashkiliy-xo'jalik qarorlari o'rtasidagi jiddiy qarama-qarshilikni yuzaga keltirganligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy jinoyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni shartli ravishda ikkiga: tashkiliy-xo'jalik omillari va ijtimoiy-psixologik omillarga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga iqtisodiy siyosatning kamchiliklari, lozim darajadagi nazorat tizimining yo'qligi, huquq ijodkorligi faoliyati xo'jalik amaliyotining talablariga javob bermasligi va hokazolar kiradi. Quyidagi

<sup>1</sup> Кримнология. – М., 1997. – С.482.



sabablar muayyan qilmish bilan bevosita bog'liq bo'ladi: hisob yuritish va hisobot tizimining kamchiliklari, rahbar tomonidan kundalik nazorat olib borilmasligi, moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarga shaxslarni tanlash talablariga bepisandlik va h.k.

Ikkinchi guruhga huquqiy tarbiya ishlaridagi kamchiliklar, aholi, ayniqsa o'rta boshqaruv bo'g'ini xo'jalik sohasidagi murakkab vazifalarni yangi iqtisodiy mafkura negizida echishga tayyor emasligi kiradi.

Yuqorida qayd etilgan omillar guruhlari iqtisodiy jinoyatchilik darajasi va dinamikasiga har xil ta'sir ko'rsatadi. Bunda narx belgilash mexanizmi hamda soliq siyosatidagi kamchiliklar alohida ahamiyat kasb etadi. O'tish davri iqtisodiy siyosatining kamchiliklari iqtisodiy islohotning ayrim yo'nalishlarida kriminogen keskinlik o'choqlarini yaratuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish sohasidan davlatning chetlatilishi, huquqiy tartibga solishning umumiy ruxsat beruvchi usullari keng joriy etilishi iqtisodiyotdagi vaziyatni beqarorlashtirdi. Narxlarning erkinlashtirilishi, pul massasi, foiz stavkalari hamda soliq stavkalari bilan manipulyasiyalar qilinishi davlatning iqtisodiy siyosatini qayta ko'rishni taqozo etdi.

Noiqtisodiy majburlor, tartibga solishning ma'muriy usullari bekor qilinishi natijasida xo'jasizlik iqtisodiy jinoyatchilikka o'z ta'sirini yanada kuchaytirdi. Sosialistik ishlab chiqarish usuli hodisasi bo'lgan xo'jasizlik tartibga solishning bozor mexanizmlari ishga solinishi bilan yo'qolmadi, balki faqat shakl-shamoyilini o'zgartirdi. Xo'jasizlikning kriminogen faollik darajasini pasaytirish uchun mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bilan bog'liq uzoq davom etadigan jarayon, ya'ni iqtisodiyotdagi holatga davlat mulkining amaldagi ta'sirini o'zgartirish talab etiladi.

Iqtisodiy jinoyatchilik xususiyati va darajasiga xo'jalik mexanizmi faoliyatidagi boshqa kamchiliklar, masalan, ishlab chiqarish aloqalarining uzilishi yoki, ta'bir joiz bo'lsa, «xo'jalik separatizmi» ham bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Davlat nazorati amaldagi tizimining kamchiliklari aniqlanmagan, yashirin iqtisodiy jinoyatlar tarqalishiga imkoniyat yaratmoqda. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi yangi nazorat tizimi zamirida nazorat ob'ektlarini mulk shakllariga ko'ra nodavlat, jamoat, auditorlik (pullik mustaqil), idoraviy va ichki (ichki xo'jalik) turlariga ajratish yotadi.

Iqtisodiy jinoyatlar sodir etilishiga korxonadagi vaziyat ham imkoniyat yaratadi. Bunday omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

1) korxonada mulki lozim darajada qo'riqlanmasligi, ob'ekt ichidagi rejimning buzilishi va moddiy boyliklarni olib chiqib ketishga imkoniyat yaratilishi;

2) hisob yuritilmasligi, taftish va inventarizatsiya o'tkazish tartibi va muddatlarining buzilishi;

3) moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarga ilgari tamagirlik jinoyatlari uchun sudlangan, g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etishga moyil shaxslarning tayinlanishi;

4) jamoa huquqiy tarbiyasidagi kamchiliklar;

5) aybdor atrofidagi shaxslar axloq darajasining pastligi.

Tadqiqotlar ichki ishlar organlarining iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash bo'linmalarida tezkor qidiruv ishining darajasi pasayib borayotganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotda yuz bergan o'zgarishlar sud-tergov amaliyotida qilmishning faktik tomonini baholash va yuridik tavsiflashda xatoga yo'l qo'yilishiga sabab bo'lmoqda. Ruxsat etilgan va jinoiy harakatlarning chegaralari o'zgardi, xo'jalik tavakkalchiligi kabi tushunchalarning mazmuni haqidagi tasavvurlar esa hali shakllanmagan. Mulkiy munosabatlarning o'zgarishi iqtisodiyotdagi g'ayriqonuniy harakatlar uchun nodavlat tashkilotlarga nisbatan jinoyat ishlari qo'zg'atish uchun asoslarni aniqlash nisbatan yondashuvlarni o'zgartirishni taqozo etdi.

Muqobil iqtisodiyotning paydo bo'lishi ijtimoiy xavfli xulq atvorning ilgari ma'lum bo'lmagan shakllari jadal sur'atlarda o'sishiga sabab bo'ldi, ular esa o'z navbatida iqtisodiyotning beqarorlashuviga olib kelayotir. Ayrim qilmishlar iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ko'pdan beri ma'lum bo'lsa, ayrim jinoiy xatti-harakatlar hozirgi o'tish davriga ham xos. Bunday qilmishlar qatoriga soxta bankrotlikni, ro'yxatga olish hujjatlaridagi ma'lumotlarni qasddan buzib ko'rsatishni, bozordagi yakkahokimlik mavqeini suiiste'mol qilishni kiritishimiz mumkin.

Ijtimoiy ong yuz berayotgan iqtisodiy o'zgarishlarga hali yaxshi moslashmagan. Odamlarga munosib hayot kechirish uchun shart-sharoit yaratishga qodir bo'lgan iqtisodiyotni tiklashda tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati haqida yanglish tasavvur ham jamiyatning ma'naviy-psixologik birligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### 15.3. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olish

Kriminologiya fani nuqtai nazaridan jinoyatlarning oldini olish iqtisodiy faoliyat sohasida jinoyatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishini belgilovchi yoki muayyan iqtisodiy jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlarga ularni bartaraf etish yoki ularga barham berish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishdan iborat. Bunday profilaktika faoliyati turli miqyosda, xususan mahalliy va mintaqaviy darajalarda, ayrim korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda amalga oshirilishi mumkin. Kriminologiyada umumiy (umumijtimoiy) va maxsus profilaktika choralari farqlanadi.

Iqtisodiy jinoyatchilikning umumijtimoiy profilaktikasi iqtisodiyotdagi, jamiyat hayot faoliyatining ijtimoiy va boshqa jabhalaridagi ziddiyatlarga barham berishdan iborat. U jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni echish yo'li bilan ta'minlanadi. Ijtimoiy rivojlanishning mazkur bosqichida bunday vazifalar jumlasiga sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining pasayishini to'xtatish, so'ngra uni asta-sekin ko'tarish, inflyasiyaga barham berish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini yaratish, halol, insofli raqobatni ta'minlash kiradi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olishga bevosita qaratilgan maxsus profilaktika choralarni amalga oshirish sub'ektlari sifatida, avvalo, tadbirkorlar, korxonalarining menejerlari, shuningdek iqtisodiy munosabatlarning boshqa sub'ektlari: mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari, ichki xo'jalik, auditorlik va davlat nazorati vakillari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, vakillik va ijroiya hokimiyati hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillarini ko'rsatishimiz mumkin.

Iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishda tadbirkorlik tashkilotlarining xo'jalik faoliyati jabhasida nazorat vazifalarini bajaruvchi davlat va nodavlat tuzilmalari muhim rol o'ynaydi. Bunday tuzilmalarning ayrimlari O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlariga binoan tashkil etilgan. Masalan, 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, bu bank tijorat banklari hamda boshqa kredit muassasalari faoliyati ustidan nazorat olib borishi shart.

Bunda bosh vazifasi soliq qonunchiligiga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri hisoblanishi, davlat soliqlari va boshqa to'lovlar tegishli byudjetlarga o'z vaqtida to'liq kiritilishi ustidan nazorat olib borishdan iborat bo'lgan Davlat soliq qo'mitasi ham muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiyot sohasida jinoyatlarning oldini olish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib, huquqbuzar shaxsini tuzatish va jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi holatlarga barham berishga qaratilgan

iqtisodiy, tashkiliy-ishlab chiqarish, texnik, huquqiy, tarbiyaviy choralar tizimini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan umumijtimoiy choralar ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar turining oldini olish uchun muhim ahamiyatga ega. Ular tadbirkorlikka yo'l ochish, iqtisodiy munosabatlar sohasida shaxs ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarida tadbirkorlik teng huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, zarur bozor infratuzilmasini yaratishni nazarda tutadi. O'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash va o'zini o'zi boshqarish asosida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning demokratik prinsiplarini joriy etish umumiy ogohlantiruvchi ahamiyatga egadir.

Boshqaruv tizimini takomillashtirish, mansabdor shaxs va xodimlarning vakolatlari sohasini muvozanatga solish, shu jumladan mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari ustidan sudga shikoyat berish huquqini joriy etish choralari ham kuchli profilaktik ta'sirga ega.

Sanoatni texnik jihatdan modernizasiya qilish, zamonaviy texnika va texnologiyadan foydalanib, faol rivojlanish yo'liga o'tish, ma'naviy va jismonan eskirgan uskunalarni almashtirish tadbirlari ham xo'jalik jinoyatlarining oldini olish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar, aksiyadorlik birlashmalari, mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari, ularning mehnat jamoalari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat, auditorlik va ichki xo'jalik nazorati vakillari iqtisodiy jinoyatlarni profilaktika qilish sub'ektlari hisoblanadi. Xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida korxonalarni kompleks rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini hal qiluvchi vakillik organlari hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining profilaktika faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Ogohlantirish choralari izchil tavsiflashda quyidagilarni alohida qayd etish lozim:

1. Iqtisodiy choralar bozorga o'tishning umumiy konsepsiyasiga va iqtisodiy siyosatning ayrim yo'nalishlari bo'yicha maxsus davlat dasturlariga kiritiladi. Bular: tadbirkorlik, shu jumladan kichik tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi, davlat korxonalarini xususiylashtirish dasturi, monopolistik faoliyatni cheklash va insofli raqobat uchun shart-sharoit yaratish dasturi, bank tizimini isloh qilish, ishlab chiqarish vositalari bilan ulgurji savdo qilish (tovar-xom ashyo birjalari), qimmatli qog'ozlar bozori (fond birjalari), axborot, maslahat va vositachilik tarmoqlarini shakllantirish dasturlari va h.k.

Iqtisodiy choralar guruhida davlat tomonidan kafolatlangan mehnat jamoalari va mulkdorlarning operativ-xo'jalik faoliyatiga aralashmaslik, davlat oldidagi majburiyatlar bajarilganidan so'ng olingan daromadlar (foyda)ni erkin tasarruf etishni ta'minlash alohida o'rin tutadi. Qonunchiligimizda ilk bor mulkdor tomonidan davlat o'z ishlariga g'ayriqonuniy aralashuvidan ko'rilgan zararni undirish imkoniyati nazarda tutilgan. Xo'jalikni faol yuritishdan shaxsiy manfaatdordik ham xo'jasizlikning har xil ko'rinishlari kriminogen ta'sirini kamaytirishga yordam bermoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, shartnoma majburiyatlari va davlat buyurtmalarini bajarish uchun tashqi iqtisodiy operatsiyalarni tartibga solish mexanizmini yaratish, muayyan faoliyat sohalarini lisenziyalashning imtiyozli tartibini joriy etish ham, hech shubhasiz, iqtisodiy jinoyatchilik darajasini pasaytirishga yordam beradi.

2. Iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishning tashkiliy choralari tadbirkorlikni tartibga solish tizimini yaratish, jamiyatni bu sohadagi huquqbuzarliklardan himoya qilishga qaratilgan. Ushbu toifaga xo'jalik-moliya nazorat organlari kadrlarini kasbiy jihatdan tayyorlash, narxlarga rioya etilishi, mahsulot sifati ustidan maxsus nazorat qilish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish jamiyatlari kabi jamoat tuzilmalari faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish tadbirlari ham kiradi.

Nodavlat korxonalar va tashkilotlari ma'lum faoliyat turlari bilan shug'ullanishini qonun yo'li bilan ta'qiqlash maxsus ogohlantirish choralari jumlasiga kiradi. Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashda nazorat organlari faoliyatini takomillashtirish, ularga iqtisodiy rivojlangan ilg'or mamlakatlar tajribasiga ko'ra surishtiruv organi huquqlarini berish ham yaxshi profilaktik samara berishi mumkin.

Nazorat organlarining xo'jalik huquqiy munosabatlarida qonuniylikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish, iqtisodiy qarorlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ilg'or tajribani tarqatish ham muhim profilaktik ahamiyatga ega.

Tovar-moddiy boyliklarni hisobga olish va nazorat qilishning zamonaviy, jahon xo'jalik aloqalariga qo'shilishga qaratilgan choralari ham iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish maqsadlariga xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishning texnik tadbirlari tovar, xom ashyoni tashishning yanada mukammalroq vositalarini ishlab chiqish, o'ta noyob xom ashyo va tovar resurslarini joylashtirish va saqlash joylarida ishonchli qurilmalar o'rnatish, qalbaki hujjatlarni aniqlash usullarini yaratish, soxtalashtirilgan mahsulotlarni shoshilinch aniqlash usullarini joriy etishga qaratilgan.

Sanoatni texnik jihatdan qayta jihozlash, fan-texnika yutuqlariga asoslangan ishlab chiqarishlar va chiqindisiz texnologiyalarni amalga joriy etish ham iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish g'oyasiga xizmat qiladi.

4. Huquqiy choralar iqtisodiyotda g'ayriqonuniy xulq-atvorni ogohlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu omil hozirgi sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki huquqni ta'minlovchi mexanizm xo'jalik amaliyotidan ortda qolayotir. Iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish sohasida aniqlangan kamchiliklarni hisobga olib, qonunchilikni takomillashtirish quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- bozorda barcha xo'jalik ob'ektlari uchun umummajburiy xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqish;
- xo'jalik qonunchiligini iste'molchilarning manfaatlariga ziyon etkazadigan tarzda buzgan yuridik va jismoniy shaxslarni moddiy javobgarlikka tortish tizimini ishlab chiqish;
- insofsiz raqobatning har xil turlari uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikni nazarda tutish.

Iqtisodiy islohot muvaffaqiyati ilgari amalda bo'lgan, islohot maqsadlari va vazifalariga zid kelmaydigan huquqiy qoidalarni yangi qabul qilingan qoidalar bilan muvofiq holatga keltirishga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Iqtisodiy xulq-atvorning sudxo'rlik, soxta tadbirkorlik, soxta bankrotlik, daromadlarni yashirish kabi xavfli shakllari uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik joriy etish ham umumiy ogohlantiruvchi ahamiyatga ega.

Qonun ijodkorligi jarayonini isloh qilish iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olish maqsadlariga xizmat qiladi. Qonunlarning bajarilmasligi ko'pincha ularning noizchilligi, qabul qilinuvchi qarorlarning salbiy oqibatlariga barham bermasligi bilan izohlanadi. Bu qabul qilinayotgan qonun loyihalarining mustaqil ekspertizasini joriy etishni taqozo qiladi. Iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish choralari ham muhim ahamiyatga egadir. Bu erda xo'jalik sudlari hamda prokuraturaning umumiy nazorati alohida o'rin egallaydi. Mazkur organlar huquqbuzarliklarning ilk bosqichlaridayoq qonunga hurmatsizlikka yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirli choralar ko'rishga qodir.

5. Tarbiyaviy choralar mustabid tuzum davridan qolgan boqimandalik kayfiyatidan xalos bo'lish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlik alohida faoliyat turi va ijtimoiy hodisa sifatida muayyan tarixiy va ijtimoiy muhitlarda tiklanmoqda. Shu sababli ijtimoiy ongda jamiyatni jipslashtirish, odamlar uchun

munosib turmush sharoitlarini yaratishga qodir o'ta samarali iqtisodiyotli jamiyat qurish g'oyasini yuksaltirish muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

## **16-mavzu: KORRUPSIYA JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI**

14.1. Korrupsiya jinoyatchiligining kriminologik tavsifi, sabab va shart-sharoitlari.

14.2. Korrupsiya jinoyatchiligining oldini olish.

### **16.1. Korrupsiya jinoyatchiligining kriminologik tavsifi, sabab va shart-sharoitlari**

Respublikamizda bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida korrupsiya jinoyatchiligi sonining oshib borayotganligi mam-lakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar yo'lida jiddiy g'ov bo'lmoqda. Ayniqsa tadbirkorlik sohasidagi korrupsiya jinoyatchili-gining ulushi oshib borayotganligi salbiy hodisadir. R. Qodirov ta'kidlaga-nidek, "Shuni afsus bilan aytish kerakki nazorat organlari, yoki tadbirkor-ga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi qaysi bir davlat idorasi faoliya-tini tahlil qilmagan o'sha joydagi ma'sul xodimning qonunsiz harakatiga duch kelasiz"<sup>1</sup>.

Korrupsiya jinoyatchiligi deganda korrupsiya xususiyatiga ega bo'lgan jinoyatlarning majmui tushuniladi. Korrupsiya – bu mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining sotib olinishi va shu asosda ularning o'z shaxsiy yoki jinoiy guruh, uyushgan gurux manfaatlarini ko'zlab rasmiy xizmat vakolatlaridan hamda ular bilan bog'liq obro'si va imkoniyatlaridan foydalanishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy hodisadir. S.Rouz-Akkerman ta'kidlaganidek, "korrupsiya davlat boshqaruvining ayrim jihatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi belgisidir"<sup>1</sup>.

Korrupsiyaning siyosiy jihatdan xavfliligi quyidagilarda ifodalanadi:

- qabul qilingan qonun va boshqa normativ aktlarning korrupsiya-lashgan davlat apparati va uning tarkibiy qismlari tomonidan yo'qotilishida;
- fuqarolarning to'beligi qonunlar bilan emas, balki korrupsiya-lashgan davlat xizmatchilarining zulmidan kelib chiqadi;

<sup>1</sup> Qodirov R. Qonuniy himoya – bosh mezon // Xalq so'zi. 2005 yil 29 iyul. – B.1-2.

<sup>1</sup> Роуз-Аккерман С. Коррупция и государства. Причины, следствия, реформы: Пер.с.англ. О.А. Алякринского. – М.: Логос, 2003. – С.7.

- ijtimoiy ongi korrupsiya singari siyosiy rejimning salbiy usulini chuqur singdirish va h.k.<sup>2</sup>.

BMT Bosh Assambleyasining 1979 yil 17 dekabrda 34/169 son Rezolyusiyasi bilan qabul qilingan mansabdor shaxsning huquqiy tartibotni saqlash sohasidagi xulq-atvor kodeksining 7-moddasida bayon etilgan talablarning mazmuniga ko'ra, "korrupsiya" yoki mansab vakolatlarini g'arazgo'ylik manfaatlarida suiste'mol qilish jamiyatda beg'araz xizmat qilish prinsipini buzishga yo'naltirilgan harakatlardir<sup>3</sup>.

Korrupsiya mexanizmi – bu:

- ikki tomonlama tuzilgan bitim bo'lib, unda mansabdor shaxs yoki davlat xizmatidagi boshqa shaxsning mansabi, obro'si va ular bilan bog'liq imkoniyatlariga asoslanib, o'z xizmat vakolatlari yoki xizmatlarini jismoniy va yuridik shaxslarga, guruhlar (shu jumladan jinoiy uyushma)ga norasmiy "pullaydi", "xaridor" esa davlat tuzilmasi yoki boshqa tuzilmadan o'z maqsadlarida foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadi;

- xizmatchi tomonidan tovlamachilik yo'li bilan pora yoki qo'shimcha haq undirilishi;

- kuchli ruhiy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan xizmatchilarning faol sotib olinishi (uyushgan jinoyatchilik uchun xos).

Korrupsiya jinoyatchilik determinasiyasining umumiy va maxsus jarayonlari oqibatidir. Jinoyatchilik determinasiyasining maxsus jarayonlari asosan mansab yoki boshqa xizmatlar bilan bog'liq hisoblanadi. Korrupsiya jinoyatchiligining sabablari va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni ko'rib chiqishda:

- mansab vazifasi;

- ijtimoiy nazoratning holatini qayd etish zarur.

Mansab bilan bog'liq bo'lgan (xizmat shart-sharoitlarida) korrupsiyaning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Mehnatga mansabdor va ularning oilalariga munosib hayot kechirish imkonini beradigan miqdorda haq to'lash qoidalarini bajarmaslik.

- Boshqaruv tipi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda boshqarish bilan bog'liq bo'lgan vazifalar ko'p jihatdan alohida xizmatchilarning ixtiyoriga binoan hal etiladi. Huquqiy tartibga solish faqat umumiy tartibda amalga oshiriladi, shuning uchun ham bu erda shaxsiy ixtiyor va

<sup>2</sup> Коруption в Узбекистане. Истоки и возможности ее преодоление.

<sup>3</sup> СССР и международное сотрудничество в области прав человека. Документы и материалы. – М., 1989. – С.503.



o'zboshimchalikka keng yo'l ochiladi. Normativ boshqaruvda ma'lum tipdagi vaziyatda ularni batafsil tartibga soladigan huquqiy normalarning qo'llanilishi haqida gap boradi. Bu holda ham poraxo'rlik mavjud bo'ladi, ammo pora amaldorning belgilangan qoidalarni buzishi uchun beriladi.

- Ijtimoiy-ruhiy vaziyat. Davlat xizmatchilari muhitidagi qorrupsiyaning normal hodisa sifatida e'tibor etilishi jinoiy moyillikni shakllantiruvchi omil hisoblanadi.

Korrupsiya jinoyatchiligini sodir etuvchi mansabdor shaxslarda moddiy foyda olish uchun qonun va axloq normalariga qarshi borish, kasb etikasini buzishga moyillik kuchli bo'ladi. Unda ochko'zlik va hasad-go'ylik singari shaxsning fe'l-atvorini tavsiflovchi xususiyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday shaxs yashayotgan ijtimoiy muhit haqida gapirganda:

- unda korrupsiya va boshqa jinoiy faoliyat natijasida katta moddiy farovonlikka erishgan shaxslarning mavjudligi;

- shaxsning turmush darajasi moddiy jihatdan ta'minlanganligi va kelgusida bu ta'minlanganlik darajasining keskin kamayishi;

- nihoyatda qimmat turuvchi odatlar, qiziqishlarning mavjudligi va boshqa shunga o'xshash holatlarni ham qayd etib o'tish lozim.

Ijtimoiy nazorat ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi kerak. Mansabdor shaxslarning daromadlari va xarajatlari, ularning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishi ustidan nazoratning yo'qligi, korrupsiya faktlariga e'tibor bermaslik yoki yuzaki, qonunga asoslanmagan holda e'tibor berish korrupsiya jinoyatchiligining sodir etilishini engillashtiruvchi, aybdorlarning bir qismi uchun esa – sababiy kompleksni tashkil etuvchi, jinoiy moyillikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar hisoblanadi.

## 16.2. Korrupsiya jinoyatchiligining oldini olish

Korrupsiya jinoyatchiligini umumiy va maxsus oldini olish choralari mavjud bo'lib, umumiy oldini olish korrupsiyadan yangi ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirish va mustahkamlash, bozor munosabatlariga ijtimoiy tayanch yaratish vositasi sifatida foydalanilishini istisno etish, shuningdek, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadning rasmiylashtirilishi va ko'paytirilishini nazarda tutadi<sup>1</sup>.

Respublikamizda hokimiyat va boshqaruv organlarining faqatgina 1998 yilning o'zida korrupsiya xarakteridagi 1500 dan ortiq jinoyatlar aniqlangan va ulardan 450 ta jinoyat ishi sudga oshirilgan. Korrupsiya

<sup>1</sup> Абдурашулова К., Зокирова О. Криминология. Ўқув-услубий қўлланма. Т.: ТДЮИ. 2003. – Б.

hamda jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqiy tartibotni saqlash kabi vazifalar yuklatilgan huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ham mazkur jinoyatlar sodir etilishi holatlari aniqlangan. Xususan, 1998 yilning o'zida sud mahkamasi xodimi, 4 ta prokuratura, 20 ta ichki ishlar, 10 ta soliq inspeksiyasi, 17 ta bojxona xodimlari jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Korrupsiyani maxsus oldini olishda quyidagi choralarni qo'llash muhimdir:

- mansabdor shaxslar, xizmatchilar va ularning oilalariga munosib hayot kechirish imkonini beradigan ish haqi tayinlash;
- davlatning mansabdor shaxslari va boshqa toifa xizmatchilarning daromadlari va xarajatlari hamda kadrlar siyosati ustidan qattiq nazorat o'rnatish;
- korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurash olib borayotgan shaxslar (va ularning oila a'zolari)ning xavfsizligini ta'minlash;
- davlat ahamiyatiga molik lavozimni egallaganligi munosabati bilan beriladigan qimmatbaho davlat uylaridan xizmat doirasida foydalanish rejimini joriy etish;
- O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimidan amalga oshiriladigan barcha to'lovlarning qonuniyligini ta'minlash va h.k.

Korrupsiya jinoyatchiligiga qarshi kurashni tashkil qilish quyidagilarga asoslanishi lozim:

- korrupsiyadagi o'zgarishlar va uning sabablarini muntazam tahlil qilish; real ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar, ijtimoiy ong va huquqni muhofaza qilish organlarining ahvolidan kelib chiqib unga qarshi kurash strategiyasi va taktikasini aniqlash;
- qonun osti hujjatlariga emas, qonunlarga asoslanish;
- O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish;
- ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash va huquqni muhofaza qilish organlarida ixtisoslashgan bo'linmalarni tashkil etish;
- fuqarolik jamiyatlarining turli institutlari, aholi va yuridik shaxslarning yordamidan foydalanish;
- ish natijalarini sistematik baholash va mavjud chora-tadbirlar tizimiga tuzatish kiritish va h.k.

## 17-mavzu: GIYOHVANDLIK VOSITALARINING G'AYRIQONUNY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI

15.1. Giyohvandlik vositalarning g'ayriqonuniy muomalasi tushunchasi va kriminologik tavsifi.

15.2. Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning holati, tuzilishi va dinamikasining umumiy tavsifi.

### 17.1. Giyohvandlik vositalarning g'ayriqonuniy muomalasi tushunchasi va kriminologik tavsifi

«Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasi» tushunchasi giyohvandlik vositalarini olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o'tkazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo'natish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish, shuningdek, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni etishtirishdan iborat g'ayriqonuniy harakatlarning yig'indisidir.

Giyohvandlik vositalari – bu inson organizmiga *maxsus* (rag'batlantiruvchi, qo'zg'atuvchi, azoblovchi, gallyusinogen) ta'sir ko'rsatuvchi, unda bu vositalarni muttasil iste'mol qilishga moyillikni paydo qiluvchi kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy bo'lgan moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Giyohvandlik vositalari ro'yxatlariga kiritilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga giyohvandlik vositalari sifatida e'tirof etiladi.

Giyohvandlik vositalari jumlasiga kiritilmagan moddalar (bir qator analgetiklar, maishiy kimyo vositalari va h.k.)ni suiiste'mol qilish zaharvandlik – toksikomaniya deb ataladi. Ko'pincha toksikomaniyada ham giyohvandlikdagi singari bog'liqlik va o'zgargan reaktivlik ko'rinishlari namoyon bo'ladi, biroq ularning ifodalanish darajasi nisbatan pastroqdir. Shunga qaramay, bu moddalarning iste'mol qilinishi oqibatida giyohvandlikdagidan kam bo'lmagan shaxsning ruhiy va jismoniy buzilishiga olib keladi<sup>1</sup>. Shu boisdan ham zaharvandlik moddalari (toksikantlar)ning bir qismi ma'lum vaqtdan so'ng giyohvandlik vositalarining rasmiy ro'yxatiga kiritilishi mumkin, deb o'ylaymiz.

<sup>1</sup> Вальдман А.В., Бабаян Э.А., Звартау Э.Э. Психофармакологические и медико-правовые аспекты токсикомании. - М.: Медицина. 1988. - С. 228.

«Narkotizm» atamasiga kelsak, bu atama yangi emas, uni M.N.Gernet va V.G.Vvedenskiy, o'z asarlarida qo'llanganlar<sup>2</sup>.

Giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish tufayli vujudga keladigan – narkotik mastlik, zaharvandlik moddalarining ta'siri esa - zaharli mastlik deb ataladi. Agar gangitish maqsadida (giyohvandlik vositalari jumlasiga kiritilmagan) tibbiy preparatlar qo'llansa, dori-darmonlarni iste'mol qilish natijasidagi mastlik haqida gap boradi<sup>3</sup>. Biroq keyinchalik bu atama maxsus va yuridik adabiyotlarda qo'llanilmay qolgan. U faqat 1970 yilning boshlaridan e'tiboran qo'llanila boshlandi. Bir qator mualliflarning fikricha, bu tushuncha nisbatan keng qamrovli bo'lib, to'liq yoki qisman giyohvandlik tushunchasini ham o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv tibbiy jihati yorqin namoyon bo'lgan giyohvandlikdan har xil ko'rinishlari qonunda taqikdangan salbiy ijtimoiy hodisani turli yillarda bir mamlakatda giyohvandlik vositasi hisoblanmasligi yoki ular qatoriga kiritilishi mumkin<sup>4</sup>.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib giyohvandlik vositalariga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Markaziy asab tizimiga (qo'zg'atuvchi, tinchlantiruvchi, gallyusinogen va h.k.) ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy yoki sun'iy tabiatga ega bo'lgan, shuningdek, dori preparatlari, o'simliklar (bu o'simliklarning qismlari); doimiy ravishda ularning iste'mol qilinishi natijasida qat'iy ruhiy va jismoniy bog'likdik (giyohvandlik)ni vujudga keltiruvchi, keyinchalik iste'mol qilish to'xtatilganida abstinensiyaning rivojlanishi va iste'mol dozasiining ko'payishi (tolerantlik)ni vujudga keltiruvchi agar ularning iste'mol qilinishi ijtimoiy xavfli ko'rinishlarda va ular qonunda giyohvandlik vositalari deb belgilangan bo'lsa, bunday moddalar giyohvandlik vositalari deyiladi.

Eng keng tarqalgan giyohvandlik vositalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- nasha va undan tayyorlangan giyohvandlik vositalari (marixuana, nasha yoki «plan» va h.k.);
- ko'knori va undan tayyorlangan giyohvandlik vositalari (afyun, taryak, morfiy, heroin, promedol, kodein va h.k.);
- kokain va undan tayyorlangan giyohvandlik vositalari;
- lizergin kislotasi – LSD;
- kimyoviy sintez qilingan vositalar (amfetomin, trimetilfentanil va h.k.).

<sup>2</sup> Гернет М.Н. Наркотизм, преступность и уголовный закон //Право и жизнь. - 1924. №3-4: Введенский В.Г. Наркотизм и преступность. - М.: 1925. - С.14.

<sup>3</sup> Пятницкая И.Н. Клиническая наркология. - С.332.

<sup>4</sup> Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. М: Юристъ, 1996. -С.542-544.

Giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish bartaraf etilishi qiyin bo'lgan yoki bartaraf etib bo'lmaydigan jismoniy va ruhiy bog'liqlikka olib keladi.

Aholining giyohvandlik vositalari iste'mol qilishga berilishi:

- millatning yalpi jismoniy, ruhiy va ma'naviy tanazzulga uchrashiga; mamlakat iqtisodi, fuqarolar turmushi va mudofaa qobiliyatining tayanchi bo'lishi kerak bo'lgan juda ko'p odamlarning shaxsiy degradasiyasiga;

- aholining nasl qoldirish qobiliyatiga va kelgusi avlodlarning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatilishiga;

- jinoyatchilikning ommaviy negizlari yaratilishiga;

- viktimlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslarning ko'payishiga;

- qurolli kuchlarning jangovar qobiliyatiga putur etishiga;

- giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga moyil shaxslarni profilaktika qilish, davolash, ularga huquqiy ta'sir ko'rsatish va boshqa shunga o'xshash tadbirlarga davlat va jamiyat tomonidan katta mablag'larning ajratilishiga olib keladi.

«Psixotrop moddalar» atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu moddalar bilan bog'liq bo'lgan qonunga xilof operatsiyalar uchun O'zbekiston Respublikasi JKda ham javobgarlik belgilangan. Xalqaro huquq nuqtai nazaridan psixotrop moddalarga kelib chiqishi sun'iy va tabiiy bo'lgan, BMTning 1971 yilgi Konvensiyada shunday modda, deb klassifikatsiya qilingan moddalar kiradi<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksidagi yangi «psixotrop modda» atamasi bugungi kunda chuqur huquqiy ma'no kasb etdiki, bu 1999 yili qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi qonunida ham o'z aksini topdi. Huquqiy nuqtai nazardan psixotrop moddalar jumlasiga faqat giyohvandlik vositalarini nazorat qilish Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan psixotrop moddalar Ro'yxati (Z-ro'yxat)da sanab o'tilgan. Ushbu ro'yxat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish Davlat komissiyasi, Respublika Ichki ishlar vazirligi va Sog'likni saqlash vazirligi tomonidan taqdim etiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiklanadi.

<sup>1</sup> Комитет экспертов ВОЗ по лекарственной зависимости. 19-й доклад. М.: Медицина, 1974. -С. 12.

Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar va ekspertlarning baholashlariga qaraganda, O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalarini surunkali iste'mol qiluvchi shaxslar soni 200 ming kishini, giyohvandlik vositalarini sinab ko'rgan shaxslar soni esa undan xam kuprokn tashkil etadi. Vaholanki, sog'liqni saqlash organlari tomonidan ro'yxatga olingan giyohvandlar soni atigi 30 ming kishini, tashkil qiladi. Bu mazkur hodisaning latentlik darajasi yuqori (6-7 baravar) ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida 1995-2000 yillarda giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq bo'lgan 40288 ta jinoyat ro'yxatga olingan bo'lsa, 2001 yilda 9005 ta jinoyat qayd etilgan<sup>1</sup> va bu jinoyatlarni ochish natijasida 11,5 tonna narkotiklar musodara qilingan<sup>2</sup>.

Respublika huquqni muhofaza qiluvchi organlari va Sog'liqni saqlash muassasalarining ma'lumotlariga ko'ra 2000 yilda 14400 nafar bo'lgan bo'lsa, 2003 yilning boshlarida doimiy ravishda giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchi fuqarolar 30 mingga yaqinlashgan<sup>3</sup>.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, giyohvandlik vositalariga ruju qo'yanlar soni 2001 yilda 2000 yilga nisbatan 16% ga ortgan. Biroq respublika MXX xodimlarining operativ ma'lumotlariga ko'ra haqiqiy ahvol rasmiy ro'yxatga olinganlar sonidan ko'ra 10-15 marotaba ko'pdir. Bu illatning eng xavfli jihati shundaki, giyohvandlik voyaga etmaganlar orasida ham ko'payib bormoqda. O'smir-yoshlar orasida giyohvandlik vositalarini alkogolli ichimliklarga nisbatan ko'proq iste'mol qilishdek submadaniyat shakllanib bormoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish tajribasiga ega bo'lgan o'smirlar giyohvandlik vositalarini alkogolli ichimliklardan ko'ra qo'yidagi afzalliklari borligini ta'kidlashgan:

1) atrofdagilarning shaxs giyohvandlik vositalarini iste'mol qilayotganligini bilishi qiyinligi tufayli ularning o'z kasalligini yashira olishi (so'ralganlarning 34,2%);

2) jamiyatda narkomanlarga nisbatan munosabatning alkogoliklarga

---

<sup>1</sup> Niyazov A. Xalqaro narkobiznesga qarshi faoliyatda prokuraturaning o'rnini. // Giyohvandlikka qarshi ko'rash: nazariya va amaliyot (ijtimoiy-huquqiy jihatlar) mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari. T.: 2002. - B.121-122.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi ma'lumotlaridan. T.: 2002.

<sup>3</sup> Абдуллаев А. Проблемы борьбы с наркобизнесом и наркоманией в Республике Узбекистан. // Giyohvandlikka qarshi ko'rash: nazariya va amaliyot (ijtimoiy-huquqiy jihatlar) mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: 2002. - B.54.

qaraganda yaxshiroq ekanligi (23,7%);

3) alkogoliklarga nisbatan giyohvandlar orasida o'zaro hamjihatlik va qo'llab-quvvatlashning mavjudligi (14,2%);

4) giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish natijasidagi kayf (eyforiya)ning ancha ko'proq davom etishi (24,3%) kabilar.

Toshkent, Nukus, Samarqand shaharlaridagi narkovaziyatni o'rganish, shuni ko'rsatadiki, 2000-2002 yillarda voyaga etmaganlar orasida giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilar shu davr mobaynida alkogolli ichimliklarni iste'mol qiluvchilarga nisbatan 1,5 marta ko'proqni tashkil qilgan.

Shuni ham qayd etish lozimki, agar respublikamiz hududida 1995-2000 yillarda ushlangan narkotiklarning 20-22,2 foizi opiy guruhiga mansub bo'lgan giyohvandlik vositalari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2001

yilda musodara qilingan narkotiklarning 84% ni opiy va heroin tashkil qildi. Bunday «tovar»larni katta miqdorda ushlash hollari ko'paygan.

Yig'ilgan ma'lumotlarni o'rganish respublika narkobozorida muayyan o'zgarishlar ro'y berganligini ko'rsatadi, ya'ni ko'knor va nasha miqdori kamayib, ularning o'rnini «qattiq» va sintetik giyohvandlik vositalari egallayotganidan dalolat beradi.

Respublikamiz shaharlarida voyaga etmaganlar tomonidan morfin, kokain kabilarning iste'mol qilish faktlariga duch kelmadik. Buning sababi ushbu narkotiklar narxining qimmatligi tufayli ularga talabning yo'kligida deb o'ylaymiz. Voyaga etmaganlar asosan opiy xom ashyosini tomirga yuborish usuli bilan iste'mol qiladilar va heroin moddasidan foydalanadilar.

Organizmga yuboriladigan bir doza giyohvandlik vositalarining narxi, Toshkentda 10-15 ming so'mga teng bo'lib, uni respublikamizning boshqa shaharlaridagi narxi ham tahminan shunchani tashkil qiladi.

Voyaga etmaganlar opiy xom ashyosini organizm uchun «xavfsiz» darajagacha tozalash texnologiyasini bilmaganliklari sababli giyohvandlik vositalari bilan birga kofe, kuydirilgan shakar va boshqa ingredientlarni ham iste'mol qiladilar. Bu ingredientlar sotilayotgan narkotik modda dozasining miqdorini ko'paytirish uchun qo'shiladi.

Harbiy xizmatga chaqirilayotgan voyaga etmaganlar stasionar tekshiruvdan o'tkazilganda barcha narkomanlarning ichki organlari (ayniqsa, jigar) faoliyatining buzilganligi anikdangan. Agar 1970-1980 yillarda giyohvandlik vositalarining suiiste'mol qilinishi shu turdagi o'simliklar etishtiriladigan mintaqalarga xos bo'lgan bo'lsa, hozirgi

vaqtga kelib, bu muammo respublikamizning ko'pgina shaharlari va aholi punktlarini ham qamrab oldi. Giyohvandlik ilgari shaharlarga xos muammo bo'lgan bo'lsa, u endi qishloklarga ham kirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ma'lumotlariga ko'ra 1991 yildagiga nisbatan 2001 yilda giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog'liq jinoyatlar miqdori 4,5 barobarga oshgan. Ayniqsa, 1995 yilda bunday jinoyatlar ko'paygan. Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomilasi bilan bog'liq bo'lgan ro'yxatga olingan jinoyatlarning umumiy ko'rsatkichi 1999 yilda 1999 yildagiga qaraganda 11% ga ko'paydi va 6630 ta jinoyatni, 2000 yilda 7100 ta jinoyatni tashkil etdi.

Giyohvandlik vositalarining gayriqonuniy muomilasi bilan bog'liq jinoyatchilikning tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega (2001 yilgacha bo'lgan holatga ko'ra):

- giyohvandlik vositalarini talon-toroj qilish (o'g'irlik, talonchilik, bosqinchiliklar) – 0,6%;
- gayriqonuniy ravishda tayyorlash, sotib olish, saqlash, tashish, jo'natish – 93%;
- boshka shaxslarni iste'mol qilishga jalb etish – 0,7%;
- bangixonalar tashkil qilish yoki saqlash – 1%;
- giyohvandlik vositalarini olish maqsadida reseptlarni qalbakilashtirish – 0,1%;
- konunga xilof ravishda tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni ekish yoki o'stirish – 1%;
- giyohvandlik vositalarining qonuniy muomalada bo'lishi qoidalarini buzish – 2,5%.

## **18-mavzu. EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATCHILIK VA UNING OLDINI OLISH**

1. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar tushunchasi.
2. Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikning kriminologik tavsifi.
3. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning sabablari va ularga imkoniyat yaratuvchi omillar.
4. Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikning oldini olish choralari va asosiy yo'nalishlari.



## 18.1. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar tushunchasi

Ekologiya sohasidagi jinoyat – bu jinoyat qonunida nazarda tutilgan atrof muhit va uning elementlariga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik). U tabiat ob'ektlaridan bevosita huquqqa xilof foydalanish yoki ularga zararli ta'sir ko'rsatish natijasida ularda salbiy o'zgarishlar kelib chiqishiga sabab bo'lishida ifodalanishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ekstensiv metodlari jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri sohasida ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari (usullari) o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Ko'p yillardan beri mavjud bo'lgan bu ziddiyatlar ijtimoiy borliq va ijtimoiy ongdagi salbiy hodisalarni aks ettiradi va ekologiya sohasida jinoyatlarni yuzaga keltiradi.

Orol fojiasi, hayvonot va o'simlik dunyosiga zarar etkazilishi, havo va suv havzalarining ifloslanishi, zararli kimyoviy moddalardan nazoratsiz foydalanish, hamda buning natijasida ularning insonlar salomatligiga salbiy ta'siri inson jinoyi faoliyatining ekologiyada o'z ifodasini topgan oqibatlarining to'liq bo'lmagan ro'yxatidir.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar jumlasiga (bugungi kunda va qonunga binoan) quyidagilar kiradi: ekologik xavfsizlik normalari va talablarining buzilishi; atrof tabiiy muhitning ifloslanishi haqidagi ma'lumotlarni ataylab yashirish yoki buzib ko'rsatish; atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini tugatish choralarini ko'rmaslik; atrof tabiiy muhitni ifloslantirish; erdan, er osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish; ekinlar, o'rmonlarni nobud qilish; o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalariga qarshi kurash talablarini buzish; veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish; zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish; hayvonot yoki o'simliklar dunyosidan foydalanish tartibini buzish; suv yoki suv havzalaridan foydalanish talablarini buzish; alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar rejimini buzish.

Tabiiyki, ko'rsatilgan normalar atrof muhitga g'ayrihuquqiy tajovuzlarning hammasini qamrab ololmaydi. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar jinoyat qonunida bevosita ko'rsatilgan belgilar bo'yicha etarli darajada qayd etilmagan. Bu kamchilikni bartaraf etish amalda mumkin emasligi tufayli shuni e'tiborga olish lozimki, O'zR JKning bir qancha moddalarida oqibatlari ekologik jihatdan og'ir bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Shu tariqa jinoyat qonuni, bir tomondan, ekologiya sohasidagi jinoyatlarni bevosita aks ettiradi, boshqa tomondan – atrof muhitga ham zarar etkazishi mumkin bo'lgan qilmish uchun javobgarlik o'rnatadi.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni tabaqa-lashtirish ham muhim kriminologik ahamiyatga ega. Bunday huquqbuzarliklar ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik haqida maxsus bob (VIII bob) kiritilgan bo'lib, undan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida ma'muriy javobgarlikka sabab bo'luvchi g'ayrihuquqiy xulq-atvorning ko'pgina tarkiblari o'rin olgan. O'zrning Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida, jumladan, erlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz xolga tushirish; er berish tartibini buzish; vaqtincha egallab turilgan erlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni o'z o'rnida foydalanish uchun yaroqli holga keltirmaslik; xo'jalik ichidagi er tuzish loyihalaridan o'zbo-shimchalik bilan chetga chiqish, davlat er kadastri yuritish qoidalarini buzish; er osti boyliklarini geologik jihatdan o'rganish ishlarini olib borish qoidalari va talablarini buzish; suv zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarini buzish; o'rmon fondi erlaridan foydalanish qoidalarini buzish; atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik va h.k. uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun ekologik-huquqiy javobgarlikning belgilanganligi juda muhim ahamiyatga ega, chunki ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik natijasida etkazilgan ziyon ko'p miqdorda bo'lib, ba'zan orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadi. Ekologik-huquqiy javobgarlikka xos bo'lgan jihat shundan iboratki, huquqiy munosabatlarda taraflardan biri sifatida ishtirok etuvchi organlar jumlasiga, umumiy davlat organlari (sud, prokuratura, milisiya va sh.k.dan tashqari), ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni bevosita ko'rib chiqish huquqi berilgan maxsus organlar kiradi. Ekologik-huquqiy javobgarlik instituti kompleks xususiyatga ega, chunki huquqning turli tarmoqlari (er, konchilik, suv, o'rmon huquqi, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi va b.) normalarini o'z ichiga oladi.

Tabiatdan oqilona foydalanish, inson uchun qulay tabiiy muhitni saqlash va jamiyatning ekologik xavfsizligini ta'minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlar ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar ob'ekti hisoblanadi. Ayrim mualliflar buni quyidagi qator sabablarga ko'ra etarli emas deb hisoblaydilar: birinchidan, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish ularni xo'jalik sohasidagi manfaatlarga navbatma-navbat bo'ysundirishni nazarda tutadi, bunda odamlar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish

ikkinchi o'ringa tushib qoladi; ikkinchidan, bu ta'rifdan beqaror atrof tabiiy muhitdan foydalanish borasidagi munosabatlar huquq bilan tartibga solinmaydi, uni saqlash maqsadi esa qonunchilik vazifalariga kirmaydi, degan xulosa kelib chiqadi. Shu bois ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik ob'ektini inson va jamiyatning optimal hayot faoliyatini yashash muhiti bilan o'zaro aloqada ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi ijtimoiy munosabatlar deb ta'riflash to'g'riroq bo'lar edi<sup>1</sup>.

## **18.2. Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikning kriminologik tavsifi**

**Ekologiya sohasidagi jinoyatchilik** – ekologik jinoyatlar, ya'ni atrof tabiiy muhitga va inson sog'lig'iga ziyon etkazuvchi, jinoyat qonuniga binoan ta'qiqlanuvchi va jinoiy jazoga tortiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlarning murakkab yig'indisi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatchilik o'zining demografik, ekologik, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan salbiy oqibatlarining og'irlik darajasiga ko'ra bugungi kunda milliy xavfsizlikka real xavf tug'diradi. Bu xavf quyidagi holatlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi:

- yashash muhiti hayotning davomiyligi pasayishiga, kasallanish, o'lim hollarining ko'payishiga va aholi genofondining zaiflashuviga sabab bo'ladigan darajada yomonlashuvida;
- ekologik tanglik hududlarining yuzaga kelishida;
- tiklanmaydigan tabiiy resurslar (mineral xom ashyo, uglevodorodli energiya manbalari)ning kamayishida;
- yirik texnogen halokatlar yuz berish xavfining oshishida;
- er ustidagi hamda sizot suvlar sifatining yomonlashuvida;
- radioaktiv ifloslanishning tarqalishida;
- havo havzasining ifloslanishi hamda iqlimning xavfli darajada o'zgarishida;
- oziq-ovqat mahsulotlari xavfli darajada ifloslanishida.

Ekologiya sohasida eng ko'p aniqlanadigan jinoyatlar jumlasiga odatda o'rmonni g'ayriqonuniy kesish, tuproq hamda o'simlik dunyosini ifloslantirish, hayvonot dunyosi ob'ektlarini noqonuniy ovlash kabilar kiradi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ushbu turdagi jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasi ayniqsa ortadi. So'nggi yillarda ekologiya sohasida yanada og'irroq oqibatlarga sabab bo'layotgan jinoyatlarning

<sup>1</sup> Ерофеев Б.В. Экологическое право России. – М., 1996. – С.279.

yangi turlari ko'payib borayotir. Bular: tiklanmaydigan tabiiy resurslarni talon-toroj qilish; qazib olingan mineral xom ashyodan g'ayriqonuniy foydalanish; inson uchun zararli oziq-ovqat mahsulotlari hamda boshqa iste'mol tovarlari olib kirish; O'zR hududida tabiiy muhit uchun zararli bo'lgan xorijiy texnologiya va ishlab chiqarishlarni joylashtirish.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar o'zining bir qancha muhim xususiyatlariga ko'ra iqtisodiy (tabiiy resurslardan g'ayrihuquqiy foydalanish), zo'rvonlik (inson sog'lig'iga bevosita shikast etkazish bilan bog'liq) yoki tamagirlik (g'ayriqonuniy ov, baliq ovlash) jinoyatlar hamdir, biroq o'z salbiy oqibatlarini, etkazadigan ziyon darajasiga ko'ra deyarli doim ulardan og'irroq hisoblanadi.

Ekologlar bergan ma'lumotlarga ko'ra, masalan, suv havzalari dioksin bilan zaharlanishining o'zidan Rossiyada har yili 20 ming kishi halok bo'lmoqda. Stratosferaning ozon qatlami ifloslanishi natijasida deyarli shuncha odam teri raki bilan kasallanadi<sup>1</sup>.

Ekologiya sohasidagi jinoyatchilik yashirinlik darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Bu sohada sodir etiladigan jinoyatlarning oz qismi statistikada aks ettiriladi. Bunda mazkur jinoyatlarning nafaqat yashirin, balki yashiriladigan qismi ham kattadir: aniqlangan jinoyatlar bo'yicha har yili qo'zg'atiladigan jinoyat ishlarining umumiy miqdori ular haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma'lum bo'lgan xabarlar soniga mos kelmaydi.

O'zR JKda ekologiya sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning ko'pgina tarkiblari uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Bunday javobgarlik o'rnatishning bosh maqsadi ekologiya sohasidagi jinoyatlarning sabablariga hamda ularga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlarga barham berishdan iborat.

Huquqni qo'llash amaliyotining tahlili jinoiy javobgarlik choralari asosan tabiiy resurslarni g'ayriqonuniy qo'lga kiritish bilan bog'liq jinoyatlar uchun qo'llanilishidan dalolat beradi. Atrof tabiiy muhitga zarar etkazish hamda aholining ekologik xavfsizligini buzuvchi jinoyatlar (suv havzalari, atmosfera havosini ifloslantirish va b.)-uchun jinoiy javobgarlik o'rnatuvchi normalar juda kam ko'llaniladi.

Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish hollari mulkdorlar tabiatni muhofaza qilish tadbirlari uchun mo'ljallangan xarajatlarni tejab qolishga harakat qilishi bilan izohlanadi. Korxonalarining rahbarlari va tadbirkorlar tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va amalga oshirishdan bo'yin tovlash, shuningdek ularni lozim darajada

<sup>1</sup> Криминология. – М., 1997. – С.517.

amalga oshirmaslikni ko'pincha bankrotlikdan saqlanish, ish joylarini saqlab qolish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirishga urinish bilan asoslashga harakat qiladi. Amalda bunday g'ayrihuquqiy harakatlar zahirida boshqa iqtisodiy sabablar – mavjud barcha, shu jumladan qonunda man etilgan usullar bilan mumkin qadar ko'proq boylik orttirishga intilish yotadi.

Ekologiya sohasidagi yangi jinoyatlar ham iqtisodiy sabablar bilan izohlanadi. Ko'pgina xorijiy firmalar sifatli yoki o'z mamlakatlarida taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa iste'mol tovarlarini sotish maqsadida O'zbekiston hududiga kirishga faol harakat qilmoqdalar.

### **18.3. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning sabablari va ularga imkoniyat yaratuvchi omillar**

Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikning sabablar majmuida ko'p sonli va rang-barang omillar o'zaro ta'sirga kirishadi. Umumiy va surunkali amal qiluvchi omillar inson bilan tabiatning o'zaro ta'sirlanish jarayoni, uning mazmuni va xususiyatini belgilovchi ijtimoiy munosabatlarga xos bo'lgan qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi. Bu qarama-qarshiliklarning aksariyati zahirida so'nggi yillarda mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar natijasida yuz berayotgan salbiy jarayonlar yotadi.

O'zbekiston rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tishi muayyan ijobiy natijalar bilan bir qatorda jamiyat, davlat va uning fuqarolari iqtisodiy va ekologik manfaatlari o'rtasida mutanosiblikning yo'qolishiga olib keldi, atrof tabiiy muhitning beqarorlashish jarayonlarini tezlashtirdi, ekologiya sohasida jinoyatlar sodir etishning yangi sabablari paydo bo'lishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Mazkur shart-sharoitlarning aksariyati ishlab chiqarish sohasida amal qiladi. Atrof tabiiy muhitni zararlantiruvchi korxonalar ishi uni muhofaza qilish uchun katta xarajatlar qilishni taqozo etadi. Ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari tabiatdan oqilona foydalanish talablariga rioya etmasdan, ishlab chiqarishning rentabelligini oshirishga harakat qilishi huquqbuzarlikka turtki beradi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikning umumiy sabablari inson va tabiat o'zaro ta'sirga kirishish chog'ida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklar sohasida yotadi. Bu qarama-qarshiliklar iqtisodiy beqarorlik sharoiti-

da ekologiya sohasida huquqqa xilof va ba'zan jinoyiy xatti-harakatlar uchun shart-sharoit yaratadi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarga doir jinoyat ishlarini o'rganish mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan ekologiya sohasidagi jinoyatlar hamda mansab mavqeiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan ekologiya sohasidagi jinoyatlarni ajratish imkonini beradi. Bu jinoyatlar qasd yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilishi, tamagirlik yoki boshqa xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

Ekologiya sohasida mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar odatda ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi, ularning natijasida ba'zan ekologiyaga juda katta, tiklab bo'lmaydigan zarar etkaziladi. Bu asosan ekologiya sohasida mansabdorlik jinoyatiga sabab bo'lgan qarama-qarshiliklar zahirida tashkiliy-boshqaruv yoki ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajarish yotishi bilan bog'liq. Rejalashtirish, taqsimlash, operativ boshqarish, tashkiliy tuzilmalar tashkil etish, nazorat, jamiyatning atrof muhit bilan o'zaro ta'sirini texnik-texnologik jihatdan hamda resurslar bilan ta'minlash vazifalari ayni shu sohada amalga oshiriladi.

Shunday qilib, ekologik jihatdan muhim qarorlar qabul qilish vakolatiga ega mansabdor shaxslar ko'p sonlidir. Mazkur shaxslarning ekologiya sohasidagi huquqqa xilof xulq-atvoriga quyidagilar salbiy ta'sir ko'rsatadi: ekologik ahamiyatga molik faoliyatda tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazishdan voz kechish hisobiga foydali qazilmalar va xom ashyo resurslari olishni arzonlashtirishga harakat qilish; tabiiy resurslarni qayta ishlash hamda ulardan foydalanishni asossiz ravishda soddalashtirish yoki tezlashtirish va h.k.

Ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlari hamda transportning atrof muhitni ifloslantirishda ishtirokini baholashga doir ma'lumotlarni keltirish mumkin. Birinchi o'rinni ko'p yillardan beri metallurgiya sanoati egallab keladi, uning faoliyatidan ifloslanish ulushi qariyb 40% ni tashkil etadi. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishida issiqlik elektrostansiyalarining ulushi – 30%, neft' qazib olish hamda kimyo sanoatining ulushi – 20%, avtomobil transportining ulushi – taxminan 10-15%, ishlab chiqarish boshqa tarmoqlarining ulushi – 7-10%.

Ekologiya sohasida jinoyatlar qasddan ham, ehtiyotsizlik orqasida ham sodir etilishi mumkin. Qasddan jinoyat sodir etuvchilarga xudbinlik, jamiyat manfaatlariga bepisandlik, ekologiya qonunchiligiga hurmatsizlik va hokazolar xos.

Ekologiya sohasida ehtiyotsizlik orqasida mansabdorlik jinoyatlari odatda engiltaklik, atrof muhitni muhofaza qilish masalalarini tartibga soluvchi qonunlarga hurmatsizlik, uquqsizlik, boshboshdoqlik va nazoratsizlik xos bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etiladi.

Ekologiya sohasida mansab mavqeiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar jumlasiga avvalo ov hamda baliq ovlash qoidalarini buzish, daraxtlar, boshqa o'rmon ekinlarini g'ayriqonuniy kesish kiradi.

Ushbu toifadagi jinoyatlarning umumiy sabablari jumlasiga quyidagilar kiradi: ovchilik, baliqchilik va boshqa faoliyat sohaslarini tartibga solishda mavjud jiddiy kamchiliklar; ehtiyojlarni qondirishning qonuniy vositalari lozim darajada rivojlanmaganligi; jinoiy faoliyatga nazorat choralari bilan samarali ta'sir ko'rsatilmasligi; ekologiya sohasidagi jinoyatlar uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan qonunchilik samarali qo'llanilmasligi (ayrim jinoyatchilarning jazosizligi) va h.k.

Sub'ektiv sabablar jumlasiga quyidagilar kiradi: ekologik va huquqiy ong darajasining pastligi; aholi ayrim guruhlarining mazkur jinoyatlarga befarqligi. Ko'rsatib o'tilgan jinoyatlarning sabablari huquqqa xilof faoliyat bilan shug'ullanishning ekologik-geografik shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liq. Bu asosan ov yoki baliq ovlash bilan faol shug'ullanish imkoniyati saqlangan hududlardir.

So'nggi yillarda ekologiya sohasidagi jinoyatlarning er osti boyliklarini g'ayriqonuniy qazib olish, dorivor giyohlar o'stirish kabi turlari ham rivojlanmoqda.

Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikning mansabdorlik bilan bog'liq bo'lmagan iqtisodiy shart-sharoitlari rang-barangdir. Ularning jumlasiga, yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, turmush darajasining pasayishi, ishsizlik, bepul yoki imtiyozli davolanish imkoniyatining yo'qolishi kiradi. Ayni shu sabablarga ko'ra brakon'erlik, erni shaxsiy ehtiyojlar uchun o'zboshimchalik bilan egallab olish, alohida muhofaza qilinadigan hududlar rejimini buzish keng tarqalmoqda. Bu jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida qonuniy tirikchilik manbalarini yo'qotib, ko'pincha qonunni buzishga majbur bo'lmoqdalar. Ammo bu jinoyatlarni tamagirlik niyatida sodir etuvchi shaxslar soni ham anchagina.

Ekologiya sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni qonun yo'li bilan tartibga solish asosan ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik faoliyati salbiy oqibatlarining oldini olishga emas, balki bu oqibatlar yuzaga kelganidan

so'ng ularni tugatishga qaratilganki, bu ekologik nuqtai nazardan ham, iqtisodiy nuqtai nazardan ham maqsadga muvofiq emas. Qonunchilikda ekologik cheklashlar hamda tabiatdan foydalanish rejimlari tizimi etarli darajada o'z aksini topmagan, qonunchilikni ekologiyani muhofaza qilishga yo'naltirish konsepsiyasi mavjud emas.

Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikka nazorat organlari hamda korxonalar mansabdor shaxslarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi faolligi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

#### **18.4. Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikning oldini olish choralari va asosiy yo'nalishlari**

Ekologiya jinoyatchiligining oldini olish umumiy choralarini amalga oshirish jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri sohasidagi ijtimoiy jarayonlarning natijalari bilan bevosita bog'liq. Ekologiya sohasidagi ijtimoiy munosabatlarda qonuniylik va huquqiy tartibot, qonuniy ekologik ong va xulq-atvorni shakllantirishga qodir uzoq muddatli antikriminogen ta'sir aynan makrodarajada shakllanadi. Bu jarayonlarni optimallashtirishda tabiatning ekologik ahamiyatga molik elementlariga bo'lgan barcha mulk shakllarining qonuniy mavjudligi muhim ijtimoiy muammosini hal qilish ulkan ahamiyat kasb etishi mumkin.

Barcha darajalarda antikriminogen jarayonlarning sub'ektlari jumlasiga quyidagilar kiradi: davlat, idoralar, korxonalar, jamoat tashkilotlari, ayrim fuqarolar.

Kriminologik jinoyatchilikni umumiy ogohlantirish sohasida xususan atrof muhitga faol ta'sir ko'rsatuvchi sanoat ishlab chiqarishini takomillashtirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, tabiatni avaylab asrashga qaratilgan optimal texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy choralar muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning antikriminogen ta'siri erlarning holati, ularning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yaroqliligi, hayvonot va o'simliklar olamining holati, suvlarning holati, ularning sanoat, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, jamoat va fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirishga yaroqliligiga ilmiy asoslangan munosabat bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Bunda inson xulq-atvori, inson mehnatining xususiyati, urf-odatlar, an'analar, o'zlikni anglash, o'ziga o'zi baho berish va hokazolarga ta'sir ko'rsatishga qodir geografik omillar, iqlim omillari va boshqa omillar hisobga olinishi shart.



Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat tuzilmalari huzurida tashkil etiladigan tegishli qo'mitalar va komissiyalar katta rol o'ynashi lozim.

Ijtimoiy va individual darajalarda ekologik-huquqiy ong (tafakkur)ni muttasil o'stirib borish ham muhim ahamiyatga ega. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oldini olish faoliyatining asosiy imkoniyatlari ayni shu vazifani echish bilan bog'liq.

Ekologik-huquqiy tarbiyani takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar jumlasiga quyidagilar kiradi: huquqiy ta'qiqlar bilan odamlarning ichki va tashqi kelishuvini ta'minlash; ekologiya sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi normalarni targ'ib qilish va ular haqida axborot berish; fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning mazkur huquqbuzarliklar bilan murosasizligini kuchaytirish.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning samaradorligi umumiy va maxsus profilaktika choralari faol qo'llashni nazarda tutadi.

Maxsus profilaktika choralari jumlasiga quyidagilar kiradi: ekologik ahamiyatga molik xulq-atvor, shu jumladan jinoyat-huquqiy taqiqlarga rioya etish ustidan nazoratni takomillashtirish; ekologiya sohasida aniqlangan huquqbuzarliklar haqida tegishli idoralarga axborot berish; maxsus rejim o'rnatish hamda texnologiya va boshqaruv vazifalari va jarayonlarini qayta qurish; ekologiya uchun zararli bo'lgan muayyan harakatlarni amalga oshirishni normativ yo'l bilan ta'qiqlash va h.k.

Ayrim tabiiy komplekslar, hududlar, uchastkalar, suv havzalari, atmosfera havosi, hayvonot olami, o'rmonlar va shu kabilar nazorat ob'ektlari hisoblanadi. Bundan tashqari, ayrim odamlar guruhlari va fuqarolarning xulq-atvori ustidan nazorat olib borish lozim.

Huquqni muhofaza qilish organlari, tabiatni muhofaza qiluvchi inspeksiyalar, jamoat tashkilotlari, mahkamaviy nazorat organlari nazorat sub'ektlari hisoblanadi. Nazorat usullari tabiiy ob'ektlar holatini bevosita kuzatish, reydlar, tekshiruvlar o'tkazish, ulardan g'ayriqonuniy foydalanishdan qo'riqlash, alohida rejim o'rnatish, ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarlik qurollarini olib qo'yish, huquqqa xilof harakatlarni to'xtatish va hokazolarni qamrab oladi.

Ekologiya sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalariga rioya etilishini nazorat qilish alohida o'rin egallaydi. Bular: tabiatni muhofaza qilish qonunchiligining ijro etilishini ustidan prokuror nazorati; ruxsat beruvchi tizim faoliyati; ma'muriy nazorat.

Prokuror taqdimnomasi, protesti va takliflari, sudlarning xususiy ajrimlari, ichki ishlar organlari, tabiatni muhofaza qiluvchi organlarning

axborotlari ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning samarali choralaridir.

Tabiatni muhofaza qilish masalalarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish muhim profilaktik ahamiyatga ega. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurash qonunlarga hamda ularga muvofiq qabul qilingan qonun osti hujjatlariga binoan va ularning doirasida olib boriladi. Bu qonun hujjatlarida ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oldini olish harakatlari atroflicha bayon etilgan, ekologiya sohasida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan muhim tadbirlarni o'tkazish yuzasidan ko'rsatmalar berilgan. Ular ekologiya sohasidagi jinoyat alomatlarini bo'lgan faktlarga doir materiallarni milisiya va prokuratura organlariga topshirish tartibini belgilaydi.

Tabiatni muhofaza qilish faoliyatining huquqiy negizlarini muttasil takomillashtirish ekologiya sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurash samardorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bu yo'nalishda Respublikamizda qonun ijodkorligi ishlari olib borilmoqda, bu jinoyatlarga qarshi kurashda ko'maklashishga qodir bo'lgan yangi normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va qabul qilish, amaldagilarini esa takomillashtirish uchun qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, jamoat birlashmalari, olimlar va tadbirkorlar kuch-g'ayratini birlashtirish choralari ko'rilmoqda.

Ekologiya sohasidagi turli muammolarni echishni huquqiy jihatdan ta'minlash topshirig'ini nazarda tutuvchi davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari ham ekologiya sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy negizini mustahkamlashga ko'maklashadi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ilmiy-amaliy konferensiyalar, kengashlar, davra suhbatlari ham muhim rol o'ynaydi. Ular turli soha mutaxassislarining kuch-g'ayratini birlashtiradi, huquqni muhofaza qiluvchi va huquqni qo'llovchi organlarning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirishni yanada yaxshilaydi. Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi organlar tizimida ixtisoslashgan tabiatni muhofaza qilish prokuraturasi muhim rol o'ynashini inobatga olgan holda, prokuratura tizimida bu borada ixtisoslashgan prokuratura organlarini tashkil etish lozim deb hisoblaymiz.

Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash mustahkam huquqiy negizga ega bo'lishi kerak. Masalan, ekologiya sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarligini oshirish bilan bog'liq barcha muhim qoidalar bir maxsus qonunda jamlansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashda u hayotning biologik asoslariga, insonning salomatligi va rivojlanishiga amalda xavf tug'dirishini doimo yodda tutish muhimdir.

## **19-mavzu. SOLIQ JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI VA UNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI**

1. Soliq jinoyatchiligi tushunchasi va uning kriminologik tavsifi
2. Soliq jinoyatchiligining dinamikasi.
3. Soliq jinoyatchiligi sabablari va uni belgilovchi shart-sharoitlar xususiyati.
4. Soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish.

### **19.1. Soliq jinoyatchiligi tushunchasi va uning kriminologik tavsifi**

«Soliq jinoyatchiligi» tushunchasi soliq solish bilan bog'liq jinoyatlar majmuiga nisbatan qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining hozirgi soliq tizimini belgilovchi qonun hujjatlari 1991 yilda qabul qilingan, shu bois nisbatan yangi, muttasil o'zgaruvchi qonun hujjatlari jumlasiga kiradi. Soliq sohasidagi asosiy qonunlar: 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonun, 1997 yil 29 aprelda qabul qilingan va 1998 yil 1 yanvardan qonuniy kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan, soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar deganda, soliq to'lovchilar belgilangan tartibda tegishli darajadagi byudjetga yoki byudjetdan tashqari fondga kiritadigan majburiy badallar tushuniladi. Soliqning mohiyati yalpi ichki mahsulotning muayyan qismini davlat majburiy badal tariqasida o'z foydasiga olib qo'yishidan iborat.

Belgilangan tartibda undiriladigan barcha soliqlar majmui soliq tizimini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining hozirgi soliq tizimi o'n beshdan ortiq har xil soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z ichiga oladi. Ular ikki guruhga ajratiladi: umumdavlat soliqlari; mahalliy soliqlar va yig'imlar. Byudjetga soliq tushumlarining eng katta ulushi qo'shilgan qiymat solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslar, qonun hujjatlariga binoan soliq to'lash majburiyati yuklangan boshqa toifadagi shaxslar soliq to'lovchilar yoki soliq sub'ektlari hisoblanadi. Bular: korxonalar va tashkilotlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investisiyalari ishtirokida tashkil etilgan korxonalar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xalqaro birlashmalar va tashkilotlar, alohida balans va hisobvaraqqqa ega bo'lgan moliyaviy va boshqa shunga o'xshash korxonalar va tashkilotlarning bo'linmalari.

Soliq to'lovchilar belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organlarida ro'yxatdan o'tishi, soliqlar va yig'implarning tegishli summasini o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lashi, buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritishi, moliyaviy hisobotni, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to'g'risidagi deklarasiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etishi shart.

Soliq jinoyatlariga qarshi kurashish uchun jinoyat qonunchiligi 1994 yil 22 sentyabrda JKning 184-moddasi «Soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash» bilan to'ldirildi. Ushbu moddaning birinchi qismiga binoan, foyda (daromad) yoki soliq to'lanadigan boshqa ob'ektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko'rsatish, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig'implarni, boj yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlash, basharti to'lanmagan summa ancha miqdorni tashkil qilsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay olti oygacha qamoq bilan jazolanadi. 184-moddaning ikkinchi qismiga binoan, o'sha qilmishlar takroran yoki ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan etmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. 184-moddaning uchinchi qismiga muvofiq, xuddi shunday qilmishlar juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining shakllanishi soliq jinoyatlari soni o'sib borayotgan sharoitda yuz bermoqda. Mutaxassislarining baholashicha, soliq to'lashdan bo'yin tovlash natijasida har yili davlat byudjetiga soliq to'lovlarining qariyb yarmi kelib tushmayapti.

Soliq jinoyatlari dinamikasining tahlili ular jadal sur'atlarda o'sib borayotganligidan dalolat beradi. Bunda shuni qayd etish lozimki, ro'yxatga olingan jinoyatlar sonining ko'payganligi ma'lum darajada soliq xizmati faoliyatining takomillashuvi va faolashuvi bilan bog'liq.

## 19.2. Soliq jinoyatchiligining dinamikasi

Soliq jinoyatchiligining tarkibiga nazar tashlasak, unda soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash bilan bog'liq jinoyatlar ulushi ancha katta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu har xil sabablarga ko'ra davlat byudjetiga soliq to'lashni istamaydigan mulkdorlar soni ko'payib borayotganligi bilan izohlanishi mumkin. Ayni vaqtda, statistika ma'lumotlari soliq jinoyatchiligi miqyosini to'liq aks ettirmaydi. Ushbu jinoyatlar yashirinlik darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Soliq xizmati mutaxassislari baholashicha, jinoyatlarning asosiy qismi aniqlanmaydi, ularning soni esa yanada ko'payishi mumkin.

Statistika soliq sohasidagi jinoyatlar odatda daromad solig'ini hisoblash va to'lash tartibini buzish (jami soliq jinoyatlarining 43%), qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini buzish (28,4%), yo'l fondiga to'lanadigan soliqlarni hisoblash va to'lash tartibini buzish (6,7%), jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlarni hisoblash va to'lash tartibini buzish (3,7%), aksiz solig'ini hisoblash va to'lash tartibini buzish (1,2%) bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Soliq jinoyatlari mulk shaklidan qat'i nazar, turli korxonalarda sodir etiladi. Biroq, shuni qayd etish lozimki, xususiy mulk shakliga asoslangan korxonalarda jami soliq jinoyatlarining 80% ga yaqini aniqlanadi. Soliq jinoyatlarining tarqalganligi soliq sohasidagi huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoiy bo'lmagan harakatlar bilan ham bog'liq.

Soliq sohasida aniqlangan jinoyatlar soni xo'jalik yurituvchi korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 69,8%, davlat va munisipal korxonalar – 12,3%, individual-xususiy korxonalar – 3,9%.

Mazkur holat shu bilan izohlanadiki, xususiy mulk shakliga asoslangan korxonalarda boshqaruv hamda ichki nazoratni amalga oshirish huquqiga, odatda, cheklangan doiradagi shaxslar ega bo'ladi. Bunday korxonalarda rahbar organlarni ularning amaldagi egalari boshqaradi, lozim darajada nazorat olib borilmaydi.

Soliq jinoyatlari sonining korxonalar faoliyat sohasi bo'yicha taqsimlanishi ham diqqatga sazovor: oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi korxonalar – 24%, xalq iste'moli tovarlari bilan savdo qiluvchi korxonalar – 16%, xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi korxonalar – 12%, moliya-kredit operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalar – 9%, ko'chmas mulk bilan savdo qiluvchi korxonalar – 8%, temirni qayta ishlovchi korxonalar – 8%.

Shunday qilib, soliq jinoyatlarining aksariyati savdo sohasida sodir etiladi. Soliq jinoyatlarini sodir etishning aniqlangan usullarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobi hujjatlarida to'liq yoki qisman aks ettirmaslik.
2. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni buzib ko'rsatib, soliq solinadigan baza miqdorini kamaytirish.
3. Soliq solish ob'ektini buzib ko'rsatish (realizatsiya qilingan mahsulot qiymati yoki hajmini kamaytirib ko'rsatish; soliq solish ob'ektini soxtalashtirish).
4. Iqtisodiy ko'rsatkichlar hisobini yuritish tartibini buzish.
5. Moliya-xo'jalik faoliyatini soliq organlari nazorati ostidan chiqarish (soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazmaslik, soliq organlariga xabar bermasdan banklarda qo'shimcha hisobvaraqlar ochish).

Soliq jinoyatlari sodir etuvchi shaxslarning kriminologik tavsifi haqidagi ma'lumotlar ham diqqatga sazovor. Bunday shaxslarning kriminologik surati umumjinoiy qilmishlar sodir etuvchi shaxslarning kriminologik suratidan sezilari darajada farq qiladi.

Har yuz jinoyatchidan 74 tasi – erkaklar, bu holat korxonalarining rahbarlari orasida erkaklar ko'pchilikni tashkil etishi bilan izohlanadi. Soliq jinoyatlari sodir etuvchi shaxslar orasida ayollar odatda buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot taqdim etish bilan bog'liq lavozimlarni egalaydi.

Soliq jinoyatlari sodir etuvchilarning o'rtacha yoshi uncha katta bo'lmay, 38 yoshni tashkil etadi. Soliq jinoyatlarining 20% 21-30 yashar shaxslar tomonidan, 36% – 31-40 yashar shaxslar tomonidan, 36% – 41-50 yashar shaxslar tomonidan, 8% – 51 yoshdan katta shaxslar tomonidan sodir etilgan.

Soliq sohasidagi jinoyatchilar ma'lumot darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Soliq jinoyatlari sodir etgan shaxslarning 58% oliy yoki tugallanmagan oliy ma'lumotga va hatto ilmiy darajaga, 22% – o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan. Bu tabiiy holdir, chunki buxgalteriya

hisobini yuritish, hisobot taqdim etish uchun javobgar shaxslar tegishli ixtisoslik va malakaga ega bo'lishi kerak. Soliq jinoyatchilari orasida ilgari sudlangan shaxslar ulushi 7% ni tashkil etadi.

Soliq jinoyatlari uyushganlik xususiyatiga ega emas. Guruhiy jinoyatlar soliq jinoyatlari umumiy sonining 10% dan ham kam. Odatda guruh a'zolari soni ikki kishidan oshmaydi hamda rahbar va bosh buxgalterdan iborat bo'ladi. Ayrim hollarda ishtirokchilar rolini rahbar o'rinbosari, kassir, omborchi, mahsulot jo'natuvchi kabilar ham bajarishi mumkin.

Soliq jinoyatlari sodir etishdan maqsad to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar miqdorini kamaytirish yoki soliq to'lash majburiyatini bajarishdan to'liq bo'yin tovlash, yashirib qolingan mablag'larni o'zlashtirishdan iborat bo'ladi.

Soliq jinoyatchilari asosan tamagirlik niyatida harakat qiladi, biroq amalparastlik motivlari, o'z korxonasining mehnat jamoasi taqdiri haqida o'ylash, burchni noto'g'ri tushunish, boshqa motivlar uchrashi ham mumkin.

### **19.3. Soliq jinoyatchiligi sabablari va uni belgilovchi shart-sharoitlar xususiyati**

Soliq jinoyatchiligi sabablari va uni belgilovchi shart-sharoitlar umumiy jinoyatchilik bilan bog'liq shunday jarayonlardan farq qiladi. Jahon tajribasi ham soliq jinoyatchiligi bozor munosabatlari, xususiy mulk va tadbirkorlik bilan chambarchas bog'liqligidan dalolat bermoqda.

Xususiy mulk shakliga asoslangan korxonalar soni ko'payishi bilan davlat va jamiyat manfaatlari bilan shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar miqyosi o'sib boradi. Soliqlar byudjet daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Byudjet xarajatlarining o'sishi, inflyasiya jarayonlari davlatni soliq yukini oshirishga majbur qiladi. Biroq, O'zbekistonda islohotlar davrida aksariyat korxonalar eskirgan asbob-uskuna va texnologiyalardan foydalanar, aylanma vositalarg taqchilligini his qilar, o'zining raqobatbardosh bo'lmagan mahsulotini ichki va tashqi bozorlarda sotishga qiynalar edi. Bularning barchasi o'zaro to'lovlarning amalga oshirilmaligi va soliq to'lash imkoniyatining kamayishiga sabab bo'lardi.

Qonun hujjatlariga muntazam o'zgartirishlar kiritilishi qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirardi. Har xil mulk shakllariga mansub yirik korxonalarining rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan maxsus so'rovlar respondentlarning 4% dan ko'prog'i milliy soliq tizimimizni samarali emas deb hisoblashini

ko'rsatdi. Rahbarlarning 80% ga yaqini mavjud soliq tizimi iqtisodiy tanglikdan chiqish va bozorning shakllanishiga qulay shart-sharoit yaratmaydi, deb hisoblaydi. Aksariyat tadbirkorlik fikriga ko'ra, mavjud soliq tizimi investisiyalarning kelishiga to'sqinlik qiladi, inflyasiyani kuchaytiradi, tarkibiy o'zgarishlarga monelik qiladi, soliq to'lashdan bo'yin tovlashga turtki beradi.

Biroq, shunga qaramay, soliq jinoyatchiligining axloqiy- psixologik omili ko'p jihatdan ko'rsatilgan holat bilan emas, balki aybdorlarning soliq tizimiga salbiy munosabati, huquqiy madaniyat darajasining pastligi, tamagirlik niyatining kuchliligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi hozirgi ko'rinishda 1991 yildan keyin shakllandi, holbuki, aksariyat xorijiy mamlakatlarda soliq solish institutining tarixi asrlar bilan o'lchanadi. Bu mamlakatlarda soliq to'lovchilar o'zlari to'lagan soliqlar qaysi maqsadlarga yo'naltirilishini yaxshi biladilar, soliq to'lash tartibi hamda soliq majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralaridan xabardorlar. Soliq to'lashdan bo'yin tovlashchi shaxslar davlat va jamiyat tomonidan qoralanadi.

Soliq jinoyatchilari orasida xufyona iqtisodiyotning sobiq korchaloni, mansabdor shaxslar va jinoyatchilar bisyor. Ularning aksariyati moddiy ehtiyojlarining kattaligi, boyluk orttirishga intilishining kuchliligi bilan tavsiflanadi. Soliq to'lashdan bo'yin tovlashga ular o'z maqsadiga erishish usullaridan biri sifatida qaraydi.

Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, soliq jinoyatlarining bir qismi korporativ, guruhiy manfaatdorlikka asoslanadi. Soliq organlaridan yashirilgan mablag'lardan korxonalarining rahbarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, kreditlarni qaytarish, xodimlarga maosh to'lash uchun ishlatgan hollar ma'lum. Bu erda o'z korxonasining moliyaviy holatini yaxshilashga va shu yo'l bilan uning daromaddorligini oshirishga intilish kuzatiladi. U korxonalar, ularning xodimlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosatida kamchiliklar mavjud bo'lgan, ayniqsa, ularga ishsizlik, maoshning o'z vaqtida to'lanmasligi tahdid solgan holda yuzaga keladi va amalga oshiriladi.

#### **19.4. Soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish**

Soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish turli darajalarda va bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi lozim. Umumdavlat darajasida iqtis-



odiy barqarorlikni ta'minlash, ishlab chiqarishni yuksaltirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning to'lov qobiliyatini oshirish muhimdir.

Soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish tizimida huquqiy asoslari takomillashtirish alohida o'rin egallaydi. Soliq tizimining erkinlashtirilishi natijasida yuz berishi kutilayotgan o'zgarishlar mahalliy soliqlar sonining kamayishi, tushumdan to'lanadigan barcha soliqlarning bekor qilinishi, daromad solig'i stavkasining pasayishi va boshqa muhim o'zgarishlar bilan bog'lanmoqda.

Soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda soliq inspeksiyalari muhim rol o'ynashi mumkin. Ular maslahat faoliyatini takomillashtirishi, soliq to'lovchilarga soliqlar miqdori va ularni to'lash tartibiga doir masalalarni echishda yordam berishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati O'zbekistonda soliq jinoyatchiligiga qarshi kurash olib boruvchi huquqni muhofaza qilish organi hisoblanadi. U o'z faoliyatini «O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiradi. Ushbu Qonunga muvofiq soliq xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;

2) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish;

3) soliq siyosatining ro'yobga chiqarilishida bevosita qatnashish;

4) soliqqa tortiladigan ob'ektlar va sub'ektlarning to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash;

5) soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

Fuqarolar va tadbirkorlarda soliqlar bo'yicha madaniyatni shakllantirish zarurligi soliq nazorat organlariga maxsus profilaktika tadbirlari o'tkazish majburiyatini yuklaydi. Maxsus ommaviy axborot vositalari, avvalo gazeta va jurnallar soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishni targ'ib qilishga yaqindan yordam beradi. Bu nashrlarda soliq tizimini isloh qilish, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, soliqlar bo'yicha madaniyatni shakllantirish masalalariga doir materiallar muntazam e'lon qilib boriladi.

Soliq to'lovchilarni tarbiyalash ishida televidenie juda katta rol o'ynaydi. Soliq to'lovchilarni qonunga bo'ysunish ruhida tarbiyalash, soliq

sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoatchilikda insofsiz soliq to'lovchilarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishda soliq xizmati organlari bilan ommaviy axborot vositalari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – usutvor vazifamizdir. T.: O'zbekiston, 2007. – B.40.
2. Karimov I.A. O'zbekiston – o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992, 78 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997, 86 b.
4. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.: O'zbekiston, 1997, 312 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston, 1999, 48 b.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2000.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2000.
8. Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. Toshkent, 2001.
9. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. T.: O'zbekiston, 2004. Tom 12.
10. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. Xalq so'zi. 2005 yil 20 yanv.
11. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 2005 yil 29 yanv.
12. Karimov I.A. Eskicha qarashlar va yondashuvlar bilan yangi hayot qurib bo'lmaydi. Xalq so'zi. 2005 yil 18 fev.
13. Абдусаломов М., Каракетов Ю. Ответственность за вымогательство. Т.: 1997. – С.7.
14. Абдухалимова М. и др. Проблемы защиты прав женщин против насилия в Наманганской области. //Ж. Женщины Центральной Азии. 2001, Спец. выпуск. –С. 66.
15. Абызов Р.Л. Прогнозирование преступного поведения я методические основы индивидуальной профилактики преступлений: Автореф. дис... канд. юрка. наук. М., 1980. -С. 9.
16. Агафонов КЛ. Рецидив преступлений: Автореф. дис... канд. юрид. наук. М., 1974. -С. 9.
17. Алиев Н.Б. Повторность и рецидив преступлений по советскому уголовному праву. Махачкала, 1978. -С. 68-69.
18. Ахроров А. ва бошқалар. Жиноят ижроия ҳуқуқи. Т.: Ўқитувчи, 2002. -Б. 40.
19. Блувштейн Ю.Д. О некоторых закономерности рецидивного поведения (модель "эволюции" рецидивной преступности) // Сб. научных работ ЛитНИИСЭ. Вильнюс, 1980. Вып. б. -С. 198.
20. Борьба с групповыми правонарушениями несовершеннолетних. Киев, "Наукою думка", 1982.

21. Борьба с вовлечением несовершеннолетних в преступную деятельность. – Киев, "Наукова думка" 1986. -С. 154-186.
22. Бородин С.В. Ответственность за убийство: квалификация и наказание по российскому праву. –М.: Юрист, 1994. –С. 192-193.
23. Бузынова С.П. Уголовно-правовое понятие рецидива и его виды // Проблемы уголовно-правовой борьбы с преступностью. М., 1989. -С. 35.
24. Галиакбаров Р., Ефимов Е. Множественность преступных деяний как институт советского уголовного права // Советская юстиция. 1967. № 2. - С. 5.
25. Гуров А.И. Профессиональная преступность. Прошлое и современность. М., 1990.- С. 9.
26. Голик Ю.В. Личность случайного преступника: криминологические и уголовно-правовые проблемы: Автореф. канд. юрид. наук. Томск, 1982.- С. 9.
27. Горбатовская Е.Г., Кононов А.И., Юпкина Е.М. Личность рецидивистам использование данных о ней в деятельности прокуратуры. М., 1987. -С. 12-21.
28. Гришанин П.Ф. Социально-правовые проблемы борьбы с рецидивной преступностью. М., 1981. -С. 5.
29. Джекебаев У. Основные принципы уголовного права Республики Казахстан (сравнительный комментарий к книге Дж.Флетчера и А.В.Наумова. «Основные концепции современного уголовного права»). Алматы: Жегі жары, 2001. –С. 54.
30. Дагель П.С. Учение о личности преступника в советском уголовном праве. Владивосток, 1972. -С. 122-131.
31. Долгова А.И. Криминологические проблемы взаимодействия социальной среды и личности: Автореф. докт. юрид. наук. М., 1980. -С. 18-19.
32. Долгова А.И., Ермаков ВД Вопросы методика разработан классификации несовершеннолетних преступников и ее основания// Типология личности преступника и индивидуальное предупреждение преступлений. М., 1979. – С. 64.
33. «Жизнь. Как она возникла? Путем эволюции или путем творения?», 1992. -С. 224.
34. Закон о борьбе с коррупцией поможет взяточникам, а не обществу. // Ж. Известия 1993 г. 11 августа.
35. Зарипов З.С., Исмаилов И. Криминология. –Т., 1996. –Б. 226.
36. Зелинский А.Ф. Рецидив преступлений: структура, связи, прогнозирование. Харьков, 1980. -С. 6.
37. Зокирова О. Рашк мотиви билан содир этиладиган жиноятларга қарши кураш муаммолари. Т.: ТДЮИ, 2004. –Б. 100.
38. Зубков А.И. Психологические проблемы организации перевоспитания осужденных// «Юридический психология». М., 1983. –С. 190.
39. Зуфаров Р.А. Криминологическая характеристика взяточничества // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. №3 (11), 2002. -Б. 43.
40. Ефимов М.А., Шкурко В.А. Рецидивная преступность и ее предупреждение. Минск, 1977. – С.7.

41. Иващенко А.В. Многократные рецидивисты, не признанные особо опасными; криминологический и уголовно-правовой аспект: Автореф. дис.... канд. юрид. наук. Томи, 1986. –С. 9.
42. Игошев К.Е. Основные аспекты и виды типизации личности преступника // Советское государство и право. 1975. № 6. –С. 66.
43. Кадыров А. Отягчающие обстоятельства и индивидуализация наказания по уголовному законодательству Республики Узбекистан. – Ташкент, Шарк, 1995. -С. 140-149.
44. Каракетов Ю.М. С учетом общественного мнения // Народное слово, 1994 г. 5 мая.
45. Карпец И.И. Проблема преступности. М., 1969, –С. 113-115.
46. Караев Т.Э. Повторность преступлений. М., 1983. –С. 29
47. Кинге Х. Понятие рецидива преступления в уголовном праве и криминологии // Труды по правоведению. Тарту, 1975. –С. 60-61.
48. Ковалев А.Г. Психологические основы исправления правонарушителя. М., 1968. –С. 48-51.
49. Курганов СИ. Взаимосвязь нравственного сознания и преступного поведения несовершеннолетних: Автореф. дис.... канд. юрид. наук. М., 1984. –С. 10-13.
50. Кузнецова Н.Ф. Преступление и преступность. М., 1969. –С. 179.
51. Қодиров А. Жазони оғирлаштирувчи ҳолатлар. Т.: Адолат, 1998. –Б. 116.
52. Кафаров Т.М. Проблемы рецидива в советском уголовном праве. СПб. Баку, 1972.
53. Кривошеин П.К. Повторность в советском уголовном праве: Автореф. дис...докт. юрид. наук. М., 1990. –С. 23.
54. Кудрявцев В.Н- Обхая теория квалификации преступлений. М., 1972. –С. 312.
55. Кузнецов Н.Ф. Проблема криминологической детерминации. М., 1984, –С. 69.
56. Кунашев А.Х. Уголовная ответственность за рецидив преступлений по советскому уголовному праву: Автореф. дис.... канд. юрид. наук. М., 1970,- С. 4.
57. Лейкина Н.С. Личность преступника и уголовная ответственность. Л., 1968, –С. 115.
58. Малков В.П. Множественность преступлений и её формы по советскому уголовному праву. Казань, 1982. –С. 91.
59. Мерген А. Первое правонарушение // «Lugend und DeUnquet», 1988. –С. 195.
60. Механизм преступного поведения. М. 1981. –С. 30.
61. Михайлов А.Е. Роль личностных факторов в механизме насильственных преступлений: Автореф. дис.... канд. юрид. наук. Киев, 1989. –С. 14-15.
62. Михлин А.С., Иванова А.Т. Об однородном рецидиве и сочетании различных преступлений у судимых лиц // Труды ВНИИ МВД СССР. М., 1975. № 36. –С. 47-56.
63. Михлин А., Рамазин С. Пути совершенствования законодательства о борьбе с рецидивом //Социалистическая законность. 1984. № 3. –С. 73.

64. Михлин А.С. Личность осужденных к лишению свободы и проблемы их исправления и перевоспитания. Фрунзе, 1980. -С. 33.
65. Нарбутаев Э. Уголовная политика: исходные критерии и построения. // Хукук. Право. Law. 2004. № 1 (25). –С. 74.
66. Нарбутаев Э.Х. Борба с преступностью: Закон и практика. Ташкент, Мехнат, 1991. –С. 195.
67. Никифоров А.С. Совокупность преступлений. М., 1965. -С. 16.
68. Обзор опыта зарубежных стран по оказанию гуманитарной помощи и социальной адаптации лицам, отбывшим уголовное наказание. Управление профилактической службы МВД СССР. №16/3-301 от 21 мая 1991 г.
69. Паныко К.А. Рецидив преступлений и механизм правового регулирования ответственности рецидивистов: Автореф. докт. юрид. наук. Киев, 1989.- С. 21.
70. Паше-Озерский Н.Н. Общественность в борьбе за предупреждение рецидива // Роль общественности в борьбе с преступностью. Воронеж, 1960. -С. 185.
71. Пенитенциарные системы зарубежных стран. Киев, 1993.
72. Попов В.И. Особо опасный рецидив и его предупреждение органами внутренних дел. Киев, 1975.- С. 11.
73. Ражабова М. Шариатда жиноят ва жазо. Т.: Адолат, 1996. –Б. 83.
74. Рецидивная преступность: понятие к криминологическая характеристика. Рига, 1983. -С. 94.
75. Сахаров А.Б. Личность преступников и типология преступников // Социалистическая 1973. №3. –С. 22-24.
76. Собиров М.С., Шомуротов Ш. Бозор муносабатлари шароитидаги иктисодий жиноятлар, уларнинг кичкача криминологик тавсифи ва олдини олиш йўллари. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1999. – Б.21.
77. Стручков НА. Проблема личности преступника: Лекции по криминологии. Л., 1983. -- С. 60-63.
78. Стручков Н. А., Шупилов В. П. Исполнение уголовного наказания в капиталистических странах. М., 1979. – С. 73-74.
79. Таджиев Э.А. Понятие и уголовно-правовое значение обстоятельств, смягчающих наказание. Т: 2003. 45 б.
80. Ткачевский Ю.М. Досрочное освобождение от наказания. М., 1962. -С.49
81. Трайнин А.Н. Уголовное право. Часть обхя. М., 1929. -С. 288.
82. Усмоналиев М. Жазо тайинлаш. Т.: Янги аср авлоди, 2003, -Б. 35.
83. Усмоналиев М. Судланганлик унинг хукукий окибатлари ва либераллаштириш муаммолари. Т.: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 33.
84. Усмоналиев М. Ўзбекистон Республикасининг жиноят хукукида ахлок тузатиш ишлари. Т.: ТДЮИ, 2003. –Б. 36.
85. Усмоналиев М., Каракетов Ю. Криминология. –Т.: Янги аср авлоди. 2001. –Б. 247-248.
86. Утевский Б.С. Основные вопросы советской науки исправительно-трудового права //Советское государство а право. 1987. № 3. -С. 38-39.

87. Филонов А.Б. Детерминация возникновения и развития отрицательных черт характера у лиц с отклоняющимся поведением // Психология формирования и развития личности. М., 1981. С. 338-361.
88. Филимонов В.Д. Общественная опасность личности преступника. Томск, 1970.
89. Халматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. Т.: Ўзбекистон, 2000, -Б. 91-92.
90. Чукмаитов Д.С. Проблемы взаимодействия личности и социальной среды во время отбывания // Право и государство, № 6. 1997. С. 12-23.
91. Чукмаитов Д.С: Влияние первого преступления на последующую противоправную деятельность рецидивистов. М. 1994.
92. Шестаков Д.А. Семейная криминология. СПб., 1996. 72 с.
93. Шестаков Д.А. Супрежеское убийство, как общественная проблема. Санк петербург. Изд-во. С.Петербургское Университета. 1992.- С.68.
94. Шерозия А.Е. К проблеме создания и бессознательного психологического. Опыт интерпретации и изложения общей теории. Тбилиси, 1973. Т. 2. -С. 468.
95. Шляпочников А. Некоторые вопросы борьбы с преступностью // Советская юстиции. 1957. №3. –С. 41.
96. Шмаров В.И. Предупреждение преступлений среди освобожденных от наказания. М., 1974. -С. 34-41.
97. Яковлев А.М. Борьба с рецидивной преступностью. М., 1964. -С. 109.

**Q.R.Abdurasulova**

## **KRIMINOLOGIYA**

Muharrir  
Texnik muharrir  
Kompyuterda  
sahifalovchi

***R.Jomonov.***  
***D.Isamuhamedova.***  
***A.Hudaybergenova.***

Bosishga: 18.06.2007 yilda ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 60 x 84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Bosma tabog'i 13,5. Nashriyot hisob tabog'i 14,5. Adadi 1000 nusxa.  
1056 -sonli buyurtma. Narxi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi «Adolat» nashriyoti.  
Toshkent shahri, 100170, A.Muhiddinov ko'chasi, 26-uy.

ISBN 978-9943-332-22-5



9 789943 332225



